

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

BERDI KERBOBOYEV
QAYUM TANGRIQULIYEV
ORAZ YAG‘MUR







BERDI KERBOBOYEV

QAYUM TANGRIQULIYEV

ORAZ YAG‘MUR





“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.164-3
KBK 84(5Tur)
B 55

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Bahodir Karim, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Bahodir Karim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.


Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8721-3-4

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

BERDI KERBOBOYEV





BERDI KERBOBOYEV
(1894—1974)

Turkmaniston xalq yozuvchisi Berdi Kerboboyev 1894-yili hozirgi Axal viloyatining Tajan tumaniga qarashli Qavqi-Zarang qishlog'ida tug'ilgan. Zamonaviy turkman adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan adib Buxorodagi madrasada tahsil olgan, keyinchalik Leningrad universitetining sharq fakultetida o'qiydi.

Turkman xalqining tarixi va ijtimoiy turmush tarziga bag'ishlangan "Dadil qadam", "Nebitdog'" ro'manlari mashhur. "Hurliqo va Hamro", "Vatanga muhabbat", "Qardoshlar", "Maxtumquli" kabi sahna asarlari yozgan.

"Bayram", "Botir", "Qurbon Durdi", "Oysulton", "Qarshi quda" kabi qissalarida turkman millatining hayot tarzi, urf-odatlari o'z ifodasini topgan. Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'zbek adiblarining asarlarini turkmanchaga tarjima qilgan. Adibning ko'plab asarlari o'zbek tilida nashr bo'lgan.

QARSHI QUDA
(Qissa)

1

Bu voqea taxminan bundan o‘n besh yillar oldin Tajanning uzoq bir qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan edi...

O‘rta bo‘yli, cho‘qqi soqolli, qoramag‘izdan kelgan, dumaloq yuzli Cherkaz oqvakil urug‘idan bo‘lib, o‘zi zo‘rg‘a kun kechiradigan jo‘jabirday jon, g‘arib bir dehqon edi. Yer-suvdan ulush olayotgan bo‘lsa-da, bo‘ynini g‘ozday kerib, qadamini keng tashlashga qurbi yetmasdi. Bir yili urug‘ topa olmay, yerga sepdingmi-sepdim deganday ozgina g‘alla sochsa, ba’zan urug‘ topgan yillari suv ham yetmay qolardi. Xullas, har yili dehqonchilik qilib, xotini, voyaga yetgan o‘g‘li bilan birgalikda mehnat qilganlariga qaramay, hech qachon ortiqcha biror narsa orttira olmay, bu yildan keyingi yilga it azobida zo‘rg‘a sudralib yetib olardi.

Oiladagi katta o‘g‘il Durdi voyaga yetganiga ancha vaqt bo‘lgan esa-da, Cherkaz o‘g‘lini uylantirishga imkoniyat topolmasdi. Eh-he, to‘y qilish oson ekanmi?

Kelin olmoqchi bo‘lsang, uning uchun qalin to‘lash lozim. Yilda bir marta ust-boshini yangilay olmagan oilaning esa yeydigan non-oshi qiyinchilik bilan topilardi. Uning o‘g‘lini uylantirish uchun birdan-bir ishonchi, faqat birgina ko‘z tutgani — ikkinchi o‘g‘li Saxiydan keyingi Ajab ismli qizi. Cherkazning o‘yi shu ediki — o‘n ikki yashar Ajab hali voyaga yetishi kerak, so‘ngra uni erga berish kerak, ana undan keyin, nasib qilsa, Durdiga kelin izlash kerak... Bu o‘yning davomini o‘ylashga esa Durdining sabr-toqati yetmasdi. Uning tengqurlari allaqachon yo‘lini topib uylanishgan, hatto bir nechalari alohida uyli-joyli, o‘g‘il-qizli bo‘lishgandi. Durdi esa haligacha bo‘ydoq yuribdi.

Durdi soqolini qaychi bilan qirqavergani sababli, iyagining past tomonlarini g'uj-g'uj qora chumoli bosganday soqol, o'ziyam qop-qora rangli bir yigit. Tovlangan mo'ylovi ikkala yonog'ining suyagigacha borib yetgan. Qoshlarining orasi biroz ochiq bo'lgani uchun, qora ko'zlari yana-da katta va o'tkir tuyuladi. Keyingi paytlarda o'sha ko'zlarda qandaydir norozilik, qanaqadir qoniqmaslik alomatlari ko'rina boshlagan...

Durdining kayfiyati yomonligi oila a'zolarining barchasiga ayon edi. U chakmonini yelkasiga tashlab, telpagini qiyshiq kiyib, kundan kunga jahldor ko'rina boshladi. U nima uchun jahli chiqayotganiga, kimga g'azab qilganiga, kim haqli-yu, kimning nohaqligiga yaxshi tushunmay, o'zining shu holiga o'zidan boshqa barcha odamni gunohkor hisoblaydi. Shu sababli u yo'q narsalardan bahona qidirib, janjal qilar, inisi va singlisiga sababsiz baqirar, onasiga ham turli-tuman ozorlar berar, so'nggi vaqtlarda uning bu qiliqlari otasiga ham malol kela boshlagandi. Hatto otasi ismini aytib chaqirganda to'nini teskari kiyib, ovoz bermas, buyurilgan ishni vaqtida bajarmas, ketgan joyidan vaqtida qaytmaydigan odat chiqargan edi. Buning ustiga bemaqsad sayoq yuradi. Maqbul kelmaydigan joylarda ko'rinadigan qiliq orttirdi.

Durdining to'nni batamom teskari kiyib olganini fahmlagan Cherkaz xotini bilan qachon maslahatlashmasin, biroq uni uylantirish masalasida biror fikrga kelishga ojiz edilar. Kimlar bilandir qarshi quda bo'lish yo'lida chor atrofdagi tanish-bilishlarini ishga solishdi. Ammo voyaga yetgan qizni o'n ikki yashar qiz bilan o'rin almashtiradigan ma'qul joy topilavermadi. Xullas, Cherkazning kambag'alligi ustiga o'g'lining bunday ortiqcha qiliqlari o'lganning ustiga tepganday bo'laverdi.

2

Kuz faslining havosi ilk oqshomdanoq soviy boshladi. Kunbotardan qo'zg'algan qop-qora bulut karvoni qishloq osmoni uzra suza boshlagan payt. Qalin qora bulut qamchi-kaltak zarbidan yoyilganday moviy osmon yuzini qopladi, uzoqlardan miltillab turgan yulduzlarni birin-ketin qora bulutlar yuta boshladi. Kuchli shamol nafasi dovuldan darak berib turardi.

Shamol qanchalik ayozli bo‘lmasin, voyaga yetgan Durdining sog‘lom badaniga ta’sir ko‘rsata olarmidi?! Mana, u hozir ham yelkasiga tashlangan chakmoni etagini hilpiratganicha, qora uylar qatorlashib turgan tomonga asta-sekin qadam tashlab bormoqda. U shu yurishicha qatorning chekkasida o‘zi singari yosh-yalanglar yig‘iladigan Bashirning uyiga kirib bordi. Uyning tashqarisigacha eshitilib turgan g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir maslahatga ko‘ra, yoshlar bugun yig‘ilishib, sheriklik ovqat (xalfana) qilishga kelishib olayotgan edilar.

Shu vaqt qator turgan qora uylarning kunbotar chekkasidan tagidagi otini yeldirib kelgan Cherkaz ham uyi oldida to‘xtadi. U bundan ikki kun oldin bir ish yuzasidan uydan chiqib ketgan, otda chopavergani uchun yaxshigina charchagan ham edi. U otining jilovini qoziqqa chala-chulpa bog‘ladi-yu, o‘zini ohanraboday tortib turgan qora uyga kirdi. Uyi ichidagi o‘choqda asta-sekin yonadigan yulg‘un o‘tini “tirs-tirs” ovoz chiqarar, undan hosil bo‘lgan tutun uy ichida suzib yurardi. It ko‘zi tutun isini olmaganday, Cherkazning ko‘zlari ham tutunga o‘rganib qolgan edi. O‘choqning bir yonboshida singan qumg‘on biqir-biqirlab qaynaydi...

Cherkaz to‘rga o‘tib, chordona qurib o‘tirdi. Uy bekasi jo‘mragi qalaylangan choynakka choy damlab, erining oldiga qo‘ydi.

Xotini Annabaxtning yoshi ham qirqlardan allaqachon o‘tgan. Ammo keng manglayining ikki yonboshidan egilganda sollanib turadigan yo‘g‘on zulflarida hali oq tolalar ko‘rinmasdi, faqat peshonasidagi ajinlar og‘ir turmush nishoni sifatida o‘zini namoyon qilib turardi. Annabaxt o‘rnidan turib, rangi uniqqan, ipakdan to‘qilgan yupqa to‘nini yelkasiga tashlab:

— Egam, siz charchab keldingiz. Havo ham sovudi. Yaxshilab choy ichib oling, terlab dam olguningizcha, men bir qo‘ltiq o‘tin olib kelaman, — dedi-da, tashqariga chiqdi.

Tashqarida sovuq nam shamol esardi. O‘tin olishga chiqqan Annabaxtni ko‘rgan ot boshini ilkis ko‘tardi-da, unga tomon aylandi. Nayzasimon quloqlarini dikkaytirib, o‘t-yemdan xomtamalanib, ketma-ket pishqirdi. Annabaxt uning yolvorgansimon ko‘zlariga qarab rahmi keldi. Uyga qaytib kirgach, chap tomonda yog‘ochga ilib qo‘yilgan elakni oldi-da, unga yem soldi. Yem-

ni to‘rvaga solib, otning bo‘yniga ildirdi. Keyin shosha-pisha bir qo‘ltiq yulg‘unni olib, ichkariladi. Xayoliga o‘ralashib kelgan fikrini eriga aytdi:

— Havo qattiqlashyapti. Orqa tomondan yomg‘irning hidi kelib turibdi. Bu yil ham qishga tayyorlana olmadik. Yerto‘la qazilmagani uchun, somon, o‘t, bedalar ham ochiq havoda turibdi. Otga ham og‘ilxona qurilmadi. Birdaniga yomg‘ir yog‘sa, bilmadim, o‘t-xashak yomg‘ir tagida qolib ketadigan bo‘ldi-yov!

Annabaxtning aytgan bu xil eslatma so‘zlari dehqon xo‘jaligi uchun ahamiyatli edi. Qish fasliga tayyorgarlik ko‘rilmayotgani haqidagi gaplar yonboshlab choy ichayotgan Cherkazning ko‘ksini qattiq tilib o‘tdi. U darhol tiklanib, o‘tirdi-da, qo‘lidagi piyolasini dasturxon chekkasiga qo‘ydi. Xotiniga savol nazari bilan qarab:

— Qani Durdi, qayerga ketdi? — deb so‘radi. — Men unga topshiriq berib ketgandim-ku! U nega somonni saqlash uchun yerto‘la qazmabdi?

Durdining qiliqlaridan to‘lib yurgan Annabaxt endi ichidagilarni to‘kib sola boshladi:

— Agar shu Durdi odam bo‘ladigan bo‘lsa, qish joyi shu vaqtgacha bitmay qolarmidi? Qo‘ni-qo‘shnilarda, hay, biznikiday sochilib yotgan o‘t-xashak bor ekanmi? O‘g‘lingiz o‘tgan yildan beri to‘nini teskari kiyib yuribdi. Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadigan bo‘lib qolgan. Uyda bo‘lar-bo‘lmasga janjal ko‘taradi! Kun chiqar-chiqmas uydan gum bo‘ladi. Uning qayerda, kim bilan o‘tirib-turishini bilsa bir o‘zi, bir Xudo biladi. Havoning o‘zgarib, yog‘ish hidi kelib turganini, uyda o‘zidan boshqa ishga yaroqli odamning yo‘qligini bilsa-da, buning qilayotgan qilig‘ini ko‘ring. Esi bor odam hech bo‘lmaganda, “Otam kelib qolgandir, mol-holga qarab qo‘yishim kerak”, deb fikr qilmaydimi? Axir bitmay turgan qancha ish bor, shunga aqli yetmaydimi? Undan keyin, Yaratgan Egamning o‘zi yordam bermasa, yurtda tekin joydan qiz beradigan hech kim yo‘q. Biz noilojmiz, axir?! Shularni o‘ylab, boshiga g‘avg‘o sotib olmay, tinch yursa, go‘rga edi...

Annabaxt haqiqatan ham to‘lib yurgan ekan, ko‘nglida yig‘ilib qolgan gaplarining barini hozir to‘kib soldi.

Cherkaz mayda-chuyda gaplarning farqiga borib o'tirmaydigan keng fe'lli odam edi. Charchab kelgani uchun, buning ustiga, Annabaxtning aytganlarini ham eshitib, rang-ro'yi birdan o'zgardi. Peshonasidan qon tomiri bo'rtib chiqdi, ikki qoshining o'rtalari tutashib ketdi. U g'azabini tashqarisiga qanday chiqarganini ham sezmay qoldi:

— Qani u, omadi yurmagan bexosiyat bola? Qayerda yuribdi?

Cherkazning chinakamiga qahr-g'azab otiga minganini fahmlagan Annabaxt endi aytgan so'zlaridan o'kindi. U katta janjal chiqishidan xavotir olib, erini biroz yupantirish niyatida o'zini eshitmaganga soldi, ikkita yo'g'on zulflarini sollantirib, jilmaygan bo'ldi-da, muloyimlik bilan:

— Voy otasi, mayda-chuyda narsa uchun jahlingizni chiqarmang! — dedi yalinchoq ovozda. — Durdining qayerga ketganini men bilolmadim, biroq uning o'zi tez orada kelib qolsa kerak. Siz choyingizni bemalol ichib, yaxshigina damingizni oling.

Cherkaz qaynab-toshib kelgan qahr-g'azabini to'xtata olmay, chuqur-chuqur nafas oldi-da tashqariga ham chiqmay, o'tirgan joyidan ikki-uch marta qattiq ovoz bilan baqirdi:

— Hoy, Durdi-i-i! Durdi deyman, hoy!..

Uning chaqirig'iga hech qayerdan javob bo'lmadi.

Cherkaz qahr-g'azabini ichiga yuta olmay:

— Bu tug'ilmay o'lgur qaysi go'rlarda sang'ib yurgan ekan! — deb, qattiq so'zlar bilan o'g'lini so'kdi.

O'ylamasdan aytgan so'zlari kutilmaganda shuncha noxushlikni yuzaga keltirganini, bundan tashqari, aytilgan so'zni iziga qaytarib bo'lmasligini Annabaxt hozir anglab yetdi, biroq endi kech bo'lgandi. Shunday bo'lsa-da, o'zi aytgan gaplardan keyin o'rtaga tushgan sovuq vaziyatni qandaydir bir yo'llar bilan yumshatishga harakat qildi.

— Voy otasi, bizga xalaqit beradigan quyun, yomg'ir hali ko'rinayotgani yo'q! Yerto'lani Durdijon bir kunning ichida qazib tashlaydi, mana meni aytdi dersiz! Otning og'ilxonasini ham u darrov uddalab bera oladi. Siz qoningizni qizdirmang, egam, arzimaydi.

— Yo'q! Uning o'zini bunday tutishi oilamizni pisand qilmaslikdan boshqa narsa emas! U xonadonimizga atayin muz keltirib to'kmoqchi! Uni hoziroq qayerdan bo'lmasin topish kerak!

Endigina boshiga o‘rab tang‘ilgan soch o‘rimlarini bo‘sh qo‘yib, ikki tizzasini qo‘li bilan quchoqlab, yerga tikilib o‘tirgan qizaloq — Ajab, o‘zining bilganlarini ma’lum qildi.

— Akamni boya Bashirlarning uyi oldida ko‘ruvdim...

Cherkazning qahr-g‘azabini bosishga harakat qilib turgan Annabaxt qiziga muloyim ovozda dedi:

— Boraqol, asal qizim, agar ko‘rganing rost bo‘lsa, o‘sha joyga borgin-da, og‘ajoningni chaqirib kel!

Ajab o‘tirgan joyidan ko‘z ilg‘amas tezlikda dik etib, sakrab turdi-da, eski kalishini kiydi. Birdaniga yolg‘iz o‘zi borishdan xavotirlandi:

— Ularning qopag‘on itlari bor-ku, tishlab olsa nima qilaman?

Jahli haliyam pasaymagan Cherkaz qahr-g‘azabini gunohsiz qizchaga sochdi:

— Xo‘sh, nega to‘xtab qolding?! Jo‘na! It yorib o‘ldirgan, yegan odamni ko‘rganmisan? Ey qo‘rqoq, sochi uzun, aqli qisqa! Tezda borib kel!

Ajab eshikdan otilgan o‘qday tezlik bilan tashqariga chiqib ketdi. Zudlik bilan Bashirning uylari joylashgan qatorga yetdi.

Ajab chiqib ketgan eshik ko‘p o‘tmay qayta ochildi-da:

— Kech yoqtiliq! — deb, uzun bo‘yli bir odam ostonadan hatlab ichkariga kirdi.

Cherkaz unga o‘xshatib muloyim javob qaytarishga harakat qilsa-da, ovozi kelishimsiz chiqdi:

— Kelgan yaxshilik. Kel, Eson, to‘rga o‘t!

Novchadan kelgan Eson chayir va qotma odam edi. Qora soqoli siyrakroq, ko‘kragini qoplab olgan. O‘zi esa bo‘zdan ko‘ylak va ishton kiyib olgan. Yoqasiz ko‘ylagidan deyarli ikki yelkasi, kekirdagidan pastki chuqur joyi yaqqol ko‘rinib turardi. U eskira boshlagan to‘nini yelkasiga tashlab olgan. Etik ichida paytavasiz, yalang‘och oyoqlari yurganida shalp-shulp ovoz chiqaradi.

Eson Cherkazning o‘ng tomoniga, o‘choq yonboshiga o‘rnashdi. Eson o‘zining devor-darmiyon qo‘shnisi Cherkazning qayerdandir bir joydan kelganini bilib, boya baqirgan ovozini eshitgach: “Obbo, qo‘shniga nima bo‘ldi ekan? Uning Durdidan yomon jahli chiqdi-yov? Ortiqcha so‘z aytib, birdaniga yigit bechorani

xafa qilib, ko‘nglini cho‘ktirmasin, Durdi avvaldan ko‘ngli yarim yigit”, degan o‘y-fikr bilan Cherkazni chalg‘itish, qahrini bosish mumkin bo‘larmikan, degan xayolda bosh suqqan edi.

Annabaxt ikkita jo‘mragi qapaylangan choynakka kir va unniqib ketgan xaltachadan quruq choy solib, qaynab turgan idishdan damladi-da, birini yana Cherkazning oldiga qo‘ydi, ikkinchisini Esonga uzatdi. Eson:

— Annabaxt, men choy ichib kelgandim. Rahmat, o‘zingiz ichaqoling! — dedi.

Cherkaz go‘yo Esondan ham ko‘ngli qolganday buyruqomuz ohangda dedi:

— Ey, damlab bergandan keyin ichaversang-chi! Choy degani ovqat emas-ku, axir!

Sog‘liq-omonlik so‘rashib bo‘lingach, o‘choq yonboshida chordana qurib, o‘ziga choynakni tortgan Eson suhbatni qo‘zg‘adi:

— Xo‘sh, Cherkaz, uydan chiqib yeb-ichib kelganlaring o‘zingniki. Ammo ko‘rib, eshitganlaring haqida hikoya qilib ber, qani. Dunyoda qanday o‘zgarishlar bo‘layapti? Bizlarni lol qoldiradigan qanday g‘aroyib voqea-hodisalar bor? Shular haqida gapir.

Cherkaz qaynab-toshgan g‘azabini qayerga tashlashini bilmay o‘tirib-o‘tirib, oxiri Eson bilan odatdagiday ohangda suhbatlasholmay, undan noroziday ohangda so‘z boshladi.

— Qanaqa o‘zgarish? Qanaqa g‘aroyib narsalar bo‘layapti deb o‘ylaysan? Hamma joyda bir xil hayot, bir xil qonun-qoida. Boylarning kayfiyati chog‘lig‘idan itlari ham turgan joylarida tek turmaydi. Kambag‘allarning kuniga, hatto itlar ham yig‘laydi. Ha, aytganingda ham jon bor. Xalq bor joyda xabar ham bor, gurung-suhbat ham bor. Biroq senga juda g‘aroyibi kerak bo‘lsa, ko‘chaning boshidan bizga tomon kelaver. Uyimizga kir. Ko‘zing nimani ko‘radi? Dasturxonda non yo‘q, qozon qaynatishga o‘tin, pishirishga go‘sht, piyoz va boshqa narsalar yetishmaydi. Qora uyning eshigi ilma-teshik. Keng maydonda somon yoyilib yotibdi. Birdan-bir otimiz pana joy yo‘qligidan sovqotib, dir-dir qaltirab tashqarida turibdi. Qachon bir yorug‘ kunga, mo‘l-ko‘lchilikka chiqamiz, men bu yog‘ini bilmadim...

Cherkazning qahr-g‘azabli ovozini eshitib kelgan Eson, albatta, adashmagandi. Uning qattiq jahli chiqqanligini hozirgina ayt-

gan so‘zlari ham ochiq-oydin ko‘rsatib turardi. Shu sababli uning qahr-g‘azabini biroz tushirish lozim edi. Eson gapning so‘z ohangini o‘zgartirib, har bir narsaga diqqat bo‘lavermaslik, keng fe’lli bo‘lish kerakligidan boshladi:

— Ey qo‘shnijon, jig‘ibiyron bo‘lishga arziydigan narsaning o‘zi yo‘q bu dunyoda. Turkman deganing ko‘chmanchi bir xalq bo‘lsa, u ham asta-sekin o‘tirimli bo‘lar-da bir kuni. O‘lib ketmasak yaxshi kunlarga ham yetib borarmiz...

— Eson, o‘zing dehqon odamsan. Qolgan ishga qor yog‘ishidan yaxshi xabardorsan, buni senga o‘rgatib o‘tirish kerak emas.

— Hozir qor yog‘ib, qish boshlanadi deb o‘ylayapsanmi? Sen bilan menda yaylov to‘ldirib yurgan ortiqcha mol-hol bormi? Yolg‘iz oting uchun ikki qo‘ltiq xodani yerga tiqsang, og‘il tayyor. O‘choqday joyni yaxshilab qazisang, yerto‘la ham tap-tayyor bo‘ladi-qoladi.

— Mening jahlimni chiqargan ham shu narsa-da. Mana shularning birortasi qilinmadi! Sening aytganingday, bular katta ish emas. Bularni bir-ikki kun ichida yolg‘iz o‘zim ham bajara olaman. Meni kuydirib-yoqayotgan narsa, bu tug‘ilmay qolgur yigit endilikda otasining ham so‘zini qulog‘iga shamolchalik olmaydigan bo‘ldi.

Eson endi aytmoqchi bo‘lgan so‘zlarini yaxshilab o‘ylab olmoqchi bo‘lib, piyolasidagi choyni asta ho‘pladi, vaqtni biroz cho‘zib, choyga diqqat bilan tikildi.

— Cherkaz, qani, o‘zing ayt-chi, sening fe’l-atvoring o‘zgarganmi yoki charchab kelganing uchun asabiylashyapsanmi? Ikkalamiz Durdi bilan yoki Geldimurod bilan — hanuz og‘izlaridan sut hidi kelib turgan o‘smirlar bilan teng bo‘lib tursak, biz uchun bu uyat hisoblanmaydimi?

— Sen ham olding-da, ularning yuziga bir qara, iyaklari qorayib, mo‘ylovlari qo‘chqor shoxiday tovlanib-buralib turibdi. Yana ularni bola hisoblaysan-a!..

Cherkazning gapiga Esonning kulgisi keldi.

Shu payt eshik ochilib, ichkariga Durdi kirdi. U otasiga istar-istamas salom bergan bo‘ldi. Biroq yuz-ko‘zidan kim bilandir janjallashib kelganligi ko‘rinib turardi.

Cherkaz jahli chiqqanidan uning salomiga alik olmay, ikki qoshini birlashtirib, kipriklarini nayzaday qildi-da, Durdining ko‘ziga tikildi.

— Xo‘sh, yigit, bu nimasi? Mol-holdan, uydan xabar olmay, chakmoningni yelkaga tashlab, undan-bunga sayoq kezadigan bo‘libsan. Nima balo, sen o‘zingni Nosir boyning nabirasiman deb yuribsanmi?

Hech qayerda yuragi qaror topmay, ko‘pdan beri janjalga bahona izlab yurgan Durdining ham jahli burnida turgan ekan. Shu sababli u ham otasiga gap qaytardi.

— O‘zingiz ham yelib-yugursangiz-da, qo‘lingizga hech narsa tushmaganini mendan ko‘rmoqchimisiz? Alining achchig‘ini Validan olmoqchi bo‘lyapsiz, shekilli?

— O‘chir ovozingni!

— Yurtning katta boyiday, qachon qarasa mol-hol, mol-hol deb doimo og‘zingizni to‘ldirasiz? Yakka baytal otingizdan boshqa yana qanaqa molingiz bor? Xuddi suruv-suruv qo‘yingiz sovuqda qolib qirilayotganday hammani bezovta qilasiz?

Cherkaz bo‘g‘iq ovoz bilan hayqirdi:

— Mening bilan teppa-teng gap talashishga senga kim ruxsat berdi? Nafasingni o‘chir!

— Mening tilim erk-ixtiyori sizda emas, o‘zimda. Shu sababli ham tilim mengagina bo‘ysunadi.

Cherkaz vajohat bilan o‘rnidan turganini o‘zi ham sezmay qoldi.

— Hoy, to‘ng‘iz! Padaringga la’nat!

— Otalik hurmatingizni saqlashni xohlasangiz, joyingizdan qo‘zg‘almang!

Eson yuz bergan bu voqealardan dovdirab qoldi-da, Cherkazga yopishdi.

— Hoy, Cherkaz, bu qanaqasi? Xo‘p, Durdi yanglishgan ekan, deylik. Lekin sen o‘zingni bos! Uyat bo‘ladi, axir!

Cherkazning qo‘li, oyog‘i qimirlamasa-da, ovozi qahr-g‘azabli eshitildi:

— Ko‘zimga ko‘rinma!

Durdi yelkasiga tashlangan chakmonini kiydi-da:

— Agar mening ko‘zga ko‘rinmasligim bilan, hol-ahvolingiz yaxshilansa, mayli, ko‘rinmaganim bo‘lsin! — deb jahl bilan tashqariga chiqib ketdi.

Xuddi shu payt yomg‘ir yog‘a boshladi, yer ustida nam havo hidi sezildi.

Eson joyiga qayta o‘tirdi-da:

— Cherkaz, sening hech qachon bunaqa qilig‘ingni ko‘rmagandim. Senga birdaniga nima balo bo‘ldi? Ikkalangizning harakatingiz “yer qattiq bo‘lsa, — ho‘kiz ho‘kizdan ko‘radi”, degan naqlni esga tushirdi... Bu ishingiz... — dedi-yu, unga savolomuz qaradi.

Cherkaz ovozini chiqarmay, chuqur xo‘rsinib qo‘ydi.

Esonning so‘zini o‘ziga dalda hisoblagan Annabaxt ma’yus ohangda dedi:

— Hoy otasi, egam, sizga bugun nima bo‘ldi o‘zi? Nima bo‘lganda-da, u o‘z farzandingiz-ku, axir. Albatta, koyish kerak, biroq koyish-urishni me’yoridan oshirish yaxshi emas, axir.

Cherkaz haligacha o‘ziga kelolmagani uchun Annabaxtga olayib qaradi.

— Hoy, sen jim o‘tir! Agar sen yaxshi bo‘lsang, tug‘gan kuchuging shunaqa bo‘larmidi?

Annabaxt “Otasi siz-ku” deb, javob bergisi keldi-yu, biroq Esondan tortinib tilini tishladi.

Cherkazning bugun o‘zini g‘alati tutayotganini sezgan Eson:

— Oilada bunday ko‘ngilsizliklar bo‘lib turadi, Annabaxt. Ko‘nglingga olma. Bugun o‘g‘lini urishgan bo‘lsa, ertaga alqaydi. Uxlaydigan vaqt ham bo‘lganga o‘xshaydi, — deb boshiga telpagini kiyib xayr-xo‘shlashib, uydan chiqib ketdi.

Qora uy ichini sukunat qopladi, faqat qora uyning tomiga shovullab yog‘gan yomg‘ir ovozlarigina eshitilardi, xolos...

3

Qosh qorayishi bilan boshlangan yomg‘ir asta-sekin kuchayib, yarim kechgacha atrof-tevarakni daryo qilib yubordi. Yarim kechadan so‘ng ham goh kuchayib, goh to‘xtab-sekinlashib yog‘gan yomg‘ir tongga yaqin tindi. Oftob chiqadigan tomon oqara boshla-

ganda qop-qora zich bulutlar ajralishib, turli tarafga tarqalib ketdi. Kunchiqar tarafda osmon yuzi shisha singari tip-tiniq tortib, chiroyli ko'rinish kasb etdi. Quyosh go'yo olamning chang-to'zonsiz musaffo havosi-yu buyruqlariga bo'ysunganday, ochiq chehra bilan ko'zga tashlanib, kumush nurlarini yer yuziga saxiylik bilan socha boshladi...

Ko'k choyni istar-istamas ichib o'tirgan Cherkaz tirsagini yostiqqa tirab, bir burchakka tikilganicha, chuqur o'yga toldi.

Annabaxtning o'y-xayoli erinikidan ham og'ir. U non-choyga ham qaramay, ikki qo'lini ikkala tizzasi ustiga qo'yib, kafti bilan iyaklarini quchganicha toshday qotib qolgandi. U kechagi dahanaki janjaldan keyin Durdining uydan chiqib ketganini, qorong'i tunda qayerda uxlaganini o'ylab tashvish chekardi... Qishloqdan chiqmay, zimiston kechada biror tanishinikida yotgan bo'lsa-ku xo'b-xo'b, biroq jahli chiqib, hech qayerga bosh urmay, tashqarida daydib yurgan bo'lsa-chi, shamollab qolgan bo'lsa-chi?! Annabaxt hozir tashqariga chiqib, o'tgan-ketgandan shular haqida so'rab-surishtirgisi kelar, yashmog' (ro'mol)ini emas, tilini chaynasa-da, Cherkazning yoqimsiz so'zini eshitishdan tortinib, o'ziga sabr-toqat tilab, jimgina o'tirardi.

Ichgan achchiq ko'k choyi terlatib, tanu badani biroz yumshagani uchunmi, yoki kechasi bilan uxlamay o'ylagan fikr-xayolining natijasimi, Cherkazning kechagi qahr-g'azabi bugun negadir yo'q. U hozir kechagi qiziqqonligining noto'g'ri ekanligini anglab, kelgusida qilishi lozim bo'lgan yumushlari to'g'risida o'ylanib, ayolidan maslahat so'radi.

— Xo'sh, Annabaxt, bu bachchag'aring bizlardan gina qilib, kechasi qayoqlarga sanqib ketdi? Buni Xudo biladi! Endi nima qilamiz?

Annabaxt chuqur xo'rsindi, keyin ko'kragida sollanib turgan sochlarini siladi-da, siniqib jilmaydi:

— Men qayerdan bilay, otasi?... Ayol kishi bo'lsam. Har nima bo'lganda ham o'zingiz mendan ko'ra yaxshiroq fikr qilasiz... Biroq, egam, u qilib-bu qilib, endi kelin olmasak, kunimiz bir bo'lsa-da, tashvishimiz ikki bo'laverarmikan, deb o'ylayman.

Cherkaz yonboshlab yotgan joyidan chalaroq tiklandi:

— Voh, Annabaxt, o'lay agar to'g'ri aytyapsan! Buni hammamiz bilamiz. Bu narsa ko'rga hassaday ayon, axir!... Qani, bizda xasislik qilmay beradigan va egasining qo'lidan qizini urib oladigan boylik bormi? To'y qilishga kuch-quvvati yetmaydigan odam hamma joydayam xor-zor!...

Annabaxt Cherkazning qahr-g'azabi yumshaganini, uning muomalaga, maslahatlashuvga moyilligini fahmlagach, ko'zlarini kuldirib dedi:

— Voy, otasi-ya, nimalar deyapsiz? Axir, biz Yaratgandan norozi emasmiz-ku. Mol-mulk bermasa-da, o'rniga o'rin deb qiz bola berib qo'yibdi-ku. Xudoga ming bor shukur, o'g'limiz voyaga yetgan bo'lsa, uning izidan ko'zga ko'rinib kelayotgan qizimiz ham bor. Yurtchilik, xalq ichida bizga o'xshash o'g'il-qizi bor oilalar ko'p. Ha, biz ham xalqimiz ichida bor bo'lgan urf-odatga ko'ra ish tutamiz — o'zimizning oilamiz darajasiga teng xonadondan qiz va o'g'il topib, qarshi quda bo'lamiz. To'g'ri, qizimiz hali yoshroq. Biroq "Ikki oyoqli narsa ikki kunda voyaga yetadi", degan naql bor. Birpasda uning voyaga yetganini bilmayam qolamiz...

Cherkaz biroz o'yga tolgach, boshini u yoq-bu yoqqa chayqab dedi:

— Bunday fikr mening ham xayolimda bor, biroq bizning qizimiz hali juda kichik. Menimcha, bu o'y-fikrimiz oson amalga oshmasa kerak-ov...

— I-ya, egam, siz nima uchun umidsizlanayapsiz? El-yurt ichidamiz, qidirib ko'rsak qizi voyaga yetgan, biroq o'g'li kichik oilalarni ham topish mumkin, Xudo xohlasa.

— Ey, men qayerdan bilayin?

— Hozir esa ota-o'g'il oralaringizga sovuqlik tushmasidan burun Durdini topishimiz kerak!

— Uni qayerdan topamiz?

— Men ham hozir uning qayerda ekanligini bilmayman. Biroq oshna-og'aynilari uning qayerdaligini bilsalar kerak.

— Durdining eng yaqin do'sti Esonning o'g'li Geldimurod-ku...

— Ha, to'g'ri ustidan tushdingiz! Durdining qayerda ekanligini Geldimurod, albatta, biladi. O'g'lingiz bir odamning aytganini qiladigan bo'lsa, u ham shu — Geldimurod.

— Unday bo‘lsa, men Esonni chaqirib, bir maslahatlashayin, — deb Cherkaz eshikdan boshini chiqarib qichqirdi.

— Eson! Hoy Eson!

Eson bu vaqtda qo‘y-mollarga qarab, ularning tagini tozalab, tashqarida yurgan edi. Cherkazning chaqirig‘iga darrov javob berdi:

— Nima deysan?

— Ishing shoshilinch bo‘lmasa, biznikiga kirib ket!

— Hozir boraman.

Ko‘p o‘tmay, eshikning pardasi ko‘tarilib, Eson “Assalomu alaykum” deb ichkariladi.

Erkaklar oila a’zolari to‘g‘risida sog‘liq-omonlik so‘rashganday bo‘lishdi. Biroq ular o‘rtasidagi munosabatda iliqlik sezilmas, allaqanday sovuqlikmi, vazminlikmi borday edi. Go‘yo ular bir-biri bilan emas, qora uyning ustuni bilan so‘zlashayotganday edilar. Ushbu holat bejiz bo‘lmay, balki kechagi noxushliklarning izi ekanligini Annabaxt yaxshi tushundi. Axir kecha-kechqurun Esonning so‘ziga quloq solmagan ham shu Cherkaz-ku.

Cherkaz o‘tgan ishga salovot deganday, dilidagini tiliga chiqardi.

— Eson, bola tushmagur kecha chiqib ketganicha hali iziga qaytmadi...

Eson norozi ohangda tovush chiqardi:

— Kechagi o‘yining shunday natija bilan tugashini bilardim, biroq soqol-mo‘ylovimiz bo‘lsa-da, so‘zim o‘tmaydigan bo‘lgach, noiloj qoldim-da...

— To‘g‘ri aytgan ekansan, adashmaydigan birgina Yaratgan Egam ekan...

— Sening aytganlaringda ham jon bor, biroq, har holda, yetti o‘lchab, bir kesgan odam hayotda kam bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsa-da, xotin bilan er o‘rtasida, o‘g‘il bilan ota orasida arzimagan narsalardan ba’zan noxushliklar yuzaga chiqib turishi bor gap. Hamma narsani muhim hisoblab bosh qotiraveradigan bo‘lsang, uydagi tinchlik uzoqqa bormaydi.

— “So‘nggi pushaymon o‘zingga dushman”, deyishadi. Endi bu gaplarning foydasi yo‘q, Eson! — Cherkaz biroz jim turgach, yana qo‘shnisiga tikildi. — Qani ayt-chi, endi uni qanday topa-

miz, qanday qilib uyga keltiramiz? Geldimurod bu ishning uddasidan chiqa olarmikan?

Eson Cherkazning qiynalganlarini haliyam kam deb hisoblardi. U yana norozi bir ohangda davom etdi.

— Geldimurod izlar ham, topar ham, uni orqaga qaytarib kelar ham, biroq kechagi qiziqqonligingning yana takrorlanmasligiga men ishonmay turibman...

Cherkaz aybini bo'yniga olgan kabi, yolvorgan ohangda, siniq ovozda dedi:

— Qahr-g'azab, albatta, hammadayam bo'ladi. U to'lib-toshib kelgach, sening ixtiyoringni qo'lingdan oladi, demoqchi bo'lmaganlaringni ham ayttiradi, aytmayman deganingga qo'ymaydi. Suv to'g'ondan oshib o'tgach, to'g'ondan foyda yo'q, Esonjon... Har nima bo'lganda ham bu gal Geldimurodni yubor-da, Durdini uyga qaytarib keltir. Keyingi ishlarimizda endi hushyorroq bo'lamiz.

Gapi Cherkazga yaxshigina ta'sir qilganini anglagan Eson soqoliga o'tib yopishgan mo'ylovini to'rt barmoqlab ajratdi-da, mo'ylovini burab qatiy gap boshladi:

— Shunday qilaylik, Geldimurodni hozir yuboraman, Durdini qayerda bo'lsa, topib olib keladi. Biroq Cherkaz, da'vo-janjal qaytalanmasligi uchun darhol uni uylantirmoq kerak.

— Ha, uning tashvishi Annabaxt bilan ikkalamizga yetib ortadi. O'zing yaxshi bilasan, qizga qalin berib olishga mol-mulkimiz yo'q. Butun umidimizni qaratib o'tirgan yakka tayanchimiz — o'zing bilgan anovi yolg'iz qizimiz. U ham hali juda yosh...

Annabaxt bilan Cherkaz o'rtasida bo'lib o'tgan bahs yana takrorlandi:

— Omad kelsa, qiyin bo'lmaydi. Yurt ichida qizi bor, o'g'li borlar ham ko'p. Qidiraversak, oxiri niyatimizga yetishimiz mumkin, deb o'ylayman.

Suhbatni eshitib, unga qo'shilmoqchi bo'lib o'tirgan Annabaxt o'ziga navbat yetganini bilib so'z boshladi:

— To'g'ri aytyapsizlar, agar diqqat bilan kuzatsak, yurt ichida biznikiday quda-andachilikni istayotganlarning son-sanog'i yo'q. Kimdan surishtirsang, falon joyda bo'yi yetgan qiz bor, deb

xabar berishadi. Men kecha Xo'janafasning kelini bilan gaplashdim. U qishlog'imizda bittasining bo'yi yetgan qizi bilan hali yoshroq o'g'li bor, dedi. Qiz uzatib, kelin olishning oson emasligini, to'g'ri kelsa ular qarshi quda bo'lishga ham rozi ekanliklarini menga aytib berdi.

Eson:

— Xo'janafasning kelini?... — deganicha eslashga urina boshladi. — Ha, u qiz — qoravakillardan, qoqsholbukri urug'idan. Hay, Xudoyim, ularning qishlog'ida qizli-o'g'illi kim bor ekan-a?

Esonning ham fikri-xayoli Cherkazning o'yi bilan bir xil hamohang edi. Cherkaz ham o'ylanib:

— Annaniyozlar... bo'lmasin tag'in? — degan taxminni aytdi.

— Ha, ha, xuddi o'zi, topdingiz! — deb Annabaxt xursand holda qo'lini silkitdi.

Cherkaz yana:

— Xudoyim-a, Annabaxt, men ularning qullarga borib bog'lanishi haqida mish-mishlarni eshitganday edim! — deb ikkilandi.

— Voy, otasi, nimalar deyapsiz?.. O'sha kelin ularni juda yaxshi tanir ekan. Qizni igdir urug'iga taalluqli, dedi-ku.

— Oilasi qanaqa ekan?

— Xo'janafasning xotini Durnabat u qizniyam, oilasiniyam yaxshi bilar ekan. Oilasi bilan juda nasli toza odamlar, deb aytdi.

Yana shu masala yuzasidan biroz fikr-mulohaza bildirganlaridan keyin, uylanadigan yigitga qizning yoqish-yoqmasligini surishtirmasdan, qoqshollarga sovchi yuborishga kelishib olishdi.

Qishloq oqsoqoli Xo'janafas ham bu sovchilikni ma'qulladi. Nihoyat qarindosh-urug'lar to'y muddatini belgilab, Xo'janafas bilan Esonni Annaniyoznikiga yuborishga qaror qilishdi.

Geldimurod esa Durdining izidan ketdi.

4

Tun tim qorong'i. Osmon yuzini qoplab olgan quyuq qora bulut oy va yulduzlarni ham yopib tashlagan. Yomg'ir maydalab yog'ib turibdi. Shu kunlarda bir so'z oz, ikki so'z ko'p bo'lib yurgan ko'ngli yarim Durdi o'zidan ham xafa edi. Ayniqsa, otasining

koyishlari etidan o'tib, suyagigacha borib yetgach, hech kim bilan maslahatlashmay, hech qayerda to'xtamay, jahl bilan uydan chiqib, qishloqdan uzoqlashib ketganini ham sezmay qoldi.

Durdining qaynab-toshgan qahr-g'azabi hozir qayerga borib qolganini o'ylab o'tirishga imkon bermasdi. U shu tobda nima qilishini bilmay qadam tashlamoqda.

Durdi shamol esgan tomonga qarab borayotir. Guvillab esgan shamol choponini ko'tarib tashlar, ba'zan oyog'iga o'rab qo'yar, uning o'z ixtiyoricha erkin yurishiga xalaqit berardi. Shamol kam-kamdan tinayotganday tuyulsa-da, yomg'ir borgan sari kuchaymoqda. Durdining ust-boshi yomg'irdan allaqachon shalabbo bo'lgandi. Uzun jingalak qora telpagining junlaridan tomayotgan yomg'ir tomchilari yuz-ko'zidan oqib tushib, burnining yonboshlaridan o'tib, mo'ylovining oralarigacha, qo'ynigacha yo'l topib kirmoqda. Yigitning buralgan mo'ylovlari yomg'ir suvidan ezilib, yuqori lablaridan pastki lablar ustiga tushib, shalpayib qolgan. Durdi endigina yo'lga tushganda tovoni ostidagi loy sirpanchiq emasdi. Endi esa butunlay ezilgan loylar oyoq kiyimining to'pig'iga yetay deb qolgan, yurishini borgan sari qiyinlashtirardi...

Bir tomondan ichiga sig'may kelayotgan qahr-g'azab, ikkinchi tomondan shamolli yomg'ir Durdini yo'ldan adashtirdi. U yurib borayotgan so'qmoq ham past-baland joylar borib-borib yopilib qoldi. Yomg'ir esa borgan sari kuchaymoqda. Yomg'ir aralash shamol yakka-yolg'iz yo'lovchini yoqtirmaganday, uni tinimsiz savalaydi.

Nihoyat, Durdi yurishdan to'xtab, atrofiga qaradi. Qorong'ida ko'ziga hech narsa ko'rinmadi, faqat qulog'iga yomg'irning shovullashigina eshitiladi. U qancha o'ylanmasin, qaytadigan so'qmoqni topolmadi, quyuq qorong'ida so'qmoqyo'l ko'rinmasdi. Bir joyda uzoq turib qolish mumkin emas. Bor kiyimi, ayniqsa, boshidagi telpagi nihoyatda og'irlashib qolgandi. U telpagini yechib, bir-ikki silkib yengillashtirdi-da, qayta boshiga kiydi. Shu payt chaqmoq chaqib, ko'ziga yon tomonda to'dalangan yantoq uyumi ko'rindi. U yantoq uyumining atrofini aylanib chiqdi-da, yana biroz o'yga cho'mdi. Boradigan qishlog'ini-ku endi topolmasligi aniq. U qaysi qishloqqa, kimning uyiga bormoqchi edi? Hech kimning! Uni shu

paytda kim kutsin?! Durdining qaytar yo'li, albatta, uzoqda emas, shu yaqin atrofda. Orqasiga qaytadigan yo'lni shunday qorong'i kechada topa olarmikan? Bordi-yu topganda ham, qishloqqa qaytib bormog'iga endi or-nomusi yo'l bermasdi.

U yana fikri-xayolini jamladi-da, yantoq uyumining pana tomonidan —yomg'ir kamroq tushgan tomonning pastidan ikki-uch bog'ini sug'urib oldi. Shu tariqa odam yomg'irdan panalansa bo'ladigan kovak yasadi. Tagidan sug'urilgan bog'lamlar qup-quruq edi. Aytganday ularni yoqib, ust-boshini quritib olsa ham bo'larkan... Biroq, attang, yonida gugurt yo'q... Durdi uchun endi ho'l kiyimi bilan shu kovakka kirishdan boshqa yo'l yo'q edi.

Yomg'irdan ezilgan yantoq tikanlari yumshagan, kiyimni teshib gavdaga botmasdi. U yaxshilab joylashib olgach, uxlashga urindi. Biroq bo'lib o'tgan voqealar uyqusini qochirdi. Ayniqsa, gavdasiga chippa yopishgan ho'l kiyimlari endi uni qaltirata boshladi. Ammo joylashgan o'rni yaxshigina pana bo'layotganligi sababli, hozir unga yomg'ir ham, shamol ham xalaqit qilmasdi. Durdi yantoq g'arami kovagida yotib uzoq o'ylandi... Hozirgiday g'ujanak bo'lib yotganiga achinmadi-yu, arazlab ketganiga, otasini xafa qilib, uydan chiqib ketganiga o'kina boshladi. "Haqiqatan ham, ota-onamda nima gunoh bor? Ular qo'llarida bor bo'lgan mol-mulkni mendan ayarmidi? Aslida men kimdan qahrlanib, kimdan xafa bo'lyapman? Nima uchun? Men o'zim og'zidan suvi oqib turgan galvars ekanman... G'ayrating bo'lsa, kuch-quvvating bo'lsa, bir qizni olib qoch-da ket! Unda, bu g'alvaning ozorini ota-onam, qishloq oqsoqollari tortib qolaversinmi? Yo'q, men bu ishni ham eplay olmay, butun qahr-g'azabimni ota-onamning ustiga otibman... Otam meni so'kish-urishishga, albatta, haqli, axir!.."

Durdini butun tun bo'yi bezor etgan shamol aralash yomg'ir tongga yaqin tindi. Bulutlar osmon yuzidan asta-sekin tarqala boshladi. Kun chiqar tomon oqarib qoldi. Ko'zi qanday ilinganini ham sezmadi. Boshi og'riyotgan edi, oftob chiqib, tevarak-atrof yop-yorug' bo'lgach, boshi ham tuzaldi. O'zining qayerdaligini angladi. Biroq ertalabki nam havodan to'yingan ho'l kiyimlari yana badanini junjiktirib qaltirata boshladi. Bunday ahvolda hech qayerga borib bo'lmaydi. Birdaniga u kutmagan holat yuzaga keldi.

U panalagan yantoq g'aramidan uncha uzoq bo'lmagan joydan yo'l o'tgan ekan. Yo'ldan bir odam yurib borardi. Durdining nazarida u odamning og'zida papirosi borday tuyuldi. Ha, ha, ana tutuni atrofga taralayotir. Yo'lovchi ro'parasiga kelganida u:

— Ey og'ayni, gugurting bormi? — deb qichqirdi.

Yo'lovchi cho'ntagidan chiqargan gugurtini silkitib shiqirlatdi. Durdi buni ko'rib, bir siqim quruq yantoqni ko'tarib yo'lovchi tomonga intildi. Chala-chulpa sog'lik-omonlik so'rashgan bo'ldi. Qo'lidagi olov tutashgan yantoqni ko'targanicha g'aram tomon qaytdi.

U g'aramning tagidan tortib olgan quruq yantoq bog'lamlarini olovga tashlab, kiyim-kechaklarini gulxan taftida yaxshilab quritib oldi. Tani-badani issiqdan yayradi. Biroq uzoq tun davomida nam havoda sovqotgan navqiron vujudi qaynoq choy, shirin taom talab qilmoqda... Shunday bo'lsa-da, qishloqqa qaytib borishni Durdi o'zi uchun endi nomus deb bilar, o'zini haqoratlanganday sezardi. Oftob ham asta-sekin balandlab, o'z nurlarini yerga saxiylik bilan socha boshladi.

Durdi qurigan cho'ponini kiyib, shimol tomonda yoyilib ko'ringan qishloq tomon yurib ketdi, ertalabki toza havo ta'sir etdimi, ochiqqan qorinning xuruji qistovga oldimi — qadamini tezlatdi.

Durdi ko'ziga obod va aholisi ko'p bo'lib ko'ringan qishloq chekkasiga borib yetdi. Tuya, ho'kiz-sigir, qo'y-eshaklar endigina qishloqdan chiqib, yaylovga tomon bir-birlariga tirkashib bormoqda. Uzun tun davomida ba'zilari qoziqqa bog'lanib, ba'zilari tor qo'rada, pana-pastqamda turgan mollarning tashqi ko'rinishlari Durdining xayolida yana o'zining kechagi ahvolini jonlantirdi. Erkinlikka, yaylovga ko'tarilayotganlariga qaramay, tuyalar oyoqlarini nihoyatda qiynalib ko'tarib, bazo'r odim tashlashardi, sigirlar ham shilqildagan, jonsizday tuyoqlarini istar-istamas ko'tarib, ilgarilaydi.

Durdi qishloqning old qatoridagi tashqi ko'rinishi bilan yonidagi uylardan farq qilib turadigan obod bir hovlini mo'ljallab bordi. Hovli oldidagi og'ilda kulrang ot bilan yo'rg'a ko'rinishdagi qizil baytal hamda xachirday ulkan qo'k eshak turardi. Uy orqasidagi tikonli daraxt yog'ochidan tiklangan bostirma o'rtasi-

da katta yantoq bog'lamlari yotar, uning atrofida esa olti-yettita nor tuyalar o'tlab yurishardi. Durdining o'ylashicha, o'tlab yurgan mollar uy egasining quvvatligina, boy ekanligidan xabar berardi. Durdi salom berib ichkariga kirdi. Sog'lik-omonlik so'rashilgach, eshik yaqiniga qurilgan o'choq yoniga o'tirdi-da, uy ichiga nazar tashladi.

Ulkan qora uyning o'ng burchagida kattakon sandiq turibdi. Uning ustiga ayol qo'li bilan chiroyli qilib ko'rpacha va to'shaklar taxlangan. Uy pastidan to chap qanot devorlarigacha qo'lda to'qilgan gilamlar to'shalgan, osilgan. Gilamlar osilgan yog'ochlarning har joy, har joyiga chiroyli-chiroyli to'rvalar ham ilingan. Uyning ichidagi gilam va gulli kigizlar xuddi ochilgan bo'stonni eslatadi. Sandiqning yonida og'ziga yashmoq tutgan chiroyli turkman ayoli choynak-piyolalarni kul bilan tozalab o'tiribdi. O'choq yonida to'rda chordana qurib o'tirgan mo'ysafid ustiga qo'y terisidan tikilgan kalta po'stin kiyib olgani uchunmi, vajohatli ko'rinardi.

Damlangan choynaklardan birini Durdining oldiga qo'yishib, dasturxon keltirishdi. Bunday muomalaga ko'nikmagan Durdi o'zining yupun kiyinganini o'ylab boy xonadon va uning egalaridan uyaldi. Choynakdagi choyni qaytarganida va dasturxondagi noz-ne'matlarga qo'l uzatganida, qo'li qaltirab-qaltirab ketdi. Biroq uy egalarining samimiy mulozamatlari qattiq toliqqan Durdiga ruhiy dalda bo'ldi. U o'zini erkin tutib, non-choy va boshqa noz-ne'matlardan tanovul qildi.

Uy egasi dasturxon boshida Durdining qayerdan kelganligini, qanaqa kasblarni bilishini so'radi. Durdi uydan xafa bo'lib chiqib ketganini ham, kimning farzandi ekanligini ham to'g'ri aytmay, xayoliga kelgan gaplarni aytdi.

— Men o'zim bir ish qidirib yurgan bo'ydoqman. Qanday ish bo'lsa, bajaraveraman.

Uy egalariga kerak bo'lgan javob ham xuddi shu edi. Eshikdan kirgan o'ziday yosh yigit to'rdagi otasidan ham oldin:

— Tuyakash bo'lasanmi? — deb so'radi.

Durdi oq undan pishirilgan issiq nonni chala chaynab yutar ekan, darrov javob berdi.

— Men ish tanlab o'tirmayman.

Uy egasining fikricha, Durdiga ishonsa bo'ladi. U olti emas, o'nta tuyani ham eplay oladi. Shunday bo'lsa-da, uning o'zini yana gapirtirib ko'rmoqchi bo'ldi.

— Oldin tuyakashlik qilib ko'rganmiding?

Durdi yalinchoq ohangda javob qaytardi:

— Ey yoshulli, bu bo'ydoqchilikda qilib ko'rmagan ishim qolmadi hisob...

Durdi ishiga to'lanadigan haq uchun ham talashib-tortishib o'tirmadi. Boyning aytgan puliga roziligini bildirdi. Uy egasi uning qarorini xush kayfiyatda qabul qildi.

Xuddi shu fursatda ularning o'tirgan joyiga Geldimurod ham kirib keldi. Yangi kelgan mehmon xo'jayinlarga xush yoqmadi. Durdini esa butunlay dovdiratib qo'ydi. Shu bilan Durdining tuyakashlik kasbi ishni boshlamasdan turib nihoyasiga yetdi. U Geldimurod bilan qishdoqqa qaytadigan bo'ldi...

5

Qoravakillardan Qoqsholbukri qishlog'ida yashovchi Annaniyozning qiziga sovchilikka borgan Xo'janafas bilan Eson edi. Qalin oppoq soqolli, yirik gavdali Xo'janafas odamlar bilan avvaldan quda-andalik ishlariga qatnashib yurgani uchun uni hamma yaxshi taniydi. Bu yerda ham mehmonlarni hurmat-ehtirom bilan qarshi olishdi.

Qoidaga binoan savol-javob qilinsa-da, Xo'janafas bilan Esonning nima uchun kelganligi barchaga ayon edi. Hurmatli oqsoqollarning bu qishloqqa shunchaki kelishlari mumkin emasdi. Buning ustiga qizi bor xonadonga huda-behudaga mehmon to'ppa-to'g'ri kirib kelavermasligi ham ma'lum. Baridan hayratlanarli joyi — ularning qishloqqa kelishlari haqidagi xabarning o'zlaridan oldin yetib kelganligida! Shuning uchun ham Xo'janafas bilan Esonni faqat uy egasi qabul qilmay, ularni qo'ni-qo'shnilari birgalikda kutib olishdi.

Choy-nondan so'ng biroz u yoq-bu yoqdan suhbatlashib o'tirishgach, qishloqning oqsoqoli — o'rtacha qomatli ko'sa kishi urf-odatga ko'ra ularga qarab dedi:

— Harakatlaringizdan ko‘ryapmizki, Xo‘janafas, sizlar shoshilinchroq kelganga o‘xshayapsiz. Xo‘sh, sizlarni bizning qishlog‘imizga kelishga nima undadi?

Chordana qurib o‘tirgan Xo‘janafas soqolini siypalab, so‘zlay boshladi.

— To‘g‘ri aytyapsiz, bizlar qishlog‘ingizga bir yumush bilan keldik. Bizlar qarindosh axtarib keldik, Xolli mirob. Shunga siz ko‘maklashsangiz deyapmiz.

Ko‘sa uzun, baquvvat qo‘li bilan iyagini siqimlab o‘tirib o‘ylangan bo‘ldi. Xo‘janafasning fikrini tasdiqlovchi ko‘rinishda boshini qimirlatdi.

— Yaxshi niyatingiz bor ekan, Xo‘janafas. “Axtargan, albatta, topadi”, deyishadi.

— Ha, shunday. Mening o‘zim ham umidsiz emasman. Borgan joyimdan bo‘sh qaytgan vaqtim bo‘lgan emas.

— So‘raganning aybi yo‘q. Kimning farzandi uchun qiz qidiryapsizlar.

— Cherkazni siz yaxshi bilsangiz kerak?

— Uning otasi Yovshanni ham yaxshi bilardim.

— Tanigan bo‘lsangiz, biz qidirayotgan qiz o‘shalar uchun. Biz shunchaki bir qiz qidirayotganimiz yo‘q. Maqsadimiz qo‘sha qarindosh bo‘lish, oqsoqol.

— Ha, demak, qarshi quda bo‘lmoqchisizlar-da?

— Shunday, oqsoqol, qarshi quda bo‘lish niyatidamiz. Biroq qizimizni hali yosh ko‘rmasangizlar... ularning hech biridan norozi emasmiz. Bizlar Annaniyozning ham farzandlarini odamlardan so‘rab-surishtirmoqchi emasmiz. Agar men adashmagan bo‘lsam, uning o‘g‘li ham bizning qizimiz bilan tengqurroq bo‘lsa kerak?

Ko‘sa yana tasdiqlovchi bir ko‘rinishda boshini qimirlatdi.

— Shunday-ku-ya, Xo‘janafas... Sizning qishloqning odamlarini biz faqat sizdangina so‘rab-surishtiramiz. Bunday quda-andachilikni o‘zingiz ma’qul deb topgan ekansiz, biz ham bunga qarshi chiqmaymiz, abatta.

— Xolli mirob, agar men ushbu qudachilikni ma’qul topmaganimda, sizlarning huzuringizga soqolimni selkillatib kelmagan bo‘lardim.

Qishloqni o‘z iziga ergashtirib yurgan ko‘sa shundan keyin uzil-kesil javob qaytardi:

— Gap shuki, Xo‘janafas sizning obro‘yingiz — bizning obro‘yimiz. Shunday ekan, sizlar to‘y muddatini belgilayveringlar.

Suhbatga aralashmay, ovozini chiqarmasdan o‘tirgan ayol yashmog‘ini og‘zida zarda bilan chaynadi-da, kutilmaganda maslahatga aralashdi.

— Hoy, Jayronning otasi, birdaniga bizlarni bunchalik shoshirmang-da! Mening ham so‘rab-surishtiradiganlarim bor, axir...

Bir so‘zli ko‘sa gapirgan xotinga ko‘zlarini olaytirib qaradi.

— Bibisulton, mening kesib aytgan so‘zim o‘tmaydigan bo‘lsa, unda meni nega chaqirdinglar? — Ko‘sa birpas sukut saqladi. So‘ng yana gapirmoqchi bo‘ldi-yu. — Ana qudang, ana o‘zing! — dedi-da, shiddat bilan ilkis o‘rnidan turib, ketishga chog‘landi. Biroq uy bekasi yashmog‘ini og‘ziga yaxshigina tortib, yuzini yerga qaratib jim qolgach, so‘zi inobatga olingan ko‘sa yana mehmonlarga qaradi:

— Ha, Xo‘janafas, ko‘rdinglar, mana, biz tomondan sizlarga hech qanday e’tiroz yo‘q! Qachon kelsangizlar, bizlar taptayyormiz!

— Sizdan minnatdormiz, Xolli mirob, sizdan umidimiz ham shu edi... Endi... ayol-qizlarimizni ham tushunsa bo‘ladi. Shu sababli, Bibisulton ham so‘rab-surishtiradigan joylari bo‘lsa, bemalol xabarlashaversin. Bizlar-ku farzandlarimizning hech biridan nomimizga isnod kelishiga ishonmaymiz. Shuni Bibisulton, men sizga oldindan aytib qo‘yay...

Umuman, quda-andachilik tortishuvi doimo uzoqqa cho‘ziladigan urf-odatlardan hisoblanadi. Ikki tomon bir-birini ma’qullagandan so‘ng ham qalin masalasida, kelgan mehmonlarga so‘yiladigan mollar masalasida tortishuvlar bo‘lib turadi. Bu hammaga ma’lum. Biroq bu galgi kuda-andachilik — qarshi qudachilik borasidagi maslahat negadir tez tugadi. Qalin haqida ham, mehmonlarga so‘yiladigan mol masalasida ham hech qanday gap-so‘z bo‘lmadi.

Kelgan mehmonlarni qanday kutib olishni har bir tomon o‘z zimmasiga oldi. Taomilga ko‘ra, yangalarga ko‘ylak, uy haqi, sut

haqi, palos-kigiz haqi singari mayda xarajatlarni ikki tomon ham holi kelganicha amalga oshirishga kelishib olindi.

Ilk bor to'y qilib kelin olish navbati Cherkazning yelkasiga tushishi yana bir bor ta'kidlanib, sovchilar yuzlariga fotiha tortishdi...

6

Oftob yerdan nayza bo'yi ko'tarilgach, o'ttiz nafar chidamli-g'ayratli chavandoz, yigirmadan ortiq ayol-qiz bo'yniga qo'ng'iroqlar osilgan maxsus tuyalarga minib qudabo'larnikiga qarab yo'lga tushdilar.

Ushbu tomosha Durdiga boshqacha ta'sir qildi. U faqat shu kuni emas, balki bir necha kunlardan beri uyqudan qolib yurgan edi. Bugungi to'y oldidan bo'layotgan shovqin-suronlar esa uning ko'nglini tog'day ko'tarib, hatto xiyol dovdiratib ham qo'ygan edi. Axir, mana Durdi ham ko'p yillik orzu-umidlari yuzaga chiqib, uyli-oilali bo'layotir, to'la ma'noda uylanganlar qatoriga kirayotir. Bunday tadbirning tashvishi, albatta, hazilakam ish emasdi. Ammo hozir ketayotganlar — kelin olib keluvchilar, unga qanaqa qizni keltirishadi? Durdi uni umri davomida birrovgina ham ko'rmadi-ku, axir! Kelayotgan zaifaning esli-hushliligidan emas, hatto ko'rinishi, bo'yi-basti, yuz-ko'rkidan ham u mutlaqo bexabar-ku.

U hozircha qizni ko'rganlardan eshitganlariga, odamlarning maqtov so'zlariga qanoat qilib turibdi. Qiz ko'rkli- chiroyli emish, albatta, bu yaxshi gap. Buning ustiga, aqli-hushi ham joyida bo'lsa — nur ustiga a'lo nur bo'lardi- ya!...

Obbo, Durdining o'y-fikrlari bilan ota-onasining ham, kelin olib keluvchilarning ham ishlari yo'q. Ular o'zlarining soz-suhbatlari bilangina mashg'ul. Chavandozlar tagidagi otlarini u yoqdan-bu yoqqa choptirib qo'rishdi. Kelin olishga borayotgan ayollar esa minishga o'rgatilgan tuyalarning qadamiga mos holda, u yoqdan-bu yoqqa chayqatilib borishadi, xuddi... kimgadir noz qilayotganday!

Qudalarnikiga borgan erka-gu ayollarga darhol non-choy, quyuq-suyuq taomlar tortila boshlandi.

Turmushga chiqayotgan qiz esa bu vaqtda qo'shni uyda, bir burchakning pinjida qafasdagi qush singari pichirlab o'zi bilan o'zi so'zlashardi. "Meni o'zim tanimagan, bilmagan yot joyga uzatishmoqda. Menga uylanayotgan yigitning kimligini ham bilmayman, o'zini ham umrimda bir marta ko'rmadim. Kim biladi, u — qo'l-oyog'i butun, es-hushi joyida bo'lgan bir yigitmikan? Yoki kalmikan, ko'rmikan, shol-mayibmi, buni kim biladi?!... Mening o'z teng-to'shimmikan yoki otam bilan tengdosh bir balomikan? Ey voh! Men bir baxtiqaro bo'lmasam, qarshi qudalikka duch kelarmidim?! O'zimning xohlaganimga bormasmidim?! Ey Alloh, har holda ota-onamga orqa tayanmoqdan boshqa, qo'limdan nima ham kelardi?.."

Kelinni olib ketuvchilar o'rinlaridan qo'zg'alishdi.

Qizning boshiga otasining eskiroq bir to'nini tashlashdi. Keyin uni palosning o'rtasiga o'tqazishdi-da, to'rt burchagidan ko'tarishib, tashqariga olib chiqmoqchi bo'ldilar. Eshikda palos haqi to'langach, qizni cho'kib o'tirgan bir tuyaning ustiga chiqarishdi. Qiz minib o'tirgan tuya uni noma'lum taqdir tomon asta olib ketmoqda.

Kelinga ketgan erkag-u ayollar Durdiga suv tagidan topilgan gavharday kelinni olib kelishdi!

Urf-odatga ko'ra nikoh o'qilgandan keyin hozirgina bir-biriga yot bo'lgan ikki yosh qorong'i uyning qorong'i bir burchagida bir-biriga yaqin bo'lishdi...

7

Durdi uylangandan keyin bir necha oy o'tgach, uning yoshgina 12 yashar singlisi — Ajabni ham qarshi quda bo'lgan joyiga olib ketishdi.

Ajab ham yosh bo'lsa-da, onasining topshirig'iga ko'ra, o'zini voyaga yetgan qiz boladay ko'rsatishga harakat qilardi. Kelin bo'lib borgan joyida yangi liboslarga o'ranib, uyning to'rida osig'liq turgan gilamga orqasini berib, indamaygina, jiddiy holda o'tirardi. Uni ko'rishga kelgan ayollar qiz bilan ko'rishar ekanlar:

— Tuf, tuf! Yomon ko'zdan seni Allohning o'zi asrasin! — deb yuziga tupik sachratishardi. Ajabning to'yi ham kichkinagina davrada o'tdi.

Bu — to‘y ham emas, bo‘ldimi-bo‘ldi qabilidagi bir to‘ychiq edi, xolos. Aytganday, Ajabning bo‘lajak eri Og‘ali ham hali voyaga yetgan emas. U endigina o‘n beshga kirgan yosh o‘smir. Qishloqdagi yigitchalar to‘yning ertasigayoq uning atrofini o‘rab olishib, turli-tuman savollarga ko‘mib tashlashdi. Biri:

— Qani, polvon, kelinning yuzini ko‘raylik, chiroylimi, yo‘qmi? — deb uni shoshiltirib qo‘ydi. Boshqa biri uning yoqasidagi bog‘ichni shartta yechib oldi-da:

— Bor, xotiningning yoniga! Yangidan bog‘ich o‘tkazib bersin! — deb mazax qilib kuldi.

Biri uning boshidagi telpagini yulib olib, panshaxaga ildirdi-da:

— Kelinga ayt, uni olib boshingga o‘zi kiydirib qo‘ysin! — deb yosh kuyovning ustidan rosa kulishdi.

Tengdoshlar-u kattalar hali turmush mashaqqatlari nima ekanliginiyam yaxshi bilmagan yosh yigitchani tinch qo‘yishmay, ana shunday tinimsiz qiynashardi.

Og‘ali bunday vaqtlarda:

— Ey, boringlar-ey, buncha ozor berasanlar menga! — deb yuzini yerga qaratardi.

Tengdoshlari ham, voyaga yetgan boshqa yigitlar ham endi unga yana turli-tuman ozor berish yo‘llarini o‘ylab topishardi.

— Buni majburlab uylantirishgan-da, uyidagilar!

— E nimasini aytasan, uning kelinga kuchi ham yetmaydi-yov!

— Yordamga onangni chaqirmaysanmi? Ozorga qolmasding!

Og‘ali bunday paytlarda tinimsiz ozor-u mazaxlarga chidayolmay, birdaniga o‘tirgan joyidan dik etib turib, borib kelinga yopishgisi kelardi. Ajab ham yuzini unga ko‘rsatmaslikka harakat qilar, yopinchig‘iga mahkam yopishardi. Og‘ali Ajabning bo‘ynidan mahkam quchoqlab, ro‘molini yechmoqchi bo‘lardi. Ularning har ikkalasi yosh jo‘jaxo‘rozlarday talashib-tortishardi. Na Og‘ali kelinning yuzini ocha oladi, na kelin o‘tirgan joyida rohat topadi...

O‘smirlarga esa yosh kelin-kuyovning o‘sha kulgili holati kerak. Ular kuyovni mazax qilishni yana qaytadan boshlab yuborishadi.

— Tuf-ey, sening yigit bo‘lishingga! — deydi biri.

— Ko‘z tegmasin, Annaniyoz o‘z o‘g‘lini uylantirish vaqtini juda bilibdi-da! — deydi ikkinchisi.

— Bibisulton xola qayerda yuribdi? Nima uchun u o‘g‘liga yordam bermas ekan-a?

Og‘ali yangidan boshlangan bu ozor-u mazaxlarga chidamay, ko‘chadan yugurib kelib, bor kuchini to‘plab, Ajabning bo‘ynidan quchoqlab oladi. Qiz unga yana qarshilik ko‘rsatadi. Ikkalasi yana bir-birlarini yumdalashar, ammo bunaqa g‘alati o‘yinlardan hech qanday natija chiqara olishmaydi. Og‘ali ba’zan o‘rnidan turib, uzoq-uzoqlarga ketib qolgisi keladi. Biroq yosh-yalanglar uni qo‘yib yuborisharmidi? Og‘ali ba’zida lablarini burib, “Voy, oyijon-ey!” deb dodlagisi keladi. Ammo yigitlik or-nomusi (uylangani uchun u o‘zini tengdoshlaridan balandroq tutishga harakat qiladi) bunga imkon bermasdi.

Ajab ham o‘zi o‘tirgan joyini qafasdan ortiq ko‘rmasdi. Hozir turmushga chiqqan qizlar boshiga kiyadigan maxsus kiyimini bir chetga tashlab, o‘zining tengqur dugonalari bilan o‘ynagisi kelardi. Og‘ali bo‘ynidan quchoqlab bo‘g‘ganida, “Voy, oyijonim-ey!” deb qichqirgisi keladi. Biroq kelin bo‘lgani uchun hayo-uyat hissi bunga yo‘l qo‘ymaydi. Shunday bo‘lsa-da, bu masxara qilishlarni ko‘tara olmay, bir chekkaga chiqib yig‘lab-yig‘lab olar, lekin ko‘zlaridan oqqan duv-duv yoshlarni yashirardi.

Yoshlar turmush lazzatidan hozircha uzoqroq bo‘lganlari uchun ham Ajabni o‘zi tug‘ilgan maskaniga — ota uyiga qaytarishdi.

Durdining hayot tarzi butunlay o‘zgacha kechmoqda edi. Ulkan qora uyning to‘rida boshiga kelinlar kiyadigan qizil yopinchiq o‘ragan, turmushidan ko‘ngli to‘q kelin Durdining ko‘ziga nihoyatda suyukli ko‘rinadi.

Durdining tevarak-atrofiga yig‘ilgan yosh-yalanglar bugun ham uni sinab ko‘rishni maqsad qilishgan. Ulardan biri o‘rnidan turib Durdining telpagini yonboshda turgan panshaxaga ildirdi va hech narsa demay yana joyiga borib o‘tirdi.

Yostiqqa yonboshlab yotgan Durdi o‘rnidan qo‘zg‘almay, mo‘ylovini burab dedi:

— Xotinjon, bular ikkalamizni sinamoqchi. Sen meni qo'zg'atmagin-da, ularning istagini o'zing bajargin!

Durdining xotini go'zal Obodon yosh yigitlarning bu hazilini tushunib, erining aytganini darhol bajardi. Telpakni panshaxadan olib, uni yana Durdining boshiga oldin qanday turgan bo'lsa, shunday kiydirib qo'ydi.

Yigitlarni biri dik etib o'rnidan turdi-da, endi Durdining yoqasidagi bog'ichni yechib oldi.

Durdi yana o'z holatini o'zgartmay, oldingi ohangda:

— Xotinjon, bularning xohishi ikkalamizni urishtirishdan iborat, — dedi. — Ikkalamiz ularning fitnasiga uchmaymiz. Yoqamdagi bog'ichning bahosi qimmat emas, sen mehnatdan qochmagin-da, yangi bog'ichni yoqamga ildirgin!

Durdining xotini ignaga darhol ip o'tkazdi-da, kelinlar kiyadigan bosh kiyimi bilan yuzini pana qilganicha, oyoq ustida turib bog'ich tikdi. Do'stlarining qiliqlarini yaxshi bilgan Durdi ba'zan ulardan oldin aytmoqchi bo'lgan fikrlarini aytmay turiboq amalga oshirdi. U xotinining yuzini berkitib turgan yopinchiqni ehtiyotlik bilan bir chekkaga surdi-da:

— Jo'rajonlarim, mana qaranglar, xotinim qanaqaligini! U menga munosibmi? — deb so'radi.

Obodon biroz uyalinqiraganday bo'lsa-da, xuddi kelishib olinganday qimir etmay joyida o'tirardi. Nihoyat jo'raboshi yigit:

— Ko'z tegmasin, o'zingga nasib qilsin, qo'sha qaringlar! — degunicha Durdi xotinining yuz yopinchig'ini ko'tarib turdi. Obodon ham o'tirgan joyidan qo'zg'almasdan o'tiraverdi.

Ajabni olib kelganlar Obodonni ham o'zlari bilan qaytarib olib ketishdi.

— Qudajonlar, qizimiz Obodonni bir-ikki hafta o'tgach, orqasiga qaytaramiz, — deb, urf-odat bo'yicha va'da berishdi quda tomon. Biroq turli bahonalar topib, xususan, Durdining cho'g' bosgan jo'jaday tipirchilab, jon kuydirishlariga qaramay, qizni qirq kunlab uylarida tutib o'tirgach, nihoyat orqasiga qaytarib yuborishdi.

...Kambag'al oilalardan yuzaga kelgan qarshi qudalarning qarshi kelinlari o'zlarining uylarida turmushga chiqqanlaridan keyin

ham ikki yil davomida binoyidek yashashdi. Bu orada har kim o‘z qiziga imkoniyatidan kelib chiqib sep qilishdi. Quda tomonlar qurblari yetganicha kelinlariga kiyim-kechak, uzuk, sirg‘a kabi narsalarni olib berishdi.

Ajab ham endilikda voyaga yetay deb qolgandi. Og‘alining mo‘ylovlari qorayib, ovozlari do‘rillab, yigitlikning sirli olamiga kirdi...

8

Oradan haftalar, oylar o‘tib, vaqti-soati yetganida Durdining xotini qiz tug‘di. Chaqaloq tug‘ilgandanoq, nozik-niholligi hamda yoqimli-mehrligi bilan barchaning e’tiborini tortdi. Unga, Nozikjamol deb nom berishdi. Bir necha nafar oila a’zolari bilan, uning ustiga yosh chaqaloq bilan tor, qora uyda kun kechirmoq qiyin bo‘lsa-da, boshqa ilojlari bo‘lmagani uchun Durdi bilan Obodon qizlari ikki yoshga to‘lgunicha o‘sha uyda yashashga majbur edi. O‘g‘li va kelinini yangi uy qurib, alohida chiqarishga Cherkazda mablag‘ yo‘q. Shunday bo‘lsa-da, “Tayoq kelguncha musht yaxshi” deganlariday, oddiygina kulbasimon chayla tiklashib, Durdining kirib-chiqadigan katagini mustaqil qilib berishdi.

“Kulbani qurgan qurisin, ichida yotgan qurisin”, deb aytilgan naql, albatta, bejiz emas ekan. Uyning ko‘rinishi xuddi kaptarning uyasiga o‘xshardi. Uch-to‘rt joydan tubi yerga tiralib, boshi yuqoriga birlashtirilib bog‘langan yulg‘un xodalari pastdan tepagacha chiviqlar, xodachalar bilan o‘zaro qattiq bog‘langan. Usti esa uydagi eski-tuski ko‘rpa-to‘shak, qop va shunga o‘xshash narsalar bilan yopilgan. Bu kulba o‘z xo‘jayinlarini na shamol-yeldan, na qor-yomg‘irdan tuzuk saqlay oladi. Bu uyning ichida kerishsang, qo‘ling — is-qo‘qqa, tikka tursang, boshing tuynukka tegadi. “Kulbalining to‘ri o‘ziniki”, degan naql so‘zning paydo bo‘lganining sababi ham shu bo‘lsa kerak. Eshikdan kirgan mehmon joy torligidan kulba to‘riga o‘ta olmasdi.

Shunday bo‘lsa-da, mustaqil, alohida kulba Durdi bilan Obodon uchun ko‘p sonli odamlar yashaydigan qora uydan o‘ng‘ayli ko‘rindi. Chunki ular bu yerda o‘zlari xon, ko‘lankalari maydon bo‘lib yashashadi. Er-xotinlar nazarida haliyam ko‘p ashqol-dash-

qol tashlanmagan kulbaning ko'lami ancha keng. Bu yerda er-xotin xotirjam suhbatlashadilar, chaqaloqni ham istagancha erkalab, o'ynab-kuladilar, qichqirishib oladilar.

O'zaro shirin o'tayotgan sho'nday go'zal hayotda er-xotin uchun bu kulba keng qora uyday, hashamatli hovliday tuyuladi...

9

Ajab ilk kelinlik kunlarini yodiga olsa, beixtiyor kulib yuboradi. Hozir u Qoqsholbukri qishlog'ining eng taniqli kelinlaridan biri. Ajabning qo'lidan kelmaydigan narsaning o'zi yo'q. Ayniqsa, uning shirinsuxanligi, ochiqligi qo'ni-qo'shnilarga ham ma'qul tushgandi.

Xususan, Og'ali bilan ikkalasi o'rtasidagi samimiy munosabat yoshlarni bir-biriga qattiq mehr-muhabbatli qilib qo'ygandi.

Turmush qurganlaridan ikki yil muddat vaqt o'tgach, dunyoga kelgan o'g'ilchalari faqat uch kun yashadi, xolos. Yoshlar uchun bu yo'qotish og'ir zarba bo'lsa-da, kelajak umidlari ularga tasalli berardi. Biroq kelajakning kimga nima buyurganini hali hech kim bilmasdi.

Og'ali bir kun mayda-chuyda narsa olish uchun shaharga jo'nadi. Biroq u shaharga yetib borolmadi. U boshining qattiq og'riyotganini, kayfiyatining ham o'ta sust ekanligini otga minayotgandayoq sezgandi. Lekin u bu to'g'rida Ajabga bir og'iz ham so'z aytmay yo'lga tushaverdi. Og'riqni ochiq havo va yo'lning o'zi yo'qotib yuborsa kerak, deb o'ylagandi. Ammo uning o'ylagani ro'yobga chiqmay, boshidagi og'riq kuchaygandan kuchayaverdi. Badanining issig'i kuchayib, og'zidan havo emas, go'yo olov chiqayotganday edi, nazarida. Shu sababli, u otining boshini o'rta yo'ldan iziga qaytardi.

Og'ali jo'nagan paytdagi endigina ko'tarilgan oftob bu vaqtda tik osmonda edi. Tashqari-ichkarida o'ynab yurgan bolalarning:

— Ey-y! Yashasin! Og'ali og'amiz kelyapti. Bozordan bizlarga shirinlik keltiryapti! — degan ovozlari keldi.

Ajabning qulog'iga bu tovushlar juda g'alati eshitildi.

— Yo tavba! Bu qanaqa xabar? Og'alining ketganiga ko'p vaqt bo'lmadi-ku?!

Shaharga borib keladigan fursat bo‘ldimi hali? Yoki bolalar adashdimikan?...

Yuragi bir narsani sezganday Ajab otilib tashqariga chiqdi. Otda kelayotgan odam haqiqatda ham Og‘ali edi. Biroq uning ot ustida o‘tirishi Ajabga g‘alati ko‘rindi. Og‘ali pastga dumalab ketadiganday, egarning ustida ikki tomonga og‘ib-og‘ib kelayotir. Boshini egar ustidagi gavdasi tikka tutib turolmasdi. Birdaniga tikkaysa-da, ko‘p o‘tmay boshi yana yon tomonga egilib-egilib ketadi.

Og‘alining rang-ro‘yiga qarab bo‘lmas, u o‘zgarib ketgandi. Yuzlari qorayib, ko‘zlaridagi yoniq shu’la ham xira tortib qolganday. Uning bu ko‘rinishi Ajabni dovdiratib qo‘ydi.

— Hoy, otasi, sizga nima bo‘ldi? — deb chinqirdi u jonholatda. — Yuz-ko‘zingizga qarab bo‘lmaydi! Salomatligingiz yaxshimi?

Og‘alining lablari chala qimirlaganday ko‘rinsa-da, u Ajabning so‘roqlariga javob bera olmadi. U faqat qo‘l imosi bilan otdan tushishga o‘zining madori yo‘qligini ma’lum qildi.

Og‘alining uzangidagi oyog‘i ham chalajonday ko‘ringanini sezgan Ajab uni dadil quchoqlab, otdan tushishiga ko‘maklashdi. Shu payt allaqayoqdan yugurib kelgan Bibisulton ham o‘g‘lining bir yonboshidan mahkam yopishdi.

— Voy, bolajonim, senga nima bo‘ldi? Yaqindagina kulib-o‘ynab ketganding-ku? Senga qanaqa jin-ajina yopisha qoldiya?!.

Onasi va xotini Og‘alining qo‘ltiqlaridan ushlashib ichkariga olib kirishdi, to‘shak ustiga yotqizishdi.

Og‘ali qovog‘ini uyib, shag‘-shag‘ nafas olib, oh-vohi borgan sari ortib borardi. Og‘ziga yashmoq tuggan Ajab ovozini chiqarishga qaynonasidan uyalib ko‘zlaridan shashqator yoshlar to‘kar, jonini ato qilmoqchiday Og‘alining qo‘llarini mehr bilan uqalardi. Bibisulton ham ko‘z yoshlarini selday to‘kkan holda, bemor o‘g‘lining tepasida poyintar-soyintar yig‘lamsiraydi:

— Jon qo‘zichog‘im, senga nima bo‘ldi, a? Erta bilan seni ko‘rganimda chehrang gulday edi-ku, axir!.. Yoki seni jin-arvoh urdimi?

Qaynona bilan kelin Og'alining javobini sabrsizlik bilan kutishardi. Og'ali hamon shag'-shag' titrab, har bir so'z orasida bazo'r nafas olib, ahvolini zo'rg'a bayon qildi.

— Men ertalab jo'nayotganimda... ahvolimning yaxshi emasligini... sezgandim... Biroq o'tib ketsa kerak, degan xayolda... sizlarga aytmagandim... Men faqat o'rta yo'ldan... orqamga qaytganimni bilaman... Uyga qanday yetib kelganimni... to'g'risi, sezmadim... mening og'zimda zahar borga o'xshaydi... Kallam xuddi yorilib borayotganday...

— Kallang og'riyotgan bo'lsa, terlab bir choy ichsang, tuzalib ketasan, bolam!

— Faqat boshim emas... onajon!.. Mening butun vujudim yonib ketayapti... Gavdam kelisop bilan urib ezilganday...

— Biror narsa yeging kelayaptimi?

— Yo'q, onajon...

— Men senga hozir shiringina unoshi qilib beraman.

— Yo'q, onajon, mening hech narsa yegim kelmayapti... Jonimning og'rig'iga chiday olmayapman, xolos...

— Senga, bolam, Ajab achchiq ko'k choy damlab beradi. Bir-ikki piyola choy ich. Ungacha men borib eshon domladan duo yozdirib kelaman. Xudo xohlasa, kasaldan qutulasan, bolam!

Og'ali umidsiz holatda boshini chayqadi:

— Qani edi, shunday bo'lsa, onajon...

Bibisulton sandig'idan kattagina oq ro'mol chiqardi-da, uchiga bir tanga tugdi. Tez kiyinib eshonning uyiga qarab yugurdi.

...Eshon peshin tahoratini olib, namozini o'qigach, cho'k tushganicha Qur'oni Karim kitobidan bir surani pichirlab o'qib o'tirardi. Shu payt Bibisulton:

— Assalom, eshon og'a! — deb eshon o'tirgan joyga kirdi.

— Vaalaykum assalom, Bibisulton! Kelaver, ko'rpachaga o'tir. Nima gap, qizim? Tinchlikmi?

Bibisulton o'choqboshida omonatgina cho'nqaydi-da shoshganicha maqsadini bayon qildi.

— Eshon og'a, men huzuringizga juda shoshilinch keldim. Menga ixlos bilan, butun kuch-quvvatingizni, e'tiboringizni qaratib tezda duo yozib bering...

— Xo'sh, Bibisulton, uyingda noxush bo'lgan kim?

— Ey eshon og'a, tinchim yo'qoldi! Erta bilan shaharga ketgan o'g'lim kasallanib, o'rta yo'ldan zo'rg'a uyga qaytib keldi. Hozir uyda o'zini bilmay yotibdi.

Eshon Bibisultonning ko'nglini ko'tarish payiga tushdi:

— Bibisulton, sen qayg'urma. Mana, hozir men yaxshilab duosini keltirib, shunday bir kuchli shifo duolarni yozib, dam solib beraman. O'g'ling birpasda sog'ayib, oyoqqa turib ketadi. Biz uchun bunday mayda-chuyda kasalni sog'aytirish qiyin ish emas.

— Allohim, harna shunday bo'lsin! Allohga shukur, nafasingiz kuchli. Sizdan doimo duo olganimizda nafini sezganmiz, Eshon og'a!

— Yaratgan Egam qo'llab-quvvatlasa, bu gal ham shunday shifo topasizlar!

Eshon ruchka bilan siyohdonni yoniga olib, ko'zoynagini kiydi-da, bir oyog'ini ostiga olib, bir oyog'ini yonlatib uzatib, yakka tizzalab o'tirdi. Qog'oz ushlagan qo'lini tizzasi ustida qo'ydi-da, ruchkani siyohdonga tez-tez botirdi, bir narsalarni shivirladi, og'zi-ko'zini o'ynatdi, burnini qiyshaytirdi, og'zidan shamollar chiqardi.

Bibisultonning nazarida eshon juda jonini qiynab, ruhlarni yordamga chorlar, ota-bobolarning ruhlari yordamida jin-ajinalarni qattiq savalardi, go'yo. Eshonning o'tirishi, harakatlari, yuz qiyofasi Bibisultonni shunday o'ylashga undadi.

Eshon og'a shu o'tirishda uchta duo yozdi. Ularning birini uch buklab, yuziga belgi qo'ydi. Yana birini uch burchak shaklida bukladi, biroq ustiga hech qanday belgi qo'ymadi. Uchinchi duo yozilgan qog'ozni to'rtburchak shaklida bukladi. Keyin har birining ustiga uch martadan suf-kuf qildi-da, Bibisultonga uzatdi.

— Mana, Bibisulton! Ustiga belgi qo'yilgan uchburchakli duoni Og'alining bosh kiyimiga tikkin, to'rtburchakli duoni suvga bo'ktirgin-da, yaxshilab ez. So'ng suvini o'g'lingga ichir. Uchinchi duoni esa kelining taqib yursin...

Bibisulton uchinchi duodan hayron qoldi.

— Eshon og'a, kelinim soppa-sog'-ku!

— Kelining sog'lom ekanligini men ham bilaman, Bibisulton. Men buni unga kasal yuqmasligi uchun yozdim, bildingmi?

— Sizga ming bor tashakkur, eshon og‘a! Orzu-tilagimizga doimo sog‘ bo‘ling! — deb uchiga tanga tugilgan oq ro‘molni eshonga uzatdi-da, tezda orqasiga qaytdi.

Og‘alining ko‘ngli hech narsani tusamasdi. Dardi soat sayin og‘irlashib borar, og‘riqdan oh-vohi ko‘paysa-ko‘payar edi-yu, kamaymasdi.

— Voh, yuragim yonib ketayapti! Bir piyola suv beringlar-ey!..

Bibisulton duoni piyolada yaxshilab ezdi-da:

— Bolam, eshon og‘a ixlos bilan duo yozib berdi. Mana, shuni ichgin, shoyad malham bo‘lsa?! — deb o‘g‘liga tutdi.

Ajab erining boshini avaylab ko‘tardi. Og‘ali qog‘oz va yozuvdan kirlangan suvni qiynala-qiynala yutdi.

Uchburchak duoni lattaga o‘rab, hozircha ip bilan ustidan bog‘lab, xasta yigitchaning bo‘yniga osib qo‘yishdi.

Og‘alining og‘ir ahvoli qarindosh-urug‘larning barchasiga yomon ta’sir qildi. Ularning bemor atrofiga yig‘ilib kelishlari ko‘paydi. Endi bitta xastaning emas, uning atrofidagilarning ham, kelib o‘tirganlarning ham kayfiyatlari chatoq edi.

Og‘alining hol-ahvoli vaqt o‘tgani sayin og‘irlashib boraverdi. Eti borgan sari qizib, alahsirar, terlayolmagani sabablimi, yigitcha vasvasaga tushib o‘zini u yoqqa-bu yoqqa urardi:

— Voy, bular kuchuklar-ku!.. U qizil it qayerdan keldi? A-a, Eshon og‘a ularni bozordan olib keldimikan?... Voy-bo‘y, juda ezib yubordi-ku, bu!.. Ha-ha-ha...

Og‘alining aytgan so‘zlariga har bir yig‘ilgan qarindosh o‘zicha fikr bildirib o‘tirardi. Qaysidir biri gap orasida:

— Bu aqldan ozganga o‘xshaydi! — deb qo‘ydi.

Ayollardan biri shivirladi:

— Yolg‘iz yurganda jin-ajinaga yo‘liqqanga o‘xshaydi...

Kimdir biri maslahat berdi:

— Porri tabib (azayimxon)ni chaqirib, bemorni o‘qitish kerak!

Qarindoshlar Og‘alining og‘asi Annaniyozni Porri azayimxonni olib kelish uchun yuborishdi.

Og‘aliga eshonning duosi kor qilmadi. Keyin unga dam solingan tuz olib kelishdi. Undan ham naf bo‘lmadi. Yigitcha uzoq tun-

ni qiynalib, har xil so'zlarni gapirib o'tkazdi. Ertasi kuni peshinga yaqin Annaniyoz Porri azayimxonni olib keldi.

10

Oshiga zahar qo'shilgan Ajabning kunlari yig'i-sig'i bilan o'tardi. Judolik olovi o'z qa'riga tortsa-da, boshiga tushganiga chidashdan boshqa chorasi yo'q. Har daqiqasi qiyinlik bilan o'tgan kunlar — haftaga, haftalar — oylarga, oylar — bir-biriga yig'ilib, tutashib... oradan yarim yil ham o'tdi.

Eridan erta tul qolgan kelinining qismati — uni erining tug'ishganlaridan biriga qo'shish! Bu odat o'sha vaqtdagi nikoh qonun-qoidalarining turkmanlar ongiga singigan bo'lmag'ur bid'atlardan biri edi. Biroq Ajabni qabul qilguday Annaniyozning Og'alidan o'zga o'g'li ham yo'q.

Annaniyoz uzoq o'ylandi. Agar kelin o'z uyiga ketadigan bo'lsa, katta uy huvullab qoladi. Undan tashqari, o'zlarining mulkiday hisob qilingan tul kelinning boshqa birovnikida paydo bo'lishi — Annaniyoz va uning erkak qarindoshlari uchun or-nomusning toptalgani. Shuning uchun Annaniyoz tarafidagi qariyalar Ajabni Annaniyozning akasi Nurniyozning o'g'li Murodga qo'shish qarorini ma'qullashdi.

Murod o'ttizdan oshgan, qalin qora soqolli, yuzi cho'tir, kalta bo'yli, yo'g'on odam bo'lib, xotini, ikki o'g'li va bir qizi — jami besh kishi bo'lib, alohida qora uyda yashardi.

Ajab esa endigina o'n oltiga kirgan yosh kelinchak. Xotinli va o'g'il-qizlari bor Murod unga mutlaqo munosib emas. Ammo shafqatsiz va bema'ni urf-odat qonunlariga rioya qilgan katxudolarga qarshi fikr bildirish, ularning aytganini bajarmaslik ojiza tul ayolga mutlaqo mumkin emasdi!

Vaziyatning bunday tus olishi Ajabning ming bor yotib-turib o'ylasa-da, xayoliga kelmagan edi! Albatta, u endi qolgan umrini yolg'iz qandoq o'tkazaman deb dahshatga tushardi. Qismatining zimistonligi, noaniqligi, mavhumligi uni dovdiratib tashlagan edi. Biroq u hech qachon o'zini kimgadir xotin ustiga xotin qilib berishadi, deb o'ylagan emas...

Birdaniga bu tul kelinchak o'zining keyingi qismatidan xabar topdi.

Albatta, Ajabning rozi-noroziligini so‘ragan odam bo‘lmadi. El-yurt orasidagi rioya qilingan qonun-qoidaga binoan, ayollar bo‘yniga ziynat uchun taqilgan kumush taqinchoq zanjirni boshqarish endi Murodning qo‘lida! Haq-huquqsiz Ajab bechora xohlasin-xohlamasin shu odamning xotini bo‘lishi shart. O‘z bo‘yniga tashlangan tengsizlik zanjirini uzib tashlamoqqa Ajabda kuch-quvvat qani? Biroq “Yotib qolguncha, otib qol”, deganlariday, Ajab ham ustiga bostirib kelayotgan balo-qazoning tagidan sog‘-omon chiqmoq chorasini izladi.

Ko‘nglida uyg‘ongan sal-palgina umid uchqunlari unga qayoqdandir najot kutish kerakligini aytayotganday edi. Kelgan-ketganlar orqali hech kimga bildirmay o‘zining noiloj hol-ahvolini ota uyiga atroflicha yetkaza oldi.

— Ey mening mehribon ota-onam! Men begona el ichida ersiz, boshim bo‘sh, homiysiz, yakka-yolg‘iz yashayapman. Hozir mening ahvolim haddan tashqari og‘ir. Mening maylimga, istak-xohishlarimga qaramay, otam bilan deyarli tengqur bo‘lgan odamga xotin ustiga meni uzatishmoqchi. Men o‘lsam o‘lamanki, bunga rozi emasman. Biroq bu yerda mening rozi-noroziligimga hech kim e’tibor berib qarayotgani yo‘q. Meni bunday tengsiz zulmatdan sizlar xalos qilmasangiz, kim ozod qila oladi?! Begona el ichida ojiz qolgan qizlaringizga homiylik qilmoqchi bo‘lsangiz, hozir juda payti. Ozgina hayallasanglar, keyin kech bo‘ladi. Meni qo‘llab-quvvatlanglar! Sizlarning bermoqchi bo‘lgan yordamingizga qarab, ko‘zim hamisha yo‘llaringizda. Meni yolg‘iz qoldirmanglar!...

...Ajabning ushbu dil so‘zlari ota-onasiga yetib keldi. Bu xabar ota-onani nihoyatda og‘ir ahvolga soldi. O‘z qizini zulm ajdarining og‘ziga otishni qaysi ota-ona xohlaydi?.. Biroq bu yerda boshqa murakkab masala, xavfli bir vaziyat mavjud. Bular Ajabni olib kelishsa, ular Obodonning ham orqasidan kelib, olib ketishlari tabiiy. Ey voh! Qarshi quda bo‘lish ham qurib ketsin ekan!.. Voqea-hodisaning oxiri janjalga, hatto ur-yiqitga, yoqavayronlikka borib taqalishi mumkin...

Qizning ota-onasi shu to‘g‘risida ko‘p o‘ylanishdi. Nima bo‘lganda ham Ajabni bu tengsiz savdodan qutqarish kerak edi.

Ammo qanday yo‘l bilan? To‘g‘ridan to‘g‘ri borib, olib qaytmoqchi bo‘lsang, Ajabning qaynilari bunga qarshilik qilishadi. Balki bunga ularning haqi ham bor, degan xayol ota-ona ko‘nglidan o‘tib, yo‘lni yopib turibdi. Nima bo‘lmasin, Ajabni uylariga olib kelish uchun ishonchli bahona qidirmoq lozim edi. Ular eng oxirida shunday xulosaga kelishdi. Ajabning orqasidan Durdining ukasi Saxiyni yuborishadi. Saxiy Annaniyozlarg‘a borib, “Onam og‘ir kasal bo‘lib qoldi. U ikki so‘zining birida o‘lmasimdan oldin Ajabni bir ko‘rib qolay, deb zor-zor yig‘lab yotibdi. Shu sababli otam meni qudalardan ruxsat so‘rab, Ajabni olib kel deb yubordi” mazmunida xabar aytadi... Nariyog‘iga Xudo poshsho.

...Saxiyning oti qora terga botib ketganini ko‘rgandanoq Annaniyozning ko‘nglida turli gumonlar paydo bo‘ldi. U sog‘liq-omonlik so‘rashdi-yu:

— Xo‘sh, o‘g‘lim, otingni qora terga botirib, qattiq haydabsan, tinchlikmi? —deb so‘radi.

Saxiy o‘ziga berilgan topshiriqni uqtirganday ma’lum qildi.

— Yo‘q tinchlik emas, Annaniyoz og‘a! Otimni choptirib kelishimning sababi bor. Onam qattiq kasal bo‘lib qoldi. Kecha-kunduz og‘zidan “Ajab” degan so‘z tushmaydi. Otam onamning oh-zoriga chidamay, eng oxirida meni sizning huzuringizga yubordi. “Annaniyoz qudamizga ayt. Ajabni sen bilan yuborsin. Onamiz sal tuzalishi bilan opamizni yana o‘zi bu yerga olib kelar ekan...”

Annaniyoz soqolini silab o‘tirar ekan, chuqur uf tortdi:

— Shunday bir holatning yuz berganini uzoqdan kelishingdanoq sezgandim, — dedi yana ko‘nglida paydo bo‘lgan turli-tuman gumonlarni haydar ekan. U ko‘zini bir nuqtaga tikib, chuqur o‘yga toldi. “Ey Xudoyim-ey, kelinni biz erta-indin Murodnikiga eltmoqchi bo‘lib turgandik. Hozir uni uyiga yuboradigan bo‘lsak, akam bilan oramizga sovuqlik tushadi. Kelin uylariga borgandan so‘ng biz amalga oshirmoqchi bo‘lgan ishga norozi bo‘lib, “Men endi izimga qaytib bormayman” deyishi ham mumkin. Bu yoqda tug‘gan onasi og‘ir yotar ekan, akasi bilan qo‘yib yubormaslik ham odamgarchilikdan bo‘lmaydi. Kelganni iziga yolg‘iz qaytarsak, kelinning fe’l-atvori ham buzilishi mumkin...”

Annaniyoz o‘z fikr-xayolidan biror xulosa chiqara olmagach, bu borada xotini bilan maslahatlashdi. Bibisulton Annabaxtning noxush bo‘lganidan afsus qildi.

— Voy-voy, jonim inim-ey, yaxshi xabar olib kelmabsan. Ilohim Annabaxt qudamiz tez tuzalib ketsin-da!..

Bibisulton qayg‘u-hasratini ma’lum qilgach, ehtiyotkorlik bilan eriga qaradi:

— Hoy, otasi, bugun-erta deb, vaqtimiz to‘g‘ri kelmaganligi uchun Annabaxtning nabirasini vaqtida muborak qilishga ham borolmadik. Bu yigitchaning o‘zini qaytarsak-da, ikki-uch kundan so‘ng barchamiz Ajabni ham olib borsak, qanday bo‘lar ekan? Ana shunda biz ikki ishni birga bitirgan bo‘lardik. Ya’ni, Annabaxt qudamizning holidan ham xabar olardik, ham nabira bilan qutlab kelar edik...

Aslida Bibisultonning maqsadi shu ikki-uch kunning ichida Ajabni Murodning uyiga eltib tashlash edi. Ayolining fikri Annaniyozga ma’qul tuyulgandi. Biroq shoshilinch kelgan Saxiy ularning suhbatiga aralashdi.

— Bibisulton xola, agar hozir men Ajabni olib ketmasam, u onamni ko‘rmay, vidolasholmay qolishi mumkin. Yolg‘iz qizini ko‘rmasa, onam faqirning ham ko‘zi ochiq ketishi mumkin, axir!..

Bibisulton uning so‘zini bo‘ldi.

— Voy, Saxiyjon, nimalar deyapsan, bolam? Annabaxt qudamiz Xudo xohlasa tuzalib ketadi, albatta!

— Voy qani edi, shunday bo‘lsa?... Ha, Bibisulton xola, nabira fotihaga borish eskirmaydi. Sog‘liq bo‘lsa, nabirani onam sog‘ayib ketganidan keyin borib qutlaysiz.

Masala, albatta, qiyin edi. Hozir Ajabni o‘z tug‘ishgan og‘asi bilan qo‘shib jo‘natmoq — ushlagan xumo qushingni qo‘lingdan o‘zing chiqazib yuborganday bir kelishiksiz voqea edi. Saxiyning yakka o‘zini qaytarib yuborish ham odamiylikka to‘g‘ri kelmasdi. Buning ustiga Saxiyning kelishidan xavotirlangan Ajab ham allaqachon “Voy oyijon!”lab yig‘i-sig‘ini boshlab yuborgan...

Albatta, endi Ajabni og‘asi bilan jo‘natmoqdan boshqa chora qolmagan edi.

11

Ajab ketgan kundan boshlab Bibisulton tinchini yo‘qotdi, oromidan ayrildi. U uydan tashqariga chiqqanda qayg‘u-g‘am to‘la yoshli ko‘ziga keng dunyo tor ko‘rinadi. Tashqaridan uyga kirganida hech kim yo‘q bo‘lgan qora uyning yog‘och-xodalari go‘yo uni siqib-ezayotganday bo‘lardi.

Oradan to‘rt kun o‘tdi. Bir haftadan oshdi. O‘n kunlik muddat ham orqada qoldi. Biroq Ajabni Bibisultonlarnikiga qaytarib olib kelishmadi. Bibisulton bezovta ona tovuqday, u xonadan-bu xonaga tinmay kirib-chiqadi. Oxiri olovda kuygan parvonaday bir joyda to‘xtadi.

— Ey voy, endi ne iloj qilayin? Ajabdan hozirgacha xabar yo‘q. Unga nima bo‘ldi ekan-a?... Otasi, boring izidan, undan xabar olmasangiz bo‘lmaydi!...

Bibisulton Annaniyozga shu tarzda gapiraverib tinchlik bermadi.

Ajab kelini iziga qaytavermagach, shuningdek, uni Murodnikiga olib boradigan maslahat kuni kechikkanligi, buning ustiga Bibisultonning janjal-to‘poloni kuchayavergach, Annaniyoz kelinining izidan maxsus odam yuborib, hol-ahvolni o‘rgandi. Yuborgan odami ahvolning butunlay o‘zgarganligini aytib keldi. Annabaxt kasal emas ekan. U soppa-sog‘ yurgan akan, Ajabni esa ota-onasi orqasiga qaytarish to‘g‘risida mutlaqo o‘ylamayotgan ham ekan.

“Xo‘sh, qudajon, bizning kelinimizni nima uchun o‘z uyiga qaytarib yubormadingiz?” degan savolga Cherkaz betini yonboshga burib, muloyim ohangda shunday javob qaytaribdi.

— Bunga men o‘zim ham juda xijolat chekyapman. Biroq keliningiz o‘lsam ham orqamga qaytmayman deb, ikki oyog‘ini bir etikka tiqib o‘tiribdi. To‘g‘risini aytsam, men ham bu ishga nima qilishimni bilolmay qoldim. Qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, ot orqasiga mindirib yuborsammi deyman-u, o‘z qizing bo‘lgandan keyin bu ishga yurak yutib, jazm qilolmas ekan odam. Siz qizim bilan o‘zingiz gaplashib ko‘ring, balki bir sabab bilan uni rozi qilarsiz...

Orqaga qaytish o‘zi uchun jahannam ekanligini qat’iy tushungan Ajab og‘zidagi yashmog‘ini ham olib tashlagan emish. Ana, xolos!

— Mening tanamni parcha-parcha qilib tashlasangiz ham sizlarning o'sha niyatlaringizga bo'yin egmayman. Erimdan judo bo'lib, baxtsiz bo'lib qolganim yetmay, umrbod xotini bor erning ikkinchi qul cho'risi bo'lishni hech qachon istamayman! — deb ochiq javobni aytibdi Ajab...

G'isht qolipdan ko'chganini sezib, "Yotib qolguncha otib qolish"ni istagan qudalar ikkinchi marta yana elchi yuborishdi. Elchi yana bir o'zi orqaga yolg'iz qaytdi. Annaniyozning fikricha, Cherkazlarning qilayotgan qiliqlari, albatta, quyushqondan chiqishdan boshqa narsa emas. Ularning shu qilganiga yarasha, kutilmaganda besh-olti otliq bilan borib, kelinni zo'rlik bilan orqasiga olib qaytsa bo'ladi. Ammo bu xil zo'rlik quda-andachilikda yaxshi ish emas. Annaniyoz qishloq oqsoqoli Xolli mirob bilan shu haqda maslahatlashdi.

Qishloq eshonini hamroh qilib, Xolli mirob, Annaniyoz uchalasi uchinchi marta qudalarni insofga chaqirib, Ajabni olib qaytmoqchi bo'lishdi.

Eri dunyodan o'tib, endilikda boshi bo'sh qolgan Ajabga atrof-atrofdan kun sayin sovchi kelmoqda edi.

Eski qudalar hurmat-e'tibor bilan qarshi olinganday tuyulsa-da, oralaridagi sovuq munosabat jiddiy yuz ko'rinishidan, ko'z qarashlaridan, hatto so'zlashilgandagi tovushlarning past-baland chiqishidan ham ochiq-oydin sezilib turardi.

Qudalarning izzat-ikromi nazarga olinib, qishloq oqsoqoli Xo'janafas ham bu manzaraga taklif qilindi. Ilk qudachilikka borganlaridagi xursandchilik, izzat-hurmatlar qayoqqadir uchib ketganligi sababli, o'rtadagi suhbat iliq bir yo'nalishga tushib keta olmay, loyga botib qoldi. Yuzlarini pastga qaratib, jimgina o'tirgan odamlarning qay biridan ovoz chiqib qolsa, barchani birdaniga qo'zg'alonga da'vat qiladiganday tuyulardi.

Annaniyoz, avvalo, erkak qudasining hol-ahvolini so'rashni o'zi uchun zarur deb bildi. Ammo choy qaytarish bilan mashg'ul bo'lib yurgan Annabaxtga qarab gapirganida, tovushi qandaydir sun'iyroq chiqqani sezildi.

— Ko'z tegmasin, Annabaxt quda, yuz ko'rinishingiz yomon emas ekan. Saxiy borganida "Oxirgi damini olib yotibdi", degani

uchun qattiq qo‘rqqan edik. Mana, hozir ko‘rib turibmiz, Xudoga shukur, oyoqqa turib ketibsiz!

Annabaxt bunga javob qaytarishga shoshilmadi. U o‘z odatiga ko‘ra, kulimsirab gapirganday ko‘rinsa-da, ovozida qudalaridan norozilik ohangi sezilardi.

— Ha, Obodon kelinimizning otasi hurmat qilib, quda-andalarining hol- ahvolidan o‘z vaqtida xabar olish uchun kelganini ko‘rib, quvonch quvvati meni darrov sog‘aytirib yubordi. Bundan tashqari, maxsus kelib, nabiramizni muborakbod qilayotganingiz uchun ham men sizdan juda-juda roziman!...

Annaniyoz shunda so‘z qo‘zg‘aganiga o‘zidan o‘kindi. Annabaxtning achchiq javobi uning yuragini o‘qday teshib o‘tdi. O‘zidan xafa bo‘lgani uchun yuzini yerga qaratib, o‘yga cho‘mgan kishi bo‘ldi.

O‘tirganlarning barchasidan yuqorida to‘rda chordana qurib o‘tirgan eshon ko‘k choyni ho‘plab, moshguruch soqolini silaganicha gapira boshladi:

— Ey Xudoning bandalari, la’nati shaytonning kirdikorlari bizning barchamizga ma’lum. U somon tagidagi suv kabi qanday yo‘l bilan bo‘lmasin bildirmasdan siz bilan bizning yuragimizga kirib olib, yo‘ldan ozdirishga harakat qilmasa, tinchimaydi.

Eshon biroz sukut qilgach, yana so‘zida davom etdi.

— Shunday, birodarlar! Ikki qadrli-qimmatli qudalar orasiga sovuqlik tushgani bizning qulog‘imizga ham eshitildi. Bu ish, albatta, la’nati shaytonning ishi... “Sabab bilan ziyorat, loy bilan imorat”, degan naql bor. Sizlarning nabiralaringiz tug‘ilganligi to‘g‘risidagi xabar bizga ham yetib kelgandi. Uzoq umr ko‘rsin! Solih farzand bo‘lsin! Biz ham to‘y bilan qutlaylik, badbaxt shaytonni quvib, uni noumid qilib qo‘yaylik degan maqsadda keldik.

Cherkaz o‘lganining kunidan zo‘rg‘a, istar-istamas dedi:

— Yaxshi qilibsiz, eshon og‘a, kelganingiz ma’qul bo‘ldi!

Oraga bir muddat jimlik cho‘kdi. To‘g‘rirog‘i, suhbatni davom ettirishga hech kim jur’at qilolmadi. Endigi bo‘ladigan gap-so‘z faqat Ajabning qachon orqaga qaytarib yuborilishi haqida bo‘lishi lozim edi. Buni ham shart-shurt to‘g‘ri aytmasdan, muloyim ohangda bildirish lozim. O‘z hamrohlarining chechanligiga qattiq

ishongan Annaniyoz jim o'tirardi. Siyrak soqolini qo'li bilan silab o'tirgan Xolli mirobdan jo'yaliroq fikr kutib bo'lmaydi. Shu sababli yana ko'pni ko'rgan eshon so'z boshladi.

— Xo'sh, Cherkaz quda, Xudoga shukur, Annabaxt qudayam, mana, tuzalib qolibdi. Qani endi Annaniyozning kelinini qachon uyiga olib borib qo'yasizlar? Kelinini kutayotgan Bibisultonning ikki ko'zi kecha-kunduz yo'lda.

Nima deb javob qaytarishni bilmagan Cherkaz shoshib qoldi:

— Endi, eshon og'a, kelin ham bir kuni borar-da...

Cherkazning so'zidan xavotirlangan Annabaxt, erim yana ishni buzib qo'ymasin, degan maqsadda dedi:

— Eshon og'a, to'g'risini aytsak, Ajab qizimizni hozir orqasiga olib borib qo'yamiz, deya olmaymiz.

— Nima uchun, Annabaxt quda?

— Qizimizning salomatligi yaxshi emas...

— Yaxshi bo'lmabdi, Annabaxt quda. Kelinimizga nima bo'lib qoldi?

— Uning yuragi kasal...

— Ey, shunday demaysizmi? Bu kasal uncha xavfli emas. Yurak og'rig'i kabi mayda-chuyda kasallarni davolash biz uchun cho't emas. Men bir kuchli duo yozib, suf-kufni joyiga qo'yib beraman. O'shani ichsa, tezlik bilan sog'ayib ketganini o'zi bilmay qoladi.

Shunchaki bahona-dalil bilan osongina qutula olmasligini fahmlagan Annabaxt to'g'risini aytishdan boshqa chora topmadi.

— Eshon og'a, uning kasali duo-tumor kabilar ta'sir qiladigan xilidan kuchliroq... Buni o'zingiz ham, albatta, yaxshi bilib turibsiz.

Ana, gap-so'zning usti yaxshigina ochildi.

Ikki o'rtada bo'lib o'tgan bir necha gap yumalatishlar natijasida Annaniyozlar tomonining so'zi e'tiborga olinmasligi, qudalar osonlikcha qizini orqasiga qaytarmasliklari aniq bo'ldi. Ko'pdan beri o'yga cho'mib, yuzini pastga solib o'tirgan Annaniyoz boshini ko'tardi-da, bo'g'iq ovoz bilan dedi:

— Quda, bu qanaqasi bo'ldi endi? Balki siz o'ylanmay, shoshibroq gapirdingiz shekilli?

— Keliningiz ko'nmayapti.

— Ota-onasi rozi bo‘lsa, qizining ko‘nish-ko‘nmasligi biz uchun shart emas.

— Bir parcha go‘shtdan boqib, voyaga yetkazgan qizini olov ichiga otmoqqa qaysi ota-onaning yuragi chidaydi?

Shu bilan qudalar orasidagi muloyim ohangda boshlangan gap-so‘z tugab, masalani hal qilish yuqori bosqichga ko‘tarildi. Siyrak soqolini barmoqlari bilan silab o‘tirgan Xolli mirob irg‘ib cho‘kkaladi-da, ko‘rsatkich barmog‘ini qudalar tomomga o‘qtaldi:

— Uyning katxudosi (boshlig‘i) ayol kishi bo‘lsa, undan nimani ta’ma qilish mumkin? Shu sababli men masalani uzil-kesil qo‘ymoqqa majburman. Agar kelin orqasiga qaytmasa, savdomiz ham orqasig‘a qaytadi!.. Sizlar yoki bizning kelinimizni orqasiga qaytarasiz, yoki qizimizni!.. Boshqa gap endi bo‘lmaydi.

To‘nining bog‘ichini qo‘li bilan tirnab o‘tirgan Xo‘janafas Xolli mirobning do‘q-po‘pisali so‘zini hazm qilolmadi. U o‘tirgan joyidan sal oldinga ko‘tarilganday harakat qildi.

— Kelinингiz rozi bo‘lsa, ketadi. Agar norozi bo‘lsa, qoladi. Biroq qizingiz shu yerdan bir qadam ham qadamini otmaydi. U egasining yonida...

Endi Xolli mirobning ham ovozi kuchli va qattiq chiqdi.

— Xo‘janafas, bu zo‘ravonlikka men chiday olmayman! Qiz bergan ekanman, men qiz olishim kerak! — U ko‘rsatkich barmog‘ini yana o‘qtaldi. — Siz shu barmoqni yoki orqaga qayirib tashlaysiz, yoki o‘sha aytilgan gapning birini bajarasiz!

Xo‘janafas o‘rtaga turish uchun og‘iz juftlagan eshonning so‘zini bo‘ldi-da, qo‘lini sarak-sarak qilib dedi:

— Xolli mirob, qiz bergan bo‘lsangiz, qiz o‘rniga qizni vaqtida olgansiz. Sizning boshingizga tushgan bixtsizligingiz uchun bizlar aybdor emasmiz. Og‘ali bechorani biz ham xuddi sizlarday yaxshi ko‘rardik. Ammo qo‘limizdan hech narsa kelmadi. Uni saqlab qololmadik. Alloh o‘zi berar ekan, o‘zi olar ekan.

Agar u tirik bo‘lganida edi, Ajab erinikida bo‘lardi... Endi bo‘lsa, Ajabning boshi bo‘sh... Xudodan kelgan g‘am-alamni ko‘tara olmay, bizning ustimizga kelib qilayotgan zo‘ravonligingizni men ham ko‘tara olmayman. Sizning hozirgi harakatingiz mavjud qonun-qoidaga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan urinishdir. Shu sa-

babli harakatlaringizni to‘xtatib, to‘g‘ri kelmaydigan niyatlaringizdan voz kechishingizni maslahat berardim.

Xo‘janafasning so‘zi Xolli mirobni qandaydir ma’noda jilovlab tashlaganday ta’sir qildi. U yuzini yerga qaratib o‘tirar ekan, bir-ikki daqiqa o‘ylandi. To‘satdan raqibiga tashlangan pahlavonday:

— Qudatushar paytida ketgan-ketdi degan gap-so‘zlar bo‘lmagandi-ku! — deb hujumga o‘tdi.

— Yodingizda bo‘lsa, Xolli mirob, baxti qaytgan qiz erining uyini saqlab o‘tiradi, yoki o‘lib ketgan erining orqasidan o‘lishi kerak, deyilgan gap ham bo‘lmagan edi, — deb Xo‘janafas ham ovozini ko‘tardi.

Gap-so‘z oxirgi nuqtasiga yetar-yetmasidan foydalangan eshon tez qo‘zg‘aldi- da, o‘z muddaosini ayta boshladi:

— Xolli mirob, Xo‘janafas, Annaniyoz, Cherkaz quda! Men payg‘ambor avlodidan bo‘lganim uchun musulmon bandalarini og‘izbirlikka, hamjihatlikka undashim bo‘ynimdagi farz va qarzdir. Sizlar yana shaytoni la’inning yo‘nalishiga o‘tib olib, gap-so‘zlaringizni balandlatmang, bir-birlaringizga yoqimsiz so‘zlar aytmang!... Bu foniy dunyodir, uni qanday o‘tkazmoqchi bo‘lsang, u shunday o‘tadi. Shu sababli qanday va qanaqa yo‘l bilan bo‘lmasin, shirin so‘z va yaxshi muomala orqali masalani ijobiy yechishga yo‘l topinglar. Shayton vasvasasiga ergashib, arzimagan narsa uchun qonlaringizni qizdirmanglar. Inim Annaniyozga o‘g‘lining o‘limi Yaratgan Egamdan kelgan. U bu azobga chidaydi. Ammo uning birdan bir tayanchi, yakka-yolg‘iz kelinini olib kelib, orqalariga qaytarmayotganligingiz unga ikkinchi azob-ku, axir?! Bibisultonning chekayotgan oldingi azobini ko‘z oldingizga keltiringlar!.. Kelinglar, azizlarim, siz yakka qizingizdan voz kechingda, Annaniyozning cho‘kkan ko‘nglini ko‘taringlar!..

Ulkan qayg‘u-g‘am ichida o‘zini yo‘qotayozgan Annabaxt Xo‘janafasdan oldin so‘z boshladi:

— Eshon og‘a, Xudoni esga olib so‘zlayvering! Hayotni endigina tushunayotgan gulday yosh qizimni o‘z otasiga tengqur bo‘lgan, xotini, qizi va o‘g‘li bor odamga ikkinchi xotinlikka berib umrini kuydirayinmi? Yaratgan Egamning adolati bunday tengsizlikka qanday chidaydi? Insof qiling, eshon og‘a, insof!..

Xolli mirob eshondan oldin:

— Sizning qizingiz Annaniyozning ham farzandi emasmidi? Annaniyozga Xudodan kelgan azob-uqubat uning farzandiga ham kelgan qayg'u hisoblanadi-ku! Annaniyoz bu g'am-kulfatni chekkanda uning farzandi ham qayg'uni birgalikda tortishi kerak emasmi?! Bo'lar-bo'lmasga eshon og'amizning yuziga sapchimay, so'zlaydigan so'zingizni bilib, fahmlab, mag'zini chaqib gapirish kerak, quda!

Xolli mirobning kesatiq ohangida gapirgan ushbu so'zini Xo'janafas ortiqcha hisobladi. Unga qarshi fikr bildirganda esa ovozi qahrliroq chiqdi.

— Xolli mirob, o'zingizga bildirilayotgan hurmatni esdan chiqarmasangiz yaxshi bo'lardi!.. Yoshgina erdan judo bo'lgan kelinchakning umri xazon bo'lgani, yuragi parchalangani kammi?!

Bu so'zlarni eshitgandan keyin Xolli mirobning yonoq etlari tortishib, lablari pir-pir ucha boshladi. U gapirgan vaqtda mushtini tugib, qudalar tomon qo'rslashayotganini o'zi ham sezmay qoldi.

— Xo'janafas, men o'z qizimiz o'rniga qiz talab qilayapman!

— Siz bu talabingizni Xudodan so'rang!

— Demak, sizlar bizlarning kelinimizni qaytarib bermoqchi emassizlar shundaymi?

— Biz o'z farzandimizni duch kelgan joyni yig'ishtiradigan bo'g'indi supurgi deb hisoblamaymiz!

Tortishuv borgan sari kuchaydi. Janjal, qichqiriq ovozlari ko'paydi. O'rtada so'kish-so'kinishdan boshqa aytiladigan gap-so'zlar aytildi. Do'q-po'pisalar qilindi. Ikki o'rtada urush xavfi paydo bo'ldi. Ikki tomonning ham ichida siqilib turgan oxirgi damlari ichlaridan otilib chiqdi.

— Xo'p, bo'pti-da!

— Bo'pti bo'lsa, ko'raveramiz-da!..

Annaniyoz tomonidan kelgan guruh bo'ridan hurkkan jonivorday qahr-g'azab bilan o'rinlaridan sakrab turishdi-da, ruxsatsiz-javobsiz otlariga minib, manzillariga jo'nab ketdi.

12

Qudalarning g'azab bilan jo'nab ketgani qishloqda shov-shuv ko'targan bo'lsa- da, qishloq oqsoqoli Xo'janafasning farosatli ish tutganini ko'pchilik ma'qulladi.

Qoqsholbukriliklar birdaniga fe'lidan aynib, Cherkazlarnikiga bostirib keladigan bo'lishsa, qishloq ahli bu oilani birgalikda himoya qilishlari kerakligi barcha xo'jalik boshchilariga yetkazildi. Shu sababli qishloqning kelinchagu, bo'yi yetgan qizlari ertaga o'tkaziladigan to'yga tayyorlana boshladilar. Ajab ikkinchi marta, endi o'ziga yoqqan yigitga turmushga chiqayotgan edi...

Ajab ham eri dunyodan o'tgan vaqtdan buyon qizil kiyim kiymagan, oltin-kumush taqinchoqlarni qo'liga olmagin edi. Eri Og'alidan ajrab qolganida yuragi bir bor parchalangan bo'lsa, Murodga ikkinchi xotin sifatida "o'tga tashlanishga" harakat boshlanganda yuragi ikkinchi bor parchalandi. Shod-xurramlik, xursandchilik, o'yin-kulgilar Ajabdan allaqachon uzoqlashgan. Og'alidan judo bo'lgandan beri yig'layverib ko'zining yoshi ham qurib bitgan edi.

Bir sabab bilan qaynota-qaynona uyidan chiqib, g'am-kulfat qal'asidan ozod bo'lgan bo'lsa-da, shodlik shaharchasiga hanuz kirolmay yurgan Ajabni, bugungi endi yuziga qizil yugura boshlagan Ajabni yuz bergan g'avg'o-janjallar adoyi-tamom qildi. Uning xayoliga "Bizlarni g'aflatda qoldirib, to'satdan ular tomonidan ko'pchilik bo'lib bostirib kelishsa, ular yana meni olib ketishlari ehtimoldan xoli emas. Ikki o'rtada urish-janjal chiqishi, katta talofatlar yuz berishi muqarrar. Bunday yo'qotishlar-u vayronagarchiliklarga men sababchi bo'lishim mumkin. Ey Xudo, nima qilsam ekan-a? Ko'pchilikning tinchligini o'ylab, qolgan umrimni ikkinchi xotin bo'lib o'tkazishga rozi bo'laversammikin? Agar orqaga qaytsam, barcha notinchliklar joy-joyiga tushardi-ya", degan o'y-fikrlar ham ketma-ket kelib-ketib turardi.

Eski qudalar "Xo'p, bo'pti-da!" deb, bularni hal qilish qiyin bo'lgan tashvishga solib ketishdi. Ertaga esa yangi qudalar Ajabni boshqa bir ko'rilmagan xonadonga olib ketishadi...

Cherkazning ahvoli haddan tashqari qiyinlashdi.. Cherkaz boshi-oxiri yo'q bu og'ir o'y-xayoldan chalg'ib, boshini ko'tarib Annabaxtga qaradi. Uning bu qarashi ayoliga nimanidir aytish istagini anglatardi. Biroq nima sababdandir aytmoqchi bo'lgan narsani tiliga ololmasdi.

Annabaxtning ham yuragini bu vaqtda o'tkir tirnoqli sakkizoyoq timdalardi. Shu sababli u o'z eri bilan maslahatlashib olish dardida edi.

— Otasi, ular "Xo'p, bo'pti-da!" deyishib, bo'rsiqday hurpayib ketishdi. Bizlar to'y qilmoqchi bo'lib turibmiz. Endi bu yog'i nima bo'lar ekan-a? Endi nima maslahat qilamiz?

Cherkazning ovozi juda g'amgin chiqdi.

— Annabaxt, men ham bu voqealarning davomi haqida o'ylanib, oxiriga chiqa olmadim. Ularga qizni bermasdan, yangi qudalarga Ajabni chiqarib yubormasak, oxiri juda yomon bo'ladiganga o'xshaydi. Ikki o'rtada urush-janjal, hatto o'lim bo'lishi, qon to'kishlar ham bo'lishi mumkin. Shularni o'ylasam, xayolimda xuddi qop-qora bulut ustimizga bostirib kelayotganday bo'laveradi...

Cherkazning chor-nochor qiyofasida qiziga: "Qo'zichog'im, qishlog'imizga urush olib kelgandan ko'ra, baxtsizlik balosiga sababchi bo'lgandan ko'ra, nima qolib, nima yo'q bo'lgancha sen Annaniyozlarnikiga borganing ma'qulmikan?" degan yolvorgansimon ko'rinishi ochiq-oydin ma'lum bo'lib turardi. Biroq bu gap oldin bir aytilganda, Ajab: "Mening ming jonim bo'lsa-da, endi Annaniyozlarga biri ham qaytib bormaydi. Agar menga o'sha yoqdagi hayotni ravo ko'rmoqchi bo'lsangiz, yaxshisi o'z qo'lingiz bilan meni hayotdan mahrum qiling. Voh desam, yuzimga tuf deng", deb uzil-kesil rad javobini bergandi. Durdi esa "Ajab, sen xotirjam bo'l! Sen Annaniyoz qudalarnikiga borib, u yerda bir oilada cho'rilik qilib yursang, men bu yerda bo'ynimni tikka qilib keza olmayman", deb hurpayib turgan mo'ylovining uchini tovlab qo'ygandi. Hatto Obodon ham Ajabning tutgan yo'lini ma'qullab, uning tomonida turardi.

Durdining so'zi onasi Annabaxtga ham yoqib tushdi. O'g'lining g'ayrat-jo'shqinligiga suyangan Cherkaz ham shunda biroz xotirjam tortdi. Ammo hozir masala juda ham mas'uliyat bosqichiga kirgan edi. Ozgina yanglishmovchilik ulkan baxtsizlikka sababchi bo'lishi mumkin. Shuni e'tiborga olgan Cherkaz qishloqdoshlarining, ayniqsa, Xo'janafasning maslahatiga muhtojlik sezdi. Ushbu masalada o'zini Cherkazga nisbatan ham mas'ulroq hisoblagan Xo'janafas aniq-tiniq javob qaytardi:

— Biz qonun-qoida chegarasidan chiqmadik, da'vo-janjal qilmadik. Kim urush-to'polon chiqarsa, bizning ustimizdagi kiyim-kechagimizga da'vogarlik etsa, biz buning javobini yaxshilab

qaytaramiz!.. Sen hech narsaga ko'nglingni bo'lma. Agar Ajab qizimiz norozi bo'lmasa, ertaga uni yangi qudalarnikiga qoidasi bilan uzataver...

13

Ajabning yangi erga uzatilganligi haqidagi xabar shu kunning o'zida Annaniyozlarnikiga borib yetdi. Ular ishning shunday yakun topishi mumkinligini oldingi gal borganlaridayoq sezgan edilar. Cherkazlarning aytganidan qaytmaydigan "dedimzo'r"ligiga qarshi, yana "o'z qizlarining" o'sha joyda yashayotganiga Annaniyozlar chidayolmay, or-nomus otiga minishdi. Ularning qahr-g'azabini bir necha qishloqdoshlari, shuningdek, qishloq oqsoqoli Xolli mirob ham qo'llab-quvvatladi.

Ular o'zaro maslahatlashib, Annaniyozning qizi Obodonni orqaga olib qaytmoq qaroriga kelishdi. Ammo qoqsholbukrilik oqsoqollar aytgan taklifga ko'ra, to'satdan to'dalashib bormay, "savdo qaytdi", deb hisoblayotgan bo'lsangiz, bizlarning qizimizni ham qaytib beringlar", degan xabarni oldindan yana bir bor aytish uchun maxsus otliq vakil yuborish qaroriga keldilar.

Yuborilgan vakil Cherqazlarnikiga borib, bu tomonning da'vo xabarini ma'lum qildi.

— Qizlaringizni bizga qaytarmay yana sotgan bo'lsangiz, ya'ni "savdo qaytdi" qilgan bo'lsanglar, men ham o'z qizimizni olib ketishga keldim... Obodon, narsa-parsalaringni yig'ishtirib chiq! Hozir uyga ketamiz!..

Shart-sharoitning yomon tomonga og'ayotganligini o'tgan damdagi g'avg'oli kunda Obodon yaxshigina fahmlagandi. Shu sababli, u nima qilish kerakligi haqida uzoq o'ylagach, aniq bir xulosaga kelgandi. Hozir esa kelgan vakilga o'zining shu qarorini ma'lum qildi:

— Men hech qachon ota-onamdan voz kechmayman. Ularning biror joyiga tikon sanchilishini xohlamayman. Biroq o'z erimni, shirin farzandimni juda-juda yaxshi ko'raman. Shu yerda yana quyidagini aytmoqchiman. Men o'zimni har kosaga solsa bo'laveradigan qoshiq, deb hisoblamayman. Men o'z erkiga ega onaman. Shu sababli, qanday kelgan bo'lsangiz, izingizni shamol uchirmas-

dan oldin shunday qaytishingizni maslahat beraman! Xayr, yaxshi boring!

Agar Durdi qishloqda bo'lsa, gerdayib kelgan bu vakilga balki bundan ham achchiqroq so'z ayttan bo'lardi. Ammo Cherkaz yumshoqlik bilan "Xush kelibsiz, yaxshi boring", degan so'zlarni qudalarning hurmatini joyiga qo'yib gapirdi. Ammo o'sha paytda paydo bo'lgan Xo'janafas masalani uzil-kesil hal qildi.

— Bu qanaqa nodonlik?! Bu qanday masxaravozlik?! Sen, ey vakil, borib ayt! Butun qishlog'ingiz odamlari bilan to'dalashib kelsanglar ham Obodon orqasiga qaytmaydi! Tushundingmi? Tushungan bo'lsang, ketaver!..

Oldingi or-nomusining ustiga bu yangi xabar o'lganning ustiga tepganday bo'ldi. Xolli mirobning tarafdorlari qurol-yarog'larini qo'lga olishni ma'qul bilishdi. Biroq hiylagar Xolli mirob kunduz kuni ochiq-oydin hujum qilmay, urush e'lon etmay Obodonni olib qochmoq uchun besh-olti otliqni tunda yubordi. To'satdan to'qnashuv yuz beradigan bo'lib qolsa, harbiy tayyorgarlikni esdan chiqarmaslik uchun, bu tomonini ham o'ylab qo'ydi.

14

Tun yarim kechadan o'tib qolgan edi. Ilk shomda paydo bo'lgan qop-qora, qavat-qavat bulutlar tarqalib, ko'm-ko'k osmon tip-tiniq tusga kirdi. Yulduzlar ko'k yuziga sochilgan minglarcha chiroqday miltillab, tim qorong'i tunga o'zlarining o'tkir yog'dusini socha boshladi. Havo shamol-shabadasiz, ayozli edi. Uzoq yo'l yurib kelgan otlarning og'iz-burnidan chiqqan nafaslari bug'lanib ko'zga tashlanadi. O'sha otlarning tuyoqlaridan chiqqan dukurdi ovozidan boshqa qimirlagan tovush yo'q.

Osmondan tushganday paydo bo'lgan otliqlar guruhi Cherkazlar uyining atrofini o'rab oldi. Qora uy yonidagi kulbaning eshigi oldidagi turgan otliqning:

— Obodon, darrov tashqariga chiq! Aytganni bajarmasang yakka o'qqa duchor bo'lasan! — degan ovozi to'polondan endi uyg'ongan Durdining qulog'iga o'qday bo'lib kirdi. U ham o'zini rostlab olgunicha, Obodonning sasi chiqdi:

— Ey hayosiz Xudo qarg‘aganlar! Bu yerdan yo‘qolinglar!..

Bungacha otdan sakrab tushgan qoqsholbukriliklar turli tarafdan yopishib, Obodonni boshi, yelkasidan itarib, tashqariga sudrashdi. Uning quchog‘idagi go‘dakni esa:

— Itning kuchukvachchasini yo‘qo-ot! — deb, onasining qo‘lidan yulib, eshikning yonboshiga uloqtirdilar.

Obodonning qarshilik ko‘rsatgan qichqiriq tovushi, go‘dak bolaning qo‘rqib yig‘lagan ovozi tun bag‘rini tildi.

Cherkazlarning qo‘shnilari — hammalari uyg‘onib, tashqariga otilab chiqishdi. Biroq ro‘y berib turgan shart-sharoit bularning yetti uxlab tushlariga kirmaganligi uchun ham hech kim qurol-yarog‘ini ko‘lga olishga ulgurmagan edi. Tayoq, kaltak, albatta, o‘tkir qilichga bas kelolmaydi. Bundan tashqari shirin uyquda yotgan odamlarga nisbatan otliqlarning vajohati ham ustun edi.

Durdining ham yarog‘i yo‘q edi. U kulbaning yonboshida turgan belkurakni olib, otliqlarga o‘qtalgandi, aylanib bo‘yni ustiga tushgan qilich chap yelkasini jarohatlab o‘tdi. Durdi qo‘lidagi belkurakni tashlab ot ustiga ortilgan Obodonga yopishdi. U “Tort qo‘lingni!” degan kuchli ovozga quloq solmagach, shuvullab tepadan pastga zarb bilan urilgan qilich uning chap qo‘lini uzib tashlashga ozgina qoldi. Zarba sal noaniq tushgandi. Biroq ko‘kragidan kuch bilan urilgan miltiq qo‘ndog‘i uni o‘sha damning o‘zida orqasiga ag‘darib tashladi. Durdi faqat Obodonning “Voy-dod! Ey boshlaring kesilgurlar!” degan ovozini eshitib qoldi, xolos.

Otliqlar Durdini chang-to‘zonga botirib, qorong‘ilik ichiga singib ketishdi.

15

Xolli mirobning gap-so‘zlaridan g‘azab otiga mingan qoqsholbukrilik otliqlar tomonidan amalga oshirilgan qabohat haqidagi xabar shu kunning o‘zida qishloqqa yoyiladi. Cherkazning hamqishloqlari, Durdining do‘stlari or-nomus otiga minib, ushbu ishni qilganlardan qasos olishga bel bog‘lashdi. Ular Obodonni olib qaytish uchun Durdiga yordam berish maqsadida jonlarini ham ayamasliklarini ma’lum qilishdi.

Qishloq oqsoqoli Xo'janafasning fikriga ko'ra, eski qudalarning qilig'i odamiylikka qo'yilgan zid qadam edi. Shu sababli qoqsholbukriliklarning ustiga hujum qilish, qasos olishda oqsoqol o'zini haqli deb bilardi. Qishloqning yosh-yalanglari ham oqsoqolni qo'llab-quvvatlashdi.

Qo'shni qishloqlardan kelgan oqsoqollar yuzaga kelayotgan vaziyatning xavfli tus olayotganligini fahmlab Xo'janafasga sabr-toqatli bo'lib turishini maslahat qildilar.

— Xo'janafas, bizlar qishlog'ingizda bo'lgan noxush xabarni eshitdik. Hamqishlog'ingizni xo'rlab ketishibdi. Shunday bo'lsada, "Zararning yarmidan qaytish ham foyda", degan gap bor. Sizlar qoqsholbukrilardan qasos olish fikridan qaytinglar. Ustiga qilich, miltiq ko'tarib borayotgan turkmanlar ham o'zingizday oddiy odamlar. Ular ham, albatta, tinch o'tirishmagan bo'lsa kerak. Qahr-g'azab kelsa, aql qochadi. Ikki o'rtada begunoh odamlarning qoni to'kilishiga sababchi bo'lmang! Hech bo'lmasa, to'rt-besh kun tinch o'tiringlar. Biz hozir ular tomonga boramiz. Balki ular ham o'z qilgan ishlaridan pushaymondirlar. Sizlar ozgina sabr-toqat qilinglar!..

Bo'lgan voqeadan Xo'janafasning qaynoq qoni qizib, miyasiga urilgandi. Shu sababli yon qishloqlardan kelgan oqsoqollarning maslahatlariga qo'shilishni mutlaqo rad etdi.

— Men qishloq kattasi sifatida bunday xo'rlikka chiday olmayman!.. Nima, biz ulardan past ota-onaning farzandlarimizmi? Or-nomusim poymol bo'lgandan ko'ra imonim kuysin!

Oqsoqollar Xo'janafasni qancha insofga chaqirishmasin, undan "mayli" degan javob olisholmay, Xolli mirobning qishlog'iga shoshilinch ot choptirib ketishdi.

16

Xo'janafasning orqasidan ellikdan ortiq qurol-yarog' taqingan otliq ergashdi. U o'z navkarlariga qarab, dadil ishonchli so'zlarni aytdi.

— Yigitlar! Biz to'qlikka sho'xlik qilib emas, xor-zorlikka chidamay, or-nomus uchun otga mindik. Biz bugun yo nomus ostidan chiqamiz, yo ushbu yo'lda yosh jonimizni o'rtaga qo'yamiz!..

Kim nomardlik qilib, orqaga qochsa, xotini uch taloq bo'lsin!.. Yigitlar! Farzandlarim! Xaq ish uchun olg'a!..

Xolli mirob boshchiligidagi qoqsholbukriliklarning ham qarshi hujumga tayyorgarliklari yetarli bo'lmoqda edi. Ammo bolachasini chirqiratib tashlab, onasini zo'rlik bilan qaytarib kelganlari, qilgan bu ishlari kechirilmas qabohat qilmish bo'lgani uchun Xolli mirob bu ishdan o'kina boshladi. Mana, endi shu ahmoqona ish yuzasidan ikki o'rtada begunoh yigitlarning qoni to'kilishi aniq ko'rinib turibdi. Endi nima bo'ladi? Begunoh o'lgan yigitlarning dardiga yig'lagan turkman ota-onalari duoibad qiladilar, bu qarg'ish kimga tegadi? Bu qarg'ish eng oldi bilan Xolli mirobga tegadi... Shularni hisobga olib, qo'shni qishloqlardan kelgan oqsoqollarning "Egilgan boshni qilich kesmaydi" qabilidagi so'zlarini e'tiborga olgan Xolli mirob ularning aytganlariga bo'ysunishni ma'qul topdi...

Xo'janafas hali Xolli mirobning qishlog'i hududiga kirmay turib, yarashtiruvchi oqsoqollar Obodonni o'zlarining yoniga olib, uning qarshisidan chiqdilar va o'z istaklarini yana bir bor bildirdilar:

— Xo'janafas, mana, sizning keliningizni sog'-salomat qo'lingizga keltirib berdik. Endi siz ham qahr-g'azabingizni yumshating. Ikki qarindosh o'rtasida abadiy kelishmovchilik yuzaga kelmasin!..

Bir so'zli va aytganidan qaytmaydigan Xo'janafasni fikridan qaytarish oson emasdi. U oqsoqollarga o'zining dadil va qat'iy fikrini aytdi:

— Sizlarning so'zingiz uchun men o'z jonimni ham bermoqqa tayyorman. Ammo...

— Botirlar! Er yigitning kuchi siyosat bilan qadrli! Sizlar shayton vasvasasiga uchmanglar! Orqalaringizga qaytinglar! Kelin orqasiga qaytarildi!...

— Yo'q! Qarindoshlar! Otilgan o'q orqaga qaytmaydi. Mening Qoqsholbukri qishlog'idagi odamlarga hech qanday dushmanligim yo'q. Bu janjalni boshlagan Xolli mirobning boshini quyi egdirsam, menga shuning o'zi yetarli! Yigitlar! Olg'a!..

Xo'janafas hali otini oyog'i bilan niqtashga ulgurmay, Xolli mirob yetib kelib, uning oldida boshini egdi:

— Xo‘janafas! Xalqda gunoh yo‘q. Gunoh har ikkalamizning yelkamizda! Shu sababli, nohaq qon to‘kilishning oldini olaylik. Xohlasangiz, mana, mening boshimni kesing! Ammo navkarlaringizni orqaga qaytaring!.. Boshini egib kelgandan oldingi zamonlarda ham xun da’vosi olinmas ekan.

Xo‘janafas boshini quyi solib turgan Xolli mirobga mag‘rur nazar tashlab, so‘ng unga o‘ng qo‘lini uzatdi...

1928-yil

QAYUM TANGRIQULIYEV
(1930–2014)

Qayum Tangriquliyev — turkman bolalari va yoshlarining sevimli adibidir. U 1935-yili Lebab viloyati Kerki tumanidagi Qizil-oyoq qishlog'ida tug'ilgan. Turkman davlat universiteti filologiya fakultetida o'qigan. Ijodini bolalar shoiri sifatida boshlagan Qayum Tangriquliyevning "O'zing kovla, o'zing ek...", "Tustovuq", "Shamol va og'a", "Qoraqum qo'shiqlari", "Oyxon va Boyxon" kabi ko'plab kitoblari chop etilgan. Qayum Tangriquliyev ulkan jurnalist va publitsist sifatida samarali faoliyat olib bordi. Adibning Qoraqum sahrosiga bag'ishlangan turkum badialardan iborat "Sahro ohanglari" kitobi e'tiborga molik. "Dutor baxtni kuylaydi" kitobida esa yozuvchi turkman xalqining turmush tarzi, urf-odatlari va milliy qadriyatlari to'g'risida hikoya qiladi.

U tarjimon sifatida jahon xalqlari ertaklaridan bir necha yirik turkum kitoblarni o'quvchilarga taqdim etdi. Asarlari dunyoning turli tillariga tarjima bo'lgan.

Yozuvchi adabiyot sohasidagi samarali ijodi uchun Maxtumquli nomidagi Turkmaniston davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

"Yortiquloq" ertak-qissasini Turkmanistonda yoshlar ham, yoshi ulug'lar ham sevib o'qiydi. Ushbu qissa bolalarni katta hayotga ruhan-ma'nan tayyorlovchi asar sifatida ham ahamiyatlidir.

Mixli Safarov,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

YORTIQULOQ

Ertak-qissa

Bor ekan, yo‘q ekan, qarib-qartaygan bir odam dala-dashtda ketib borar edi. Yo‘l uzoq, yurgan sari cholning horg‘inligi ortar, ammo uni, ayniqsa, farzandsizlik haqidagi o‘y-xayollar qiynar, hatto mana shu uzoq yo‘lda ham taqdirga bitilgan bunday kemtik his-tuyg‘ular unga armon bo‘layotgan edi. Chol dilidagi dardini yashira olmay nogahon:

— Eh, qani endi, o‘g‘lim bo‘lsa! — deb yubordi. — Mayli, qanday o‘g‘il bo‘lsa ham... Tugmaday kichik, pakana bo‘lmaydimi?! Baribir, men-u kampirimga ovunchoq bo‘lardi...

Qarangki, chol shunday niyatlarni ko‘nglidan kechirib nido qilib turganida, birdan qulog‘iga qo‘ng‘iroq sadosiday ajib tovush eshitildi.

— Mana, men keldim! — dedi kimdir.

Qariyaning taajjubi ortib, atrofiga alanglab qaradi. Ammo yon-verida jon asari yo‘q edi. Faqat yo‘l chetida yantoq chaynab, boshini tovlab, lopillatib kavsh qaytarganicha yolg‘iz tuya turar edi. Lekin tuya... hecham odam tilida gapirmaydi-ku?

Shu payt notanish ovoz yana xitob qilib qoldi:

— Hoy, otaginam, o‘g‘lingiz borligidan xursand emasmisiz?

Chol hayratdan dovdirab tuproq yo‘l o‘rtasida o‘tirib qolibdi:

— Bu kim bo‘ldi?

— Men sizning o‘g‘lingiz, Yortiquloqman.

Qariya tevaragiga yana bir qur zehn bilan ko‘z yugurtirdi. Bunday qarasa, tuyaning shalpang qulog‘ida jimitday bolakay sakrab-o‘ynoqlayapti. U Yortiquloq edi. No‘xatdaygina jussali edi.

Shundan buyon mitti Yortiquloq yorug‘ olamda kezib yuribdi. Birovlar uning borligidan dili xushnud, boshqa birovlarning esa

ta'bi xufton. Yaxshi odamlar bu antiqa bolakay to'g'risida maqtov so'zlarni bir-biridan oshirib-toshirib gapirsa, niyati buzuq, yaramas fe'l-atvorli kimsalar uni nuqul yomonotliq qilib yurishadi.

Aytishlaricha, qaysi bir zamonda badavlat, ammo o'lguday qurumsoq bir kishi yashagan ekan. Dunyoda qurumsoqlikda undan o'tadigani yo'q ekan. Bir kuni u qo'lidagi piyolani chayib-tozalab, ichidagi bir qultum yuvindi suvni chetga sepib yuboribdi. Biroq sepilgan suv yerga emas, balki shu yaqin atrofda mizg'iyotgan bir bechora odamning og'ziga borib tushibdi. U esa uyqu aralash suvni yutib yuboribdi. Buni ko'rib qolgan zodagon qurumsoq haligi qashshoq odamni yelkasidan silkib-turtib turg'azib, "ichgan suvingning pulini to'laysan", deb turib olibdi va yoqasidan g'ippa bo'g'ib qozixonaga sudrabdi. Qozi esa ushbu ishni ko'raturib, boyga:

— Qonunga ko'ra, muhtaram boy janoblari, mana bu juldurvoqi sizga taalluqli suvni ichib yuborganini tasdiqlab, xaloyiqning ko'z o'ngida qasam ichishingizga to'g'ri keladi. Shundagina biz Xudoning bu gunohkor bandasini jazoga mustahiq etib, sizga qul qilib topshirgaymiz. Ammo, bilib qo'ying, mabodo, ichgan qasamingiz yolg'ondakam bo'lsa, yuzingiz el oldida qora bo'lib qoladi-ya... — debdi.

Xuddi shu damda Yortiquloq yetib kelib ishga aralashmaganida, kambag'al bechoraning ahvoli voy bo'lardi. Yortiquloq esa kechikadiganlardan emasdi. U ertalab kulbasidagi dekchani dog'-dug'dan artib tozalab, yuvib, kuyundi va yog' bosgan qozon lattani qo'yniga solganicha qozixonaga yetib kelibdi. Axir, Yortiquloqning qadami yetgan joyda adolatsizlik doimo barham topgan-da. Qurumsoq boy xo'ppa semiz va hamisha gavdasidan ter quyilib yuradigan odam edi. U sud chog'ida guvohlik minbari yonida turib, kambag'al kishini o'g'irlikda ayblab, gaplarining rostligini tasdiqlash uchun to'plangan xaloyiqning ko'zi oldida surbetlarcha qasam ichdi va shu ondayoq terlab ketgan yuzini artish muddaosida dastro'molini izlab hamyoniga qo'l yugurtirdi. Yortiquloq esa allaqachon qurumsoq boyning hamyoniga kirib olgan edi. U boyning hamyonga suqilgan qo'liga dastro'mol o'rniga darhol kir-chir qozon lattani tutqazdi. Boy buva shu latta bilan terlagan peshonasini, ikki yuzini, burnining qirrasini, iyaklari va bo'ynini shoshilib artib-surta boshla-

di va ko'pchilikning ko'zi o'ngida hamma yog'i qop-qora kuyundi, dog'-dug'ga botib, rosa kulgiga qoldi...

Yortiquloq yaxshi odamlarga doimo yaxshilik qilardi. Yomonlik va yomon odamlarni esa ming chaqirimdan bo'lsa-da, dili-dilidan sezib-payqab turardi.

Xullas, Yortiquloq o'ziga ota-ona bo'lib qolgan chol-u kampir bilan xayr-xo'shlashib, kunlardan bir kuni savdo karvonlariga qo'shilib olibdi-da, olis mamlakatlarga safarga otlanibdi! U haligacha dunyo kezib yurganmish. Bizning elimizda esa Yortiquloqni sirayam mehmon deb bilishmaydi, balki hamyurtlarimiz uni o'zlariga go'yoki devor-darmiyon qo'shniday yaqin ko'rishadi. Shu boisdan "Bizning ovulga tunov kuni Yortiquloq kelibdi" degan uzun-quloq gaplarni tez-tez eshitib turamiz. Zum o'tmay bu to'g'rida yon-atrofga g'alati mish-mishlar ham tarqaladi. Shunday gaplardan ba'zilarini eshitib, hatto taajjubdan beixtiyor yoqa ushlaysan kishi...

SUV OSTIDAGI XAZINA

Qishning sovuq kunlaridan birida ovdan qaytaturib ovuldagi choyxonaga burildim. Bir piyola choy ichdim, so'ngra choyxonadagi issiqdan ko'zim ilinibdi. Lekin ko'tarilgan kulgi va qahqahadan uyg'onib ketdim. Mudrab yotgan paytimda, qarangki, choyxona odamlarga to'lib bo'pti. Mijozlar ko'k choy ho'plashib, hangomani avjiga chiqarmoqda edilar.

— Xoh ishoning, xoh ishonmang, — der edi ulardan biri, — men Yortiquloqni o'z ko'zlarim bilan ko'rdim, o'z quloqlarim bilan uning so'zlarini eshitdim, agar uni uchratmaganimda, balkim bugun oralaringizda o'tirmagan ham bo'lardim...

Yortiquloqning ismini eshitib, sergak tortdim. Bugungi odamlar nimalarni yig'maydi, deysiz: birov gugurt qutisini to'plasa, boshqa birov qadimgi tangalarga ishqiboz. Shunday gapni eshitib qoldim: xorijiy bir badavlat odam qancha pul-boylik sarflab, eskirib, puturi ketib qolgan parovozlarni sotib olyapti ekan... Men bo'lsam, yurgan yo'limda, mehmon bo'lganim o'tovda Yortiquloq

to‘g‘risidagi xilma-xil cho‘pchaklarni tinglash va yozib olishni o‘zimga odat qilganman.

Choyxonadagi so‘zamol kishi, chamasi, o‘rta yoshlarda, u rivoyat aytib charchamasdi. Aftidan, o‘qituvchiga o‘xshaydi.

— Urushning og‘ir yillari edi, — hikoya qilardi u, — onamizning qaramog‘ida beshta o‘g‘il-qiz, jo‘jabirday jonmiz. Bolalardan eng kattasi — men. O‘sha kezlarda endi sakkiz yoshga to‘lgan edim. Supradagi un yuqlarini qoqib nonu qotirmoch qilib yeb tugatdik, qoziqqa bog‘langan yolg‘iz qo‘yimizni ham so‘yib yedik. Bisotimizda bitta oriq echki qoldi. Uni ko‘z qorachig‘imizday asrar edik. Onam: “Shu echkini bo‘liqroq, o‘t-o‘lanli joylarda boqqin, ilohim, yeliniga-sut, tanasiga jir bitsin”, deb duolar o‘qib, har kuni echkining orqasidan meni hovlidan chiqarib yuborar edi.

Bir kuni echkimni eski, tashlandiq quduq atrofida o‘tlatib, o‘zim esa tut daraxti tanasiga suyanib, qo‘limdagi tut novdasidan kesib olingan xivichning po‘stlog‘ini chaynab-tamshanib o‘tiribman. Har qalay, yeyimlik emas-u, lekin shimsang, og‘zingga yoqimli ta’m kiradi. Shu ko‘yi, och qornimni aldab-suldab o‘tiruvdim. Bir mahal kimdir qamish naydan chiqqan nozik sadoday, ingichka ovozda menga:

— Nepes, ariq bo‘yida qizil xarsang tosh yotibdi, tagida esa bir necha qop don yashirilgan, — dedi.

Quloqlarimga ishonmay o‘rnimdan irg‘ib turib ketdim, atrofda hech kim yo‘q. Bir o‘yim — uyga qochib qolay, dedim. Haligi ovoz ikkinchi bor eshitildi:

— Nepes, es-hushingni yig‘ib ol! Endi, kelib-kelib, Yortiquloqdan ham qo‘rqadigan bo‘lib qoldingmi?

— Sen o‘zing qayerdasan? — so‘radim hushyor tortib.

— Shundoq qulog‘ingga yaqin joydaman.

Yon atrofimga alang-jalang qaradim. Bunday boqsam, tut shoxida jimitday bolakay oyoqlarini likillatib o‘tiribdi. Boshida bahaybat kuloh, ipakli to‘n kiygan, oyog‘ida chiroyli, timqora mahsicha.

Otam urushga ketmasidan oldin uyimizda, biz bolakaylarga Yortiquloq haqida qanchadan qancha quvnoq-qitmir ertaklarni aytib bergan edi. Yortiquloq esa, ayon bo‘lyaptiki, faqat ertaklarda va tushlarda yashamas ekan. U hayotda bor ekan.

Men ariq bo‘yidagi yalpoq qizil tosh yoniga keldim va kuzatdim: yumronqoziq inidan tashqariga povillab don sachrab otilib chiqyapti, go‘yoki kimdir in ichida mitti belkurakda ishlayotganday... Men bu donlarni yig‘ib, qoplay boshladim.

Kuch-madorim yetganicha don yig‘dim va uyga tashmaladim. Uchta kichik qopim donga to‘ldi. To‘rtinchisini to‘ldirishim uchun bir necha kurak don yetishmadi.

Nihoyat, Yortiquloq tut shoxidan yerga tushdi, boshidan telpagini oldi, sochsiz, yaltirab turgan boshidan quyilayotgan terlarini artdi.

— Bas, shu yog‘i yetadi senga, Nepes. Uyada bir necha hovuch don qoldi, ular yumronqoziqning qishligi.

Yortiquloqning munchoqday ko‘zlari yashnab turgan cho‘g‘day porlar edi.

— Minnatdorman, Yortiquloqjon, — dedim unga mehrim tovlanib. —Biznikida mehmon bo‘lgin. Onam va ukalarim judayam xursand bo‘lishadi.

— Eh, Nepesvoy, mehmondorchilikda o‘tirish qanday yaxshi! Ammo yo‘limga ko‘z tikib, qadamimga mahtal bo‘lib turgan senday bolakaylar dunyoda hisobsiz. Boshqa bir kuni kirib o‘tarman, — dedi Yortiquloq.

Va shu zumdayoq ko‘z oldimdan g‘oyib bo‘ldi. Faqat, qarshimda chang girdobi osmonga ko‘tarildi.

Tinglovchilardan kimdir undan so‘radi:

— Keyin Yortiquloq bilan hech ko‘rishmadingmi?

— Yo‘q, — xo‘rsinib tin oldi hangomachi. — Ammo ro‘zg‘orimizga shundan keyin baraka kirdi. Oradan ko‘p o‘tmay otam urushdan qaytdi. Sezishimcha, Yortiquloqning ham tashvishlari boshidan oshib yotgan bo‘lsa kerak. Axir, har bir oilada otalar urushdan eson-omon qaytgani yo‘q-da...

— Yortiquloq odamlarga faqat yaxshilikni sog‘inadi. Odamlar esa uning yelkasiga hatto bitta to‘n yopishni ham xayollariga keltirmaydilar, — dedi choyxonadagilardan biri.

— Nega xayollariga keltirmas ekan? — unga e’tiroz bildirdi yelkador, qora mag‘izli g‘o‘labir yigit. — Mana, mening jo‘ram, Mahmud! Unga boshdan oyoq sarpo sovg‘a qildi — telpak, to‘n, oyog‘iga etikcha, deganday...

— Sen, mabodo, anavi Qiyshiq tarozichini aytmayapsanmi? Yopiray, qanday qilib birdan himmatli bo'lib qoldi u?

— Xo'sh, Mahmudning nimasi yoqmaydi senga?

— Nimasi bo'lardi? Uning laqabining o'ziyoq kimligini "mananman" deb aytib turibdi-ku?!

— Kimki allaqachon bo'lib o'tgan huda-behuda voqealarni kovlaydigan bo'lsa, uni ezma-churuk deyishadi, — qovog'ini soldi g'o'labir yigit. — Mahmud bugun tamomila boshqa odam, traktorchi. Halol mehnati bilan ro'zg'orini tebratyapti.

— Bu Mahmud deganlaring yaqin o'tmishda biron nojo'ya ish qilib qo'yganmidi?

— Mana, nimalar bo'lgan edi?...

Bu sarguzasht alohida bir hikoya.

MAHMUD — QIYSHIQ TAROZICHI

— Mana, nima bo'lgan edi, — dedi g'o'la bir traktorchi va tomog'ini ho'llab olish uchun piyoladagi choyni oxirigacha sipqordi, — Mahmud — Qiyshiq tarozichi, aslida, qachonlardir serg'ayrat traktorchi edi. Armiyadan qaytib, u yerda qanday sidqidildan xizmat qilgan bo'lsa, o'z ovulida ham shunday shasht bilan mehnat qildi. Armiyada askarlarga nimaiki nishon beriladigan bo'lsa shularning hammasini Mahmud ko'kragiga taqdi, kolxozda ham goh faxriy yorliq oldi, gohida pul mukofoti, qator medallarga loyiq topildi. Shu yo'sinda, omadi yurishaversa, u mehnat qahramoni ham bo'larmidi? Lekin... o'rtada ishq savdosi chiqib qoldi. Qizning otasi, beli yo'g'on kishi, kimsan, do'kon mudiri! Qiziga oshiq traktorchi yigitdan shunday katta qalin so'radiki, eshitsang, esing og'ib qoladi. Mahmud uning gaplarini eshitib, qorayib ketdi, do'kon mudiri esa iljayib turaverdi. "Istasang, — dedi u, — senga xazina bulog'ini ko'rsataman". Mahmudning qoni qaynadi, do'kon mudiri uning avzoyini ko'rib, tag'in tirjaydi. "Xohishing! Senga maslahatim shu — o'ylab ko'r! Ortiqcha kutib o'tirmayman, qizimni boshqa kuyovga uzatib yuboraveraman", dedi u. Oshiq yigit arosatda qoldi. "Qayerda o'sha siz aytgan xazi-

na", — dedi nihoyat Mahmud. "Shundoq burning tagida, markaziy qo'rg'onda", — dedi do'konchi.

Gapning qisqasi, Mahmud traktorni tashlab, do'konchi bo'ldi. Uylandi, orttirgan puliga uy qurdi, mashina sotib oldi, o'rtancha ukasiga aravali mototsikl, kenja ukasiga — moped sovg'a qildi. Hammasi ko'ngildagiday borayotgan edi, faqat unda tarozidan urib qolish odati paydo bo'lib, g'alati laqab orttirdi. Mahmud el orasida "Qiyshiq tarozichi"ga aylandi.

Mahmud bunga ham ko'nikdi: to'g'ri, haligi laqabdan keyin bir muddat odamlarga tik boqa olmay yurdi, keyin kiprik ham qoqmaydigan bo'lib ketdi. Boshqa hunarlar ham chiqardi. Biroq arqon qancha eshilmasin, baribir, uning oxiri ko'rinadi. Mahmud o'zini qamoqxonaga chog'lab turganida birdan, Xudo yorlaqab, Yortiquloqqa yo'liqdi-yu, shovvoz Qiyshiq tarozichi insof yo'liga qaytdi.

Mahmud do'konda qadalib o'tirardi, beixtiyor qorin qo'ydi, harsillab, gavdasini zo'rg'a ko'tarib yuradigan bo'lib qoldi. Kunlardan bir kuni gazeta bilan yelpinib o'tirgan edi. Keksa bir xaridor peshtaxtaga yaqinlashdi.

— Kelinimga ko'ylaklik uchun bir kiyimlik qizil baxmalingdan o'ra, — dedi qariya.

Mahmud — Qiyshiq tarozichi cholni og'rinibgina eshitdi.

— Otaxon, yo'q baxmalni sizga qayerdan topaman? — dedi u xushlamay.

Shu topda qo'ng'iroqday tiniq ovoz do'kon bo'ylab yangradi:

— Mahmud, qizil rangdagi baxmal peshtaxta tagida turibdi. Sen uni shakar qoplari tagiga berkitgansan.

Mahmud — Qiyshiq tarozichining ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi, xijolatdan lavlagiday qizardi. Ha, do'konda baxmal to'plami bor edi, ammo ularni Mahmud hamyoni baquvvat ikki barobar yuqori narxda pul to'laydiganlarga sotishni rejalashtirgan edi. Chayqov bozorda esa uch hissa baland qilib aytsang ham yo'q deyishmaydi. Haligi qo'ng'iroqday ovozdan keyin Mahmud — Qiyshiq tarozichi cholga, chol esa unga baqrayib tikilib qolishdi. Ikkalovi ham bu g'alati ovozni eshitdilar. Mahmud darhol o'ziga keldi.

— E-e, tavba, — dedi u, — hazilkashlik ham evi bilan-da. Bu oyoq tagida ivirsigan mishiqi fitnachini... tutib olsam, qulog'ini

yaxshilab cho‘zib qo‘yardim. Shunday deb, Mahmud radioning qulog‘ini buradi. Zora, uning sadosi Yortiquloqning sasini o‘chirsa! Ammo tiqir-tiqir qilayotgan radio ovozi eshitilmay yana o‘sha ovoz yangradi:

— Mahmud, bu nima qilganing? Qarshingda yoshi ulug‘ odam turibdi, uning hurmatini joyiga qo‘yish kerak.

— “Eh, senimi, shoshmay tur, hali!” — ijirg‘anib qo‘ydi Mahmud. — O‘zi esa, noiloj, peshtaxta tagiga egildi va chol so‘raganday qilib, bir kiyimlik baxmal yirtdi. Matoni epchillik bilan gazetaga o‘radi-da, cholga tutdi. Tezlashtirmasa bo‘lmasdi. Axir, do‘konga boshqa xaridor kirmaydi, deb kim kafolat bera oladi? Lekin Mahmud — Qiyshiq tarozichi nechog‘lik abjirlik ko‘rsatmasin, baxmal to‘pini yashirishga ulgurmadi. Do‘konga, chindan ham, birin-ketin yana bir talay erkak-ayollar kirib kelishdi. Bunday qarashsa, cholning qo‘lida kamyob mato! Birpasda baxmal uchun turnaqator bo‘lib safga tizilishdi. Hash-pash deguncha cho‘g‘day qip-qizil baxmaldan bir qarichi ham qolmadi.

Mahmud — Qiyshiq tarozichi bosh og‘rig‘i savdosidan qutulib, dovdiraganicha do‘konni bekitdi, unga otning kallasiday qulfni osdi va: “Bazaga ketdim!” degan e’lonni do‘kon eshigiga yopishtirdi. Ammo... hech qayoqqa ketmadi. Do‘konni ichidan yopib, uni ag‘dar-to‘ntar qilib qo‘ng‘iroqday tiniq ovoz sohibini xo‘p izladi, ko‘ziga shubhali tuyulgan barcha chiyratma ip va simlarni uzib tashladi. So‘ng andak xotirjam tortdi. Keyin yana do‘konni ochgan edi hamki, bir to‘da qizlar kelib qolishdi.

— Mahmud og‘a, bugun qizil baxmal sotibsiz, deb eshitdik. Balki taftangiz ham bordir? — so‘rashdi ular.

— Baxmal bor edi, — xo‘rsinib dedi Mahmud. — Lekin bizning olis ovulimizda tafta ne qilsin? Sizlar, yaxshisi, qand-qurslardan xarid qilinglar. Kuni kecha keltirganman. Biram shirin! Og‘zingizda eriydi, go‘zal qizlar.

Shu lahzada yana o‘sha qo‘ng‘iroqday ovoz yo‘q yerdan sado berib qolsa bo‘ladimi!

— Mahmudjon, sen qizlarga kecha “Raybaza”dan olib kelganing ellik metrlik yashil taftani ko‘rsatsang bo‘lardi. Balkim, ularga yoqib qolar?

— Hazil qilishgani qilishgan! — dedi Mahmud qizishib. — Axir, men kelib-kelib o‘z ovuldoshlarimni aldarmidim?!

— Mahmudjon, — dedi yana o‘sha ingichka ovoz. — Aldayapsan. Sen shirinliklardan bo‘shagan qutini och. U, axir, shunday qo‘l ostingda turibdi-ku!

Qizlar bu g‘alati sehrli ovozni hangu mang bo‘lib eshitib turishardi.

— Och, deyapman senga, Mahmud og‘a, o‘sha qutini! Ana, naq qo‘ling ostida turibdi! — dedi yana o‘sha ko‘rinmas bolakay tahdid bilan.

Xullas... savdo yana qizigandan qizidi! Do‘konda ayollar, yoshlar, qariyalar tirband bo‘lib ketishdi. Har kim har xil savollar berishardi.

Mahmud — Qiyshiq tarozchi tepada hamma yoqni tandirday qizitib turgan oftobga qaradi. Xayolida bitta o‘y: qachon kech bo‘ladi? Qachon oqshom tushadi?

Oftob esa borgan sari tevarakni qizitar, soat imillab vaqtni sanardi.

Shu topda kampirlardan biri so‘rab qoldi:

— Mahmudjon, balkim do‘koningda qizil yoki yashil tusdagi, popukli shol ro‘mollar ham bordir?

Mahmud “Yo‘q!” deyishga botinolmadi. Tag‘in o‘sha, la’nati qo‘ng‘iroq sadoli ovoz qayerdandir eshitilib uni odamlar ko‘z o‘ngida sazoyi qilishi hech gapmas. Yaxshisi, o‘zini kampirlarning savolini eshitmaganga solib, ovsar bo‘lib turaveradi. Shundan ma’qul yo‘l yo‘q.

Ular esa so‘rovlariga tayinli javobni poylab, quloqlari “ding” bo‘lib turibdi. Mahmud — Qiyshiq tarozichi supurgini qo‘liga olib, tajang bo‘lib do‘kon ichini supura boshladi. Kampirlar qaysarlik qilib:

— Shol ro‘mol bormi, deb so‘rayapmiz. Nima, qulog‘ing tom bitganmi?

“Bor, ammo narxi bozorda o‘n barobar qimmat”, deb ularga qanday aytadi? Axir, shu yo‘sindagi tijorat joniga oro kirib u uy qurdi, moshinalik bo‘ldi, ukalariga mototsikl, moped...

Mahmud — Qiyshiq tarozichi arosatda qoldi. Keyin zarda bilan peshtaxtaga har xil sidirg‘a matolar-u ro‘mollarni yoyib tash-

ladi. Biroq, yo tavba, shu topda do‘konning baland taxta bo‘lmalaridan peshtaxtaga “lop” etib yashil, “lop” etib qirmizi rangdagi, yana “lop” etib nisholdasimon tusli shol ro‘mol taxlamlari birin-ketin yog‘ilib tusha boshladi. Peshtaxta bahordagi dashtday rang-barang gullar va jilolar bilan yashnab ketdi. Mahmudning esa esi og‘ib qolay dedi.

— Kim bor? Meni talashyapti! — birdan dod-voy ko‘tardi u. Xaridorlar, qani endi, Mahmudga quloq tutishsa?...

Mahmud ro‘mollarni sotib bo‘ldi, do‘konni yopib uyiga yo‘l oldi.

Uch kun betob bo‘lib, to‘shakdan turmadi. Do‘kondagi voqealar yodiga tushgan zahoti uning tana harorati goh birdan ko‘tarilib ketar, gohida muzday terga botib alahsirar, tutqanoq tutib qolardi. Bu orada bazadan yangi mollarni keltirishdi, u bir ahvolda o‘rnidan turib do‘konga borib ularni qabul qilib oldi. Antiqa, nafis gazlama! Mahmud ularni hatto tekshiruvchilar ham hidini ololmaydigan qilib, o‘rab-chirmab bekitib tashladi. Ammo ertasiga bosh og‘rig‘i g‘oyibona ovoz yana ishga tushdi: Mahmud bor yashirganini peshtaxtaga chiqarib, oxirgi metrigacha o‘z qo‘llari bilan ovuldoshlariga sotdi, sotganda ham yorliq qog‘ozlarda ko‘rga hassaday qilib bitib qo‘ygan o‘z narxida sotdi. Bu savdo emas, baxtsizlik, azob-uqubat edi!...

Mahmud — Qiyshiq tarozichi tabib huziriga bordi. Singan-chiqqan suyaklarni davolaydigan tabibga! Tabib o‘ylanib turib-turib unga dedi:

— Omad sendan yuz o‘giribdi. Har taraflama ayon bo‘lib turibdiki, Yortiquloq do‘koningda o‘zini xo‘jayinday his etmoqda.

Lekin Mahmud — Qiyshiq tarozichi taqdirga tan berishni istamadi. Xotini va barcha qarindosh-urug‘larini ishga soldi. Ular bir kecha-kunduzda ikkita ipakli yaxtak, o‘n ikki dona qorako‘l cho‘girma va o‘n ikki juft etikcha tikishdi. Mahmud bularning barchasini do‘konga keltirdi, ammo do‘kon eshigini boshqa hech kimga ochmadi. Xullas, tayyorlagan bisotini olib kelib peshtaxtaga yoydi va osmonga qarab so‘zlandi:

— Do‘stim Yortiquloq, ushbu sovg‘alarni chin ko‘ngildan senga taqdim etaman! Ishon, sidqidildan!

Yortiquloqdan hech bir sado bo'lmadi.

— Jon og'ayni, — dedi Mahmud — Qiyshiq tarozichi, — bir marta bo'lsa-da, aft-basharangni ko'rsam, devdim. Kel, bir choy ichaylik.

Yortiquloqdan sado chiqmadi.

— Meni bekorga ranjityapsan, — dedi Mahmud, — tanqidingni qabul qildim, o'zimni tuzatmoqchiman... Faqat meni tushunishga harakat qilgin. Katta bir oilaning boshlig'iman, yeyman-ichaman, degan zuryodlarim ko'p, bitta moyanam urvoq ham bo'lmayapti.

Yortiquloq sukutda edi.

"Nahotki do'konimdan jo'nab ketib qolgan bo'lsa! — o'yladi Mahmud — Qiyshiq tarozichi, xursand bo'lib. — Unday bo'lsa, shoshmay tur, yaramas bolakay, uchrashib qolarmiz".

Mahmud kamyob mollarni tag'in bekitib, uning har bir bog'lami yoniga bittadan qopqon qo'ydi. Hamma o'ylagan ayyorliklarini bajarib bo'lgach, do'konni ochdi.

Xaridorlar do'konga kelishib, o'z ehtiyojlariga zarur narsalarni Mahmuddan so'ray boshlashdi.

Mahmud tag'in eski odatini qilib, ularga nuqul:

— Yo'q! — deb javob beraverdi.

Qo'ng'iroq-ovoz yana ishga tushdi.

— Nega yo'q, deysan? Bor-ku!

— Bor bo'lsa, qayerda? — dedi Mahmud — Qiyshiq tarozichi. — Topib ko'rsat!

O'zi esa ayyorona o'ylardi: bolakay hozir peshtaxta tagiga qo'l uzatadi, men uni shartta bilagidan tutaman! Kuning bitdi, bolakay!

Xaridorlarga esa:

— Ko'rib turibsizlarki, do'konda hech bir tuzuk-quruq molim yo'q, —deyishdan charchamasdi. Shunday gaplarni ayta turib, o'zi ayni paytda oyoq va qo'lini peshtaxta tagida ishga solib, qitmir Yortiquloqni tutib olish ilinjida paypaslanardi. Birdan qopqon taraqlab ketib, uning oyog'ini iskanjaga oldi."Oh, oyoqqinam tamom bo'ldi!" deb jon achchig'ida baqirib yubordi Mahmud — Qiyshiq tarozichi.

...O'shandan keyin Mahmud — Qiyshiq tarozichi do'konni tark etibdi, traktorchiligiga qaytibdi.

Traktorchilar esa yerga, elga zarur. Mehnatidan esa baravariga baraka topishadi. Chunonchi, Mahmud ham xohlasa mashina oladi, xohlasa aravachasi bor mototsikl...

— Nega yo'limdan yanglishib do'konga o'ralashib qoldim o'zi? — deydi Mahmud. — Topganim ta'na-yu malomat, isnod, sharmandagarchilik bo'ldi, xolos. Ularning dog'ini esa ming urinib ham ketkazolmaysan...

Haytovur, bizning hamyurtlarimiz yomon voqealarni xotiralarida ortmoqlab yurishni xush ko'rishmaydi, ular Qiyshiq tarozichining qilmishlarini ham deyarli unutishgan. Qiyshiq tarozichini bugun Mahmud traktorchi, deb atashadi, va e'zozlashadi!

YORTIQULOQ — MAKTABDA

El orasidagi uzunquloq gaplarga qaraganda, shunday bir voqea bo'lib o'tgan ekan. Yortiquloq kim ko'ringanga o'zini "Afsungarman", deb tanishtirib yurgan bir firibgarning avra-astarini ag'darib tashlab, rosa sharmandasini chiqaribdi. Bu uchar kimsa ovuldagilarni dev va alvastilar bilan qo'rqitib yurar ekan. Odamlar esa uning vahima gaplaridan cho'chishib, g'ayritabiiy ko'ngilsizliklardan o'zlarini asrab qolish ilinjida, hamyonlarida borini firibgarga qo'shqo'llab topshirar ekanlar.

Bir kuni tovlamachi-afsungar bir to'da odamlarni qo'rqinchli gaplar bilan talvasaga tushirib: "Qani, yuztuban tushib yerga yotinglar, boshlaringizdan ins-u jinsni haydayman", debdi. Ular uzala tushib yotib olishibdi, afsungarning o'zi bo'lsa, yerda bosh ko'tarmay yotgan odamlar orasida hay-haylab, jazavaga tushib aylanib yurib, yaxshi devlarni yordamga chorlab, yomonlarini esa joduli so'zlar bilan go'yo odamlardan nariga haydab xo'p tomosha ko'rsatibdi. Niyati, devlardan qo'rqib, yerga qapishib yotib olgan odamlarning bittama-bitta cho'ntaklarini shilish ekan. Biroq bundan xabar topgan Yortiquloq afsun qizigan joyga yetib kelib, firibgarning sallasi qatiga o'rnashib olibdi. "Voy, tovlamachi-yey, yana fitnalaringni boshlayapsanmi," deb qiqirlab kula boshlabdi. Firibgar bir gapni aytsa, Yortiquloq uning naq

teskarisini aytaveribdi. Yotgan odamlar bu gaplarning qaysi biriga ishonishni bilmay, rosa boshlari qotibdi. Burdi ketayotgan soxta afsungarning borgan sari tajangligi ortibdi. U yerda yuztuban yotgan odamlarga: "Qani, ko'zlaringni yuminglar. Uxlab qolsalaring, yanayam yaxshi", desa, Yortiquloq: "Qani, ko'zlaringni ochinglar, nodonlar! Bu ustamon hozir hamyonlaringni qoqlay boshlaydi" deb, qo'ng'iroqday ovozda ularni ogohlantirar ekan. Afsungar yig'lamsirab: "Ey-y, yo'qol, Yortiquloq, qayoqdan ham daydib kelib qolding, boshimga balo bo'lib" desa, Yortiquloq: "Sen o'zing nima qilib yuribsan bu yerda, maynavozchi. Bo'lmagan dev va alvastilarni to'qib chiqarib, shu bechora soddadil odamlarni tovlamoqchimisan?" deb uning po'stagini qoqa boshlabdi.

Yerga bag'rini berib yotgan odamlar bu gaplarni eshitib, birin-ketin hushyor tortib o'rinlaridan tura boshlashibdi, qarashsa atrofda dev-pev degan narsaning sharpasi ham yo'q, hamma yoqda olam ming rangda tovlanib yal-yal yashnamoqda. Afsungar ham fursatni boy bermay quyonni uribdi...

Bu voqeani qaysi bir zamonlarda bo'lgan, deyishadi. Yaqinda esa mana bunday sarguzasht yuz beribdi.

* * *

Men kichik o'g'lim o'qiyotgan maktabga bordim. Maqsadim, o'g'ilcham ta'lim olayotgan sinfda loaqal bir soat ularning qatorida o'tirib, muallimning darsini ko'rish va kuzatish edi. Muallim Boyli o'tgan darsda berilgan uy vazifasi bo'yicha bolalarga birin-ketin savollar berdi. Bolakaylar ham binoyiday javob qila boshlashdi. Dars tugagach, atrofimda yig'ilib qolishgan o'g'ilchamning sinfdoshlariga ko'nglimda borini aytdim: "Omadli, baxtli bolalar ekansizlar. Tabriklayman. Sizni ajoyib, zo'r muallim o'qitayotganligini men o'z ko'zim bilan ko'rdim", dedim ularga.

Boyli maqtovlarimdan lavlagiday qizardi. U hali juda yosh edi. Xayrlashayotganimizda menga shunday dedi:

— Agar Yortiquloqqa to'qnash kelmaganimda, siz bugun qarshingizda tamoman boshqa o'qituvchi turganligini ko'rgan bo'lar edingiz.

— Hali Yortiquloq bilan ko‘rishganmisiz? — qiziqsinab so‘radim undan.

— Yuzma-yuz duch kelmadik. Biroq o‘tgan yilning o‘rtalarida mening o‘qituvchilik ishlarimda ajabtovur voqealar sodir bo‘la boshladi. Men o‘sha, antiqa hodisalarni hamon unuta olmayman. Sezishimcha, bunday hodisalar faqat Yortiquloqning qo‘lidan kelardi. Bunga ishonchim komil.

Va Boyli muallim mening xotiramda Yortiquloq bilan bog‘liq ravishda yashab kelayotgan rivoyatlar qatoriga yana bitta yangisini qo‘shdi.

O‘shanda bunday bo‘lgan ekan. Maktabda yuqori davomat uchun kurash boshlanibdi. Boyli esa institutni endigina tugallab shu maktabga ishga kelgan ekan. Unga ikkinchi sinfni topshirishibdi. Boyli birinchi kundayoq taajjubli holatga duch kelibdi: ikkinchi sinfdagi qirq nafar o‘quvchi bolakaylardan o‘ntasi hamon o‘qishni zo‘rg‘a eplab o‘qishar ekan.

Boylini vahima bosibdi. U chorak yakunida, kamida o‘nta o‘quvchining o‘zlashtirishini “qoniqarsiz” deb topib, ularga “ikki” baho qo‘yishga majbur edi-da.

Bu esa maktabdagi umumiy o‘zlashtirish darajasiga shu qadar og‘ir zarba bo‘lib tushar ediki, oxir-oqibatda, direktor pedagoglar yig‘ilishida bunday o‘qituvchining ushbu ta’lim dargohida ishlashi kerakmi-yo‘qmi, degan masalani o‘rtaga qo‘yishdan boshqa iloji qolmas edi.

Boylining bundan boshi qotib, qo‘shni ovuldagi maktabda ishlayotgan tengqur muallim jo‘rasining oldiga maslahatga boribdi.

Jo‘rasi uning so‘zlarini eshitib xo-xolab kulibdi.

— Hali shuni o‘ylab, boshingni qotirib yuribsanmi? — depti u. Yo‘li oson-ku?! O‘sha bolalarning yoppa hammasiga qatorasiga “yaxshi”, “a’lo” degan baholarni qo‘yib tashlamaysanmi, nodon!

Boyli o‘ylab qarasa, taklif yomon emas. U shunday qilibdi. Sinf jurnali biridan-biri yuqori baholar bilan to‘lib, ko‘rgan ko‘zni yayratadigan bo‘libdi. Direktor pedagoglar yig‘ilishida Boylini rosa maqtabdi va uni boshqalarga ibrat qilib ham ko‘rsatibdi.

Hayot izga tushibdi, Boyli esa, pinagini buzmasdan navbatdagi chorakda, jurnaldagi “yaxshi” baholarning yarmidan ko‘prog‘ini

“a’lochi”lar darajasiga ko‘tarib tuzatibdi. O‘zlashtirish foizi o‘sgandan-o‘sib boribdi. Boyli “Faxriy yorliq” bilan mukofotlanibdi.

Shu yo‘sinda, uchinchi chorakni yakunlashga ham yetib kelishibdi. Boyli darsdan keyin stolda qadalib o‘tirib, sinf jurnalini ochibdi va unga ko‘ngli tusagan eng zo‘r baholarni qatorlashtirib bitib, hafsala bilan to‘ldirib chiqibdi.

Qilgan ishidan ko‘ngli tamomila mamnun va behad xotirjam bo‘lib, bir piyola choy ichish maqsadida maktab bufetiga yo‘l olibdi. Tez orada bufetdan qaytib, sinfida a’lochi o‘quvchilar soni o‘sayotganligini tasdiqlovchi baholarni qaytadan ko‘zdan kechirib ko‘nglini rohatlantirish ilinjida sinf jurnalini qaytadan varaqlabdi va ... ko‘zlariga ishonmabdi. “Besh” baholarning birontasi ham jurnalda yo‘q edi. Ularning o‘rnida uch, ikki va hatto bir raqamli baholar...

— Qaysi o‘zboshimcha bu ishni qildi? — deb g‘azablanibdi Boyli beixtiyor. Va darhol og‘zini kafti bilan bekitibdi: “Xayriyat, o‘qituvchilar xonasida hech kim yo‘q edi. Uning nadomatli hayqirig‘ini bironta tirik jon eshitib qolmaganidan ichida xursand bo‘libdi. Jurnaldagi baholar tuzatilmagan, balki avval zo‘r baholar tagi-tugi bilan o‘chirib-yo‘qotilib, ularning o‘rnida Boylining aynan o‘z qo‘li va dastxati bilan “past” baholar qo‘yib chiqilgan edi. Boyli angrayib qoldi.

Keyin u ko‘ngilsiz “past” baholarni bittalab tuzata boshladi. Ularni “to‘rt” bahoga aylantirish aytarli mushkul bo‘lmadi-yu, lekin “ikki”larni tuzatish borib turgan bosh og‘rig‘iga aylandi. Jurnal bo‘yala boshladi.

Boyli ishni tamomlab bir muddat: “Bu xunuk baholar jurnalda qanday paydo bo‘ldi?” deb mulohaza qila boshladi. Hatto boshini changallab, esim aynib qolmadimikin, deb chakkalarini silab-siypab ko‘rdi.

Nihoyat, u jurnalni yopdi va shkafdagi o‘z o‘rniga olib borib qo‘ydi. Kastumini kiydi va o‘zidan o‘zi hadiksirab, yana jurnalni qo‘liga oldi hamda shoshilib uning kerakli sahifalarini varaqlab ochdi. Hadiksiraganicha bor ekan. Jurnalni ochdi-yu, qizib turgan qozonga qo‘lini bosib olganday, uni tashlab yubordi. Past baho-

lar — nayzabardor jangchilarga o‘xshash “ikki”lar, cho‘chqaday semirgan “uch”lar jurnalni mahv etgan edi.

Boyli o‘chirg‘ich rezinkaga yopishdi va sinf jurnali sahifalarini ilma-teshik holatiga keltirguncha o‘chirg‘ichni bosib ishqalab, past baholarni o‘chirib chiqdi.

Uning hayotida diqqinafas kunlar boshlandi.

Boyli o‘quvchilarni doskaga chaqirar, savollar berar, har doimgiday ularni maqtar, mabodo, o‘quvchi savollariga javob bera olmasa, uning uchun o‘zi javob qilar va jurnalga yaxshi baholardan birontasini qo‘yib qo‘yar edi. Biroq... taajjubki, qo‘yilgan “besh”lari zum o‘tmasdan “ikki”iga aylanib qolaverdi.

— Shunday qilib, ishim yana chappasiga ketdi, — dedi Boyli menga, g‘amgin kulgi aralash. — Tanbeh, malomatlar boshimni chulg‘ab oldi. Hayfsanlar ko‘paydi, hatto ikki marta jiddiy hayfsan e’lon qilishdi. Biroq muallimlikning to‘g‘ri yo‘liga tushib olganimdan keyin, sinfdagi o‘zlashtirish o‘z-o‘zidan o‘nglana boshladi.

— Harqalay, kim jurnalingizga o‘zboshimchalik bilan aralashdi ekan, bilmadingizmi? — so‘radim undan.

Boyli yelka qisdi:

— Yortiquloq bo‘lsa kerak! — dedi nihoyat.

ORAZ YAG‘MUR
(1947–2022)

Oraz Yag‘mur 1947-yilning 15-avgustida Turkmanistonning Mari viloyati Yo‘lo‘tan tumani Ganlibosh qishlog‘ida tug‘ilgan. 1972-yilda Maxtumquli nomidagi Turkman davlat universitetini imtiyozli diplom bilan bitirgan. “Tuman tarqalganda” romani mashhur. Yozuvchi Qayg‘usiz Otaboyev, Xolmuhammad Nuriy, Otaturk kabi turk dunyosi bilan bog‘liq shaxsiyatlarga doir ko‘plab asarlar yozdi. Jaloliddin Rùmiy, Yunus Emro, Hoji Bektoshi Vali, Qorachao‘g‘lon kabi allomalarni o‘quvchilar ommasiga tanitishga katta hissa qo‘shgan. Adibning ayrim asarlari o‘zbek tilida chop etilgan. Oraz Yag‘murning o‘ziga xos uslubda yozilgan “Maxtumqulinoma” asarida buyuk turkman shoiri Maxtumquli Firog‘iyning ibratli umr yo‘li yoritib berilgan.

MAXTUMQULINOMA

Bu kitobni yozishda beg'araz ko'maklashgan va o'qiganlarning ikki dunyosi obod bo'lsin.

Muallif

SO'ZBOSHI

Turkiy xalqlar orasida Maxtumquli singari o'z millatiga, xalqiga sodiq shoirlarga ega xalq turkmanlardir.

V.Bartold

Men bu mavzuda yozish uchun qo'lga qalam olarkanman, o'ylanib oldim. Juda katta ishga bel bog'lamadimmikin, bu mas'uliyatli ishni uddalay olmasdan, uyalib qolmasmikanman? Biroq Maxtumquliga bo'lgan cheksiz ixlosim ham menga tinchlik bermadi. Baribir Maxtumquli haqida yozmasam, qalbim taskin topmasligi aniq. Men o'z qalbimdagilarni yozaveray-chi. Oxiri bir gap bo'lar.

Mana, buyuk Maxtumquli qarshimda turibdi. Biroz mahzun, ammo qarashlari o'tkir, bardam. Uning hayotiy falsafasi ham xuddi sham atrofidagi parvonalar singari ko'rkam siymosini bezab turibdi. Olaqorong'i bir asr shoir ortidan ergashayotir. Maxtumquli ana shu qorong'ilik qo'ynidagi yorqin sham misol shu'la sochib turibdi. Chunki u o'z asridan ancha ilg'or fikrlay oldi, o'z zamondoshlarini, ilmga, ma'rifatga ziyoga chorladi.

Maxtumqulining surat va siyratida ham, asarlarida ham o'ziga jalb etuvchi ohanrabo bor, joziba bor. U hech qachon quyonga faqat "qoch", tozga esa, "quv" deb xitob etmadi. U hamisha o'quvchi bilan bir otashda yonadi, birlikda o'rtanadi. Maxtumquli hech qachon "mening jonim jon-u, seniki baqlajon" deguvchilardan bo'lmadi. Ko'zlarning tusi turlicha bo'lgani bilan ko'z yoshlarning

rangi bir xil ekanini anglab (Rumiy) yashadi. Shu sababli Maxtumquli o'z davrida zulmatga burkangan osmonda yo'lchi yulduz misol balqib chiqdi.

Bu yulduzlik davri Maxtumqulining oq-qorani tanishgan davridan boshlandi. G'animlari Maxtumquliga qarshi qilich qayrashga, unga tuhmatlar yog'dirishga tayyorlanishardi.

TUHMAT NOMARDNING QUROLIDIR

Ana shunday murakkab bir davrda yashash, ziddiyatlarga qarshi turish shoir uchun qanchalik qiyin bo'lganini tasavvur qilib ko'ring-a?

Turli qo'lyozmalar, sayohatchilarning esdaliklari, el orasidagi naqllar. Har xil suvratlar... Bularning har biri kechmish haqida, ajdodlarning turmush tarzi haqida muayyan tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi.

Ko'pchilik o'tmishni imkon qadar xato va kamchiliklardan xoli ko'rsatishga intiladi.

Shunday bo'lsa-da, Maxtumqulini asl holicha ko'rsatish men uchun ham qarz, ham farz. Uni rivoyat va mish-mishlardan emas, o'z ijodidan, she'rlaridagi mantiqdan izlashga to'g'ri keladi. Ana shu o'lmas satrlar, purma'no fikrlar ortidan asl haqiqat bo'y ko'rsatadi. O'n sakkizinchi asrda yuzaga kelgan, Ozodiyning, Shaydoiyning asarlarida o'zini ko'rsata boshlagan ijtimoiy qarashlar, milliy ruh Mahtumquli ijodida yanada yorqin aks etdi, mukammal ko'rinish kasb etdi. Uning quyidagi misralari ham bejiz bitilmagan:

Maxtumquli sirrim cho'xdir,
Ochadigan odam yo'qdir.

Rostdan ham, Maxtumquli she'rlarini o'qigan kitobxonning qarshisida ming bir savol, ming bir sir yuz ochadi. O'quvchi bu savollarga javob topgani, bu sirlarni anglagani sari Maxtumquli siymosi yanada sirli, yanada jozibador qiyofa kasb etib boraveradi.

Shoirning yana bir buyukligi shundaki, o'z o'quvchisini turli savollarga javob topishga, sirlarni yechishga muttasil undaydi.

O‘qiganingiz sari o‘zingiz sezmagan holda Maxtumqulining shaydosiga, maftuniga aylanib boraverasiz.

U har bir insonning miyasida yashirinib yotgan ajdahoni topib, mahv etishga urinadi. Mingdan biri inson, qolganlari shunchaki ko‘lanka bo‘lsa-da, shoir har bir o‘quvchidan komil INSON qidirishdan umid uzmaydi. Komil inson tushunchasi chuqur ma’no-mazmunga ega. Fikrlash, turmush va ijtimoiy madaniyat tushunchalari birlashib umumiy madaniyatni tashkil qiladi. Har bir xalqning o‘tmishi, bugungi kuni, kelajagi ana shu umumiy madaniyatdan kelib chiqadi. Bu keng qamrovli tushunchani mensimaslik, yoki yetarlicha baholay bilmaslik savodsizlik belgisi bo‘lur edi.

Kimning madaniyati yuksak bo‘lsa, oxirida ham uning o‘zi g‘alaba qozonishini Maxtumquli yaqqol isbotlab berdi.

Maxtumquli o‘z asarlari orqali xalqning umumiy madaniyatini o‘stirishni o‘z oldiga maqsad qilgani aniq. Shu bois shoir juda keng qamrovli mavzularga murojaat qiladi. Insonni o‘rganish shoir ijodining asosini tashkil etadi.

U mazkur masalada o‘zidan avvalgilarning yo‘lidan boradi, ammo ulardan ko‘ra uzoqroqni ko‘zlaydi. Maxtumqulining sirini har kim o‘zicha kashf etadi. Har gal o‘qiganda yangi-yangi sirlar ochilaveradi. Har gal o‘quvchi tafakkur ummoniga cho‘mib, ma’no lazzatlaridan bahramand bo‘ladi.

Shoir insoniyat qarshisida turgan ming bitta muhim masalani oshib o‘tib, eng asosiy masalaga o‘quvchining e’tiborini tortmoqchi bo‘ladi. Ko‘p ishlagan odam ko‘p yanglishadi, deydilar. Donolar o‘z xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqaradilar. Ammo buyuklarning xatosini ko‘rsatib berishdek qiyin ish bo‘lmasa kerak. Maxtumquli har bir narsaning ko‘ringani kabi emasligini, asliyatning soyadan farqini o‘quvchiga anglatishga urinadi. Umr bo‘yi Maxtumqulini o‘qigan, undan o‘rgangan, ibrat olgan kitobxonlar juda ko‘p. Chunki Maxtumquli ijodi har bir yurakka oson kiradi, har bir ruhni tezda rom etadi.

Hozirgi zamonning yetakchi adiblari gohida bebaho asarlar yarata olmayotgani uchun shart-sharoitni ayblashadi. Unday bo‘lsa, Maxtumqulining ijodkorligini qanday tushunish mumkin?

U johillik, nohaqlik avjiga chiqqan, ijod qilish uchun deyarli hech qanday sharoit va qulay muhit bo'lmagan XVIII asrda nodir asarlar yarata olganiga nima deysiz?

Kunda-kunora qatl-u qirg'inar yuz berib, siyosiy boshboshdoqlik hukm surgan, johillar ilm-u ma'rifat yo'liga g'ov bo'lib turgan bir paytda shoir o'z asriga, balki asrlarga qarshi bosh ko'tarmoq uchun buncha kuch-qudratni qayerdan oldi ekan?

Qolaversa, uning boy madaniy merosi nafaqat turkman eli, balki Eron, Afg'oniston va butun Turkiston ahlini o'ziga maftun etoldi. Nafaqat o'z zamondoshlari, balki kelajak avlodni ham lol qoldira oladigan asarlar yaratoldi.

Qolaversa, u nainki o'zining kam sonli turkman elini, balki Eron, Afg'oniston, Turkiston mulklarini ham asarlari, qalami ila zabt etoldi. Nafaqat o'z zamondoshlari, balki kelgusi avlodlarning ham ko'ngil mulkiga aylanishga qodir so'z javohirlarini tizdi. Bu ilohiy qudrat mahsuli emasmidi? Albatta, daholarinng idroki, iqtidorini so'z bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bu tabiatning cheksiz sir-sinoati, deyishadi. Ammo bu daholik qudrati, tabiatning nodir sinoati XVIII asrda taraqqiy topgan yirik xalqlarda emas, tarqoq, nisbatan qoloq, taraqqiyotdan ancha ortda qolib kelayotgan turkman elati vakilida bo'y ko'rsatganiga nima deysiz?

Balki u o'tmishdagi Nizomiy, Rumiy, Yunus Emro, Hoji Bektoshi Valiy, Nasimiy, Navoiy, Fuzuliy, Qorachao'g'lon singari buyuk siymolarning davomchisidir? Balki bu bir paytlar jahonga dovrug' solgan qadimiy Niso, Mashhadi Misriya, Marvi shohi jahon singari madaniyat beshiklarining o'ziga xos ta'siridir?

Yangi shaharlarning ham asosan eski, bir paytlar gullab-yashnagan kentlar xarobalari ustida qad ko'tarishi ham bejiz bo'lmasa kerak. Bunga ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Balki bu turkman elining kechmishdagi buyuk shuhratining samarasidir? Iskandar Maqduniy qo'shinlari ham o'z yurishlari davomidagi eng keskin qarshiliklarni aynan Turon zaminida, turkmanning ajdodlaridan ko'rgani ham ayni haqiqat. Mo'g'ul bosqinchilarining yengilmas qo'shiniga qaqshatqich zarba bergan Jaloliddin Manguberdining tomirida ham turkman qoni oqar. O'zining betimsol asarlari ila bosqinchilarning qilichini o'tmaslashtirgan

Jaloliddin Rumiy ham ana shu el farzandi edi. Ikki Jaloliddin, biri yuksak ruhi, ikkinchisi keskir shamshiri ila mo'g'ullar zulmi va bosqiniga qarshi chiqa oldi.

Dunyodagi eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan sanalmish Joytun madaniyati ham aynan shu zaminda paydo bo'ldi.

Ishonchli manbalarning guvohlik berishicha, 522-yilda Marg'iyonada Frad boshchiligida boshlangan ozodlik harakati ham sobiq ittifoq xalqlari tarixidagi eng birinchi xalq harakati bo'lgan.

XVII asr turkman shoiri Qorachao'g'lon:

Ko'zan tog'idan naslimiz,
Oriy turkmandur naslimiz.

XVIII asr turkman mumtoz shoiri Shaydoiy:

Tog'dan baland, yantoqdan past
Bo'ldi turkmanning ahvoli.

Turkiylarning tarixini o'rganishga benazir hissa qo'shgan akademik V.Bartold shunday degan edi:

"Qadimgi turkmanlar Uzoq Sharqda, Markaziy va O'rta Osiyoda, Yaqin Sharqda ko'pchilik turkiy xalqlarning shakllanishida katta rol o'ynadi"

Bu borada katta tajriba to'plagan yana bir olim L.N. Gumilyovning shunday fikrlari bor:

"Markaziy Osiyoda, Sirdaryo va Amudaryoning oralig'ida va quyi oqimlarida turklashgan oriylar, parfiyonlarning eng yaqin qarindoshlari turkmanlar yoxud g'uzlar yashashardi".

Ehtimol, muhtaram o'quvchilar "muallif juda ko'p savollarni ko'ndalang qo'ydi, endi ularga o'zi javob bersa kerak" degan xayolga borgandir? Yo'q, muallif jo'yali savollar topish va ularga o'quvchi bilan birga javob izlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu borada Maxtumqulining ikki satrini eslab o'tish o'rinli bo'lardi:

Er boshimga ish tushdi,
Mardona bo'ldim endi.

BIRINCHI BO‘LIM

Maxtumqulining tug‘ilgan yili haqida uning hayoti va ijodi tadqiqotchilari turli xil fikrlar bildiradilar. Shoirning yigirmanchi asr oxirlarida dunyodan o‘tgan avlodlaridan bo‘lmish Qora Eshonning ma’lumotlariga ko‘ra, Maxtumquli Turkmanistoninng Gunjoy degan muzofotida yoz oylarida tavallud topgan ekan. Ehtimol, ko‘pchilikning fikricha, uning 1733-yilda tug‘ilgan degan ma’lumotlar ham to‘g‘ridir. Bizning fikrimizcha ham, ko‘pgina olimlarning bu sanani aniqlashtirish uchun ko‘plab manbalarni tekshirib chiqishgani tahsinga loyiq. Shu bois faktlarga yangidan yuzlanib, eskilarini inkor etmoqchi emasmiz. Buyuk shoir tug‘ilgan paytda Eron, Afg‘oniston, Turon mulklaridagi ahvol qanaqa edi? Bu yillarda Nodirshohning o‘z turkiy qondoshlari borasidagi siyosati qay ko‘rinishda edi? Xususan, go‘klang turkmanlarining o‘sha yillardagi yashash tarzi boshqa turkmanlardan nimasi bilan farqlanardi?

Muhammad Kozimning “Nodirnoma”, Mirzo Mahdixonning “Nodirshoh tarixi” asarlari, yuzga yaqin yozuvchilar tarafidan bitilgan romanlar, shu davrga oid yana ko‘plab manbalar davrning siyosiy, iqtisodiy, madaniy qiyofalarini ko‘z oldimizga keltirish imkonini beradi.

“Nodirshoh hazratlari Darago‘zdagi Dastijart qal’asida hijriy 1100-yil muharram oyining 28-kuni dunyoga keldi” (1688-yil, 22-noyabr, MITT, 118-sah.).

Nodirshoh qo‘lida qilich tutgan ondan boshlab, eng avvalo, o‘z qondoshlariga qurol ko‘tardi. Hatto qoni qaynagan kezlarda o‘z hamqavmlari afsharlarni ham ayab o‘tirmadi. Jang qildi, bosib olgan yerlarning boyligini taladi, xalqini ko‘chirdi. Har yerning tulkisni o‘sha yerning tozisi bilan ovlashga harakat qildi.

U turkiy qavmlarning bo‘ysunmaslik xususiyatini avvaldan bilardi. Shu bois bu xalqlarning ichki ahvolidan muntazam xabar yetkazib turgan ayg‘oqchilar shohni tezroq harakat qilishga, urush

boshlashga undardilar. Bu asosiy omillardan biri bo'lishi ham mumkin. Nodirshoh o'z toj-taxtini saqlab qolish maqsadida turkiy bo'lmagan xalqlarga xayrixohligini ko'rsatish uchun turkiylarga qarshi ekanini mudom eslatib turishga majbur bo'lgandir? Bu borada shia-sunniy mojarolarining ham o'rni bor. Ana shu mojarolar sabab turkman, o'zbek xalqlari ustiga qo'shin tortib, ularning ko'pchiligini quvg'in qilgan, talon-toroj etgani ham haqiqat. "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga" naqli ayni o'sha paytlarda el ichida tilga tushgandir.

O'rni kelganda aytish lozimki, Nodirshohdan avvalgi va keyingi qizilbosh hukmdorlar ham aynan uning yo'lini tutishgan. Chunki ular qo'l ostidagi ellarning fe'l-atvorini bilar edilar.

Atrofda ana shunday ahvol hukm surgan bir paytda Nodirshohning qo'l ostida ezilib kelgan go'klanglarning hayotini tasavvur qilavering.

Gurgon tumani jannatmonand tabiati bilan ko'plab sayyohlar, mehmonlar va fotihlarni ham o'ziga jalb etib kelgan. Nodirshoh singari makkor hukmdor bu maskanga ko'z tikmasligi mumkin emasdi. Nodirshoh qo'shinlarining dastlabki mo'ljali ham aynan go'klang qabilasi bo'ldi. Yovmut turkmanlari singari birika olmagani, taka turkmanlari bilan ham til topisha olmagani go'klang qabilasining hayotida keskin va noxush o'zgarishlar yasadi. Qolaversa, ularning ko'pchiligi tog' turkmanlari edi. Tekislik yoki sahro turkmanlariga qaraganda tog'liklar nisbatan ilgariroq o'troqlashishgan, shu bois ularda sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik ko'proq rivojlangan. Shu bois ularning turmush madaniyati ko'chmanchilarnikiga qaraganda, ancha farqlanadi. Buning ustiga yovmut, taka mojarolari, Xiva xonlarining yurishlari ham bu elatni anchayin holdan toydirgandi.

1733-yil. Bu yil bo'lajak buyuk shoirning tug'ilgan yili edi. U uch yoshga to'lganida, Nodir shohlik taxtiga minib, shoirning beg'ubor bolaligini qizil qonga g'arq etdi. Shoir o'n to'rt yoshga yetganida, Nodirni o'z tig'i bilan o'ldirdilar. Maxtumquli esa, shu damdan o'zining barkamol yoshga yetganini anglaydi.

Shu choqqacha yosh bilarding o'zingni,
Ko'rgil endi, katta bo'lib qolibsan...

Balki yosh shoir Nodirshohning o'limi ko'plab muammolarning yechimiga yo'l ochishini qalban his etgandir? Ammo uning boshiga tushajak turfa musibatlar, yaxshi-yomon kunlar, baxtsiz sevgi mojarolari, ruhiy azoblar, iztiroblar, hammasi oldinda edi.

O'n to'rt yoshli o'spirin o'zini hali qanday sinovlar kutib turganini qayerdan ham bilsin? Taqdirning turfa o'yinlari haqida so'z yuritishdan avval Maxtumqulining bolalik, o'smirlik yillari haqida so'z yuritsak.

Maxtumquli hayotini shartli davrlarga bo'lsak, aytish joizki, uning o'n to'rt yoshgacha bo'lgan davri haqida yetarlicha ma'lumotlar yo'q. Uning bolalik, o'smirlik yillari o'z teng-to'shlarinikidan u qadar farqlanmaganini aytish mumkin. Nimaga asoslanib bunday deyapmiz? Birinchidan, o'sha paytdagi vaziyat, aholining turmush tarzini ko'z oldimizga keltiraylik. Demak, u ham o'z tengdoshlari singari yoshlik paytida mol boqqan, dehqonchilik, ekintikin ishlariga qarashgan, duradgorlik, zargarlik, kosiblik singari hunarlarga qiziqqan. Chunki. Turkmanlar o'tmishida har bir yigit kishining bir necha hunar egallashi shart sanalgan. Bu an'ana turkmanning qon-qoniga singib ketgan.

O'n uchinchi asrda Onado'liga borib, o'sha yerda Axiylik tariqatiga asos solgan Axiy Evranni esga olaylik.

Axiylik tariqatining shu shartlari bor: Jo'mardlik, insonlarga muhabbat, xushmuomalalik, o'zidan avval boshqalarga ko'maklashish, boshqalarning manfaatiini o'zinikidan ustun qo'yish, hammani hurmat qilish, or-nomusni asrash, Allohni sevish, to'g'riso'zlik, mehmondo'stlik, do'stlarning shodligiga sherik bo'lish, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, tavba qilish, g'iybatning oldini olish, minnat qilmaslik, birovni majburlamaslik, odamlarni teng ko'zda ko'rish, quloqlarni yomon gap eshitishdan tiyish, qo'shnilarga muruvvat ko'rsatish, kechirimlilik, ustozga yuksak ehtirom... bularning barchasi axiylikning shartlaridan sanaladi.

Axiylikda uch narsa ochiq tutish lozimligi aytiladi:

1. Qo'lingni ochiq tut, jo'mard bo'l.

2. Dasturxoning ochiq bo'lsin, ochlarni to'ydir.

3. Eshigingni ochiq tut, mehmondo'st bo'l.

Yana uch narsa borki, ularni hamisha yopiq tutish lozim:

1. Ko'zingni yum, yomon narsalarga qarama.

2. Tilingni tiyib yur, yomon gapirma.

3. Belingni mahkam tut, zinodan yiroq bo'l.

Axiylarning yana bir qiziq nasihati bor:

Ko'p yeyish fikrlarni o'tmaslashtiradi. Oz ye va halol luqmaga qanoat qil. Xorliklarning boshi tama'girlikdandir.

Ular ayollariga ham shunday uqdirishgan: "Oshingga, ishingga, eringga e'tiborli bo'l!". Bu tushunchalar turkman mentalitetiga ham singib ketgan. Buni hozir ham turkman xalqi turmush tarzida kuzatish mumkin.

Ko'p rivoyatlarda Maxtumqulilar oilasi kosiblik, zargarlik bilan ham shug'ullangani aytiladi. Bu boradagi tafovutlar yosh Maxtumqulininig dunyoga qanday boqishida, atrofdagi hayotni qanday qabul qilishida bo'lsa kerak.

Inson ong-u tafakkuri bolalik chog'laridan shakllanib borishi hech kimga sir emas. Maxtumquli juda yosh chog'ida onasi Orazgul ejedan judo bo'ladi. Albatta, ona mehridan barvaqt ayrilish Maxtumqulining hayotida ham mash'um iz qoldirgani ayon. Uning bizgacha yetib kelgan asarlarida onaga bag'ishlangan satrlar juda kam uchrashini qator olimlarimiz quyidagi holat bilan izohlashadi: Ilgarigi davrlarda ona haqida bitilgan she'rlar shoirning shaxsiy siri hisoblangan, kotiblar tomonidan kitobat qilinayotganda ham bunday she'rlar tushirib qoldirilgan. Ammo bu borada boshqacha andishalarimiz ham yo'q emas. Qolaversa, Maxtumqulining dastlabki ijod namunalari, xususan, o'n to'rt yoshigacha yozgan she'rlari bizgacha deyarli yetib kelmaganini ko'pchilik tasdiqlaydi.

Shoirlar ijodiga nazar tashlansa, ona haqidagi she'rlar juda yoshlik chog'larida, balog'atga yetib, qalblarida ishq-muhabbat bo'y ko'rsatmagan paytlarida ko'proq qog'ozga tushiriladi.

Shunday ekan, Maxtumquli o'z onasi haqida she'r yozmagan yoki kam yozgan deyishga yetarli asosimiz yo'q. Dunyo keng, shoir ijodining qamrovi undan-da kengroq. Vaqti kelib, shoirning o'z volidasiga bag'ishlab bitgan shoh satrlari ham topilib qolsa ajab emas.

Shu o'rinda shoirning mana bu misralari esga tushadi:

Besh yilda bir kitob qilgan ishimiz
Qizilboshlar olib vayron ayladi,

yoki:

Ajab dostonimdan qo'ymadi nishon,

yoki:

Qo'lyozma kitobim selga oldirib,
Ko'zlarim izinda giryon ayladi,

— singari satrlari uning ko'z o'ngida yo'q qilingan asarlari xususida ma'lumot beradi. Balki bu asarlar shoir umrining dastlabki yillarida yaratilgan ijod namunalari bo'lgandir?

Keling, yana shoirning tarjimayi holiga qaytaylik. Butun umri davomida bo'lganidek, shoirning bolalik, o'smirlik yillarida ham har taraflama ta'sir ko'rsatgan inson uning otasi Davlatmammad Ozodiy edi. Otasi onajzor mehriga qonib ulgurmagan farzandiga onalik mehrini ham bera oldi, deyilsa xato bo'lmas.

Oliyjanob, xushfe'l, dunyo ne'matlariga ko'ngil qo'ymagan, umrini ilm-u ma'rifatga bag'ishlagan, o'z davrining yetuk murabbiysi, yuksak ma'rifat va madaniyat sohibi bo'lmish Ozodiy Maxtumquli uchun nainki namunali ota, balki buyuk ustoz, har jihatdan o'rnak bo'lishga arzirli ideal inson ham edi.

Ozodiy barcha Sharq xalqlari qon-qoniga singib ketgan insoniy fazilatlarga ega, aqlli, uzoqni ko'ra bilgan oila boshlig'i bo'lganiga shubha yo'q. Biroq uning ilmga chanqoqligi, ruhiy erkinlikka intilishi oilaning katta vakillariga o'xshamasdi. Odatiy yarim hunarmand, yarim dehqon oilada shoirlikka, olimlikka moyilligi bor farzand dunyoga kelishi oila boshlig'ini, qarindosh-urug'larni noqulay vaziyatga tushirib qo'ygandi.

Nega? Ma'lumki natural xo'jalik hukmron bo'lgan davrlarda oila uchun ishchi kuchi eng asosiy zarurat sanalgan, chunki oilani boqish, ro'zg'or tebratish ana shu ishchi kuchiga bog'liq bo'lgan.

Demak, oila boshlig'i ham farzandining vaqti kelib qo'ltig'iga kirishi, qo'lidan ishini olishini istaydi. Biroq tabiat insonning kun-

dalik zaruratlari-yu, xohishi bilan hisoblashib o'tirmaydi. Uning o'z yo'rig'i bor. Oddiy dehqonning bolasi ham iste'dod sabab olim, shoir yoki baxshi bo'lib yetishishi mumkin. Biroq bunday farzandlar ota kasb bilan shug'ullanib tursalar-da, o'zlarini shu kasbga butunlay bag'ishlay olishmaydi. Ularning qalbi, ruhiyati ilohiy tuyg'ularga moyil bo'ladi. Asosan o'qishga, ijodga berilib, jismoniy mehnatdan ancha yiroqlashib qolishadi. Aqliy mehnatga zo'r berib kirishish odamni anchayin zaif, kasalmand qilib qo'yishi ham ko'p kuzatilgan.

Bu sifatlar xo'jalik yurituvchilarga xos emas. Keyin ovchiga duch kelgan kiyikning ikki ko'zidan boshqa gunohi yo'q, deydilar. Bag'ringdan ungan bolangni tashlab ketolmaysan, bora-bora taqdirga tan berasan...

Bundan otalar avvaliga "Ey xudoyim, ikkita mulla o'g'ildan ko'ra, bitta dehqon o'g'il berganing yaxshi" deya ichlaridan tavallo qiladilar. Chunki mehnatkash oila boshlig'i o'z kasbini o'g'illari ham davom ettirishini istaydi.

Rivoyatlar, so'roq-surishtiruvlar natijasida topilgan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu avlodning boshlang'ich nuqtasi Maxtumquli egarchiga borib taqaladi. U taxminan 1654-yilda tug'ilgan. Egarsozlik bilan shug'ullangan. Yetimlik, muhtojlikda o'sib ulg'aygan, mardikorchilik bilan kun ko'rgan. Uyi, ro'zg'ori bo'lmagan. Bir boyning uyida xizmatkorlik qilgani, shoirlikdan biroz xabari borligi aytiladi.

Maxtumquli egarchi qirq yoshga kirganda farzandli bo'lgan. O'z otasining xotirasini ardoqlab unga Davlatmammad ismini qo'yadi. Bola 12 yoshga yetganida ota dunyodan o'tadi. Katta Maxtumquli haqidagi ma'lumotlarning bor-yo'g'i shu, xolos.

Davlatmammadning bolalik yillari, onasining taqdiri haqidagi ma'lumotlar bizga yetib kelmagan. Albatta, otaning qoni farzandning ham qonida oqishi bor gap. Davlatmammad nafaqat hassos shoir, balki ulug' olim ham edi. Bir paytlar otasi — katta Maxtumqulining qalbida tug'ilib qo'r olmagan uchqunlar endi Davlatmammadda alanga oladi.

Uning fikrlari o'z davri uchun, turkman xalqining o'sha paytdagi hayot tarzi uchun katta turtki bergani shubhasiz. Natural

xo‘jalik muammolari Maxtumquli egarchining iste’dodini yuzaga chiqarishiga imkon bermagan bo‘lsa-da, o‘g‘lining olimlik va shoirlik iqtidoriga mone bo‘lolmadi.

Boya aytganimizdek, tabiat o‘z hisobidan yanglishmaydi. Shu tariqa bu avlodda shoirlik iste’dodi o‘z o‘rnini topadi. Davlatmammad qishloq maktabida bolalarga boshlang‘ich ta’lim ham berar, shuning ortidan tirikchilk qilardi. Chorvachilik va hunarmandchilikdan tashqari dehqonchilikdan ham xabari bor edi.

Ajdodlarimiz azaldan nainki chorvachilik, dehqonchilikda ham yuqori natijalarni qo‘lga kiritib kelishgan. O‘tmishda yashab o‘tgan, ona zaminimizga qadam ranjida qilgan sayyohlar o‘z asarlarida bu yerlarning mo‘l-ko‘l hosil manbai ekanini qayd etishgan. Arab sayyohi ibn Xavqal o‘ninchi asrda yozgan sayohatnomalarida bu yerda ko‘rganlarini shunday tasvirlaydi: “Turkistondagi singari qo‘y-qo‘zilar boshqa hech qayerda uchramaydi. Sovliqlar har yili 6-7 tagacha qo‘zilashi mumkin (MITT, I, t. 181 sah.). Qadimiy Mashhadi Misriyondagi dehqonchilik izlari ham ko‘p narsadan xabar beradi. Balakon (Bolga, asalga kon) so‘zi ham bekorga tanlanmagan.

Demak, “har bir yangilik unutilgan eskilikdir” naqlini dehqonchilikda ham qo‘llasa bo‘ladi.

Davlatmammad ham turmushning qiyinchiliklarini ancha erta boshidan kechiradi. Rivoyatlarda aytilishicha, kunlarning birida Davlatmammad tush ko‘radi. Tushida payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) kirib, “Sen do‘zaxdan ozodsan” degan emishlar.

Shu sababli Davlatmammad o‘ziga Ozodiy taxallusini tanlagan ekan. Albatta, Davlatmammad Ozodiyning ilk tushunchalari, dunyoqarashi, ma’naviy olami otasining ko‘magida shakllangan bo‘lishi ehtimolga ancha yaqin.

Boshqa bir rivoyatlarga ko‘ra, Davlatmammad avval qishloq maktabida, keyin esa, tog‘alarining ko‘magida Xiva madrasalaridan birida tahsil olgan. Bu fakt esa, Davlatmammad xiyla ehtiyojmand oilada o‘sgani sababli, tog‘alarining ko‘magiga ehtiyoj sezgani anglashiladi.

Shu o‘rinda qiziq bir holatga e’tibor qaratish lozim. Davlatmammad Ozodiyning, Maxtumqulining va boshqa ko‘pgina turk-

man shoirlarining ijodi o'tgan asrning 30-yillariga kelib chuqur o'rganila boshlandi. Bu davrda esa stalinizmning qattol qamchisi xalq boshida o'ynab turardi. Ilmiy ishlarning muqaddimasi "Faloniyning kambag'al-dehqon oilasida tug'ilib o'sgani" bilan boshlanardi. Shu bois turkman mumtoz shoirlarining deyarli hammasi zo'r berib "g'ariblashtirildi", "bechorahol" qilib ko'rsatildi.

O'smir Davlatmammad qishloq maktabiga havas bilan qatnay boshlaydi. U mudom o'z fikr-xayollari bilan bo'lgani uchun boshqalarga unchalik e'tibor ham bermas, bir mudom nimalarnidir o'ylab, boshini quyi solib, yerga ko'z tikib yurardi. Ko'pchilik uning ota kasbidan ko'ra yozuv-chizuvga ixlosi baland ekanini aytardi. U davrning maktabi, xususan turkman qishloqlaridagi ibtidoiy o'quv muassasasida nimalarni o'rganish mumkin? XVII asrning ikkinchi yarmida, XVIII asrda ham turkmanlarning qishloq maktabini Samarqand, Hirot, Mashhad, Xiva shaharlaridagi maktab-madrasalar bilan, tabiiyki, tenglashtirib bo'lmasdi.

Qishloq maktablarida boshlang'ich bilimlar berilardi xolos. Bu maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qitilardi.

Aql kosasi to'lishgan Davlatmammad kamolot yoshida oila qurgach, uning turmush tarzida ham o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Birin-ketin bir o'g'il, bir qizi dunyoga keladi. Keyingi o'g'lini esa, otasining xotirasi hurmatiga Maxtumquli deb nomlaydi. Shu tariqa bu avlodda ikkinchi Maxtumquli dunyoga keladi.

Kichik Maxtumqulining qulog'iga uch narsaning muqaddasligi, uni ko'z qorachig'idek asrash lozimligi qat'iy uqtiriladi. Bu ot, yaroq va ayol edi. Ular faqat seniki bo'lishi kerak. Boshqalarning daxl qilishiga aslo yo'l qo'ymasliging lozim! Sen ularni asray bilmasang, el ichida obro'ying pasayadi, seni haqiqiy erkak o'rnida ko'rishmaydi.

Ta'lim-tarbiya borasida yuqorida tilga olingan masalalar, shuningdek, yana bir qator insoniy fazilatlar jamlanib turkman mentalitetini yaratgan, desak adashmaymiz. Aynan ana shu turkmanchilik millatni parchalanib ketishdan asrab qolgan va uning yaxlitligi va birdamligini ta'minlagan.

Yigirmanchi asrning 30-yillariga qadar ana shunday tarbiya uslubi o'zgarmay kelgan. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng ot bilan

yarog‘ turkmanning qo‘lidan ketdi. Biroq, shukurki, ayol hozirga qadar turkman elining or-nomus timsoli bo‘lib kelayotir. Azaliy oilaparvarlik an’anasi turkman xalqi orasida ajralishlar sonining ortib ketishiga yo‘l bermaydi. Biroq so‘nggi yillarda bu boradagi ko‘rsatkichlar sezilarli darajada o‘sgani kishini tashvishga soladi. Har qanday vaziyatda, har bir millat oila muqaddas qo‘rg‘on ekanini unutmasligi, uni asrab-avaylashi lozim. Zotan, oila har bir jamiyatning, davlatning asosiy tayanchidir.

Mulla Davlatmammad bolaga kimning ismi berilsa, shu insonga o‘xshab ketishiga ishonardi. Chindan ham u o‘g‘lining har bir harakatlarida otasining qiyofasini ko‘rgandek bo‘lardi. Onasi Orazgulga o‘z yuragi ostida ko‘targan farzandlarining har biri aziz bo‘lsa-da, qaynotasining ismini olgani uchun Maxtumquliga ayricha e’tibor bilan qarardi.

Donishmand Davlatmammad to‘rt-besh yoshli o‘g‘lining vujudida qanday yurak urib turganini his etgandek bo‘lar, chunki u akalariga qaraganda tashqi olamga boshqacha, hassos, teran nazar bilan boqar, hamma narsaga qiziqish bilan qarardi.

Shuningdek, katta o‘g‘illarida she’riyat va ilmga u qadar tashnalik sezilmasdi. Dehqon o‘z farzandi xuddi o‘ziga o‘xshash mehnatkash bo‘lishini istaganidek olim ham ilmli farzand o‘stirishni xohlaydi. Shu bois u kichik o‘g‘lining yurish-turishi, dunyoqarashi, gap-guzaronini kuzatarkan, “shu o‘g‘lim boshqacha-da”, deb qo‘yardi. Uning xayolchan, o‘ychan, og‘ir-vazmin yurishini ham yaxshilikka yo‘yardi.

Aytishlaricha, bir kuni Mulla Davlatmammadning huzuriga ikki bolani keltirishadi, unga dars berishni so‘rashadi. Shunda Mulla bolalarga dars berishdan bosh tortadi va “avval ularning otasiga tarbiya berish lozim edi” deydi. Bu bolalar Nodirshohning farzandlari ekan...

Umuman, yaxshilikdan umid qilishga hamma qatori Mulla Davlatmammad ham haqli edi. Uning fikricha, yomonlik qilmagan, yuragida kiri yo‘q odamni Alloh ham yarlaqaydi.

Dunyo esa olatasir g‘avg‘o ichida edi. Nodirshoh goh u yoqda, goh bu yoqda ot choptirib, qilich o‘ynatib yurgan paytlar... Uning bosqinlari sabab qanchadan qancha oilalar vayron bo‘layotgan

esa-da, Davlatmammadning oilasini Yaratganning o'zi panohida asrab kelayotir.

Faqat har doim o'z o'ljasiga bexato changal solib kelgan ajal bu gal uning ayoli Orazgulni olib ketdi."O'rta yo'lda oting yotmasin, o'rta yoshda ayoling yitmasin" ekan. Butun oilaning tashvishi boshiga tushgan Davlatmammad endi farzandlarini ham ota, ham ona bo'lib tarbiyalashga majbur. Boshga tushganni ko'z ko'radi, Tangri yozganni bandasi buzolmaydi. Davlatmammad ham taqdirning bu zarbasini mardonavor qarshi oldi. Biroq, u ham, farzandlari ham oldinda yana ne ko'rgiliklar kutayotganidan bexabar edilar. Faqat har bir savdoni bosiqlik va sobirlik bilan qarshi olmoqni u farzandlariga mudom uqtirib kelardi.

Yig'lagil shomu saharlar bachchavor,
Yig'lasa gul, rahmating bahri jo'shar,

Vafot etgan ayolining xotirasi hurmati Davlatmammad to uning yili chiqquncha uylanishni xayoliga ham keltirmadi. Qolaversa, ko'pxotinlik shar'an ruxsat berilgan bir zamonda boshi ochiq ayollar kam uchrardi. Bundan tashqari ko'ngil bilan ham hisoblashish kerak.

Mulla Davlatmammad faqat o'zi uchun emas, yesir qolgan bolalarining boshini silaydigan, ularga chin onalik mehrini bera oladigan, ko'ngli yumshoq ayol bilan taqdirini bog'lashni istardi.

"Otasiz yetim — gul yetim, onasiz yetim — shum yetim" deb bejiz aytishmagan. U bevalik jabrini necha yil chekkan bo'lsa-da, bolalaridan mehrini darig' tutmagani, oila o'chog'ining olovini so'ndirmagani aniq.

Biroq u har qancha harakat qilmasin, oilada ayolning o'rni bo'lak ekani, farzandlar tarbiyasida hech kim onaning o'rnini bosa olmasligini tushunib yetdi. Keyin, yolg'izlik faqat Allohga xos. Yer yuzida har jonzot jufti bilan yaralgan. Kunning hamrohi oy, erning yo'ldoshi xotin... Hatto tog'-u toshdagi parranda-yu darrandalarning ham jufti bor...

Ana shunday kunlarning birida u ko'chmanchi turkmanlardan bo'lgan bir ayolga uylandi. Ayol xushxulqligi, saranjom-sarishtali-

gi sababli bu oilaga tez moslashib ketdi. U bolalarga o'z farzandlariday munosabatda bo'lgani bois, uning o'gayligi aslo sezilmadi. Ayolning ana shu ezgu fazilatlari Davlatmammadning ham e'tibori, ixlosi va ishonchini, muhabbatini qozondi.

Shu tariqa oilaviy hayot yana o'zaniga tushib ketdi. Qo'l-oyoqlari yo'g'on, to'garak boshiga bo'rki yarashib turgan, uning ostidan jingalak sochlari toshib turgan Maxtumquli ham ikkinchi onasiga asta-sekin o'rgana boshladi.

Ona quchog'ida, oq ro'mol panasida o'tirgan bug'doyrang Maxtumqulini ko'z oldingizga keltiring. Mehribon bu ayolning iliq so'zlari, mehr bilan boqib turgan nigohlari o'z volidasidan ayrilgan bolakayning murg'ak qalbiga orom baxsh etardi.

Akalariga qaraganda Maxtumquli va singlisi Zubayda ancha yosh, ayniqsa, qizaloq endigina atak-chechak yura boshlagandi. Bu xonadonga yangi kelgan ayol bolalar tarbiyasi, uy-ro'zg'or ishlari, xonadonning obro'-e'tiborini saqlashni o'z zimmasiga oldi. Farzand tarbiyasi oilaning nufuzida katta o'rin tutib kelgan. Bu masalada u mulla Davlatmammadning eng ishonchli ko'makchisiga aylandi. Endi Maxtumquli va Zubayda ham o'ynash uchun uydan yiroqlab ketishmas, chunki ularning tepasida o'z murabbiylari bor edi.

Oila katta bo'lgani uchun xarajatlar ham shunga yarasha edi. Mulla Davlatmammadning otameros hunari — zargarlik va maktabdorlikdan topadigan daromadi ham ba'zan kamlik qilardi. Shu bois katta o'g'illar mol boqish, dehqonchilik qilishda otalarining qavatiga kirishdi. Biroq zamona og'ir edi. Gohida qirda boqilayotgan mollar qaroqchilar qo'liga tushar, daladagi bug'doy hosili yetilib turganda turli hayvonlar poymol qilib ketardi.

Shu bois katta o'g'illarning zimmasiga chorva va ekinni turli xavf-xatarlardan qo'riqlash vazifasi ham yuklangan edi. Shu sababli ular mollarini asosan o'z ekin maydonlari yaqinida boqib yurishardi. Bu paytda Maxtumquli to'rt-besh yoshli bola edi. Ba'zida akalari uni otning orqasiga mingashtirib, dalalarga, yaylovlarga, qirlarga olib borishardi. Bolakay yam-yashil kengliklarda qiyqirib chopar, tog' bag'ridagi buloqlardan tiz cho'kib suv ichar, anhorlarga cho'p otib o'ynashardi.

Uning beg'ubor nigohi hayratga to'la edi: yer qa'ridan bunday shaffof tiniq suv qanday otilib chiqarkin? Anhorlarning oqimi qayerdan boshlanarkin? Qayergacha oqib borarkin?

Maxtumqulining murg'ak tasavvurlari, yurak to'la pokiza hislari ana shu kengliklarda shakllanib bordi. U har doim otning orqasiga mingashib, akalarining ortidan qolmaydigan bo'ldi. Har bir yangilik unga cheksiz zavq-shavq bag'ishlardi. Faqat akalari bilan emas, otasi va ikkinchi onasi bilan ham turli davralarga, to'y-ma'rakalarga boradigan bo'ldi. Ular bilan birga qo'shni qishloqlarni ham ko'rdi.

Maxtumquli har bir ko'rgan yangi manzarani ongida muhrlab borardi. Uning zehni o'tkirlashib, dunyoqarashi kengayib borayotganini ko'rgan Davlatmammadning ham quvonchi ichiga sig'may ketardi. Chunki borliqni boshqalardan ko'ra teranroq nazar bilan ko'ra olmasang, sendan olim yo shoir chiqishi qiyin. Buni ota o'z tajribasidan yaxshi bilardi.

Bolalar kun sayin ulg'ayib borishardi. Mulla Davlatmammad esa maktabdorlikdan, yozish-chizishdan bo'shamasdi. Bo'sh paytlarida o'tkinchi karvonlardan, bir paytlar Xivada birga o'qigan do'st-yoronlardan olgan kitoblarni tizzasi ustiga qo'yib muk tushgancha mutolaaga berilardi.

Ka'ba vayron etmoqdan ming martaba,
Bir ko'ngul yiqmoq yomondur, ey dada.

Ba'zi paytlar uning borlig'ini ilhom parisi zabt etar, dunyoning barcha tashvishlarini unutib she'riyat osmonida parvoz qilardi. Ana shunday onlarda u o'zini eng erkin, baxtiyor va qudratli his etardi.

Biroq mulla Davlatmammad dunyoning azaliy va abadiy savollariga javob izlardi, hayotning mazmuni va dinning asl mohiyati xususida tafakkurga cho'mardi. Bir tomondan dunyoviy, boshqa tarafdan diniy mushohadalar uning xayolot olamiga qo'shin tortib kelardi. Qalbidagi bu g'alayonlarni mulla Davlatmammad uzoq saqlab turolmasdi, bu tug'yonlar tun-u kun uni behalovat etardi. Shunda mulla Davlatmammad Yaratganga iltijolar qilib, gunohla-

riga tavba qilib, yana diniy mushohadalar og'ushiga qaytardi. Dunyoviy fikrlar esa o'z-o'zidan ortga chekinardi.

Shunda mulla Davlatmammad ikki qo'lini duoga ochib tavallo qiladi: "Yo rabbim, meni bunday sinovlarga solma, o'zing marhamatingni darig' tutma!" U ko'ngliga qo'ngan turfa fikr-tuyg'ulardan tezroq qutulmoqni istardi. Qalbini badbin o'ylardan poklamoq uchun Qur'onni ko'ksiga qalqon qilardi. Insonning eng kuchli quroli — so'z, fikr va tuyg'ulardir. To'g'ri fikrlagan inson hamisha to'g'ri yo'ldan boradi.

Shu sabab xoh Qur'on, xoh Tavrot, xoh Injil bo'lsin, ular inson tafakkurida to'g'ri fikrlar uchun yo'l ochib kelgan.

Mulla Davlatmammad o'z o'quvchilariga Qur'on va Hadisni, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini, Vafoiyning "Ravnaqul-islom" asarini, "Muxtasar"ni, Navoiy, So'fi Ollohyor asarlarini o'qitsada, bular yetarli emasligini o'z pedagogik tajribasi sabab anglab yetadi.

Sharqona qadriyatlar, pand-nasihat ruhidagi mukammal asarni yaratish g'oyasi ham Mulla Davlatmammadda xuddi shu paytlar tug'ilgan bo'lsa ajab emas. Uning nazarida din odamlarni yuqoridan boshqarish, qo'rqitish yoki jazolash quroli emas, ezgulik, odamiylik, oliyjanoblikni targ'ib etish vositasi bo'lib ko'rinardi. U xalqni dindan ayru holda tasavvur qilolmasdi. Mana, u ekkan urug'idan mo'l hosil oldi, chorvasiga qut-baraka indi, o'g'il-qizlari sog'-salomat... Bularning bari Yaratganning inoyatidan emasmi? Demak, din najot demak, poklanish demak. Eng buyuk ilm Haqni tanimoqdir. Imon seni jabr-sitamlardan, balo-qazolardan asrovchi ulkan kuch.

Mulla Davlatmammad miyasiga quyulib kelayotgan bu fikrlarni alohida kitob holida jamlashga kirishdi. O'zidan avval bitilgan bu boradagi kitoblarni mukamallashtirilgan, turkman tiliga moslashgan nusxasini yaratishni oldiga maqsad qilib qo'ydi. O'tgan umri davomida olgan bilim va ko'nikmalarini, hayotiy tajribalarini jamlab xalqqa yetkazib bermasa, o'zini kechirolmasligini his etdi. Qolaversa, Davlatmammad ham o'rgatishdan, ham o'rganishdan charchamaydigan mulla edi. Asosiy masala o'rgatish emas, balki o'rganganingni o'rgatishdir. Uning doimiy tiniq fikr-

lashi ilm-fan bilan muntazam shug'ullanib turishi bilan chambarchas bog'liq edi.

Xo'sh, mulla Davlatmammad o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadni amalga oshirish uchun kuchi, idroki, bilimi yetarmikin? Balki bu ishga biroz ertaroq kirishib qo'ygandir? Xalqqa nafi tegmaydigan kitob yozib, bor obro'yini to'kib qo'ymasmikin? Chalasavod mulla-eshonlarning kulgisiga qolib ketmasmikin?

Yo'q, axir mulla Davlatmammadni kitob yozishga undagan, uning qalbida ana shu maqsadni uyg'otgan ham uning bilimi va tafakkuri emasmi? U turkiy tillar bilan bir qatorda fors va arab tillaridan ham yaxshi xabardor edi. Sharq dostonlari, buyuk mutafakkirlar asarlari, payg'ambarlar haqidagi rivoyatlar, diniy mazmundagi kitoblar, pandnoma asarlar, xususan, "Qobusnoma"ni chuqur o'rganib chiqdi.

Davlatmammad Ozodiy "Va'zi Ozod" kitobini yozishda Sharqning buyuk shoirlari bo'lmish Firdavsiyning "Shohnoma", Nizomiyning "Maxzanul-asror", Sa'diyning "Bo'ston" va "Guliston", Navoiyning "Hayratul-abror" singari didaktik, asarlaridan, dostonlaridan bahra olgani shubhasiz.

O'n uchinchi asrda yashagan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yilda qabul qilingan bo'lsa, bu boradagi qarashlarini yetti yuz yil avval yozib ketgan turk-turkman faylasufi Hoji Bektoshi Valiy ijodi Davlatmammadning diqqat markazida bo'lganiga shubha yo'q. (Hoji Bektoshi Valiyning "Maqolot" asarlarini 1999-yilda kamina turkman tiliga o'girib, chop ettirgan edim — O.Ya.)

Shu o'rinda uning ayrim o'gitlarini eslab o'tsak.

Hoji Bektoshi Valiy o'gitlari:

Ranjisang ham, ranjitma.
Keling, azizlar, bir bo'laylik, yirik bo'laylik, tirik bo'laylik.
Dushmaningiz ham inson ekanini unutmang.
Xotin-qizlarni avaylang.
Hech bir millatni va insonni ayblamang.
Har nima kutsang, o'zingdan kut.
Buyuklik tojda emas, balki boshdadir.
Ko'rganingni yashir, ko'rmaganingni gapirma.

Qo'lingga, tilingga, belingga ehtiyot bo'l.
Ilmsizlik bilan boshlangan yo'lning oxiri zulmatdir.
Ilmning birinchi sharti odobdir.
O'zingga og'ir tuyulgan ishni boshqaga yuklama.
Imon bir xazinadir.
Rahmonning asli imon, shaytonning asli shubhadir.
Ko'ngil keng bir shaharga o'xshaydi.
Ko'k yig'lasa yer kular.
Jon bo'ston, ma'rifat esa buloqdir.
Chanqagan bo'ston suvga qancha ehtiyoj sezsa,
jon ham ma'rifatga tashnadir.
Ma'rifatli qalb Allohning buyuk xazinasi va nazargohidir.
Har bir insonning kufrdan-da shiddatli uch dushmani bor:
Birinchisi — badnafslik, ikkinchisi — tama'girlik,
uchinchisi — yolg'onchilik.
Eng katta davlat — adab, aql va go'zal xulqdir.
Daraxtning tik turishi — ildizidan.
O'z aybini ko'rgan odam boshqalarning
aybini aytishga iymanadi.
Davlatmand kishi jonini g'aflatdan uyg'otgan va
o'z holini bilgan kishidir.
Aql oyga, ma'rifat kunga, ilm yulduzga mengzaydi.
Maqsadga sabr bilan yetiladi.
Oyoqqa qalqsang, xizmat uchun qalq, so'zlasang,
hurmatingni bilib so'zla, o'tirsang, izzatingni bilib o'tir.

E'tibor qilsangiz, o'tmishda ilmga, she'riyatga mehr qo'ygan insonlarning ko'pchiligi tib ilmidan ham xabardor bo'lishgan. Qolaversa, o'sha paytdagi vaziyat shuni taqozo etardi. Zotan, ilm-u riyozat, ijodiy mehnat kishidan ham ruhiy, ham jismoniy salomatlikni talab etadi. Demak, olim-u shoirlar o'z salomatliklariga jiddiy e'tibor qaratishlari lozim edi. Tabib esa, har doim yoningda bo'lavermaydi. Shu bois bu borada yetarli tajriba va tushunchaga ega bo'lish lozim.

Qolaversa, ko'pgina buyuk mutafakkirlarning asarlari bilan tanishish asnosida ularning tib borasidagi purma'no fikrlari uch-

raydi. Qolaversa, o‘tmishda Sharq xalqlarida tabobat ancha taraqqiy etgan. Abu Ali ibn Sinoning betakror asarlari bir necha yuz yillar davomida butun jahon tibbiyoti uchun muhim qo‘llanma sifatida o‘rganib kelingan.

O‘z davrida mulla Davlatmammad ham tib ilmidan yetarlicha xabardor edi. Shuningdek, Turkman sahrosi shifobaxsh giyohlarga to‘la ekani qadimdan ma’lum. Tong chog‘ida xilma-xil giyohlarni etagiga yig‘ib yurgan, Mulla Davlatmammadni ko‘z oldingizga keltiring. Uning erta oqargan soch-soqoli, rangpar qiyofasi, oq bo‘zdan tikilgan yaktakdagi gavdasi oq tumanlik bag‘riga singib ketayotgandek.

Keyinchalik akademik Vavilov mulla Davlatmammad izidan ekspeditsiya uyushtirib, ko‘plab qadimiy giyohlar nusxalarini, hatto bug‘doyning yovvoyi navlarini ham topgani bejiz emas.

Aql kosasi limmo-lim to‘lgan mulla Davlatmammad dala-ma-dala kezarkan, bo‘lg‘usi kitobi haqida fikr yuritar, miyasiga baytlar izma-iz quyilib kelaverardi. Inson singari jonzot yo‘q ekani, har insonning vujudida bir ajdaho yashirinib yotishi, ana shu vahshiyni mahv etish har bir insonning bir umrlik orzusi ekanini mulla Davlatmammad yaxshi tushunardi.

O‘zini tanimoq, o‘zini o‘rganmoq, o‘ziga ega chiqmoq Allohning insonga bergan asosiy xislatlaridan. Shu tariqa kichkina yurakli Davlatmammad bu katta ishning uddasidan chiqishiga ishonch hosil qildi. Ana shu kichik qalb kitobga muloyimlik, o‘ziga xos nafosat rangini bera oldi, o‘quvchining ham qalbini yumshatib, unda ezgu fikrlar uyg‘otishga xizmat qildi. O‘zining yuksak insoniy fazilatlarini, ezgulikka tashnalik ruhini ana shu kitob orqali o‘quvchiga yetkaza oldi.

Albatta, katta pandnoma asarni nazmda yozish uchun katta shoirlik iqtidori va beqiyos kuch-g‘ayrat kerak bo‘lgan. Sababi buyuk asarning taraddudi, salobati ham katta bo‘ladi. Shu bois bu ishga katta ishonch va qat’iyat bilan kirishi lozim. Mulla Davlatmammad o‘zining ilmiga, she’riy salohiyatiga, iqtidoriga ishonchi komil edi. Qolaversa, mullaning imon-e’tiqodi ham bu ishni oxiriga yetkazishda katta tayanch bo‘ldi.

ISHONCH — KUCH-QUVVAT MANBALARIDAN BIRI

Mulla Davlatmammad bu asarni yozishga qachon kirishgani aniq bo'lmasa-da, qirq besh yoshlarda boshlagani ehtimolga yaqin. "Va'zi Ozodiy" asarida Nodirshohning nomini tilga olmadi. Bu asar 2319 bayt, 4638 misrani o'z ichiga oladi. Binobarin, Ozodiy bu asarni 1740-yillarda yozib tugallagan bo'lishi mumkin.

Maxtumquli bu paytlarda chopqillab yurgan bolakay edi. Qamchisidan qon tomgan Nodirshoh esa, bu paytda qonli yurishlarda ot choptirib yurardi. Mulla Davlatmammad zolim hukmdorning harakatlariga munosib baho berib, uni o'tmishdagi boshqa ko'plab tojdorlar bilan solishtirgan. Balki asarning shohlarga tegishli bobini yozilishiga, Nodirshohning sanoqsiz talonchiliklari, beomon janglari, elatlarni o'z yurtidan majburan ko'chirishlari sabab bo'lgandir? Nima bo'lganda ham, mulla Davlatmammad sarasoflikni qo'ldan bermadi, asarida Nodirshohning nomini tilga olmadi, biroq shohlarning qanday xislatlarga ega bo'lishi, o'z eligа ozor bergan hukmdorlarni qanday qismat kutishi haqida batafsil tushuncha berib, bu borada bir qator misollar ham keltirib o'tadi.

Asarni yozishga kirishishi bilan mulla Davlatmammadning miyasiga tiniq va yorqin fikrlar quyulib kela boshladi. Ilgari oyda-yilda bir uning qoshida mehmon bo'lib, bitta-ikkita she'r hadya etib ketadigan ilhom parilari endi uning boshida parvona edilar.

Ana shunda mulla Davlatmammad o'z botinida yashirinib yotgan yashirin quvvat borligiga, u uyg'onib o'z sohibiga madad bera boshlaganiga, o'z orzusiga yetajagiga ishonch hosil qildi. Ammo, hali yo'l yiroq edi. Oldinda hali ne-ne dovonlar, to'siq va g'ovlar borligini, manzilga yetish uchun qancha mashaqqatlarni boshidan kechirish lozimligini mulla yaxshi anglab turardi. Ayni damda u Allohdan madad va kuch-quvvat tilar, uning iznisiz bir satr ham yozolmasligini yaxshi tushunardi.

Garchi asarning muqaddimasi oson boshlansa-da, turmush ikir-chikirlari tez-tez mullani chalg'itib turardi. O'sha paytlarda Nodirshoh go'klanglarning jangovarligiga alohida e'tibor bilan qarar, turli yurishlarda yengib-yengilib qaytganida, siyraklashib

qolgan qo'shin saflarini ushbu turkman qavmi yigitlari hisobidan to'ldirishni istardi. Shunday bo'lsa-da, ko'pni ko'rgan Nodirshoh bu elatning bo'yin egmasligi, qaysarligi va mag'rurligini aslo unutmasdi. Qo'shinga zo'rlab jalb qilgach, ularni kuchli nazorat ostida saqlardi. "Turkman o'jar keladi, bir kuni kelib o'zimga qarshi yaroq o'qtalmasin" degan qo'rquv unga tinchlik bermasdi. Mulla Davlatmammad Nodirshohning qo'shinida xizmat qilish yoshidan o'tgandi, buning ustiga, el-yurt ichida obro'li oqsoqolga aylangandi. Shu bois, hech kim unga xalal bermasdi. Biroq xalqning mard yigitlari shoh qo'shinida xizmat qilish uchun uning yoniga oq fotiha so'rab kelganida, shoirning ichidan nimadir uzilgandek bo'lardi. Qo'shin safida safarga otlanib, nom-nishonsiz ketgan bo'z yigitlar taqdiri uni ham qattiq tashvishga solardi...

Hayot yana o'z maromiga tushganda, mulla qo'liga qalamini olib, ijod dunyosiga sho'ng'irdi. Xayolotida charx urgan fikrlar oq qog'ozga quyilardi.

Ana shunday kunlarning birida mulla yozishdan boshi xumdek shishib, hujrasidan chiqqanida, toshlardan uy qurib, qo'zichog'ini unga kirgizmoqchi bo'layotgan kichkintoy Maxtumqulini ko'rdi. Qo'zichoq, uychaga kirishni istamay, tixirlik qilar, bolakay esa, uni yerga yotqizib, uychasiga joylashga urinardi.

"*Mening qo'zim yotibdi, qizil gulga botibdi*" deya o'zicha she'r ham to'qib qo'yardi. U tepasida turgan otasini ham ko'rmasdi. Otasi o'g'lining she'riyatga qiziqishini ilk bor o'shanda sezdi. Bolakay, bu misralarni zavq-shavqqa berilib, qayta-qayta aytar, o'z fikrini tilsiz jonivorga-da uqtirmoqchi bo'lardi.

Bola bu she'rni qayerdan oldiykin? O'zi yozdimikin yo birortasi o'rgatdimikin? Nima bo'lganda ham, uning murg'ak miyasida she'rga, ohangga, qofiyaga moyillik borligi sezilib turibdi. "Shu o'g'limdan bir nima chiqsa kerak" degan xayolga bordi.

O'sha alfozda yozayotgan kitobini shu o'g'liga bag'ishlash fikri tug'ildi. Garchi bunday asarga butun xalqning ehtiyoji bo'lsada, u eng avval o'z oilasi, o'z zuryodlari kamoloti uchun xizmat qilmog'i kerak. Mulla Davlatmammad o'g'liga avvalgidan o'n hissa jo'shqinroq ota mehri bilan boqdi. Bolakay esa, qo'zichog'ini xavfdan asrash uchun amallab o'zi qurgan uychaga joy-

lagan, endi uning eshigini yopishga urinardi. Uning nazarida endi qo'zichog'iga hech qanday g'anim hujum qilolmasdi. Ammo shu payt jonivor bur urinishda eshikni buzib, tashqariga otildi. Maxtumquli esa uning ortidan chopib ketdi.

Mulla Davlatmammadning ko'nglini shu onda xush va noxush fikrlar qurshab oldi. Bu tahlikali zamonda hamma ish ko'ngil ra'yi bilan bitmasligini u yaxshi anglardi. "Bu zamonda olim, shoir o'g'il o'stiryapsanmi, yo Nodirshohga askar tayyorlayapsanmi, o'zing ham bilmaysan!"

U yana bir haqiqatni sezib turardi. Darg'azab, zolim shohlarning hukmdorligi uzoqqa bormaydi.

Podshoh kim jabr-u zulm etsa biling,
Barakati ketgay bu olam ahlining.

Yoki:

Elga jabr-u zulm qilsa podshoh,
O'z oyog'i ostig'a qazg'usi choh,

— singari baytlar ana shunday tuyg'ular hosilasi o'laroq yozilgan bo'lsa kerak.

Harqalay mulla Davlatmammad o'g'lining tilidan eshitgan misralarni anchagacha unutolmay yurdi. Balki uning xavotirlari o'rinsizdir? O'g'li balog'atga yetguncha, Nodirshohning ham davroni tugar? "Alloh zolimlarning gunohini kechirmaydi. Yo Robbim, sodiq qullaringga adolatli podshoh yubor!".

Ammo Mulla Davlatmammadning ohlari Yaratganga darrov yetib bormadi. Nodirshoh kundan kunga rivoj topaverdi. Mana, u yana bir yurtni talab, xalqini xonavayron qilayotir. Xalqaro karvon yo'llarida ham savdo uchun olis manzillarni ko'zlab chiqqan tojirlar emas, yurishga g'olibona otlangan lashkarlar yoxud o'z uy-oshiyonidan majburiy ko'chirilgan nochor xaloyqini ko'rish mumkin edi.

Qul bozorlari ham turli o'lkaldardan keltirilgan qul va cho'rilarga to'lib-toshgandi. Bugungi o'quvchi "erta o'zi ham qul bo'li-

shi mumkinligini o'ylab turgan odam bozordan qul xarid qilarmikin?" deya kinoyali jilmayishi mumkin. Ha, o'tmishga aylangan hodisotlar bugunning nigohi bilan qaraganda, ana shunday g'alati, hatto kulgili tuyulishi mumkin. Kim bilsin, kelajak nasllarga ham bizning ahvolimiz xiyla g'ayrioddiy ko'rinar?

...Nodirshoh endi Eron, Turon, Xuroson, Xiva va Buxoro bilan ham qanoatlanmay, Kavkazning ham bir qismini qo'lga kiritdi. Usmoniylar saltanati, Hindiston, Xitoy mulklariga ham ko'z tikib, qo'shin va zaxira to'plashga kirishdi.

Zolim va shafqatsiz Nodirshoh o'z xatti-harakatlari bilan odamlarni umidsizlikka tushirish, dunyoning foniyligi va hayotning samarasizligiga ishonishga undardi. Shu holatlarni Mulla Davlatmammad kitobining boshida aytib o'tgan:

Dunyoning orti bilan qo'ydim qadam,
Istadim soatma-soat, dam-badam,
Jon bila chekdim jafosin vo darig',
Istag-u zavq-u safosin vo darig',
Foniy ermish, ko'rmadim, bundin vafo,
Cho'x jafolig' bevafomish, bevafo.

O'zini dunyoga ustun bo'lib qolaman deb o'ylagan Nodirshohni, umuman tojdorlarni shoir kitobdagi boshqa bir bobida "turtib" ketadi. Bu bobda to'g'ridan to'g'ri Nodirshoh nomi tilga olinmasa-da, turli rivoyatlar, hayotiy misollar, avvalgi podshohlarning fojialari, qismati, toj-taxt uchun kurashlarning ayanchli nihoyasi hassoslik bilan ko'rsatib berilgan.

O'sha vaqtlar Maxtumquli otasining shogirdlari qatori uning maktabiga qatnay boshlagandi. U har bir saboqni bir o'qishda o'zlashtirar, berilgan vazifalarni vaqtida ado etar, o'tkir zehni va quvvayi hofizasi bilan ajralib turardi. Maktabdan tashqari paytlarda, uyda otasining yonida o'tirgan kezlarda undan olgan bilimlarni yanada mustahkamlar, bilmaganlarini so'rab olardi. Bu suhbatlar Maxtumqulining kamolotida katta o'rin tutdi. Biroq Maxtumqulining ongidagi savollar chegara bilmasdi. Ota ham o'g'lining har bir savoliga hafsala va qunt bilan javob qaytarishga harakat

qilardi. Xullas, Maxtumqilining ilk va ulug‘ ustog‘i o‘z otasi mulla Davlatmammad bo‘ldi.

Maxtumquli miqtidan kelgan, keng yelkali, baquvvat o‘smirga aylandi. Uning harakatchanligi, qat’iyati ham otasining e’tiboridan chetda qolmasdi. O‘g‘li ulg‘ayib, Xudo yuqtirgan iste’dod egasi bo‘lishiga ishonardi.

Ana shunday kunlarning birida dalada qo‘y boqib yurgan Maxtumquli suruvni qo‘ra tomonga haydab kelardi. Shu payt yo‘l boshlovchi serka podani boshqa yoqqa boshladi. Maxtumquli esa podani qaytaraman, deb ancha hayalladi.

Uydagilar uni kutib xavotirga tushishdi. Undan hadeganda darak bo‘lmadi. Birov ko‘rdim-bildim degani ham yo‘q. Butun qishloqni tit-pit qilishdi. U mol boqib yurgan yerlarni ham borib ko‘rishdi. Bu yerlarga qaroqchilarning qadami yetmasdi. U qayerga ketgan bo‘lsa?

Ayrimlar uni kun botar mahali suruvni qaytarish uchun uning ortidan ketganini aytishdi.

Negadir mulla Davlatmammad o‘g‘lining yo‘qolib qolgani haqidagi tahlikali xabarni xiyol bosiqlik bilan qabul qildi. U ko‘zlarini yumgancha bir nimalarni o‘qib, uzoq taxayyulga berildi. Oxiri:

— Maxtumqulini oxirgi marta qayerda ko‘rishgan bo‘lsa, o‘sha yerda kuting! Tunu kun o‘sha yerda poylang. Uzog‘i bilan yetti kunda qaytadi. Inshoolloh, topiladi. Qaytib kelsa, uni qattiq urishib, ko‘nglini og‘ritmang. Uyga qaytib kelganidan keyin ham, qo‘ni-qo‘shnilar “qayerda eding” deb so‘roq-savolga tutmasin, bolani uyaltirishmasin, — deya katta o‘g‘illariga tayinladi.

“Voh, Orazgul, qadring o‘tdi, agar tirik bo‘lganingda, o‘g‘ling yo‘qolmasmidi?!” deya peshonasini mushtlari ustiga tiradi. Maxtumqulini qidirib yurganlar uch kun o‘tib uni bir ovloq yerda og‘zidan ko‘pik kelib, behush yotgan holda topishdi.

Tezda uni otasining yoniga olib borishdi. Ota yetti kunlab uning boshida o‘tirib, allaqanday duolar o‘qib, dori-davo qilib, o‘g‘lini hushiga keltirdi. Hech kim Maxtumqulining shuncha vaqt qayerga ketib qolgani, uning boshiga ne tashvishlar tushganini bilolmadi. Maxtumquli bu haqdagi savollarning hech biriga javob bermasdi. Shu tariqa Maxtumquli hali yosh bo‘lsa-da, kattalardek og‘ir-vazmin, bosiq odamga aylandi qoldi. Keyinchalik Maxtum-

quli boshidan ko‘p sirli voqealar o‘tkazgani haqida yozdi, ammo baribir bu sir sirligicha qoldi.

Bu holat haqida ikki yarim asr mobaynida tildan tilga ko‘chib kelgan suhbat ana shu. Ammo bu xalq tilida to‘qilgan rivoyatmi yoki qanchalik haqiqatga yaqinligi noma’lum. Yaxshisi bor haqiqatni shoir asarlaridan qidirmoq kerak.

Mulla Davlatmammad o‘z kitobiga yoza olmaydigan fikrlarini o‘g‘liga singdirishi mumkinligini anglab yetdi. Zero, hayotning o‘zi kitobdan-da keng qamrovli va tushunarliroqdir. Shundan so‘ng mulla barcha orzu-umidlari, maqsadlari ro‘yobini o‘z o‘g‘lining kamolotida ko‘rishiga ishondi. Bilganlarini o‘g‘li bilan baham ko‘rdi. Xatda, bitikda ifodalash qiyin bo‘lgan hislarini o‘z zuryodiga singdirishga intildi. Hali o‘z zamonasi sabab yuragida to‘plangan g‘amlardan qanday xalos bo‘lishini bilmasdi u.

Ha, bu hayotda faqat so‘z bilan, harf bilan tushuntirib bo‘lmaydigan holatlar ham ko‘p uchraydi.

* * *

Odamzod bu dunyoning tashvishlariga qanchalik beparvolik bilan qarasa, shunchalik ko‘p ajr topadi, savob oladi. Aslida hamma tashvishlar odamning miyasini sariq chumoliga o‘xshab yemirib boradi. Nodirshohning jabr-u zulmidan to‘yib, dunyoda farog‘at borligidan umid uzgan mazlum xalqlarning ham qalbida umid shamchirog‘i yona boshladi. Dunyoga ustun bo‘lishni, jami tirik jonni o‘ziga tobe etishni istagan qudratli hukmdor endi yo‘q. Biroq bu g‘avg‘oli olamda hech narsa izsiz yo‘qolib ketmaydi. Ketganning o‘rniga yangisi keladi. Fikrlar ham shunaqa. Eski fikrlar yangisiga joy bo‘shatadi.

Sabr kosasi limmo-lim to‘lgan Eron, Turon xalqlari Nodirshohni yo‘qotish yo‘lini izlayotgan bir paytda, shohning qo‘l ostidagilar uni bira-to‘la mahv etishdi. Shu tariqa, yana bir qattiqqo‘l toj sohibi tarix sahnasidan abad chekindi. Shu o‘rinda Gyotening “Bir muammoning yechimi boshqa bir muammoning ibtidosidir” degan so‘zlarini yodga soladi.

Ehtimol, Nodirshohdan jabr chekkan ko‘pgina xalqlarga uning o‘limi ayni muddao bo‘lgandir? Asrlar bo‘yi odil shoh orzu-istagi

bilan yashab kelgan xalq bu orzular ijobati uchun kutilgan fursat kelganiga ishongandi, dunyoning gullarga burkanishiga umid bog'lagandilar. Shu sababli yuraklarning tubida yashirinib yotgan ilg'or fikrlar ham yuzaga qalqib chiqa boshladi.

Sharqda bir an'ana bor: agar bir sulola nasl-nasabi bilan taxtdan, hokimiyatdan chetlatilsa, uning o'rnini tamoman boshqa sulola egallaydi. Yangi taxtga chiqqan hukmdor o'zidan avvalgisining avlodi, qavm-qarindoshlari unga qarshi chiqmasligi uchun, ularni yo qirib bitiradi, yo o'zga yurtlarga quvg'in qiladi. Qadimiy doston va qissalarda ham bu holatlar ko'p bora tilga olinadi.

Avvalgi shohdan qattiq aziyat ko'rgan fuqaro yangisiga umid va ilinj ko'zi bilan boqardi. Buning bir sababi, xalqning odil shoh haqidagi orzu-istaklari juda uzoq tarixga ega ekanligi bilan izohlansa kerak.

Nodirshohning qilich kuchi bilan tiklagan saltanati parchalanib ketdi. Eronning o'zi ham bir qancha mayda xonliklarga bo'linib ketdi. Afg'onlar Ahmadshoh Durroniy boshchiligida o'z davlatiga asos soladi. Xiva va Buxoro xonliklari ham eronliklarning ta'siridan xalos bo'ladi. Faqat o'rtadagi turkmanlar tarqoqligicha qolib ketaveradi. Ustiga ustak, o'sha paytlar shia-sunniy mojarolari avjiga mingan edi.

Xabaringiz bor, turkmanlar islom dinining sunniy oqimiga e'tiqod qilishar, shu bois ular shia oqimiga mansub forslar va qizilboshlarning ta'qibi va tazyiqi ostida yashab kelishardi. Sababi, hech kimga bosh egmagan, tobelikni istamagan turkmanlarni o'ziga qaratish istagi forslarning ham, turkmanlardan ajralib chiqqan qizilboshlarning ham, Buxoro va Xiva xonlarining ham asosiy maqsadlaridan edi. Ana shu ilinj ularni uzoq vaqt aldab keldi. Chorvadorlik uchun juda qulay hisoblangan turkman sahrosi ham ularni anchagina qiziqtirardi. Biroq, ularning asosiy maqsadi jangari va jasur turkman suvoriylariga ega chiqish edi. Bunday otliq askarlarga ega bo'lgan qo'shin yengilmasligi ham turli o'lkalarning xonlari va beklariga kundek ravshan edi.

Garchi forslar ham, o'zbeklar ham bunday jasur askarlarga ega bo'lishga urinib kelsalar-da, bu urinishlar ma'lum muddatgina samara berardi, xolos. Chunki, ular turkmanlar bilan umu-

miy til topisha olishmasdi. Ammo kecha Nodirshohning qo'shinida xizmat qilib, keyin Afg'on davlatiga asos solgan Ahmadshoh Durroniy turkmanlar bilan ittifoq tuzishi ham bejiz emasdi. U Nodirshoh qo'shinida xizmat qilib yurganda, turkmanlarning fe'l-atvorini yaxshi bilib olgandi. Kuch ishlatib turkmanni o'ziga bo'ysundira olmasligini u yaxshi bilardi. Shu sababli u turkman xalqining tarixiy an'analari, jo'g'rofiy joylashuvi, ularning afg'onlar singari sunniy e'tiqodga egaligi, forslarga, qizilboshlarga nisbatan norozi kayfiyatda ekanini, eng asosiysi esa, turkmanlar o'z davlatini qura olishmasa-da, ularning kuchli davlat bilan ittifoq tuzishga mayli borligini Ahmadshoh yaxshi tushunardi. U nainki bir xalq, balki uning ichki vaziyati, turli qabilalar o'rtasidagi munosabatlarni ham puxta o'rganib chiqqandi. Tashqi va ichki omillarni yetarlicha bilib olgan Ahmadshoh turkmanlar orasiga qaysi tarafdan kirib borishni ham rejalashtirib olgandi.

Shunday ekan, Ahmadshoh turkmanning taka, yovmut, salir singari yirik qabilalarini bir tarafga qo'yib, nisbatan kichikroq mavqega ega bo'lgan go'klang qabilasiga yuzlanishi ham bejizga o'xshamaydi. Chunki Ahmadshohning boshqa turkman qabilalari bilan aloqa o'rnatgani haqida tarixiy manbalarda biror ma'lumot uchramaydi.

U go'klanglarga ikki marotaba xat bilan murojaat qilgan. Yuqorida aytilganidek, turkman urug'lari orasida go'klanglar o'ta jasurligi va dovyurakligi, doim oldingi saflarda borishi bilan ajralib turishardi. Janglardagi jasorati, qo'rqmasligi, shuningdek, Nodirshohning qo'li ostida boshqalardan ko'ra aynan shu qabila vakillari ko'proq ezilgani Ahmadshohning tanloviga turtki bergan bo'lishi ham mumkin.

Asl maqsadini niqoblashning uddasidan chiqqan shoh turkmanlarning kuchidan ustalik bilan foydalana oldi.

Shohning bu nomalari xalqning ruhini birmuncha ko'tardi. Odamlarning vatanparvarlik tuyg'ularini jo'sh urdirdi. Ular Ahmadshohga yordam berishsa, o'z uylarida tinch va xotirjam yashay olishlariga ortiqcha ishonib yuborishgandi. Ishonmaslikning iloji ham yo'q edi. Ahmadshoh o'z maktublarida go'klanglarni ko'kka ko'tarib maqtagan, bu qabilaning har bir faol a'zosining

ismini hurmat bilan tilga olgandi. Ehtimol, shoh bu diplomatiya bilan "turkmanga yer ber, ikki qo'liga bel ber" naqlining hayotiy tasdig'ini ko'rgandir?

Foyda qayerda-yu ziyon qayerda ekanini yaxshi anglab yetmagan go'klanglar Ahmadshohga umid ko'zi bilan boqardilar. Otliq yigitlarini qurol-yaroq bilan ta'minlab, Ahmadshohga xizmatga jo'natishga qaror qilishdi. Unga qo'shin bo'lsa bas, boshqasining keragi yo'q. U turkmanning keng sahrosiga ham, chorvasiga ham ko'z tikib turgani yo'q. Kuchli qo'shini bo'lsa, hamma narsaga ega bo'lishiga shoh ishonch hosil qilgandi. Qolaversa, u o'z kunini arang ko'rib yurgan turkmanlarni emas, boy-badavlat, oltin-kumushi oshib-toshib yotgan xalqlarni talashni ko'z ostiga olgandi.

ASOSIYSI, DUSHMANING TURKMAN BO'LMASA BAS

Har yo'l bilan bo'lsa-da, turkmanni qo'ldan bermaslik kerak, u bilan orani buzmaslik lozim, orada adovat kelib chiqmasligi shart. Fikrimizcha, Ahmadshohning turkmanlar borasidagi siyosati ana shunday edi.

Tarixchilarimiz bu davrning murakkab ahvolotini, o'tmishdagi turkman-afg'on munosabatlarini hali to'la-to'kis o'rganib ulgurishmagan.

Ahmadshoh afg'onlarning Abdol qabilasidan edi. Diqqat qilinsa, turkmanlarning Abdol urug'i bor. Nomi bir xil bo'lgan bu ikki qabila o'rtasida qanday bog'liqlik borligi haqida ham qo'limizda yetarlicha ma'lumot yo'q. Ammo Ahmadshohning qaysi millatga mansubligi haqida turlicha qarashlar mavjud. Ayrimlar uni afg'on desa, ba'zilar turkman ekaniga dalil keltirishadi. Harqalay u turkmanlarga asosiy madad kuchi sifatida qaragani, turkmanlar ham undan ko'mak kutishgani bor gap.

Darhaqiqat, Maxtumqulining Ahmadshohga bag'ishlangan "Arshi a'loga" qasidasida "Olding Eron bo'lsa, orting Turondur" misrasini uchratamiz. Ahmadshoh turkmanlarga yo'llagan xatida qabila boshliqlarini, urug' oqsoqollarini nomma-nom sanab o'tadi.

Shoh ularni qayerdan tanidi ekan? Kim unga bunday ma'lumotlarni berdi ekan? Taxtga o'tirishdan avval Ahmadshohning turkmanlar bilan aloqasi qanday edi? Bu savollarga tarixchilarimiz hanuzgacha javob topishgani yo'q.

Nodirshoh o'ldirilganda, Maxtumquli 14-15 yoshli o'spirin edi. U davrning shu yoshdagi bolalarini hozirgi paytdagi tengdoshlari bilan solishtirib bo'lmasa kerak. U paytlarda ham tabiiy, ham ijtimoiy muhit tufayli o'smirlar tez voyaga yetishgani hech kimga sir emas.

* * *

Rivoyatlar Maxtumqulining juda erta she'r yoza boshlaganidan darak beradi. Ularning birida shunday deyiladi:

Mulla Davlatmammad yoz kunlari To'rayit dalalarida xirmon ko'tarish bilan band edi. Bu paytlarda Maxtumquli qirda poda boqar, o'zi to'qigan baytlarni kuyga solib, xirgoyi qilib yurardi. U bilan birga yurgan boshqa cho'ponlarga she'rlarini o'qib berib, ulardan maslahatlar olardi. Yosh shoirning g'ayirroq oshnalaridan biri Mulla Davlatmammadning yoniga kelib, chaqimchilik qildi:

— O'g'lingizga "ha" deb qo'ying, podaning ketidan yurib, devonalardek bir balolarni aytib, hammaga kulgi bo'lib yuribdi.

Shundan so'ng Davlatmammad o'g'lining nimalarni aytib yurganini o'z qulog'i bilan eshitmoqchi bo'ldi.

Kunlarning birida Maxtumquli qo'ylarni ertaroq qo'raga qamab, otasiga yordam berish uchun dalaga bordi. Xirmonjoyda otasi yo'q edi. Maxtumquli o'zicha xirmonni sovurib, har doimgi xirgoyisini boshladi. Orqadan kelib qolgan mulla o'g'lining xirgoyisiga jim quloq sola boshladi. Qarasa, baytlari binoyidek. Ko'ngli joyiga tushgan mulla Davlatmammad o'g'lining yoniga borib tomoq qirdi:

— O'g'lim, odamlar seni shoir bo'pti deyishyapti. Qani, otang haqqi-hurmati, yangi yozgan she'rlaringdan o'qib ber, men ham eshitay-chi?

Shunda Maxtumquli biroz qizarinib oldi-da. "Otam Davlatmammad haqqi-hurmati" deb tugallanuvchi she'rini o'qib berdi.

Mulla Davlatmammad:

— Barakalla, o‘g‘lim, bemalol shoirligingni qilaver, — deya uning yelkasini qoqib qo‘ydi.

Ammo Maxtumqulining hozirga qadar nashr qilingan asarlarida bolalik yillarida yozilgan boshqa she’rlari uchramaydi. Buni stilistik-xronologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Shunday ekan, bizgacha yetib kelgan she’rlarning qay biri eng avval yozilganini aniqlashning imkoni bormikin?

Balki “Sonu tog‘i” degan she’rdir? Bu she’r qofiyalarining soddaligi, ichki pafosning ustunligi, misralardagi fikr va tuyg‘u oqimi hayotga endigina teran nazar tashlay boshlagan odamning qiyofasini ko‘z o‘ngimizda jonlantiradi.

Yana boshqa bir muammoli masala bor: Maxtumqulining asarlari xronologiyasi, yozilgan vaqti hozirga qadar ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan, shu bois shoirning hozirga qadar chop etilgan kitoblarida uning she’rlari xronologik tartib asosida terilmagan.

Shu bois, uning qaysi she’ri qachon bitilganini aniqlash mutaxassislar oldidagi murakkab vazifalardan sanaladi. Avvalo, o‘sha davr voqealarini aniq, ochiq-oydin bayon etish (Bu borada akademik Murot Annanapasovning “Maxtumquli va uning zamonasi” nomli asari bizga muhim qo‘llanma bo‘la oladi), shoirning o‘z davriga munosabatini o‘rganish, keyin esa, har bir she’r matnini sinchiklab o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Shundan so‘ng har bir she’r dunyoga kelgan vaqtni aniq yoki taxminan belgilash mumkin bo‘ladi.

Maxtumquli hayot yo‘lini o‘rganish qiyinligining bir sababi ham yuqoridagi vazifalar chala qolgani bilan bog‘liq.

Xalqning Nodirshoh o‘ldirilganidan keyingi hayoti Davlatmammadni ham, Maxtumqulini ham befarq qoldirmadi. Mulla Davlatmammad anchadan beri yozib yurgan kitobining birinchi bobini allaqachon tugatgan edi. U mazkur bobda shohlar haqida aytgan so‘zlari hayotda o‘z tasdig‘ini topganini ko‘rdi. Endi bu borada o‘z fikrlarini bemalol bayon etish imkoni tug‘ildi. Ko‘nglidan kechganlarni yana qog‘ozga ko‘chira boshladi. U har qancha urinmasin, baribir, xalq tiliga yaqin, sof turkmancha yozishning uddasidan chiqolmasdi. Gohida u quyilib kelgan, bolalikdan beri miyasiga o‘rnashib qolgan arab, fors va chig‘atoy so‘zlarini o‘ziga

bo‘ysundira olmasdi. Faqat ayrim ruboiylarini, kichikroq g‘azallarnigina boshqa tillardan tozalagan holda bita olardi. Aslida esa, xalq fors so‘zlaridan zada bo‘lib ketgan, chunki eroniy shohlar zulmi odamlarning hatto bu tildan-da xiyla bezdirib qo‘ygandek edi.

Buni mulla Davlatmammad anchadan beri anglab kelardi. Ammo nima qilmoq kerak? Biror yo‘li bormikin? Bor. Ot izini toy bosar, deydilar. O‘zing qila olmagan ishni farzandlaring uddalashi mumkin. Faqat yaxshi tarbiya berolsang, bas. Bu borada mullaning o‘z o‘g‘liga aytib bergan, sof turkman tilidagi ertak va dostonlari, maqol va matallari juda katta ahamiyat kasb etdi. Maxtumquli ijodining ilk bosqichidan xalqona tilda yoza boshladi. Mulla Davlatmammad o‘ziga munosib vorisni dunyoga keltirganidan bir sevinsa, o‘g‘lining sof turkman tilida yozayotganini ko‘rib, boshi naq osmonga yetardi.

“Halqqa yaqin tilda yozsang, ishing ham rivoj topadi”, derdi u o‘g‘liga nasihat qilib.

Maxtumquli bu nasihatni eshitmagan paytlari ham uning ana shu istaklaridan xabardor edi. O‘sha davrlardan boshlab, ota va o‘g‘il o‘rtasida bir-birining so‘zini anglash, qalban yaqinlik yuzaga kelgandi.

Otasining maktabida o‘qib yurgan paytlarida ham Maxtumqulining xayolparastlik odati yo‘qolmagandi. Shu bois tengto‘shlari bilan tezda til topishib ketolmasdi. Har doim yolg‘iz qolishni, o‘z xayollari ummoniga g‘arq bo‘lishni istardi. Aytgancha, uning yolg‘izlikda eng yaqin hamrohi kitoblar edi.

Inson o‘qigani sari o‘zining ilmi qanchalik oz ekanini anglab boradi.

Tengqurlari esa Maxtuqulining odamoviligini kibr-havoga yo‘yishardi. Faqat Chovdur ismli bir bola ulardan ajralib turar, bu kamgap, o‘ychan yigitchaga o‘zini yaqin olishga tirishardi. Imkon qadar u bilan gaplashishga, ko‘ngliga yo‘l topishga urinardi. Indamas o‘g‘lining bitta bo‘lsa-da o‘rtog‘i borligini ko‘rgan mulla Davlatmammad ham xiyol taskin topdi.

Chovdur juda dovyurak, kuchli, bahodir yigit edi. U chaqqonlik va abjirlikda ham Maxtumqulidan oldinda edi. Birga tog‘larga chiqishar, cho‘qqidan turib tosh irg‘itishar, ovga borishardi. Max-

tumquli ham o‘z navbatida Chovdurga ishonar, unga suyanardi. Gohida Chovdur bilan otasining zargarlik ustaxonasida ham ul-bul yumushlarni bajarib turishardi.

Chovdur she’r yozmasa-da, she’rni yaxshi tushunar, she’r o‘qish va tinglashni yoqtirar, bu ham Maxtumquli bilan til topishishida katta o‘rin tutgandi.

Har so‘zning qadrini bilgan, so‘zning rangini, soyasini, uning botiniy tomonini ko‘rolgan inson shoir uchun eng yaqin do‘st sanaladi.

Ikki do‘st endigina o‘n to‘rtdan oshgan bo‘lsalar-da, hayotning ko‘pgina totli damlari ortda qolgandi. Toshdan toshga sakrab, chopqillab, oqar suvga non oqizib yeb yurgan beg‘am, beg‘ubor damlar endi o‘tmishga aylangandi. Qish kunlarida muzlagan ariq sathida pakki bilan rasmlar chizgan paytlari-chi? Kechalari birgalashib, bir-birlariga ertak aytib yotgan oqshomlar ham endi ertakka aylangandi.

Bolalik paytlari Xiva, Hirot, Buxoro taraflardan kelayotgan karvonlar ko‘ringanda, ikki o‘rtoq bu yangilikdan hamqishloqlarini xabardor qilish maqsadida ovulga qarab chopishardi. Ovuldagilar savdogarlardan turli matolar, shirinliklar, uy-ro‘zg‘or buyumlari sotib olishardi.

Gohida esa, ovullarga beomon qaroqchilar hujum qilib turishar, ularning qo‘liga qul bo‘lib ketishdan qo‘rqqan bolalar biror xavfni sezishsa, tumtaraqay bo‘lishardi. Uy-uylariga borib, onalarining quchog‘ida nafaslarini chiqarmay o‘tirgan paytlari ham bo‘lgan. Endi esa bolalikning u damlari o‘tdi-ketdi. Agar yurtga dushman hujum qiladigan bo‘lsa, qo‘lga qilich olib, “urho-ur” deya maydonga tushadigan payt keldi.

Ana shunday savashlarning birida Chovdur ham qatnashgan. Maxtumqulining ham ota-onasi u bilan xuddi katta odamlar bilan muomala qilgandek gaplashishardi. Undan kattalardan talab qilinadigan ishlarni kutishardi. Albatta, otga minish, ot o‘ynatish har bir turkmanning burchi. Buni Maxtumquli ham, Chovdur ham yaxshi bilishadi. Buni uddalashadi ham. Biroq Chovdurning otasi o‘g‘lining tarbiyasiga juda qat’iy qarardi.

“Agar sening yuraging mingan otingning yuragidan baquvvatroq bo‘lmasa, ot bir kunmas-bir kun seni dog‘da qoldiradi. Otlar dovyurak odamlarni mindirib yurishni istashadi”.

Shundan so‘ng otasi Chovdurga uzangini bosib, otga minishni taqiqlab qo‘ygandi. Haqiqiy, mard yigit har qanday asov jiyronning yolidan osilib-tirmashib minishni uddalashi lozim. Chovdur ana shunday ruhda tarbiya topgandi. Maxtumquli-chi? Yo‘q. U boshqacha ruhda tarbiya topgandi. Uning otasi mulla Davlatmammad o‘g‘lini asosan o‘qish-yozishga, nazmga, savodga moyil qilib o‘stirgandi.

Biz Chovdurning tarbiyalanish uslubini shartli ravishda yurak tarbiyasi deymiz. Umuman olganda, turkmanlar yurak so‘ziga juda katta urg‘u beradilar. Ko‘p narsani yurak bilan bog‘lashadi. Yurak tarbiyasi deganda ham badan tarbiyasi, ham axloq tarbiyasi, asosiysi esa, asab tarbiyasi nazarda tutiladi. Janglarda kerak bo‘ladigan chapdastlik, abjirlik, eng og‘ir holatlardan osonlikcha chiqib ketish ham yurak tarbiyasining bir ko‘rinishidir.

Jangdagi hodisalar seni ham, otingni ham sinaydi. Qo‘rquv hammada bo‘ladi. Ana shu qo‘rquvni yenga olgan odam botir ataladi. Qo‘rquv yengish asnosida oting sendagi qo‘rquvni sezmasligi kerak. Bu ham yurak tarbiyasining bir jihati.

Odam loshiga, odam qoniga, qon isiga ko‘nikish ham yurak tarbiyasining bir shaklidir. Hatto otlarni ham qonga o‘rgatish talab etilgan. Busiz jangga kirib bo‘lmaydi.

Chovdur ana shunday ruhda tarbiya topdi. Shu bois u qo‘rqmas, jasur, dovyurak bo‘lib yetishdi. O‘sha davrdagi vaziyat ham aynan shuni taqozo etardi. Biroq Maxtumquli tabiat ilk bor in’om etgan fe’li bilan qoldi. Qaytanga kitoblar uning yuragini yanada yumshatardi. Otasi ham o‘g‘lini sofdil, mehribon, oqko‘ngil qilib tarbiyalagan, chunki u o‘g‘lining yetuk shoir bo‘lishini istardi. Bu haqda keyinroq yana to‘xtalamiz. Maxtumquli ham ba’zan do‘stiga havas qilardi. Unikidek yuragi bo‘lishini istardi. Chovdur esa Maxtumquliniki singari hassos, oliyjanob, mehrga to‘la qalb orzusida edi.

Oldin aytganimizdek, Nodirshohning o‘limi ko‘pchilik xalqlarda katta umid uyg‘otdi. Chunki uning jabr-u zulmi xalqning suyak-suyagiga borib yetgandi. Nodirshoh o‘limidan so‘ng Ahmadshoh ismli shaddod hukmdor tarix sahnasiga chiqdi.

Dastavval xalq unga umid ko'zi bilan boqdi. Albatta, Maxtumquli ham u haqda ko'pchilik singari yaxshi fikrda edi. Ehtimol, mulla Davlatmammad bu boradagi mushohadasini darrov yuzaga chiqarmagan, voqealar rivojini vazminlik bilan kuzatib borgandir? Harqalay, uning Ahmadshohga bag'ishlab biror misra yozmagan, yo yozgani bizgacha yetib kelmagan. Ammo yosh Maxtumquli hamon odil shoh haqidagi xalq ertaklari, rivoyatlari ta'sirida yurardi. U Ahmadshoh timsolida ana shunday hukmdorni tasavvur etardi:

Yo Ahmadshoh, yerda yoyilib choving,
Oting osmon ketar arshi a'loga!

— deb boshlanuvchi she'ri ham ana shundan darak beradi. U o'z xalqining uzoq vaqtdan beri qizilboshlar va forslarning bosimidan qutulishiga aynan Ahmadshoh yordam berishiga umid ko'zi bilan qarardi.

Shu bois u she'rida Ahmadshohga qarata "shohlarni shohi" deya murojaat qiladi. Maxtumquli Chovdur bilan birga Ahmadshoh haqida, uning adolati xususida ko'p musohaba etishardi. Ikkovlon goho xayol dengiziga cho'mishar, goh orzular osmonida parvoz etishardi. Ayniqsa, pahlavonsifat, kuchi bilagiga sig'may, o'tkir qilichini qaysi toshga urishni bilmay turgan Chovdur o'zi kutgan davr-u davron kelayotganidan xursand edi. U mardona savashlar, halol g'alabalar shavqida yonardi. Axir, otasi unga ana shunday tarbiya bergan.

Chovdur turkmanlar va turkiylarning tarixiga nazar tashlar ekan, shoir va botirlardan ko'ra shuhratliroq insonlarni ko'rmadi. Shuhrat o'z libosini hammaga ham kiydiravermaydi, biroq u Chovdurning kiftiga o'z libosini tashlab o'tdi.

E'tibor bering: har ikki do'st esini tanishi bilan o'zini siyosatga uradi, hali qalblari ilk muhabbat tug'yoni bilan tepishga ulgurmagan o'spirinlarni davr taloto'pi o'z girdobiga tortdi. Shu bois bizgacha yetib kelgan she'rlarning eng dastlabkilari xuddi shu siyosat, xalq taqdiri, davrning eng nozik jihatlariga borib taqaladi. Maxtumqulining "Go'klang", "Arshi a'loga" she'rlari shundan

dalolat beradi. Yuksak qadriyatlar ruhida tarbiya topgan Maxtumqulidan boshqa narsani kutib ham bo'lmasdi.

Ahmadshoh asos solgan davlatga turkmanlar, shu jumladan, go'klanglar ham xizmat qilishga bel bog'ladilar. Chunki Nodirshoh o'ldirilgunga qadar Ahmadshoh Durroniy uning qo'shinida xizmat qilardi. Turkmanlar esa Nodirshoh qo'shinining eng jangari qismini tashkil etardi. U paytda turkmanlar forslarga, qizilboshlarga qarshi turgan har qanday kuchlarni yanchishga tayyor edilar. Shu tariqa yangi afg'on davlati bilan aloqalarning yaxshilanishi xalq orasida bu davlatga nisbatan iliq tasavvurlar uyg'onishiga, aholining yaxshilikka umid bog'lab, Afg'onistonga yuz burishiga undadi. O'zlari singari tarqoq, mazlum va bechora afg'on elatlarining birlashib yagona davlat tuzishi turkmanlar uchun ham o'rnak bo'ladi. Afg'onlarning bu harakati ancha paytdan beri turkman xalqining ongida yashab kelayotgan va pishib yetilgan, kamol topgan birlashish g'oyasiga turtki berdi. "Biz ham birlashsak, afg'onlar singari davlat qursak, ulardek baxtli bo'lardik" degan gapni har bir aqli joyida bo'lgan turkman aytishi mumkin edi.

Buni o'z asarida sal avvalroq butun insoniyat misolida ko'rsatib bergan mulla Davlatmammad jarayonlarni kuzatib, ma'noli kulimsirab qo'ygan bo'lsa, ajab emas. Ana shu ruhiy jo'shqinlik, Nodirshoh davrida cho'kkan ko'ngilning to'lishi mullaning asari so'nggi sahifalarini yozishi uchun, shuningdek, Afg'oniston masalalariga aniqlik kiritish uchun turtki bergan bo'lsa kerak. Sababi, Afg'on davlati dunyoga kelgan ilk zamin — Hirotda afg'onlar bilan birga go'klanglar ham yashagani tarixdan ma'lum. Demak, afg'on va turkman xalqlarining aloqalari ildizini ancha olisdan izlashga to'g'ri keladi.

Turkman ovullariga kelib-ketuvchilar Ahmadshoh haqidagi iliq gaplarni ko'p gapirishar, bu esa, xalqning unga bo'lgan umid va ishonchini yanada oshirardi. Faqat Davlatmammad u haqdagi fikrlarini ro'y-rost aytishga oshiqmasdi. Chunki u shohlarning tarixi haqida ko'p o'qigandi, o'zi ham ularning fe'l-atvorini shaxsiy tajribasidan yaxshi bilardi. O'tmishda hukmdorlar ko'p bo'lgan, ammo ularning orasida odillari juda oz edi.

Shu bois odamlarning Ahmadshoh haqidagi xomxayollari ba'zan uning asabiga tegardi. Bu xursandchilik uzoqqa bormasli-

gidan xavotirda edi. Bu ham yetmagandek, o‘z o‘g‘li Maxtumquli ham Ahmadshohga qattiq ixlos qo‘ygan. Bu esa mullaning ko‘nglini xijil qilardi.

U hujrasida yolg‘iz qolgan payt o‘g‘lini chorladi.

Ana shu suhbatdan so‘ng ota-o‘g‘ilning “O‘g‘lim-Ozodim” nomli she’riy musohabasi yuzaga keldi. Bu paytlarda o‘n olti yoshlarga borib qolgan Maxtumquli ma’naviy jihatdan ham bir qadar kamolotga erishgan edi. Mazkur she’r Maxtumqulining otasi bilan teng mushohada yurita olganidan darak beradi.

Ota:

Qaroqchidir yo‘llar, hizdir, haromdir,
O‘larman-qolarman ketmagin, o‘g‘lim,

O‘g‘il:

Qasd etib, jonimga yetsa ajalim,
Bu yerda ham bo‘lsa, topar, Ozodim.

Bu safargi sayohat haqida ikki xil fikr bor.

Birinchi fikr: Maxtumquli darvish qiyofasida yo‘lga chiqqan. U darvishlik xirqasini kiyishdan avval otasidan izn so‘raydi.

Bu fikrning tarafdorlari she’rdagi:

Jilovdori bo‘lay, Yozirxon piring,
Ko‘ngil qushi parvoz urar faqiring,
Bu kun yetti kundir, “Alhamd” o‘giring,
Shod ayla ko‘nglim, qo‘yvor, Ozodim!

Ikkinchi fikr: Maxtumquli o‘z hamyurtlari, teng-to‘shlari bilan birga Ahmadshohning huzuriga yo‘l olish oldidan otasidan ijozat so‘raydi. Mana bu satrlarni shunga dalil sifatida ko‘rsatishadi:

Jafo urma o‘zing, chaqir mavloni,
Orzu etma xonni, bekni, sultonni,
Basdir bizga avval tangri bergoni,
Oldirma ko‘nglingni ketmagin, o‘g‘lim.

Har qalay Maxtumquli yoshligida qandaydir maqsad bilan Afg‘onistonga ketganini hech kim inkor etmaydi. Aytishuvning

to‘liq mazmunidan kelib chiqib aytiladigan bo‘lsa, Maxtumqulining Afg‘onistonga ketishi aynan siyosiy xarakter kasb etishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, bu holat Maxtumquli yoshlikdan o‘z davrining siyosiy suronlariga ancha erta qo‘shilib qolganidan darak beradi. Bu aytishuv biografik nuqtayi nazardan qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lgan asarlardan biri sanaladi. Bu baytlar Maxtumqulining yoshlikdagi xatti-harakatlari bilan birga otasiga bo‘lgan beqiyos hurmati, mulla Davlatmammadning fahm-farosati, otalik mehri, o‘g‘lining taqdiriga jiddiy yondashuvi, ota-o‘g‘il o‘rtasidagi nozik munosabatlar, o‘sha davrdagi siyosiy vaziyat haqida yetarlicha tushuncha beradi. Bu aytishuv o‘g‘lining uzoq safar oldidan otasidan olgan ilk oq fotihasidir.

ILMLARNING ENG BUYUGI — SAYOHAT

Ha, Vatandan ilk bor tashqariga chiqish. Bu faqat Afg‘oniston safari bilan intiho toparmikin? Taqdir uning manglayiga yana qay yurtlarni, nima maqsadlarda kezishni bitib qo‘ygan ekan? Faqat ezgulik bilan tepgan yurak hali ne kunlarni boshdan kechirishini bilmasdi...

Maxtumqulining Afg‘onistonga borishi, Ahmadshoh bilan uchrashishi taxmiman 1750–1752-yillarga to‘g‘ri keladi.

Ahmadshoh bir paytlar Nodirshohning ishongan sarkardalaridan biri bo‘lib yurgan kezlarida, Armanistonda, Gurjistonda, Dog‘istonda ko‘plab begunohlarning qonini to‘kkandi. Albatta, u turkmanlarni ham ayab o‘tirmasdi. Shu bois davlat tepasiga kelgach, oldingi kirdikorlarini xaspo‘shlashi kerak edi. O‘zini Nodirning avlodiga, Eronga qarshi qilib ko‘rsatishi kerak edi. Shunday qilsa, Eronga tobe bo‘lgan xalqlarni o‘ziga tez og‘dirishini yaxshi bilardi. Bu maqsadi yo‘lida u odamlarning diniy e’tiqodidan ham ustalik bilan foydalandi.

O‘rni kelganda, eslatib o‘tish joizki, Nodirshohning o‘zi ham turkmanlardan edi, o‘zi bosib olgan yurtlarga turkmanlardan hokim tayinlab kelardi. Afg‘onistonni egallagan paytida 16 yoshli

Ahmadshoh zindonda edi. Nodirshoh uni o'zi bilan olib qaytdi. Bir qator janglarda bahodirlik ko'rsatib, Nodirshohning ishongan odamlaridan biriga aylandi. Hatto Nodirshoh o'ziga qarshi fitna tayyorlanayotganini anglagan paytda ham fitnachilarni jazolash uchun Ahmadshohning qo'shinini yordamga chaqiradi. Nodirshoh o'ldirilganidan keyin, uning xazinasini talamoqchi bo'lgan talonchilarga ham faqat Ahmadshohning o'zi qarshi turadi. Uning o'z hukmdoriga sodiq ekanini anglagan Nodirshohning xotinlari Ahmadga Ko'hinur olmosi va Tovus taxtini sovg'a qilishadi.

Ahmadshoh nima uchun dastavval o'zini Nodirshohga sodiq etib ko'rsatdi ekan? Balki Ahmadshohning o'zi ham chindan turk yoki turkman bo'lgandir?

Har qalay, Nodirshohning o'limidan so'ng turkmanlarning, shu jumladan, go'klang qabilasining Ahmadshohga umid ko'zi bilan qarashi bejiz bo'lmasa kerak.

1713-yilda buyuk turkman diplomati Xojanapas Kaspiydan o'tib, tinchlik missiyasi bilan Pyotr birinchining huzuriga boradi. 1714-yilning yozida Pyotr I uni rasman qabul qiladi. Buyuk va qudratli rus podshohi o'z davlati va hukmdoriga ega bo'lmagan turkman elchisini qabul qiladi. U rus fuqaroligini qabul qilishi masalasini Pyotrning oldiga ko'ndalang qo'yadi.

Ana shu muzokaraning natijasi o'laroq, Pyotr I A. Bekovich-Cherkasskiy missiyasini Markaziy Osiyoga yuboradi. Turkmanlar bu ekspeditsiyani yaxshi qabul qilishgani haqida ma'lumotlar bor. Xiva xoni Sherg'ozixonning maxfiy buyrug'i bilan ekspeditsiya a'zolari qirib tashlanadi. Bu hodisani turkmanlar qattiq nadomat bilan kutib olishadi.

Albatta, Xojanapasning Pyotr bilan muzokarasi haqidagi xabarlar turkmanlarning turli qabilalariga yetib keladi.

1723-yilda Pyotr I Bokuni egallaydi. O'sha yildagi Rus-Eron shartnomasiga ko'ra, Gurgon atroflari ham ruslarning qo'l ostiga o'tadi. Ammo bu hududlarda siyosiy vaziyat beqarorligicha qolmoqda edi. Ruslar bu beqarorlikni izga solishmasdi. Buni turkman sardorlari ham taxmin qilishardi. Nima sababdan Pyotr ularni afg'on, Eron zulmidan qutqarib, o'z soyasi ostiga olmadi ekan?

Aynan shundan so'ng Rus-Eron-Turkman uchburchagidagi voqealar qanday tus oldi? Ma'lumki, 1726-yildayoq Nodirshoh

yirik jang sahnalarida ko‘zga tashlana boshlagandi. Shu tariqa Eron-Turkman munosabatlari avvalgidan ham yomonlashadi. Bosh-boshdoqlik, bosqinchilik va talonchilik, ommaviy quvg‘in va ko‘chirishlar davri boshlanadi. Erondagi rus rezidenti I.P. Kalushkin o‘z davrida Nodirshoh haqidagi quyidagi ma’lumotlarni yuboradi:

“U avvalgidek, hukmdorligi davomida jabr-zulmni haddan oshirmoqda, el ichidagi obro‘li odamlarni sababsiz va ayovsiz o‘ldirmoqda. Moyirxondan boshqa hamma odamlar, hatto o‘ziga xayrixoh kishilarni ham qilichdan o‘tkazmoqda. Shu sababli qo‘-shin ham uning o‘limini tilamoqda”. 1732-yilda Rus-Eron shart-nomasiga binoan turkmanlar zich joylashgan Gurgon tumani Eronga rasman beriladi.

Bu harakatlarning bari o‘sha paytda ruslarning turkiylarga, shu jumladan, turkmanlarga qarshi siyosat yuritganini ko‘rsatadi. Kezi kelganda aytish lozimki, bu davrlar turkiy qavmlar o‘rtasida nizolar mavjud bo‘lsa-da, qon-qardoshlik aloqalari tamomila yo‘-qolib ketmagandi.

Shu tariqa XVIII asrning birinchi yarmida Rossiya Eron bilan qiziqa boshlaydi. Eronni Usmoniylarga qarshi qo‘yish maqsadida turkmanlar va ular singari kichik xalqlar borasida sovuq siyosat yurgiza boshlaydi. Natijada, bo‘ysunmas, o‘jar turkmanlar o‘z chori-g‘ini o‘zi sudrashga majbur bo‘ladi, o‘zini asrashga to‘g‘ri keladi.

Bu tomonda turkmanlar afshar qabilasining zulmiga ham turib berishi kerak edi. O‘sha paytlarda Armaniston, Ozarbayjon, Gruziyaning katta qismi, afg‘onlar, Turkiston, Hindistonning bir qismi, Bahrayn va Ummon Nodirning qonli changaliga tushgandi.

Uning qanchalik rahmsizligini o‘z o‘g‘lining ko‘zlarini o‘ydirganidan ham bilsa bo‘ladi. U Marvda qo‘shin to‘plab, olis Chin mulkiga yurish qilishga hozirlik ko‘rardi. Uning o‘zi bu yurishni Chingizxonning Eronga qilgan qonli bosqinlari uchun qasos sifatida nomlagandi. Ammo Nodirshoh vahshiylik va talonchilikda Chingizxondan qolishmas, uning “qayerni bosib olsang, yer bilan yakson qil” tamoyiliga amal qilardi.

Safaviylarning so‘nggi hukmdorlari paytida bir muncha zaif-lashgan davlatning obro‘-e’tibori Nodirshoh davrida yanada pasa-yib ketgandi.

Turli isyonlar, qo'zg'olonlar, ichki nizolar mamlakatni tang vaziyatga keltirib qo'ygandi. Nodirshohning kuch va zo'rlik bilan tuzgan davlati uning o'limidan so'ng xonliklarga tarqalib ketgan bo'lsa-da, aslida bu tanazzul muz ostidan oqqan daryo singari zimdan harakatga kela boshlagandi. Madaniyat borasida esa "Eron tarixi" nomli kitobdan olingan ushbu iqtibosni o'qish ziyon qilmaydi:

"XVII asrning oxirlari — XVIII asrning boshlaridagi uzluksiz urushlar, ichki nizolar va chuqur iqtisodiy bo'hron Eron madaniyatini ham tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'lgandi" (Moskva, 1977-y. 208-bet.)

Xullas, Maxtumqulining Afg'onistonga yuz tutmasidan avvalgi vaziyatning qisqacha bayoni shundan iborat.

Shu o'rinda savol tug'iladi: Maxtumquli Afg'oniston sari yuzlanar ekan, tarqoq turkmanlarni birlashtirib, xuddi afg'onlarniki singari o'z davlatini tiklash fikriga bormadimikin? Zotan, Afg'oniston davlatining paydo bo'lishi ilg'or fikrli turkmanlarda ham ana shunday g'oyalarga undashi kerak edi. Fikrimcha bu g'oya Nodirshoh zamonasidan ham ancha oldin turkman xalqida bor edi. Asrlar davomida turli hukmdorlar zulmi ostida yashab kelgan turkman urug'lari bu haqda o'ylab ko'rishgandir? Axir turkmanlar ancha avval o'z markazlashgan davlat tuzumiga ega bo'lgan-ku? Bir tarafi Xitoyga, boshqa tomoni Suriya va Misrga borib taqalgan Saljuqiylar davlatini esga olaylik.

Yuqoridagi holatlarga qaramay, har bir ishni natijasidan avval ko'ra oluvchi, farosatli mulla Davlatmammadning maslahatlariga sipolik bilan qarshi turgan Maxtumquli, siyosiy jihatdan tajribasiz, haqiqiy vaziyatni to'la-to'kis ko'z oldiga keltira olmaydigan, voqealar qay tomonga og'ishini anglashga idroki yetmagan yosh yigit Afg'onistonga yo'l oladi. Barcha muammolar va mushkulotlar yechimi uning nazarida aynan shu yerda edi.

U bir olam orzu-umidlar bilan yo'lga chiqqandi. Hamrohlari asosan o'zi tengi yoshlar edi. Ular orasida Maxtumqulining eng yaqin do'sti, pahlavon Chovdurxon ham bor edi. Mantiqiy mushohada yuritsak, Maxtumquli Afg'onistonga uchta maqsad bilan ketgan bo'lishi mumkin.

Birinchi maqsad: Ahmadshoh bilan ko'rishib, uning aytgan so'zlarini o'z qulog'i bilan eshitish, o'z xalqining, o'z qabilasining shohdan qay darajada umidvorligi va yurtdoshlari ham shoh bilan hamkorlikka tayyor ekanini shaxsan yetkazish edi. Bu siyosiy maqsad edi.

Ikkinchidan, Eron bilan urush holati, Xiva va Buxoro bilan savdo aloqalarining cheklangani, yovmutlar bilan kelisholmaslik, dengiz orqali tijoratning muvaffaqiyatsizligi Turkmansahroda yashovchi turkmanlarni iqtisodiy tang vaziyatga solib qo'ygandi. Shu bois, ular Afg'oniston orqali savdo yo'llarini kengaytirishga majbur edilar. Hindistonga olib boradigan karvon yo'llarining ham bir tarmog'i Afg'on davlati hududidan o'tardi.

Maxtumquli qo'shilib borgan guruhning uchinchi maqsadi Afg'onistonda yashayotgan, ehtimolki, allaqachon Ahmadshoh Durroniy xizmatiga kirgan qarindoshlardan xabar olib kelish bo'lgandir?

Mulla Davlatmammad garchi noiloj o'g'liga fotiha bergan bo'lsa-da. Afg'oniston haqidagi fikrida sobit qolgandi. Loaqal uning qarshisida o'z taxminining to'g'ri yo noto'g'ri chiqishini sinab ko'rish imkoni bor edi:

Ozodiy der, birga safo suraylik,
Yoki jo'nataylik, sinab ko'raylik...

Shu o'rinda yana bir savol yuzaga chiqadi: mulla Davlatmammadning Maxtumqulidan katta ikki o'g'li — Abdulla va Muhammadsafo bo'la turib, nega hali mujarrad kenjatoyini olis va xatarli safarga yubordi ekan? "Kattalar boshlaydi, kichiklar ishlaydi", tamoyiliga amal qilib yashagan Sharq xalqlarida har doim o'zidan kattalarga yo'l berish udumi bor. Nega Maxtumquli va otasi bu tamoyilni unutishdi ekan?

Ayonki, Maxtumquli ilm va siyosat bobida, odamlar bilan muomala qilishda akalaridan ko'ra o'ktamroq bo'lgan. Balki shu bois, otasi aynan uning safariga oq yo'l tilagandir? Qolaversa, o'z taqdirining kelajagi, akalaridan ko'ra ko'proq Maxtumqulini qayg'uga solgan bo'lishi ham mumkin.

Maxtumqulining Ahmadshohni madh etib yozgan she'rini yillar, asrlar o'tib odamlar qanday qabul qilisharkin? Haqgo'y shoir hamisha xalq bilan hamnafas bo'lishini bilgan holda, uning Ahmadshohga yon bosishidan payti kelib afsuslanmasmikin? Maxtumquli ayni damda bu haqda o'ylamasdi.

Kim bilsin, Maxtumqulining elchilarga qo'shilib Ahmadshoh huzuriga borishining boshqa, biz bilmagan sabablari ham bordir?

Xullas, karvon Afg'on mulki tomon allaqachon yo'lga tushgandi. Yurtda qolganlar esa, elchilarning oy borib omon qaytishini, ko'zlangan natijalarga erishishlarini so'rab, duo qilib qolishdi. Qurblari yetguncha xayr-ehson qilishdi. Oqsoqollarning xayri-duolari ayollarning yig'i-sig'isiga qo'shilib ketdi. Bolakaylar ularning ortidan ancha yo'lgacha oyoqyalang chopib borishdi. Ovul boshidagi bir hovlida to'plangan bo'y yetgan qizlar ham yo'lga chiqqan yigitlarning ortidan o'g'rincha qarab qolishdi.

Qizlarning boqishlarida bir hadik, bir nigoronlik, bir orzumandlik namoyon edi. Agar mo'jiza yuz berib, har bir qizning uzun sochlari arqonga aylansa, bir yigitning bo'yniga chirmashib, ularni bu mujmal safardan qaytarmasmidi? Bu qizlar olis safarga otlangan o'ktam yigitlarning yo'lini umrbod poylashga ham hozir edilar. Biroq yigitlarning hech biri, hatto Maxtumquli bilan Chovdur ham bu o'tli nigohlar ta'qibidan bexabar ketib borar, turfa orzu-umidlar osmonida sarxush suzishardi.

Maxtumquli bu karvon safida ko'zga ko'rinmay ketgan chog'da davradagi qizlarning eng latofatli, eng ko'hlik, eng dilbari beixtiyor ko'zlaridan ikki tomchi yosh qirmizi yonoqlaridan pastga sirg'alganini sezmay qoldi.

— Ha, yurakkinang erib oqdi-yov, — deya uning biqinidan turtdi eng sho'x dugonasi. Biroq qizning xayoli Maxtumquli bilan birga olislab ketgandi.

Uning ko'zlariga dunyo ham qafasdek torayib ketganga o'xshardi. Qizning ko'zlaridan oqayotgan marvarid donalari tezlashdi. Ro'moli bilan jiqqa nam mujgonlarini artarkan, boyagina unga tegishib turgan dugonalari endi unga taskin berishga tushdilar. Go'zal qiz yuragida tug'yon urgan muhabbat o'z sohibidan pinhon bo'lib qolganidan, o'ziga har qancha oro bersa-da, yigit unga

qayrilib ham qaramaganidan afsusda edi. Qiz karvon ketgan tomondan ancha paytgacha umidsiz ko'zlarini uzolmay turdi.

* * *

Maxtumqulidan bor-yo'g'i o'n yosh katta bo'lsa-da, Ahmadshoh hayotda ko'p narsani ko'rgandi. Mana, Maxtumquli yetti daryoning suvini ichgan, ilonning yog'ini yalagan ana shu odamning yoniga ketib bormoqda.

Ahmad Nodirshoh xizmatida yurgan kezlari ruslar bilan ham maxfiy aloqada bo'lgani taxmin etiladi. O'sha paytlarda rus diplomatlari, siyosatchilari Eronga alohida e'tibor bilan qaraganlar, diplomatik munosabatlar bilan birga savdo-sotiq hajmi ham ortib borgan. Hatto ayrim manbalarda Nodirshohning rus imperatritsasiga oshiq bo'lib, unga sovchi yuborgani haqidagi ma'lumotlar ham bor.

Nodirshohning qo'l ostida yurgan paytlari Ahmadshoh inglizlar bilan ham aloqa o'rnatadi. Angliyalik Jon Elton o'sha paytlarda shohning kemasozlik ishlari bo'yicha maslahatchisi edi. Fransuz Bazen ham u bilan tez-tez uchrashib, suhbatlashib qolardi.

Bazen 1741–1747-yillarda Nodirshohning shaxsiy tabibi bo'lib xizmat qilgan. Ko'plab yurishlar paytida uning yonida bo'lgan.

Ahmadshoh o'z valine'mati Nodirshohning diniy qarashlari va boradagi siyosatini ham zimdan kuzatib yurdi. Nodirshoh musulmonlar orasida fitna qo'zg'otish, ularning o'rtasiga nizo urug'ini sochish, mazhab mojarolari borasida ham nom chiqargan edi, uning ayrim qarashlari diniy ulamolarning ham g'azabini uyg'otardi.

Aytishlaricha, ahli kitob sanalgan dinlarning manbalarini yetarlicha o'rganib chiqqach, Nodirshoh barcha dinlarni birlashtirib yagona ta'limot yaratmoqchi ham bo'ladi. Hatto u "men ham Muhammad (s.a.v.) va Ali (r.a)dan kam emasman" deyishgacha borib yetgan. Ruhoniylar orasida unga qarshi chiqqanlar shohning alamli azobiga duchor bo'lishlari tayin edi. Shu bois, diniy arboblar unga tik boqib, haqiqatni aytishga qo'rqishardi.

Ahmadshoh esa bu hodisalarni ziyraklik bilan kuzatib yurardi. Shu bois u Nodirdan qilishi mumkin bo'lgan emas, qilmasligi lozim bo'lgan amallarni o'rgana boshladi.

Mana, Maxtumquli ham jismonan, ham ruhan chiniqqan. Kuchga to'lgan ana shu insonning qoshiga borayotir.

Qolaversa, 1747-yilda Afg'on davlatini yaratib, bu vaqtga qadar Eronga bir marta yurish qilib, omadsizlikka uchragach, Ahmadshoh belujlar yurtini ikki marta talab, katta o'ljani qo'lga kiritgan. U Hindistonga ilk bor 1738–1739-yillar oralig'ida Nodirshoh bilan birga bostirib borgan, bu yurt talon-toroj qilish uchun qulay ekanini o'z ko'zi bilan ko'irb qaytgandi.

Ahmadshoh haqidagi bu ma'lumotlardan Maxtumqulining xabari bormidi? U kim bilan ish boshlamoqchi bo'lganini o'zi yaxshi bilarmidi? Bunga qat'iy ha yoki yo'q deb javob berish qiyin. Maxtumquli Ahmadshohga bag'ishlab bitgan she'rining bir nusxasini o'zi bilan olib ketayotgandi. Mana, shu she'rdan bir parcha:

Firog'iy der, quvatlantir sen dinni,
Shohlarning shohisan, islomning zayni,
Amringga mute' et Eronzaminni,
Ro'z-u shab nolishim budir Xudoga.

Ko'rib turganimizdek, bu satrlarda Maxtumquli Ahmadshohning kuchini Eronga qarshi yo'naltiradi. Sergak Ahmadshoh bu turkmanlarning nima maqsadda kelganini ular Qandahorga kelib tushgan kuniyoq bilib oladi. Uning o'ziga xos jihatlari ko'p edi. "Ahmadshohga davlat ichidagi ahvolni ko'pdan ko'p ayg'oqchi va xufiyalari tezkorlik bilan yetkazib berib turishardi". (Mir G'ulom Muhammad G'ubor, "Axmedshax — osnovatel afganskogo gosudarstvo". M.1959. 197 str.)

Ammo Maxtumquli qizilboshlarga qarshi muzokara olib borish uchun borganida, Ahmadshohning qo'shini safida yollanma qizilboshlar ham xizmat qilishini nahot bilmagan bo'lsa?

Ha, "Arshi a'loga" Maxtumqulining ilk qasidasi dedik. Maxtumquli xon va shohlarga bundan boshqa yana qasidalar bitganmi? Shoirning hayot yo'lini kuzatish asnosida bu savolga ham javob topamiz.

Shunday qilib, Maxtumqulilarning karvoni Qandahorga kelib tushgach, vakillar Ahmadshohning huzuriga borishdi. Qadimgilar

istilohi bilan aytganda "ular hazrati oliylarining muborak nazarlariga noil bo'lishdi".

Ahmadshoh ularni qanday qabul qilgani haqida yozma ma'lumotlar yo'q. Har qalay Ahmadshoh turkmanlarga butun qalbidagilarni ochib-sochgan, deyolmaymiz.

Biroq Maxtumquli shoh bilan yuzma-yuz kelganidan baxtiyor edi. Otasining "orzulama, xonni, bekni, sultonni" degan pandini ham unutayozgandi.

Ahmadshoh Maxtumquli umri bino bo'lib ko'rgan ilk hukmdor edi. U Ahmadshohni har qancha maqtamasin, o'zini ham yerga urib yubormagan. Zero, shoirning ruhi shohnikidan aslo past emasdi. Bu mag'rurlik va sarbalandlik umr bo'yi shoirning hamrohi bo'ldi.

Maxtumquli umri davomida yana qancha shoh, qancha sulton bilan yuzma-yuz kelarkin? Maxtumquli alhol bu haqda o'ylamasdi. Ahmadshohning iltifoti, turkmanlarning Eron haqidagi fikrlari uning tarafidan qo'llab-quvvatlanishi nafaqat Chovdur bilan Maxtumquli, balki ular bilan kelgan barcha hamrohlarini sevintirgan, sarxush qilgan edi. Asrlar davomida ularga qon yuttirib kelgan qizilboshlardan, forslardan o'ch olinadigan fursat yetib kelganidan ularning qalblarida umid yolqinlari porlay boshlagandi.

"Oxiri, bizning ham ko'ksimizga shamol tegarkan-da!" degan umid ularni sarxush etib qo'ygandi. Maxtumqulining ham pokiza qalbida "ajab ayyom" haqidagi ilk, yorqin taassurotlar jo'sh urardi.

Ajab ayyom! Naqadar chiroyli, naqadar umidbaxsh va... aldamchi so'zlar...

Bu so'z birgina Maxtumqulini emas, uning hamrohlarini ham jodulab olgandek edi. Tinchlik, farovonlik turkman elatlarining asriy orzularidan biri emasmidi? Go'zal, ajoyib kunlarni kim ham orzu etmaydi, deysiz?

Yuz yillardan beri davom etib kelayotgan bosqinlar, talon-torojlar, urushlar turkman xalqining tinka-madorini quritgan edi. Xususan, XVIII asr turkmanlari urushlardan tamomila bezib ketishgandi.

Keyingi asrlarda turkmanlarning o'z davlatiga ega bo'lmaganiga aynan bu elning jangovarligi sabab bo'lmaganmikin? Aynan ana shu xususiyati bu xalqning bir yoqadan bosh chiqaruviga xalal bergandir?

Garchi o‘z yurtida davlat tiklamagan bo‘lsa-da, boshqa hududlarda yurt so‘ragan-ku? Bunga misol ko‘p: Masalan, Nodirshohning Eronda, Bayramxonning Hindistonda qurgan davlatlarini eslaylik. XIII asrda yashagan buyuk italyan sayyohi Marko Polo shunday yozadi: “Dunyodagi eng nafis, eng go‘zal va bejirim gilamlar aynan shu yerda to‘qiladi”

Maxtumquli o‘z xalqining tarixini bilardi. Tarix hukmiga bo‘ysunardi. Ana shu tobe’lik ham uni Ahmadshoh huzuriga boshlab kelgandi.

Ahmadshoh bilan muzokaralardan ruhlangan turkmanlar bu xushxabarni o‘z uylariga yetkazishga oshiqmoqda edilar. Chovdur kelgusidagi muzaffarona yurishlar, ulkan g‘alabalar xayoli bilan mast edi.

Ahmadshoh esa mehmonlarini kuzatib qolarkan, uning ko‘nglidan shunday istehzoli o‘ylar kechgani ehtimoldan xoli emas: “Hey, sodda turkmanlar! Hali mening sovunimga kir yuvib ko‘rmabsanlar!”.

Ahmadshoh turkmanlarning mardligi, to‘g‘riso‘zligi, jasurligi, qizilboshlardan alamzada ekanligini yaxshi bilar, bulardan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishni maqsad qilgandi.

Xiva, Buxoro hukmdorlari ham bu voqeani yurak yutib kuzatib turishardi. Qizilboshlar ham o‘zlariga qarshi muzokaralar boshlanganidan xavotirga tushib qolishgandi. O‘rni kelganda, aytish kerakki, turkmanlarning birlashuvidan tevarakdagi barcha davlatlar xavotirda yashardilar. O‘n sakkizinchi asr o‘rtalarida bu masala yanada dolzarb tus oldi. Ammo turkman qabilalarining barchasi bu masalaga jiddiy yondashmagan. Mulla Davlatmammad singari uzoqni ko‘ra olgan, donishmand kishilar o‘sha paytda u qadar ko‘p emasdi. Garchi karvon Qandahordan xush xabarlar bilan qaytgan bo‘lsa-da, oldinda ko‘plab mushkulotlar kutib turardi.

Mulla Davlatmammad o‘g‘li va uning safdoshlari xatarli safardan qaroqchi va yo‘lto‘sarlar hujumiga uchramay, eson-omon qaytganidan benihoya xursand edi. Ammo ularning Ahmadshoh haqida og‘zidan bol tomib aytgan so‘zlariga u qadar ishonmasdi.

“Orzulama xonni, bekni, sultonni!”

U ichida ana shu misrani takrorlardi. Ammo bu paytda o‘g‘li boshqacha fikrda edi. U Ahmadshohni o‘z xalqi manglayidagi

umid yulduzi deb bilar, u haqda umidbaxsh she'rlar bitar, yurtdoshlarini yorug' kunlar yaqinligiga ishontirishga urinardi.

Biroq Maxtumqulinig Ahmadshohga atab bitgan barcha she'rlari bizgacha yetib kelmagan.

Go'klanglar Ahmadshoh bilan til biriktirib, Eronga qarshi yurishga hozirlik ko'ra boshladilar. Davlatalixon, Avazgeldi singari yetakchilar bu ishga bosh bo'lishadi. Kuchi bilagiga sig'may turgan Chovdur singari pahlavon yigitlar bu harakatga jon-dillari bilan qo'shiladilar. O'n olti-o'n yetti yoshgacha Maxtumquli qon ko'rmagan, urush ko'rmagan edi. Buni she'rlaridagi ichki ruh, jo'shqinlik ham tasdiqlaydi.

Maxtumquli Afg'on mulkiga yo'l olgan paytda uning ortidan yum-yum ko'z yoshi to'kib qolgan qiz esingizdadir? U qizning ko'z yosh to'kib qolishi bejiz emasdi. Bu go'zalning bokira qalbi Maxtumqulining ismini aytib tepardi...

Mana, Maxtumquli qaytgach, bu shahlo ko'zlar ham quvonchdan porladi. Aslida Maxtumquli ham unga befarq emasdi. Gohgohida yuzma-yuz kelib qolishganda, qizning yuzlarini lov-lov yonib, uning qalbidagi yorqin haqiqatni ayon etib qo'yardi. Ammo dildagi muhabbat tilga ko'chganicha yo'q. Qolaversa, qaysi bir qiz o'z dardini birinchi bo'lib oshkor eta olsin?

Aynan shu safardan qaytgach, bu jodu ko'zlar Maxtumqulining qalbini tezkorlik ila bandi qila oldi. Shunda... Maxtumqulining ko'zlariga dunyo boshqacha ko'rindi. Qalbida o'zga bir olam yuz ochganini angladi.

"ISHQ MENI YONDIRIB, YOQIB BORODUR"

Ishq lazzati dunyodagi barcha ne'matlardan ham lazizroq ekanini Maxtumquli o'z qalbi misolida his etdi.

Ha, hamma narsa o'zgargandi. Uning ko'ziga sahroning sarsari shamoli ham, oq kulohli tog'lar ham, zilol chashmalar ham, bepoyon dalalar ham, qushlar ham, bulutlar ham, odamlar ham, barcha-barchasi boshqacha, go'zal, jozibali qiyofa kasb etgandi.

Kechagina Ahmadshohni maqtab siyosiy satrlar bitgan shoirning qalbi endi ishqiy misralar yaratish ishtiyoqida yonardi. Uning

xayolidagi fikr daryosi, qalbidagi ilhom chashmasi Mengli ismli go‘zal tomon oqardi.

Maxtumqulining ko‘zi bilan boqqanda, Menglini sevmaslik mumkin emasdi. U Menglining sha’nini osmon qadar ko‘tarar, uning surati va siyratini shunday zavq-shavq ila tasvirlardiki, har qanday o‘quvchi bu muhabbatning maftuniga aylanardi. Beixtiyor bu she’rni o‘qiganlar Maxtumqulining pok, beg‘araz, jo‘shqin muhabbatiga havas qiladi.

Bu o‘tli misralarda qandaydir ilohiylik, sirli bir qudrat yashirin. “Ko‘ngil ko‘zgusida yorning otini, ishq xomasi ila yozgim keladi”, “Ishq oldi ko‘nglimni, tilga so‘z berdi”, “Boqibon mehringga to‘ysam, bog‘-u bo‘ston istamam” singari misralarda ana shunday jozibani, sehrni topish mumkin.

Bir dilbara duch keldim, g‘amzasi o‘q, qoshi yoy,
Kun hayrondir ko‘rkidan, xijolatga to‘lgan oy.

Yana oshiq Maxtumquli bu hislarni tarashlab, she’rga solsa-da, bundan ko‘ngli taskin topmas, sabri chidamay, mahbubasini yanada ko‘klarga ko‘tarishga, unga bo‘lgan muhabbatini yanada avj pardalarda kuylashga intilardi:

Iqbolim, dinim-imonim,
Qulman qomat, bo‘ylaringga,

Yoki:

Musulmonning din-imoni,
Ummatdir qaro ko‘zlaringga.

Ana shunday misralarni yozishga undagan sevgi qudrati haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Bu qudratni tog‘ning barqarorligi, selning kuchi bilan tenglashtirib bo‘larmikin? Balki uning qudrati chaqmoqdan-da kuchliroqdir? Axir hech bir chaqmoq Menglining qalbini yorib kirolmagan bo‘lardi-ku? Aynan Maxtumquli, uning Farhod singari buyuk oshiqlarga saboq bo‘la oladigan muhabbati ana shunday qudratga ega chiqdi.

Turkmanlar Maxtumqulining Mengliga bo‘lgan muhabbatiga o‘xshash sevgi qissasi bilan bu yaqin orada to‘qnash kelishmagan. Ehtimol, boshqa xalqlar ham...

Sharqda “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhro”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Farhod va Shirin” “Gul va Navro‘z” singari ishq qissalari asrlar osha og‘izdan og‘izga, eldan elga o‘tib keladi. Bu muhabbat qissalarining qahramonlari hayotda chindan ham yashab o‘tganmi-yo‘qmi, bu haqda ishonarli ma’lumotlar yo‘q. Ammo ana shu singari g‘amgin qissalar safiga o‘z realligi bilan farqlanadigan Maxtumquli va Menglining ishq dostonini qo‘shsak, xato bo‘lmasdi, nazarimda.

Bu ikki yoshning muhabbati ham shirin damlar bilan boshlanadi. Maxtumquli uylangunga qadar va undan keyin sevgi hijroniga uchragan paytlarigacha bo‘lgan davrda yozgan she’rlari bizgacha yo to‘liq yetib kelmagan, yo bunday baytlarning o‘zi kamchilikni tashkil etadi. “Bo‘ylaringdan”, “Qoshi yoy”, “Qora ko‘zlaring”, “Gulzor o‘ynashar, “Bugun”, “Go‘zalsan”, “Uyat qilarlar”, “Nozli dildor”, “Mengzar hukmli” kabi she’rlar shular jumlasidandir.

Tug‘di osmonning Zuhrosi,

Chin oshiqqa davron bukun, — deb boshlanadigan she’r ular orasida alohida ajralib turadi.

Bu she’rni Maxtumquli yosh kuyovlik payti yozgan, deyish mumkin. Chunki ayni shunday kezlarda yosh yigitning ko‘ziga butun olam go‘zal, tarovatli, baxt va sarxushlik maskani bo‘lib ko‘rinadi. Ana shu jo‘shqinlik uning satrlariga ham quyilgan bo‘lsa ne ajab.

Turkman zaminiga azaldan bahor erta keladi. Turkman yoshlari ham tez voyaga yetishlari shundan. Shu bois kattalar balog‘at ostonasiga yetgan yigit-qizlarning boshini tezroq qovushtirish ilinjida bo‘lishgan. Agar biror yigit qaysidir qizga ko‘ngil qo‘ysa, bu oshiqlik davri uzoq davom etmagan. Buning sababini turkmanlarning azaliy hayot tarzidan izlash kerak. Orada nikoh o‘qilmaguncha yigit va qizning uchrashib yurishiga izn berilmagan, oilada katta qiz uzatilmaguncha kichkinasiga sovchi qo‘yilmagan, qolaversa, o‘sha paytdagi notinch, beqaror vaziyat qizlarni tezroq

o‘z hasmiga topshirishni taqozo etgan. Maxtumquli Menglining ishqiga mubtalo bo‘lgan paytda necha yoshda edi? Bu savolga Maxtumqulining o‘zi keyinchalik yozgan she’rlarida javob berib ketgan:

O‘n yettidan oshganda shuhrat uyiga kirdim,
Oldim bir nozaninni zavq ila safo surdim,
Bu g‘unchayi gulzorning alvon gulini terdim.

Demak, Maxtumquli o‘n sakkizga qadam qo‘ygan paytida oila qurgan. Yoshlar ishq daryosida sarxush suzib yurgan kezlari Davlatmammad kitobining oxirgi bobini yozayotgan edi. Katta o‘g‘illari Muhammadsafo bilan Abdulla esa, allaqachon uylanib, ro‘zg‘or tashvishlari bilan band edilar. Yosh oilalar uchun ilgarigi eski bostirma atrofida yangi uylar qurildi. Mulla Davlatmammadning oilasida Maxtumqulining o‘rni boshqacha bo‘lgani uchun akalari uning uyini o‘zlarinikidan ham balandroq, shinamroq qilib solishgandi. Mulla Davlatmammad hunarmandlardan Maxtumquli uchun chiroyli sandiq ham yasattirib bergandi. Bu esa o‘sha payt uchun ham uy mebeli, ham kitob javoni vazifasini o‘tardi. Qimmatbaho kitoblar, qog‘ozlar, qo‘lyozmalar, siyoh va qalam ana shu sandiq ichida avaylab asralardi.

Ayni damlar Maxtumqulining xayollari bir muddat she’riyat olamini tark etgan, u hozir mutlaqo boshqa olamda sarxush parvoz etardi. Har oqshom dilso‘z bir parivash mayin, nozik barmoqlari ila Maxtumqulining qalin jingalak sochlarini silardi. Maxtumquli sevikli dildori bilan sohir ishq olamining keng samosi uzra bearmon parvoz qilardi. Hayot ular uchun o‘z nafosati, cheksiz go‘zalligini namoyon etmoqda edi.

Nazarida bu sirli olamda Maxtumquli va uning mahbubasidan bo‘lak hech kim yo‘q edi. Uning eng sodiq, tepishib katta bo‘lgan do‘st-og‘aynilarining ham bu xonadondan qadami uzilgandek edi. Ular ham Maxtumquli o‘z muhabbatiga erishgandan xabar topgach, uning halovatini buzishni istamasmidilar?

Yo‘q, buning boshqa sabablari ham bor edi. Kelgan-ketganlarning, o‘tkinchilarning yolg‘on-chin gurunglari vaziyatning keskinligidan darak berardi. Afg‘onistondan kelgan xabarlarga ko‘ra,

tez kunlarda Eronga qo'shin tortilishi mumkin. Erondan esayotgan shum epkinlar esa afg'onlar bilan til biriktirishgani uchun turkmanlardan shafqatsiz o'ch olinishi rejalashtirilganidan ogoh etardi. Do'stlari esa bu noxush yangiliklarni aytib, Maxtumqulining dilini og'ritishni, baxtli kunlariga soya tashlashni istamas edilar.

Dono Davlatmammad bu g'avg'olar osonlikcha nihoya topmasligini yaxshi anglardi. Ammo u ham chorasiz vaziyatda edi. U eronliklar, qizilboshlarga ishonmaganidek, afg'onlardan ham yaxshilik chiqishiga uncha ko'zi yetmasdi. Afg'onlar yordam berishga hozir bo'lsalar-da, bu "madadkor"lik ortida qandaydir ilinj yo g'araz bo'lishi mumkinligini u ichki bir hassoslik bilan his etardi.

To'g'ri, u hozircha Ahmadshohning kimligi, qanday hukmdor ekanini yaxshi bilmaydi. Ammo unga shohlarning umumiy fe'l-atvori yaxshi ma'lum. Shu bois mulla bir tom ostida Ahmadshohga nisbatan paydo bo'lgan ikki fikrning bittasi mutlaq noto'g'ri ekaniga (Maxtumquli Ahmadshohga yaxshilik chiqishiga umid ko'zini tikkan, otasi esa, buni xuddi ho'kizdan sut kutish bilan teng deb bilardi) amin edi. Shuningdek, u o'g'lining umidlari puchga chiqishidan qo'rqardi. Ana shunda Maxtumquli qay ahvolga tushishi, qanday yo'l tutishini bilolmasdi, xolos.

Hozircha esa hamma fikrida qolgani ma'qul. Shuningdek, Davlatmammad afg'onlar bilan muzokaralar yovmutlar va go'klanglarning boshini qovushtirishiga yo'l ochishidan umidvor edi. Bu qabilalarning ushbu hodisalarga xavotir bilan qaragani, shu boisdan qabila boshliqlarining o'z mushohadalarini sir saqlashgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

1752-yil Ahmadshoh Nishopurni qamal qilibdi, degan xabar yetib kelganida, unga umid ko'zini tikib turgan turkmanlar juda-juda quvonishdi. "Nihoyat, Eronning tanobini tortadigan shoh topildi, Ahmadshoh endi bu o'lkaning kulini ko'kka sovuradi!".

Ahmadshoh o'z davlatini qurgan onlardan boshlab, u haqda atrof-javonibga turli ovozalar tarala boshlagandi. Uni boy-u faqirni teng ko'zda ko'radigan, adolatli, oliyjanob, kuch-quvvat va jang-jadalda tengi yo'q tojdor sifatida tilga olishardi. Qolaversa, Nodirshoh Hindistondan olib kelgan, Boburiylarga tegishli bo'lgan "Tovus taxt" hamda "Ko'hi nur" olmoslari ham Ahmad-

shoh Durroniyning qo'liga o'tgandi. Esingizda bo'lsa, Nodirshohning o'limidan so'ng uning ayollari bu qimmatbaho toshlarni Ahmadshohga hadya qilishgandi. O'sha paytlarda "Ko'hi nur" va "Tovus taxt" olmoslari kimda bo'lsa, g'alaba va omad ham u tomonda bo'ladi, degan aqida keng yoyilgandi. Hamma davrda bo'lganidek, bu paytlarda ham odamlar orasida yoyilgan ovozalar juda katta ahamiyat kasb etardi. Ovozalar borgan sari kengroq, yirikroq mavqe kasb etib borar, bu esa Ahmadshohning obro'-e'tiborining yanada yuksalishiga xizmat qilardi.

Nishopurning qamal qilingani haqidagi maktub turkmanlarga yetib kelgani haqida aniq ma'lumotlar bo'lmasa-da, go'klanglar ham, yovmutlar ham Ahmadshohning bu yurishiga befarq bo'lishmagan. Bu yuirshda turkmanlar qahramonlarcha jasorat ko'rsatishmagan bo'lishsa-da, har qalay chetda tomoshabin bo'lib turishmagan.

Ammo Nishopur bu safar Ahmadshohga taslim bo'lmadi. Shohning Eron tarafga qilgan bir qancha yurishlari ham kutilgan samarani bermasdi. Nodirshoh davrida Eron juda og'ir vaziyatga tushib qolgandi. Faqir fuqaroning ham yelkasidan o'pkasi ko'rinib qolgan, bosib borgan bilan tayinli o'ljani qo'lga kiritolmasligini Ahmadshoh yaxshi bilardi.

Biroq "Ahmadshoh Nishopurni olmay qaytibdi" degan gap-so'z ham uning obro'yiga soya solishi mumkin edi. Afg'on davlatining g'arbiy chegaralarini kengaytirish va xavfsizligini ta'minlash maqsadida Ahmadshoh 1753-yilda Nishopur va Mashhadga qaytadan qo'shin tortadi. Shu fursatdan foydalangan holda u go'klanglarga ikkita xat yuboradi. Bu xatlar bugungi kunda ham juda katta tarixiy ahamiyat kasb etib kelayotir. Mazkur xatlarning birinchisi hijriy 1167-yil zulhijja oyining 16-sida (milodiy 1754-yil 6-avgust) yozilgan bo'lsa, ikkinchisi hijriy 1168-yil jumodil avval oyining 14-kuni (milodiy 1755-yil 28-mart) sanasi bilan bitilgan.

Bu xatlarda Ahmadshoh turkmanlarning sunniylik oqimiga e'tiqod qilishidan ustalik bilan foydalangani ko'rinadi. Ahmadshoh Nishopurga, Mashhadga qo'shin tortgani haqidagi xabarni eshitib, shuningdek, uning qabiladoshlariga yo'llagan ikkita maktubini o'qib, Maxtumqulining ko'ngli tog'dek ko'tarildi. Beixtiyor qasidasidagi bir misrani shivirladi:

Amringga mute et Eron zaminni!

Mana, uning shu istagi ham ro'yobga chiqayotir. Biroq bu istak qanday harakatlar va qurbonlar evaziga yuzaga chiqqanidan uning xabari yo'q edi. U g'alabaning faqat zohiriy ko'rinishiga boqa olardi. U Ahmadshohning nayranglaridan, o'yinlaridan ogoh emasdi. Uning siyosiy tajribasi va ko'nikmasi ham juda oz edi. Ana shu havoiy xayollar uni yanada ko'tarinki ruhdagi baytlar bitishga undardi.

Mengliga uylanganidan so'ng Maxtumqulining qalbida bir muncha so'ngan siyosat ishtiyoqi qayta jonlandi.

O'z xalqining taqdiri yana uning qalbiga o't yoqqandi. U tezroq Ahmadshohning butun Eronni qo'lga kiritishini, qizilboshlarni yer tishlatishini istar, o'z xalqining, hamyurtlarining ko'ksiga tezroq shamol tegishini orzu qilardi.

Ana shu tuyg'ular ta'sirida uning "Go'klang", "Oldi-orti bilinmas" singari she'rlari dunyoga keldi. "Bizning fikrimizcha, Maxtumquli birinchi she'rini qabiladoshlari — go'klanglar qo'shin to'plab yo'lga tushgan paytda, ikkinchisini esa yovmutlar bilan birlashib, harakatni davom ettirayotgan fursatda yozgan bo'lishi mumkin" (A.Bekmurodov, "Maxtumquli va Ahmadshoh Durroniy". "Sovet adabiyoti" jurnali, 1988-yil. 11-soni)

"Go'klang" she'rida:

Buyuk dargohga yuz surtib,
Ishlaring, davlating ortib,
Firog'iy der, qo'shin tortib,
Borarsan Tehrona, go'klang!

— satrlari bor. Maxtumquli bu yurishda turkmanlarni birlashtirish bilan birga Eronni bo'ysundirish istagi ham borligini yashirmaydi.

Biroq qismat charxpalagi o'z o'qi atrofida aylanardi. Taqdir uning qalbida jo'sh urayotgan istaklar bilan hisoblashadimi-yo'qmi, buni vaqt ko'rsatadi.

Xuroson yurishi uzoqqa cho'zilsa-da, nihoyat g'alaba bilan yakun topdi. Albatta, bu jangda qancha turkman qatnashgani, ularning qanchasi ana shu jangda o'z jonidan kechgani haqida aniq

ma'lumotlar yo'q. Biroq shunisi aniqki, bu g'alaba turkmanlar uchun qimmatga tushdi.

Maxtumqulining "Oliy sizniki" she'ri uning o'sha paytdagi holatini yaxshi tasvirlab beradi:

Forsga tekkan davlat Sizga o'grildi,
Endi bu dunyoning mayli sizniki!

Xuroson bo'yin egdi. Keyin nima bo'ldi? Keyingi odim qay tomon tashlanadi? Turkmanlar bu fidoyiliklari uchun qanday naf ko'rdilar?

Ahmadshoh nima qildi? U nima qilishni yaxshi bilardi. U Nodirshohning ko'zi o'yilgan nevarasi Shohruxni (u 1748-yildan beri Mashhadning hokimi edi) yana avvalgi o'rniga o'tqazib, qo'shini bilan ortiga qaytdi. Uning endigi maqsadi Afg'onistonning yaxlitligini ta'minlash va Hindistonga bosqin uyushtirish edi. Qayerga bormasin, nima qilmasin, Ahmadshohning bir ko'zi har doim Hindiston tomonda edi. Ahmadshoh Durroniyning Nodirshoh davridagi yurishlarini hisobga olmaganda, u Hindistonga uch karra — 1748, 1750, 1752-yillarda yurish qilgan.

Turkmanlarning taqdiri esa yana muallaq bo'lib qoldi. Harqalay Eron yurishidan ular ancha-muncha yo'qotishlar bilan o'z yurtlariga bo'shashib qaytib borishdi. Maxtumquli va uning ikki akasi — Abdulla bilan Muhammadsafo bu yurishda qatnashganlari haqida ham aniq ma'lumotlar uchramaydi. Biroq bu yurishda Chovdur ishtirok etganiga shubha yo'q. Chunki yerga ursa ko'kka sapchidiygan abjir yigitning bu yurishdan chetda qolganiga ishonish qiyin. Xuroson yurishi uni sinovdan kechirgan ilk yurish bo'ldi. Chunki mardona jang mard yigit uchun eng katta saboq, eng ishonchli tajribadir.

Har bir voqeani sinchkovlik bilan kuzatib borayotgan, hassos qalb egasi bo'lgan Maxtumqulining, vaqt o'tishi bilan bezovtaligi ortib bordi. Shu bilan birga qalbining tub-tubida bir tugun paydo bo'ldi. U otasining ko'zlariga boqqan payti yurakdagi mung yana ortgandek bo'lardi. Mullaning ko'zlarida har doim shu fikrni o'qirdi:

Orzulama xonni, bekni, sultonni...

Ota esa o'z xalqi va farzandlari tushgan tushunarsiz vaziyat uchun o'zini aybdor his qilar, ularga hech qanday yordam berolmasligini o'ylab o'kinardi.

"Taqdirimiz shu ekan-da!".

Ha, uning taqdirga tan berishdan boshqa chorasi qolmagandi.

Maxtumquli esa hamon Ahmadshohga ishonardi. Bu ishonch boshqalarnikiga qaraganda ham ancha kuchli edi. U Ahmadshohni oddiy fuqaro emas, hissiyotlarga boy shoir nigohi bilan ko'rardi.

Biroq voqealar rivojini kuzatish asnosida uning ham qalbida bir shubha uyg'ondi: Ahmadshoh butun turkmanlarni aldab yurgan bo'lsa-chi? Shu fikr miyasiga urilishi bilan ko'z oldi qorong'ilashib, quloqlari ostida muttasil chinqiriq turdi. O'zining yorqin kelajak haqidagi tasavvurlari bir zum yo'qqa chiqqandek bo'ldi. Beixtiyor Ahmadshohga bag'ishlab bitgan satrlarini esladi.

"Yo'g'-e, Ahmadshoh unchalikka bormas? Yana kim bilsin: odam olasi ichida!"

Maxtumquli ana shunday qarama-qarshi fikrlar iskanjasida qolgandi. Qolaversa, bu oshni uning o'zi pishirgan. Endi aylanib ham, o'rgilib ham ichishga majbur. Otasiga ham dardini aytolmaydi. Chunki bir paytlar shoh huzuriga ketishiga mulla Davlatmammadning o'zi qarshi turgandi.

Mengliga ham ko'nglini yora olmaydi. Aslida-ku, Mengli ham yosh bo'lishiga qaramay, farosatli, mulahazali ayol. Shu bois, Maxtumquli u bilan ko'p sirlashardi. Ammo bu masalada gap ochib, ayolining tiniq fikrlarini loyqalatishni istamadi....

Muhammadsafo bilan Abdulla juda sodda, jaydari yigitlar edi. Ular allaqachon taqdirga tan berib, peshonamizga tushganini ko'ramiz, deb o'tirishibdi. Chovdur-chi? U shamshiriga ishonadi. "Turkman har doim jang-jadal bilan yashagan, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi", deb turaveradi. Bundan boshqasini xayoliga ham keltirmaydi. "Kim kuchli bo'lsa, haqiqat ham u tomonda". Chovdurning falsafasi shu edi.

"O'lim peshonasida nashtar tirab turganini xayoliga ham keltirmayapti, shekilli, — o'ylardi Maxtumquli. — Yoki joni ko'ziga shirin ko'rinmasmikin?"

Mardlik, jasurlik Maxtumqulida ham bor, lekin bu xislati hali sinovdan o'tmagan. Men botirman, men dovyurakman, degan gapni hamma aytishi mumkin. Ammo so'nggi va haqqoniy bahoni taqdirning o'zi, hayot sinovlari ochiq-oydin ko'rsatishi mumkin. Biroq turli to'qnashuvlar va olishuvlarda chiniqqan, Mashhad yurishida pishgan Chovdur oldida Maxtumqulining tajribasi yo'q darajada edi. Maxtumquli Ahmadshohning shoir yuragi ikkiyuzlamachilikka moyil bo'lishiga ishongisi kelmay turganda, Chovdur aniq qarorga kelib bo'lgandi. "Shoh taxtida o'tirarkan, undan to'laqonli shoir chiqmaydi", degan andishada yurgan Chovdur haq edi. Amal, mansab shoirning azaliy g'animi. Har qancha iqtidorli, nozikta'b, ziyrak bo'lmasin, amaldor shoir birda bo'lmasa birda amalparastlik chohiga tushadi va she'riyatdan chalg'iydi. Bu ko'hna va o'zgarmas haqiqat. Bu haqiqatni Maxtumquli ham bilar, Ahmadshoh bilan uchrashganidan so'ng, ishonchi bir muncha ortgandi. Shu tariqa, ertami-kechmi Ahmadshoh Eronga yurish qilar, degan umid uning xayolidan ketmasdi. Yaxshilikka tashna, xush-xabarga intiq bo'lib turgan xalqning asosiy qismi ana shu umid bilan yashardi.

Maxtumquli o'sha kunlari zargarlik bilan ham mashg'ul edi. Maxtumquli o'z qo'li bilan yasagan va yori Mengliga sovg'a qilgan uzuk ayni paytda muzeyda saqlanadi.

Biroq, Maxtumqulini mudom zargarlik bilan shug'ullanishga imkoni yo'q edi. Eronliklar Mashhad, Nishopur urushlarida ishtiroki uchun turkmanlardan, xususan, go'klang qabilasidan o'ch ola boshladi. Ular go'klanglarning Ahmadshoh huzuriga borganidan, ularga kim boshchilik qilganiga qadar yetarli ma'lumotlar to'plashgan edi.

Buning ustiga Maxtumqulining Ahmadshohga bag'ishlangan "Arshi a'loga", "Sizningdir" singari she'rlari dushman qo'liga tushib qolgan. Shundan so'ng ular mulla Davlatmammadning oilasini ipidan ignasiga o'rgana boshlashdi. Bu borada ovul ichidan ayg'oqchilar ham belgilashdi. Uning she'rlarida ham ana shu holatga ishora bor.

Shu tariqa bu oila, xususan, Menglining boshi ustiga ham qora bulutlar to'plandi. Buni hammadan avval Maxtumquli angladi.

Bu xiyonat qanday yuzaga chiqqanini ayni damda aniqlamoq qiyin. Ammo Maxtumqulining quyidagi satrlari uning jonidan o'tib ketganidan keyin yozilgani aniq:

Kim ko'rar bo'lsa xaridor o'ldi, ham shoh, ham gado,
Mard-u nomard hamda nokas so'z otibdur yorima.

Yoki:

Qo'ymaram aslo tirik, kim tegsa nomus orima.

Qizilboshlar nihoyat qabilaga yetib kelib, qirg'inni boshlashdi. Qo'lga tushgan turkman xotin-qizlarini cho'ri, yigitlarini qul qilib, tog'dan oshirib ketishdi. Turkmanlar ham qarab o'tirishmadi. Ular javob hujumiga hozirlik ko'rishdi. Keyin qizilboshlar yurtiga borib, ular ham bir qancha asirlar bilan qaytib ketishdi. Turkmanlar azaldan o'z uylarida qul yoki cho'ri saqlashga ishqiboz bo'lishmagan. Shu bois, asirlarni Buxoro, Xiva va Hirotning qul bozorlariga olib borishgan. Shu tariqa bir-birini mahv etish, o'ch olishning o'ta keskin, shafqatsiz usullari yoyildi. Ana shunday bir vaziyatda Maxtumquli uchun o'z oilasi, yaqinlarining xavfsizligini asrash u qadar oson bo'lmaganini tasavvur etish qiyinmas. Har soniyada o'lim xavfi dahshat solib turgan bir paytda...

Go'klang va yovmutlarning ittifoq tuzishi ham qizilboshlarning qonini yanada qaynatib yuborgandi. Ular yana turkmanning bu ikki qabilasi orasida nizo urug'ini sochishdi. Yana ikki qabila yer uchun, suv uchun bir-biriga tish qayrashga tushdi.

Boshqalar qatori Maxtumqulilar oilasi ham turli xavf-xatarga hozir turmoq uchun bir ko'zlarini ochiq qoldirib uxlaydigan bo'lishdi.

"Hamma balo Maxtumqulining qabilaning eng suluv qiziga uylanishida! Bu kelin emas, jonga ofat!" Odamlar orasida bu taxlit gap-so'zlar tarqalganiga ancha bo'lgan. Chin, Menglining go'zalligi tillarda doston edi. Buyuk Sharq donishmandi Unsurul-maoliy Kaykovus "Qobusnoma"sida aytilganidek, "Haddin ziyod xushro'y ayolg'a uylanmag'il...!".

Lekin ko‘ngilga buyruq berib bo‘lmaydi. Menglining go‘zalligini butun el-yurt tan olib turganida, u Maxtumqulining ko‘zlariga qanday ko‘ringanini tasavvur etish qiyinmas. Voqealar qizg‘in tus olarkan, kunlarning birida taqdir Maxtumqulini g‘aflat qoldirdi-da, Menglini uning qo‘lidan yulib ketdi. Menglini u qay yo‘l bilan yo‘qotgani noma’lum bo‘lsa-da, uning nom-nishonsiz g‘oyib bo‘lgani ayni haqiqat.

Maxtumqulining boshiga ilk baxtsizlik tushdi. Bu mulla Davlatmammadning oilasi boshiga tushajak noxush kunlarning ibtidosi edi. So‘rab-surishtirishlar natija bermadi. Ko‘rdim-bildim deganlar ham tog‘ning orqasini, Eron taraflarni ko‘rsatishardi.

Ko‘zi yoshli Mengli xonim
Yuragim ichra nor qildi.

Yoki:

Qo‘ldan olding qarorimni,
Kelib sen nogahon firoq,
Opketding Mengli yorimni,
Qo‘yib jonga armon firoq...

Menglini o‘g‘irlab ketilishi haqida Maxtumquliga Zubayda aytgan bo‘lishi yoki teskarisi bo‘lishi mumkin. Chunki u ana shunday alamli damlarda singlisi Zubaydaga ko‘p bora yuzlangan:

Zubayda, nochorim tingla, qalbimda armonim qoldi,
Zubaydam, ko‘zlaring yoshla, xaridsiz do‘konim qoldi.

O‘sha paytlardagi turkmanlar an’analariga ko‘ra, qay yo‘l bilan bo‘lmasin, ayolini qo‘ldan berish, uni dushmanga oldirib qo‘yish erkak uchun nomus hisoblangan, el ichida uning tilini qisqa qilgan, mardonavor sifatlarini gumon ostida qoldirgan. Shunday bo‘lsa-da, Maxtumquli bu ayriliq haqida qayta-qayta eslaydi:

Tuprog‘i bor zarga tengli,
Zilol suvli, ko‘k o‘langli,

Eli go'klang, oti Mengli,
Nozli diydordan ayrildim.

Menglisiz qolgan kunlarda boshdan kechirgan uqubatlar shoir satrlarida yaqqol o'z aksini topgan. Uning Mengliga bo'lgan muhabbati har qanday dalli-devona oshiqning sevgisidan, hatto asrlar bo'yi tildan tilga o'tib kelayotgan ishq qissalari qahramonlarining his-tuyg'ularidan ham yuksak ekaniga, shubhasiz, ishonsa bo'ladi.

Uning mahbubasidan ayru yashashi azobning o'zi. Undan xat-xabar yo'q. U goh tushida, goh o'ngida Mengli bilan g'oyibona sirlashadi:

Qaysi kun sen o'tga solding men farog'at bandani.

Yoki:

Sen g'aribsen, men faqirmen, senda-menda chora yo'q,
Sevgilim, taqdiri haqdir ayirgan sendin meni.

Yoki:

Asrasin tangrim panohida yomon ko'zdan seni.

Goho Menglining daragi chiqmagani uchun shoir uning o'zini aybdordek ko'radi. Ming xil shubha-gumonlar ichida qolgan shoir ba'zan ma'shuqasining o'zini bevafolikda, aldamchilikda ayblaydi:

Aytadur Maxtumquli, ahding yolon, yo'qdur vafong,
Bevafolar xo'p sovutmishlar axir bizdan seni.

Ammo Maxtumquli har qancha jabr-u jafoga loyiq ko'rilgan esa-da, uning yordan ko'ngli sovumaydi. Yana Menglini qo'msaydi, unga intiladi, yurakdan yolvoradi:

Jon tug'yona keldi, yondim, yorildim,
Bag'ishlasang naylar yorim, yo Alloh,
O'ylamay sevishdim, ko'rmay ayrildim,
Bag'ishlasang naylar, yorim, yo Alloh.

Maxtumquli Menglidan ayrilganida yigirma yoshda edi:

Yigirma yosh ketdi mandan,
Haz etmadim dunyo sandan.

Yoki:

Yigirmaga yetganda, falak jabrini ko'rdim,
Falak oldi yorimni ajal g'amxona keldim.

Biz Maxtumqulining 18-20 yoshlar oralig'ida Mengli bilan birga hayot kechirgan degan fikrga shubhasiz ishonamiz. Mavjud rivoyatlar, turli odamlar bergan ma'lumotlarni Maxtumqulining she'rlaridan ham ishonchliroq deb bo'lmaydi.

She'rlarni bir tarafga surib turganda ham, Maxtumquli haqimdagi fikrlarni o'n sakkizinchi asr hayot tarziga solishtirib ko'rilsa, ko'p narsa oydinlashadi.

"Maxtumquli sevgan qizni unga berishmagan, boshqa odamga uzatishgan" degan fikrni olib ko'raylik. Shunday bo'lgan ham deylik. Nahotki, Maxtumquli armonga aylangan muhabbatni el-yurtga ovoza qilib yurgan bo'lsa? Bu turkman an'analariga, umuman, yotku? Qolaversa, birovning hasmiga aylangan ayol haqida bunday o'tli, armonli baytlar bitish Maxtumqulidek oliyjanob, qalbi daryo shoirning sha'niga to'g'ri keladimi? Uning she'rlari o'z davrida qanchalik shuhrat topganini hisobga olsak, Menglining oilasi allaqachon buzilib ketishi tayin edi. Yana o'n sakkizinchi asrda bu taxlit harakatlar qonli yakun topishi ham ravshan edi.

U davrlarda sevgi pinhoniy tushuncha edi. Marhum adabiyotshunos Saylov Murodovning "Asrlarning junbishi" nomli kitobida Maxtumquli-Mengli munosabatlarini keng tahlil qiladi va ishonarli dalillar keltiradi.

Maxtumqulining Mengli bilan birga yashaganiga shu kitobning so'nggi sahifalarini o'qigan o'quvchi amin bo'ladi. Bunga shoirning yigirma yoshli paytida bitgan sherlari yorqin dalil bo'la oladi.

Menglining o‘g‘irlab ketilishi va Maxtumqulining hayotdan ko‘ngli sovub ketishi tug‘ishganlari Muhammadsafo, Abdulla va Zubaydani, shuningdek, boshqalarni ham g‘amga botiradi. Mulla Davlatmammad uchun esa, bu juda katta zarba bo‘ldi. U o‘g‘lining Menglini qo‘msab bitgan she’rlarini o‘qiganida yuragi suv bo‘lib oqar, ko‘z yoshlarini tiyolmay qolardi. Biroq Tangri bitgan qismatga chora yo‘qligini yaxshi bilardi. Hamisha Yaratgandan o‘g‘liga taskin, qolganlarga insof, yomonlarga esa jazo so‘rardi. Mushkullarni oson bo‘lishi uchun xayr-sadaqalar berardi. Ammo bu bilan dardlar yengillashib qolmadi.

Menglining daragi chiqmadi. Maxtumquli esa adoyi tamom bo‘lgandi. Ayni shu damlarda Ahmadshoh haqidagi xomxayollarning ham tubi ko‘rinib qolgandi. Qizilboshlar esa qasos olishga chandon kirishgandilar, ulardagi qo‘rquv, chekinish tamomila yo‘qolgandi. Bir yerdan madad yetib kelmasa, qabilalar birikmasalar, qabila ahli uchun bu hududni tashlab qochishdan boshqa chora qolmagandi.

Ahmadshohdan ko‘pgina turkmanlar allaqachon umidsiz bo‘lishgandi. Mullaning avvalgiday ilhomga to‘lib-toshgan damlari ham ortda qolgandi. U o‘z o‘g‘liga atalgan kitobini ham tugatib, hadya qilolmadi. Chala qolgan qo‘lyozma shu holicha sandiqqa solindi. Qo‘lga qalam olishga hafsala qolmagandi. Hammaning ko‘zi Maxtumqulida edi. Nomusga chidolmay, g‘azabini bosolmay o‘zini bir nima qilib qo‘ymasin, yoki yurtdan boshini olib ketmasin, deya erta-yu kech undan ko‘z quloq edilar.

Hamon kelgan-ketgan odamlardan Menglini so‘rashar, ammo undan nom-nishon ko‘rinmasdi. Maxtumqulining esa bu dunyodan umidi kesilgandi, xuddi quruq ko‘lankaga aylanib qolgandek edi. Yuragida lovullab turgan hayot ishqi so‘ngan, bahordek borlig‘iga kirib kelgan yigitlik tafti ham o‘chgandi.

Agar u Menglining jon berganini bilsa, hoziroq bu dunyodan ketishga tayyor turardi. Uni bu hayotga sevar yorining tirikligi haqidagi mavhum ilinj bog‘lab turardi.

Yuragi qayg‘uga limmo-lim to‘lgan damlarda alamini qalam va qog‘ozdan olar, dard-u hasratlari she’r bo‘lib quyulardi. Atrofdagi hamma narsa, yori yurgan yo‘llar, uning zarrin libos-

lari, harir ro'moli, kumush taqinchoqlari, barcha-barchasi yuragiga tig' bo'lib botardi. Gohida qulog'i ostida Menglining ehtirosli pichirlashlari eshitilgandek bo'lardi.

Shundan keyin yurak toqat qila oladimi? Yaxshiyam she'r bor, qalam va qog'oz bor. Ular shoirning dardini oz bo'lsa-da yengillatadi:

Na ish qilsam xabar topgum, qaroko'z, Mengli yorimdan.

Yoki:

Yonar o'tda Maxtumquli, o'tdan libos kiymish bukun,
Foniy jahonga o't ketar, ko'ngildan yongan noringdan.

Yoki:

Andalibdan ayrilan shul baxti qora qul manam.

Yoki:

Maxtumquli bo'lding xarob,
Izlab topmay yoring so'rab,
O'ltirishing yo'lga qarab,
Yo'l topmagan ko'rga mengzar.

Menglidan ayrilgan dastlabki yilda Maxtumquli yozgan she'rlar bizga yetib kelganidan ham ko'proq bo'lishi mumkin. Chunki bu kuchli sog'inch, iztirob, g'am-g'ussa toshib, she'rlarga ko'chmasligi mumkin emasdi. Balki hozirgacha topilmagan she'rlarda Mengli bilan bog'liq qiziq ma'lumotlar bo'lgandir?

* * *

Nima qilmoq kerak?

Har qalay bir chora topish lozim. Aks holda go'klang qabilasi tag-tugi bilan qirilib, yo'qolib ketishi ham mumkin.

Ana shunday murakkab bir vaziyatda bizga ma'lum bo'lmagan bir sharoitda, Maxtumqulining ikki akasi Abdulla va Muhammad-

safo unga ko'mak berish uchun qayoqqadir yo'l olishadi. Ular ne maqsad bilan safarga chiqqanlari Maxtumqulining bizgacha yetib kelgan ikki she'rida to'la-to'kis ochib berilmagan:

Duch keldim bir do'lga, yo'liqdi bo'ron,
Birin yurti bilan ayladi vayron,
Birisining yori izindan hayron,
Ko'zlari yo'ldadur, bular kelmadi.

Agar haqiqatga eltuvchi yo'llardan biri taxmindan boshlanishini e'tirof etsak, shu taxminlarimizni keltirib o'tsak.

Maxtumqulishunoslarning bir qismi Abdulla bilan Muhammadsafo Ahmadshohdan xabar olmoq uchun Afg'onistonga ketishgan, degan taxminni ilgari suradilar. Chunki u qizilboshlarga qarshi kurashda turkmanlarga tirgak bo'lishga va'da bergandi. Ana shu safar paytida aka-uka bedarak ketishgan. Chunki bu paytda Afg'onistonga boradigan yo'llarning bari qizilboshlar tasarrufi ostida edi. Bundan chiqdi, ular qizilboshlarning qo'liga tushgan. Mumkin.

Ikkinchi taxmin. Aka-uka hojilik umidida Ka'ba ziyoratiga otlanishgan. Yo'lda qanday hodisa ro'y bergan bo'lsa-da, ular ana shu muqaddas ziyorat yo'lida qurbon bo'lishgan. Chunki Ka'baga eltuvchi yo'llar u paytlar juda olis va xatarli edi. Ziyoratchilarning aksariyati ana shu yo'lda turli sabablarga ko'ra vafot etishardi. Buni ham inkor etib bo'lmaydi. Yana o'sha she'rdan:

Ko'ch-ko'roni bilan ketdi Abdulla,
Hamma ketgan keldi, bular kelmadi,
Mammadsafo ketdi ko'mak bermakka,
Kuzatganlar keldi, bular kelmadi.

Ko'rinib turibdiki, ularning har ikkisi bir paytda ketmagan. Abdullaga akasining qanday yordami kerak bo'lgani ham bizga qorong'i.

Biz yuqoridagi taxminlarni inkor etmagan holda yana bir farazni ilgari surmoqchimiz. Bizning fikrimizcha, Abdulla bilan Muhammadsafo Kaspiy dengizi osha yo ozarbayjonlar, yo Astra-

xan turkmanlari orqali rus davlati bilan muzokara qilish uchun biror guruh tarkibida ketgan bo'lishlari ham mumkin.

Yo cho'kib ketdingmi tubsiz ummona.

Yoki:

Kechar bo'lsang ul ummondan,
Hamroh bo'lsin Nuhi nabiy,

— singari misralar shundan dalolat beradi. Shoir hatto Nuh payg'ambarga ham yuzlanyapti. Bu bejiz emas. Axir Nuh (a.s.) qissasi bevosita dengiz, suv bilan bog'liq ekanini yaxshi bilamiz.

Qolaversa, bu safar o'ta maxfiy bo'lganini ham payqash mumkin. Ushbu she'rlarda ham Maxtumquli atayin ko'p narsalarni berkitgan ko'rinadi. Afg'oniston safaridan ko'rilgan jabr-jafolar ularga yetarlicha saboq bo'lgandi.

Albatta, bu safarga ham mulla Davlatmammad ro'yxushlik bermagan, ammo el-yurtning ra'yiga qarshi borolmagan ko'rinadi. Har nima bo'lgan taqdirda ham, bu mavhum safarga otlangan akauka o'z eliga qaytib kelmagan:

Oylar, yillar kechdi, bular kelmadi....

Kelinning g'amida ancha cho'kib qolgan mulla Davlatmammad ikki o'g'li, oilasining ikki ustuni nom-nishonsiz ketgach, tamoman munkillab qolgandi.

Dunyo uning ko'zlariga qorong'i ko'rindi, uydagi ayollarning oh-fig'oni falakka o'rladi. Mengli, Abdulla va Muhammadsafoning daragini keltiradigan odam bo'lmadi. Buning ustiga atrof-javonibdan har kuni turfa xil yoqimsiz xabarlar kelib turardi.

Ertagi yorug' kundan umid qolmagandi. Hammasini ichiga yutib, sir boy bermay yurgan Maxtumqulining holatini esa tasavvur qilavering. Garchi u boshqalar singari Allohga ishonsa-da, taqdirga tan berish istagi yo'q edi. Yuragining ich-ichidan taqdirning nohaq hukmlariga qarshi isyon hissini tuyardi.

Suyukli yorining firog'iga arang chidab yurgan Maxtumquli uchun ikki akasidan ayrilish dard ustiga chiqqan chipqon bo'ldi.

Uning endi bir paytlar orzu qilgan Ajab ayyom haqidagi tasavvurlari yo'qqa chiqqandi. Bu g'am, bu hasrat, bu ayriliq uni yanada kamolotga chorlar, turkman xalqining taqdiri, umuman, insoniyat istiqboli haqida o'ylashga majbur etardi.

U dunyoga tepadan nazar tashlash uchun arshga qadar yuksalgan riyozat zinapoyalaridan ko'tarila boshladi. Bu zinalarning har biri intihosiz fikrlar, qalin-qalin kitoblar, otasining munavvar suhbatlaridan iborat edi.

Dunyoga ibrat nazari bilan boqishga undovchi she'rlar ham ana shu paytlarda yaralgan. Ammo ayni damda dunyo tashvishlari bilan bosh og'ritishga imkon yo'q edi. Kundan kun ortib borayotgan ayriliq azobi uni holdan toydirardi. Bir ko'zi bilan Menglini kutsa, ikkinchi ko'zi akalarining yo'liga nigoron edi. Hatto uxlaganda ham bir ko'zi ochiq yotardi. O'tayotgan har bir kun Maxtumqulini o'z qondoshlaridan, sevimli yoridan uzoqlashtirardi.

Maxtumquli, dardi qo'ymas yotmoqqa,
Yo'l topmasman, so'rab-so'rab ketmoqqa,
Yerdan javob chiqmas xabar tutmoqqa,
Ko'rgan-bilgan bormi, bular kelmadi.

Menglining sog'inchi ham uning satrlariga ko'z-yosh bilan singigan edi:

Qo'rqaman, yor bizni chiqarsa yoddan,
O'zga yerda maskan tutib, yurt olsa...

Yoki:

Gul yuzina parvonaman, g'ayri rayhon istamam.

Maxtumqulining o'sha vaziyatdagi yolg'izligi, boshiga tushgan hasratlarini faqat do'sti Chovdurxon va otasi mulla Davlatmammad teran his eta olardi. Faqat ulargina shoirning dardmand qalbiga malham bo'la olishardi.

Chovdur ham gohida turli safarlar, jang-u jadallarga yo'l olar, oylab ko'rinmay ketar, keyin do'stining yoniga kelib, ko'rgan ke-

chirganlarini jo'shib hikoya qilardi. Maxtumquli uning hamma gaplarini tinglab o'tirar, ammo bir og'iz ham gapirmasdi.

Chunki u bu kabi yurishlar, harbiy harakatlardan allaqachon umid uzgandi.

U ana shu noxushliklarning tub mohiyatiga yetib borishni istardi. Mengli hozir qayerda ekan? Kimning qo'lida, qanday yashayapti ekan? Nahotki uni cho'ri qilib sotib yuborishdi? Hozir ahvoli nechuk? Agar tinch, omon bo'lsa, Maxtumqulini ham esga olarmikin? Yo allaqachon o'zga bir kishining yoriga aylandimikin? Balki bir nokasning qo'lida nomusi toptalib, o'z joniga qasd qildimi? Nahot endi diydor qiyomatga qoldi?

Ana shu savollar lashkar tortib, Maxtumquliga bir lahza bo'lsin omonlik bermasdi. Bu javobsiz savollar ta'qibidan qutuldim deganida, boshqa tarafdan akalarining g'am-hasrat qo'shini hujum qilib qoladi: Abdulla va Muhammadsafoga nima bo'ldi? Ular manzilga yeta oldilarmi? Maqsadga-chi? Yo qaroqchilar qo'liga tushib qolishdimi? Balki qul qilib sotishgandir? Jonlari omonmikin? Yo dengizga g'arq bo'lib, baliqlarga yem bo'lishdimi? Agar tirik bo'lishsa, bir iloj qilib vatanga qaytisharmikin? Biror tanish-bilish topib, o'z yaqinlariga mujda yuborisharmikin?

Oilaning boshiga tushgan bu musibatlarni u falakning gardishidan deb bildi. Ha, falakning zulmi haddan oshdi, ammo unga qarshi isyon etmoqdan ne ma'ni?

Sho'rlik otasi ham ko'z o'ngida qartayib, kuch-quvvatdan tolib borayotir. Oldingi barvasta, baquvvat mulla Davlatmammadning ko'lankasi-yu, bir hovuch suyagi qolgandi, xolos. Ko'zlari xiralashib, qaddi dol bo'lib qolibdi. Anchadan beri bolalarga ham saboq bermay qo'ygan. Erta-yu kech Allohga munojot qilib, farzandlarini eson-omon bag'riga qaytishini so'raydi. Faqat goh-gohida yakkam-dukkam she'rlar, baytlar bitishini aytmaganda, qo'liga qalam ham olmay qo'ygan. Sal narsaga ko'ngli buzilib, ko'ziga yosh oladi.

Shundan so'ng butun xonadonning tirikchilik tashvishini Maxtumquli o'z yelkasiga oldi. Kunduzlari ustaxonasida o'tirib, zargarlik qilar, kechalari qoralamalarini oqqa ko'chirib, kitob holiga keltirardi. Avval yozgan she'rlarini ko'zdan kechirar, tahrir qilar, yoqmaganlarini esa yirtib, olovga itqitardi.

Biroq bir lahza bo'lsin yaqinlaridan judolik iztirobi uni tark etmasdi. Vaqt esa o'z oqimida davom etardi.

Gohida Maxtumquli boshi oqqan tomonga ketib qolgisi kelardi. Majnundek sahroga yuz tutgisi, parranda-yu darrandalar bilan hamroh bo'lib, ularga dardini ochgisi kelardi. Mana, Maxtumqulining dardi ko'kka sig'may ketgan paytlari bitilgan misralar:

Sahar turib duo qil, omin desin farishta,
Ne borki g'ofil yotar, behuda o'ltirishda,
Mulki jahon boqiymas, ming aylasang sarishta,
Kiyib abdol jandasin, bo'l devona yurishda,
Yo'qsa qolasan tanho, sargashta-yu gumgashta.

Yoki:

Maxtumquli, Majnun bo'lib, ketsam kerak sahrolara...

Ammo u o'z oilasini, bechora, ko'ngli o'ksik otasini tashlab qayerga ketadi? O'zi-ku xilvatga chekinib, dard-hasratlaridan uzoqlashar, ammo ortda qolganlar-chi? Ular nima qilsin? U har qancha mashaqqat, mushkulot bo'lsa, o'z otasi bilan birga chekishni istadi. Yaqinlariga bo'lgan mehri tarki dunyo etish istagidan ustun keldi. Ertaga nima bo'lishi faqat Yaratganga ayon.

Ana shunday kunlarning birida bu oilaning boshiga yana bir fojia tushadi. Yuqumli kasallik sabablimi, baxtsiz hodisa tufaylimi, qizilboshlarning qonli bosqinlari sababmi, har qalay, Davlatmammad mullaning qizi Xonmengli, kenja o'g'li Jonhasan va kelini Bayram bir kunda vafot etishadi. Bunday fojiani ko'tarish qanchalar azob ekanini o'ylab ko'ring. Bunday baxtsizlikni ko'tarish uchun ozmuncha bardosh kerakmi?

Axir butun boshli oila qirilib ketayozdi-ku? Bunday fojiani mulla Davlatmammad taqdir taqozosiga yo'ydi. "Yo Rabbim, agar gunohim shu qadar ko'p bo'lsa, bolalarimning o'rniga meni olsang bo'lmasmidi?" deya tavallo qildi. Maxtumquli ham bu kutilmagan ayriliq oldida nima deyarini bilmay qolgandi. Xayoliga hatto shakkokona fikrlar kelardi:

"Yo Rabbim, bitta oilaning boshiga shuncha ofat ko'plik qilmasmikin? O'ldirar ekansan, dunyoga keltirib nima qilarding?

O‘zi insonni nima uchun yaratding? Faqat tinimsiz azob-uqubat chekishi uchunmi?”

Keyin esa bu ta’nalari uchun ichida istig‘for aytardi. Dardini do‘sti Chovdurga ochganida, u ham taskin bergan bo‘ldi:

“Yaratganning o‘zi yanada bilguchiroqdir”.

Ana shu kunlarning birida teng-to‘shlari mulla Davlatmammadga maslahat berishdi. “Azani to‘y bilan quvarlar” degan naql bor. Mengli qaytib kelmadi. Kelsa-da, endi u o‘g‘lingning tengi bo‘lolmaydi. Yaxshisi Maxtumqulini uylantir. Shunda bu kunlaring ham unut bo‘lar, inshoolloh!”

Bu maslahat mullaga maqbul ko‘rindi. Ammo bunga o‘g‘lini ko‘ndira olarmikin? Bu juda qiyin masala. Lekin bu ketisha butun bir avlod tag-tugi bilan izsiz yo‘qolib ketmaydimi? Buni Maxtumquli ham tushunishi kerak!

Mulla ikki o‘t ichida qolgandi. U Maxtumqulining Menglining firog‘ida bo‘zlab yozgan she’rlarini ko‘p o‘qigan. Qay til bilan o‘g‘liga bu gapni ayta oladi?

Tek qo‘yib bersa, o‘g‘lining uylanish fikri yo‘q. Mulla esa tezroq nabira ko‘rishni istaydi.

Ana shu fikr miyasida aylanib yurgan kunlarning birida, mulla Davlatmammad o‘g‘lining sal bo‘lsa-da, chiroyi ochilib qolishini kutdi. Shunday vaziyat kelgach, tavakkal qilmoqchi bo‘ldi va o‘g‘lini qoshiga chaqirdi. Bir muddat gapni nimadan boshlashni bilmay turgan mulla nihoyat tilga kirdi:

— Endi shunday yuraverasanmi?

— Nima qilay, ota?

— Umr o‘tib ketyapti. Otangni ham senga bog‘lab bermagan.

— Nafasni issiq qiling, ota!

— O‘lim qosh bilan qovoqning o‘rtasida, bolam. Shu paytgacha uch jon qurbon berdik. Nachora, Yaratganning amri shu. Azani to‘y bilan quvish degan gaplar ham bor.

— To‘yga sabab kerak, ota.

— O‘lganlarni Alloh rahmat qilsin, tiriklar kunini ko‘rishi kerak. Hammasini mendan yaxshi tushunib turibsan. O‘zing bilasan, ketganlar qaytib kelmaydi.

Mulla Davlatmammadning ovozi bo‘g‘ilib, ko‘zlari yoshlandi.. Maxtumquli yuragining g‘amgin zarblariga chidolmay, ko‘ksini

changallagancha o'yga toldi. Uning chap ko'ksi Menglidan so'ng bo'shab, sovub qolgandi. Nahotki, endi u qaytib kelmaydi? Nahot uning o'rnini boshqa birov egallashga qodir?

Endi uning jodu ko'zlarini hech qachon ko'rolmaydimi? Hind-u xolli yuzlariga yuzini bosa olmaydimi?

Parda tortib yuzlarina,
Oro berib yuzlarina,
Maxtumquli, ko'zlarima
O'sha Menglixon ko'runur.

Maxtumqulining dard-alamlari yana o'tli misralarga qo'shilib chiqa boshladi:

Falak. Sening bu davlatli gardishing,
Biz tarafga o'girilib qo'ymasmi?
Loshin yerga solding necha mardonning,
Zamin insof aylamasmi, to'ymasmi?

Maxtumquli shu paytga qadar Menglidan boshqasi bilan yashashi mumkinligini xayoliga ham keltirib ko'rmagandi, shu paytga qadar otasiga tik boqmagan Maxtumquli endi boshini ozod ko'tardi:

— Adabsizligimni kechiring, ota, ko'ngilga buyurib bo'lmas ekan, nima qilay? Tushunaman, yoshim o'tib ketyapti? Mengli topilmasa, toq o'tolmayman. Yana ozroq kutishga izn bering. Agar shunda ham qaytmasa, siz nima desangiz shu bo'ladi.

— Boshimizga shu kunlar bitilgan ekan, o'g'lim. Naslimiz qirilib bitadi bu ketishda. Shuni o'ylab ko'ryapsanmi?

— O'yladim, ota.

— Hammamiz xom sut emgan bandamiz, bolam. Sen ham bo'rkingni yerga qo'yib, yaxshilab o'ylab ko'r. Yana bir maslahat. Bilim olishning erta-kechi yo'q. Niyozquli oxun juda bilimdon, donishmand odam. Shundan borib saboq ol. Bilimingni chuqurlashtir. Ham biroz chalg'iysan, ham ko'ngling ochiladi. Balki o'sha taraflarda peshonangga bitilganini toparsan?

Mulla Davlatmammad o'g'lini jangari yigitlarga qo'shilib yana biror noma'qulchilik qilishidan qo'rqib ana shu taklifni

bergandi. Xalaj atroflari bu paytda qizilboshlar qalamravi ostida bo‘lib, nisbatan tinch va osoyishta edi. Garchi mulla Davlatmammad o‘zi ham ilmli odam bo‘lsa-da, o‘g‘lining o‘zidan-da ma’rifatliroq bo‘lishini istab, ana shu safarga yo‘lladi.

Maxtumquli safar rohilasini rostlab, bir karvonga qo‘shilb yo‘lga tushdi. U ovuldan chiqarkan, bu gal hech kim devor tirqishidan mo‘ralab, ko‘z yosh to‘kib qolmadi. Bir paytlar uni yig‘lab kuzatgan qiz, kim bilsin, hozir dunyoning qay bir go‘shasida umrguzaronlik qilayotgandir? Ehtimol, allaqachon bu telba dunyodan o‘tib ketgandir? Buni Allohdan boshqa birov bilmasdi.

Afg‘on safariga otlangan fursatdagi kuch-g‘ayrat, bir olam orzu-umidlar ham uni allaqachon tark etib ketgandi. Bo‘m-bo‘sh yurak bilan ketib borardi.

Yana qadrdon ovulidan chiqib borarkan, akalari mingan otga mingashib moviy kengliklarga hayrat bilan boqqan damlarini, qoyalar ustiga chiqib pastga tosh dumalatgan paytda gumbirlagan daralar aks sadosini esladi. Menglining muhabbati bilan sarxush yurgan, unga she’rlar bitib, uzun sochlarini ehtiros ila siypalagan onlarni yodga oldi. Qani o‘sha mas’ud damlar? Bari tong chog‘idagi shirin tushdek o‘tmishga aylandi.

Ne zavq-u safolar tiriklik bilan
Bahor bo‘lib kechdi, bizdan tosh qoldi.

Endi uning g‘amli ko‘zlariga armon in qurgandi, mahzun yuragi iztiroblar maskaniga do‘ndi. Mana, jonajon ovuli ham ortda qolayotir. Ammo Mengli bilan, og‘alari bilan bog‘liq ezgin xotiralar hamon yuragini zirqiratib borardi.

Ho‘ngrab, o‘ksib-o‘ksib yig‘lagisi keldi. Ammo hamrohlaridan istihola qildi, yigitlik g‘ururi yo‘l bermadi. Yuragini hovuchlab, ortiga o‘girildi. U baxtni ham, baxtsizlikni ham shu yerda, qadrdon ovulida topgandi. Yana qaytib kelguncha bu ovulning boshiga ne kunlar tusharkin?

Maxtumqulini kuzatish uchun chiqqan Chovdur ham do‘sti bilan xo‘shlashmoq uchun unga qo‘l uzatdi:

— Oy borib, omon qayt, do‘stim. Fe’lingni keng qil. Yigitning boshi tik bo‘lsa, yuzi ham yorug‘ bo‘ladi.

Sahroning salqin shamoli yigitlarning to'ni etaklarini, bo'rkining shokilalalarini, otlarning yolini, dumlarini asabiy tortqilardi.

Maxtumquli shaxt bilan otiga mindi. "Ketdik, yigitlar" deya Jayhunning narigi sohili tomon ot choptirib ketdi.

* * *

Xalajdagi Idris bobo madrasasi u qadar mashhur va yirik bo'lmasa-da mudarris Niyozquli oxunning el orasida o'ziga yetarli obro'-e'tibori, mavqeyi yetarli edi. U davrlarda mudarrisning nafaqat ilmi, odamiyligi, axloqiy jihatlariga ham katta e'tibor berilar edi. Ilmi yetarli bo'lsa-da, axloqida biror qusur sezilgan odamdan yiroqroq yurish maslahat ko'rilgan. Shu bois, mulla Davlatmammad ham o'g'lini bejiz Niyozquli oxunning qoshiga yubormagan edi. Bir paytlar Ozodiy Niyozquli oxun bilan qadrdon, qil o'tmas og'ayni edilar.

Maxtumquli uning qo'lida butun mehri, zehnini berib saboq oldi. Maxtumqulining boshiga tushgan noxushliklardan xabar topgan oxun imkoni boricha unga taskin beradigan suhbatlar o'tkazardi. Hayotning sinovlardan iborat ekani, bu sinovlarga bardosh berib, Yaratganning rizoligini olganlar xayrli oqibat topishini unga ko'p uqtirardi.

O'zaro suhbatlarda Maxtumquli unga Afg'onistonga borib, Ahmadshoh bilan ko'rishgani, uning va'dalariga ishonib, butun qavmi xatoga yo'l qo'ygani haqida ham aytib berdi. Ikki o'rtada ovorayi sarson bo'lib qolgan qabilasini bu ahvoldan qutqarish uchun ustozidan yo'l-yo'riq so'radi. Biroq bu vaziyatdan chiqish uchun Niyozquli oxun ham jo'yali maslahat bermoqdan ojiz edi.

Har qalay bu yerda Maxtumquli biroz halovat topgandek edi. U endi taqdirning turfa o'yinlariga ham tan berib bo'lgandi. Axir bu dunyoning sitamlaridan kuyib-yongan bitta u emas ekan-ku? Shoirning bu davrda, Idris bobo madrasasida, Niyozquli oxunning qo'lida o'qib yurgan paytlari qanday she'rlar yozgani ma'lum emas. Bu yerda qaysi fanlardan saboq olgani ham noma'lumligicha qolmoqda.

Xullas, Idris bobodagi tahsillar tugab, Maxtumquli karvonga qo'shilib, yana ortiga, o'z ovuliga qaytadi. U bilan hamroh

bo'lgan savdogarlar, sayohatchilarning ko'pi shoirga tanish edi. Safar asnosida ular bilan suhbatlashib, ko'rgan-kechirganlarini bo'lishib ketdi.

Ana, nihoyat Maxtumquli do'sti Chovdur bilan xayrlashgan tepalikka ham yetib keldi. Shu yerda bir muddat oyoq ildi. Olisdan ona qishlog'ining tomsuvoq kulbalari oppoq tumanga o'ralib, ko'zga tashlanib turardi. Mana, hatto Menglilarning uyi ham aniq-taniq ko'rinib turibdi. Maxtumquli ich-ichidan xo'rsindi.

Otasining, uyidagilarning ahvoli nechuk ekan-a? Bu orada qizilboshlar ovulga hujum qilishmadimikin? Menglidan, akalaridan biror xabar topildimikin?

Ona tuprog'ining har bir cho'pini ko'ziga to'tiyo etmoqa tayyor turgan Maxtumqulining tezroq uyiga borib, u yerdagi vaziyatni o'z ko'zi bilan ko'rgisi, xavotir bilan urayotgan qalbiga taskin bergisi keldi.

Xayriyat, uydagilarning bari sog'-salomat ekan. Otasi o'g'lining salomat qaytganidan ko'ngli tog'dek ko'tarildi. Ayollarning ham quvonchi cheksiz edi. Maxtumqulining qaytgani butun ovulga yoyildi.

Zubayda ham akasining qaytganini eshitib, ota hovlisiga yugurdi. Akasining yelkasiga boshini qo'yib, entikib-entikib yig'ladi, hatto ularni chetdan kuzatib turgan mulla Davlatmammadning ham ko'ngli buzilib ketdi.

Maxtumqulining ham bo'g'ziga nimadir qadalib qolgandi. Garchi barcha tug'ishganlarini birdek ko'rsa-da, bolalikdan singlisi bilan sirlashib katta bo'lgandi. Akalariga aytolmagan dardlarini Zubayda bilan bo'lishardi.

Mengli ham bir paytlar Zubaydani o'ziga eng yaqin mahram, sirdosh deb bilardi. Gohida yanga-qayinsingil birga o'tirib, kashta tikishardi. Kelinlik sirlarini ham Mengli faqatgina qayinsinglisi bilan baham ko'rardi.

Uning qaytganini eshitgan Chovdur ham qaylardandir yetib keldi. Qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar jamlandi. Hol-ahvol so'rashildi, dasturxon yozildi. Ovqat ustida dunyo voqealari, tevarak atrofdagi hodisalar xususida so'z bordi. Odamlarning Ahmadshoh haqida bilgilari, biror umidbaxsh gap eshitgilari kelardi.

Qizilboshlarning o‘zboshimchaligi, zo‘ravonligi chegara bilmasdi. Fuqaroning hasratidan chang chiqardi.

Maxtumquli ovuldoshlarining gap ohangida “biz ana shu ahvoldamiz, bizga yordam berish qo‘lingdan keladimi?” degan ma’noni uqdi. Ich-ichidan qavmdoshlariga madad berolmayotganini anglab o‘kindi. Axir uning qo‘lidan nima ham kelardi?

Nihoyat, “karvon ko‘rdi”ga kelganlar birin-ketin tarqalib, uyda mulla Davlatmammad, Maxtumquli va Chovdur qoldi. Ota yerga qarab, tasbih o‘girish bilan mashg‘ul bo‘lsa-da, ko‘z ostidan o‘g‘lini kuzatib o‘tirardi. O‘g‘il ham bu qarash zamiridagi “xo‘sh, o‘g‘lim, endi nima qilamiz?” degan savolni uqdi.

Aslida hamma muammo ana shu, nima qilishni bilmaslikda!...

Nihoyat, mulla Chovdurga yuzlandi:

— Chovdur, bolam! Sen o‘rtog‘ingni o‘zing yaxshilab yo‘lga solmasang bo‘lmaydigan ko‘rinadi. Ko‘ryapmiz, zamon yomon, mening ham bir oyog‘im yerda bo‘lsa, bittasi go‘rda...

...Ikki do‘st tashqari chiqqan paytda Maxtumqulining o‘z hujrasi tomon borishga oyog‘i tortmadi. Bu xonaning har bir qarichi, undagi har bir jihoz, hatto devorlariga o‘rnashib qolgan hid ham unga Menglini eslatadi.

Nega u yoqqa kirolmayapti? Sabab? Nahot Menglidan ko‘ngli sovigan bo‘lsa? Nahot uni unutishni istayotgan bo‘lsa? Axir uning uchun Maxtumquli boshini ham berishga tayyor edi-ku? Eng yomoni — Mengli yo‘q. Uni eslashi bilan yuragini g‘am bosadi. Maxtumquli esa ana shu g‘amdan yurak oldirib qo‘ygan.

Chovdur do‘stining ayni damda yuragidan kechayotganlarni to‘la anglab yetolmasdi. Bu dardni faqatgina Maxtumqulining o‘zi his eta olardi.

Shuning uchun o‘rtog‘iga qarata:

— Endi jo‘ra, senam bunaqa yuravermasdan, uylanishning taraddudini ko‘raver, — dedi.

Maxtumquli esa, indamay qo‘ya qoldi. Uning qalbidan shu satrlar o‘tardi:

Jon berib kom ishqina, Majnun bo‘lubon kezaram,
Tan — qog‘oz, ilgim — qalam, har damda vasfing yozaram,

Ko'rmayun qirg'og'ini ishq dengizinda suzaram,
G'ayri bir odil hukmdor, shoh-u sulton istaram.

Maxtumquli otasiga ayta olmagan dil so'zlarini do'stiga ochib-sochdi. Biroq do'sti uni tushunmog'i amrimahol edi.

— Maxtumquli, hayot o'z oqimida davom etaveradi, sen bilan meni ayab o'tirmaydi. Axir nega tushunmaysan? Mengli endi yo'q. Topilib kelsa, u avvalgi Mengli bo'lolmaydi. Buni yaxshi bilasan. Axir u qaytib kelsa, sen yana u bilan avvalgidek yashay olasanmi?

— Menga bunaqa ohangda gapirma, Chovdur!

— Do'st achitib gapirar, deydilar. To'g'risi ham shu. Qachongacha ikki jahon ovorasiga o'xshab yurasan? O'zingni ham, otangni ham bunday qiynab yurma, darrov uylan. Ovulda kimning qizida ko'ngling bo'lsa ayt. O'zimiz uylantirib qo'yamiz. Erkak kishining boshi ikki bo'lmasa, moli ikki bo'lmaydi. Axir sen ham uylanib, bola-chaqa orttirishing kerak-ku? Ertaga qarib-qartaysang, koringga kim yaraydi?

Chovdur gapini tugatmay turib, tog' bag'rida yonayotgan gulxanlarga ko'z tashladi. Tushundi. Qizilboshlar hujumidan ogoh etish uchun tog' tepasiga qo'riqchilar qo'yilgan. Maxtumquli ham tog' tepasida porlayotgan gulxanga tikilgancha o'yga tolgandi.

Do'sti bilan xayrlashib, oyog'i tortmasa-da, o'z uyiga kirdi. Yana o'sha sovuq xona, o'sha yolg'izlik. Mana, Mengliga yasab bergan bilakuzuk. Bir paytlar bu bilakuzukni Menglining oppoq-qina bilagi to'ldirib turardi. Ilk bor Maxtumquli Menglining nafis bilagiga shu taqinchoqni taqqan onlarni esga oldi. Qani o'sha jonbaxsh, sehrli qo'llar?

"Meni Menglining xayolidan ham ayirishmoqda! Har achchiq bo'lmasin. Bu haqiqatga ishonishim shart. Baribir Mengli endi qaytib kelmaydi. Uni kutganimdan foyda yo'q"

Maxtumquli ana shu haqiqatga o'zini ishontirishga tirishdi. Kundalik yumushlar, hayot tashvishlariga berilib, Menglining g'amidan biroz uzoqlashgandek bo'ldi. Ayriliq alamlari ham bir muddat undan yiroqlashdi, qalbi taskin topgandek bo'ldi.

Erkak baribir ayol mehriga, ayol ko'magiga ehtiyoj sezadi. Zotan, tabiat qonuni shuni taqozo etadi. To'rt muchasi salomat erkak baribir ayol taftini qo'msaydi.

Maxtumquli ham oxir-oqibat bu haqiqatni anglab yetgandek edi. Ba'zan o'zi sezmagan holda qiz-juvonlarning ortidan ma'noli qarab qoladigan bo'ldi. Undagi bu o'zgarishlarni o'g'lining har bir harakatini kuzatib yurgan mulla Davlatmammad ham payqamasligi mumkin emasdi. Qolaversa, onasi, yangasi, ayniqsa, singlisi Zubayda va do'sti Chovdur uning bu parishonligi sababini tezda tushunishdi.

"O'zi shunday bo'lishini avvaldan sezgandir", dedi Chovdur miyig'ida kulib. Boshqalar esa o'z mulohazalarini oshkor etmay qo'ya qolishdi.

Yorsizlikdan yomon ish yo'q,
Ko'z solib kezsam har yona,
Ey Yaratgan, bir yor bergil,
Ko'p mashaqqat tegdi jona.

Ko'rinib turganidek, yolg'izlikka sabri chidamagan Maxtumqulining hayotga tashnaligi hamon sezilib turibdi. Qandaydir ichki quvvat, ichki ehtiyoj seziladi.

Shuningdek, ushbu she'rda Maxtumqulining qanday ayolga uylanish istagi bilan birga, Menglining tashqi ko'rinishi haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin.

Bir yor bergil, etli-qonli,
Ko'ngli keng, ko'ksi maydonli.

Yoki:

Bo'yi uzun, past bo'lmasun...

Bu baytlar beixtiyor elning "teng tengi bilan...", "o'xshatmaguncha uchratmas" singari naqllarini yodga soladi. Boshqacha aytganda, Maxtumqulining o'zi ham istagiga mos ravishda o'rta bo'yli, miqti gavdali, keng yelkali odam bo'lganini anglash mumkin.

Ana shu faktning o'zi har bir turkmanning qalbida jo bo'lgan Maxtumqulining ulug'vor suvratiga ma'lum chizgilar baxsh etadi. Bu "suvrat" haqida kitobimizning intihosida alohida to'xtalamiz.

Ko'p o'tmay, Maxtumqulini uylantirishdi. U qiz oldimi, juvonmi, bunisi bizga qorong'i. She'rlarida ham bunga biror ishora ko'rinmaydi. Biroq shu ayolidan u ikki o'g'il (Mullabobak va Ibrohim) ko'rgani aniq.

Shu o'rinda xalq orasida keng tarqalgan bir naqlga e'tibor qaratilsa ma'qul bo'lardi: Maxtumqulini ikkinchi marotaba uylantirishganda, unga kelinoyisi Oqqizni nikohlab berishmadimikin? Bu savolga javob berish uchun yana bir masalaga oydinlik kiritish joiz. Eri tiriklayin yo'qolib qolgan ayol bizning mazhab qonunlariga ko'ra, qancha vaqtdan keyin boshi ochiq hisoblanadi?

"Sahihi Buxoriy"ning "Taloq kitobi"da bu muddat bir yil deb ko'rsatilgan. Ammo ayrim turkman qabilalari e'tiqodiga ko'ra, eri bedarak ketgan ayol 63 yil kutishi kerak. Albatta, bu juda katta muddat. Bu vaqt ichida bir insonning umri intiho topishi ham hech gap emas. Shunday ekan, Oqqizni Maxtumquliga olib berishganmikin? Axir, akaning bevasini ukaga (yoki aksincha) berish an'anasi dinimizda azaldan mavjud bo'lib kelgan.

Bu an'ana turkiy xalqlarda, hatto islom dini kirib kelishidan avval ham bor edi. Faqat eridan erta ajragan yosh kelin ko'chada qolmasin, bolalari begona otaning qo'liga tushmasin deb, shu ishga qo'l urishgan. Ammo bunda aka yoki ukaning vafot etgan bo'lishi shart qilib qo'yilgan. Yo'qolgan odam qaytib kelishi mumkin-ku? Maxtumquli ham akalarining qaytib kelishidan bir lahza bo'lsin umid uzmagan. Shu bois, ana shunday taklif bo'lgan taqdirda ham Maxtumquli o'z yangasiga uylanishni qabul qilolmagan bo'lardi.

Xullas, Maxtumquli uylandi. Ammo nikohdan ko'p o'tmay, Maxtumquli uni Menglichalik seva olmasligini anglab yetdi. Chunki har lahzada u ikkinchi ayolining so'zlari, yurish-turishi, xatti-harakatlarini xayolan Mengli bilan qiyoslar, ammo oradagi katta tafovut uning qalbiga g'ussa solardi.

Ammo yana bir jihati bor. Mengliga o'xshamasa, Menglidek bo'lolmasa, bu ayolda nima gunoh? Shu sabab u ko'nglidan o'tganlarni sirtiga chiqarmadi. O'zidan o'tganini o'zi bilib yuraverdi. Axir Menglini unutolmasa, u ham nima qilsin?

AQL BOSHQA, KO'NGIL BOSHQA

Ayol qalbi juda sezgir bo'ladi. Xotini Maxtumqulining ko'nglidan nimalar o'tishini o'zicha tusmollab yurardi. Buni hatto Davlatmammad ham, boshqalar ham ilg'ashdi. Maxtumqulining esa

dardi ichida edi. Kul bosgan tuyg'ular yana qo'r olgan, eski alamlar tag'in bosh ko'targandi.

Ko'ngil sirli bir olam. Uning sir-sinoatlari hatto o'z egasiga ham qorong'u. Maxtumquli Menglini unutishga, butun borlig'ini hozirgi ayoliga baxsh etishga chandon urinmasin, buning uddasidan chiqolmasdi. Maxtumqulining qalb uyi faqat Mengliga tegishli edi. U bu uyni qulflab kalitini o'zi bilan olib ketgandi. Binobarin, bu hujraga boshqa bir inson kira olmasdi. U o'z tuyg'ularini faqat quyma satrlarida ifodalardi.

Garchi sevilmoq baxtiga muyassar bo'lmasa-da, shu mushtipar Maxtumquliga ikki farzand tug'ib berdi. O'g'illarini bag'riga bosarkan, Maxtumquli bir paytlar o'zi mehmon bo'lgan bolalik olamiga qaytgandek bo'lardi.

Yosh go'daklar g'amxonaga aylangan bu xonadonga quvonch olib kirishgandi. Hatto allaqachon qarilikni tan olib ulgurgan, oxirat tadorigini ko'rayotgan Davlatmammad ham, bola mehriga zor bo'lib, hamon Muhammadsafo va Abdullaning yo'liga ko'z tikib o'tirgan kelinlarni ham ezgin dard-alamlardan shu bolakaylar xalos etishardi.

Bola — podshoh, deyishadi.

Maxtumquli bir paytlar zamona zayliga qo'l siltab yurgan bo'lsa, endi atrofdagi hodisalarni hadik va xavotir bilan kuzatadigan bo'ldi. Chunki u farzandlarining bexavotir kamolga yetishlarini, elning koriga yarashlarini istardi.

Otasining bir paytlar aytgan "ustimizga hijron o'ti sepildi" misralari xayolida tez-tez aylanar, o'zi ham payti kelib, jigarbandlaridan ajralib qolishi mumkinligini o'ylab, ko'z oldi qorong'ilashib ketardi.

Ustimizga hijron o'ti sepildi.

Davlatmammad bu misrani taqdir taqozosiga ko'ra bitgandi. Bunday obrazli misrani har kim ham bitolmasdi. Garchi bu misrada bir xonadon boshiga tushgan kulfat aks etgan bo'lsa, Maxtumquli unda butun turkman xalqining fojiasini ko'rardi.

Ustimizga hijron o'ti sepildi.

Bu so‘zlarni eslamay yashab bo‘larmikin? Xudo bir elning boshiga shunchalik ko‘p sinov yog‘dirishi mumkinmi? Bu g‘av-g‘olar qachon barham toparkin? Biror chorasi bormikin?

Nahotki Ahmadshohning qizilboshdan farqi bo‘lmasa? Nahot bergan qop-qop va’dalari yo‘qqa chiqqan bo‘lsa? Axir u o‘z nomalarida nimalarni va’da qilmagandi. Shunchalik oson aldandikmi? Shu qadar tez qo‘ynimizni puch yong‘oqqa to‘ldirdimi?

Maxtumquli miyasini g‘ovlatib yuborgan ming savolning bittasiga ham javob topolmasdi. Xalq avvalgidek qizilboshlarning bosqinidan aziyat chekar, alamidan ko‘zi qonga to‘lgan ayrim odamlar guruh bo‘lib, javob tariqasida bosqinchilik yurishiga otlanar, dushmanning molini talab, odamlarini qul qilib olib kelishardi. Keyin esa oyoq-qo‘liga band solingan qul va cho‘rilar cho‘l orqali Xiva, Buxoro bozorlariga olib borib sotilardi. Kim bilsin, Menglini ham xuddi shu taxlit cho‘ri qilib sotib yuborishdimikin?

Xivada, Buxoroda sotilmasa-da, Tehronda, Mashhadda, Nishopurda, Hirotda yoki uzoq Hindistonda sotilgan bo‘lishi ehtimolga yaqin.

Har kun ochdi qul-cho‘rining bozorin,
Nomusin bozorga soldi, naylayin?

Ana shular haqida o‘ylab, o‘zini gunohkor sanab yurgan Maxtumqulining ko‘ngli osoyish topolmasdi. Hayot uning oldiga qalashtirib tashlagan g‘ovlarni yengib o‘tish haqida uzoq o‘yladi. Har qanday vaziyatga hozir va mardona turishi kerakligini o‘rgandi.

Hayot bu yigitning irodasini keskin sinovlardan o‘tkazayotgan edi. Kunlarning birida yana bir sinov bilan yuzma-yuz keldi. “Qani ko‘raylik-chi, bu yigit rostdan ham mardonalikni o‘rgandimikin?”

Qish tugab, bahor butun borliqqa o‘z hukmronligini o‘rnatgan kunlarning biri edi. Havoning avzoyi buzildi. Sekin sevalay boshlagan yomg‘ir bora-bora do‘lga aylandi. Har biri yong‘oqdek keladigan muz parchalari bilan osmon yerni o‘qqa tutdi. Butun zamin muz parchalari bilan qoplandi. Ertasi kuni havo yumshab, muzlar erib, hamma yoqni sel bosdi. Buyam yetmagandek, yana chelaklab quygandek yomg‘ir yog‘di. Yuqoridan oqib kelayotgan

sel oqimi yo'lida uchragan har qanday to'siqni yengib, xarsang-toshlarni xuddi koptokdek dumalatib kelardi. Yo'ldagi daraxtlarni ham ildizi bilan qo'porib, uylarni vayron qilib, qo'y-qo'zilarni ham oqizib keta boshladi.

Juda ko'p uylar selda oqib ketdi. Ular orasida Maxtumqulining akasi Muhammadsafoning ham uyi bor edi. Bu uyga qo'shilib, necha yildirki, erining yo'liga ko'z tikib o'tirgan mushtipar ayol ham suvda oqdi.

Doridi bir do'l-u yo'liqdi bo'ron,
Barin yurti bilan ayladi vayron...

Tabiiyki, bu noxushlik ham Maxtumquliga qattiq ta'sir qildi. Bir kuni akasi qaytib kelsa, uyini, ayolini so'rasa, nima deb javob beradi? "Mening yo'g'imda oilamga ko'z-quloq bo'lolmadingmi", deb ukasidan ranjimasmikin?

Mulla Davlatmammad esa tamomila cho'kib qolgan, uning ahvolini ko'rgan Maxtumquli yuragidan ezilardi. Shuncha dard-u alamlarni yelkasiga ko'tarib kelgan otasining bardoshi bu ko'rgilikka ham yetarmikin?

Shoirning "Abdulla" degan mashhur she'ri ham ana shu kezlarda yozilgan bo'lsa kerak. Otasi beomon ajalning changaliga tushsa, o'zi qay ahvolda qolishini o'ylab, u akalarini battar sog'inardi.

Mulla Davlatmammad hayotining so'nggi yillari Maxtumqulining ham hayotidagi eng og'ir yillar bo'ldi, deyish mumkin. Ming qilsa-da, hali Maxtumquli juda yosh edi. Garchi do'sti Chovdur unga yelkadosh bo'lib tursa-da, singlisi, ayoli va boshqa yaqinlari g'am-g'ussani u bilan teng bo'lishsalar-da, ulardan har birining o'rni bo'lak edi. Ana shunday mahzun kunlarida Mengli uning yonida bo'lsa edi... Balki ana shunda dardi biroz bo'lsa-da yengil tortgan bo'larmidi? Gohida ana shu fikr miyasiga urilganida, xotini sezib qoladigandek seskanib ketardi. Axir ming qilsa-da, bu ojiza ham uning jufti haloli. Ikki nafar ko'zmunchoqdek bolasining onasi edi.

Bu yillarda Maxtumquli sayohatga ham, tahsil oilshga ham chiqmadi. Tun-u kun otasining sog'lig'idan xabardor bo'lib turdi. Boshqa tashvishlar bir taraf, otasining omonligi bir taraf edi.

Gohida o‘tgan-qaytgan karvonlardan akalarini so‘roqlardi. Uzoq-yaqindan kelganlarni topsa, Menglining daragini kutardi. El-yurt allaqachon Maxtumqulini yaxshi tanib olgandi. Bunda shoirning o‘z xizmatlari bor edi: Ahmadshoh bilan muzokara qilish uchun borgan, unga atab she’rlar bitgani hammaga ma’lum edi. Shuningdek, Mengli bilan bog‘liq ishq dostoni ham xalq ichida afsonaga aylanib ulgurgandi. Avval mahbubasining go‘zalligini vasf etib, keyin esa ayriliqdan faryod chekib yozgan satrlari allaqachon nazm muxlislarining qalbidan joy olgandi. Shuningdek, mulla Davlatmammad va uning oilasi, farzandlari nomini el-yurt alohida hurmat bilan tilga olar, bu oila boshiga tushgan ko‘rgiliklarga hamma hamdardlik bilan qarardi.

El og‘ziga tushibman, shundan toshib-jo‘shibman,

degan edi shoir bir she’rida.

Mulla Davlatmammadning Xivada birga o‘qigan do‘stlari, kotib va kitobfurushlarning ham xizmatini alohida qayd etish o‘rinli. Va nihoyat, go‘klang qabilasi bilan bir yoqadan bosh chiqargan boshqa turkman qabilalari, Manqishloq, Orol, Buxoro va Xiva atrofilarida yashagan boshqa turkiy xalqlarning ham xayrixoh nazarini e’tiborda tutish lozim. Ular go‘klanglarga yaqindan yordam bermagan bo‘lishsa-da, qizilboshlar bilan kechgan mojarolarni diqqat bilan kuzatib kelishardi.

Maxtumquli shunday vaziyatda o‘z davrining fojiasini she’rlariga ko‘chirardi. Bu hodisalarning bari avval shoirning qalbiga chuqur o‘rnashar, keyin uning dard-alamlari bilan qorishib yuzaga chiqardi. Maxtumquli Menglini olib qochishgan chog‘da yo‘qolib qolgan kitobidagi she’rlarini qaytadan qog‘ozga ko‘chirishga urindi. Ayrim she’rlarini to‘la eslolmasa-da, ayrim misralari unga tinchlik bermasdi. So‘nggi yillarda yozilgan she’rlari, o‘tmishdagi olimlarning kitoblaridan olingan taassurotlari, o‘z ilmiy qarashlarini to‘plab, bitta kitob qildi, ustiga teridan jild qoplatdi.

Kunlarning birida otasi uni yoniga chorlab, barcha kitoblari, qog‘oz va qalamlarini qo‘liga tutqazdi. “Bularni ham o‘z kitoblaringga qo‘shib, sandiqda ehtiyotlab saqla!”. U bir necha yillik ijodiy va ilmiy mahsuli bo‘lgan asar — “Muhtasar”ni ham o‘g‘li-

ga berdi. Bu kitob hozir Turkmaniston Fanlar akademiyasining Qo'lyozmalar institutida saqlanadi.

Mulla Davlatmammadning qo'lida birgina "Qur'on" qoldi. Mulla bu hayotdan tamomila umidini uzgandi. Buni Maxtumquli sezib turardi. Buni Maxtumqulining o'gay onasi, Oqqiz yangasi, Zubayda singlisi ham sezib bo'lishgandi. Ular bir hujraga to'planib, yum-yum yig'lashardi.

Ana shu damlarda ham Maxtumquli o'ziga o'zi savol berish va javob izlash bilan ovora edi.

Bu dunyoning mohiyati nimada? Bu dunyoning ibtidosi qayda-yu intihosi qayda? Odamning bor-yo'qligi ahamiyatsiz bo'lsa, inson bolasi nega bu olamga kelib ketadi? Sevgi-muhabbat-chi? Dunyo moli-chi? Yoxud inson ishq-muhabbat bilan, mol-dunyo, bola-chaqa bilan aldanib umr o'tkazadimi? Unda nima uchun inson o'limini avvaldan bila turib, mol-dunyoga mukkasidan ketadi?

U ana shu so'roqlarga umr bo'yi javob izlaydi. Hayoti davomida bu savollar xuddi soyaday unga ergashib yuradi. Chunki bir savolga javob topsa, mingta fikr uni inkor etardi.

Ana shu savollarni e'tiborga olib, "Bir nechta misol" degan she'rni boshqatdan o'qib ko'ring-a?

Maxtumquli bu she'rdagi savol-javoblar bilan qanoatlanmay, sevgi va o'lim masalasiga ham yangicha yondashadi. Islom dini paydo bo'lganidan beri Sharqda tildan tilga ko'chib yurgan bir rivoyatni bu she'rga asos qilib oladi. Rivoyatlarga ko'ra, Alloh sevgi va o'limni eng avval nabotot olamiga yuboribdi. Sevgiga duch kelgan o'simliklar tez o'sib, tez ko'payib, bir-biri bilan bitishib-chatishib ketibdi. Shu tariqa butun dunyoni o'simliklar egallab olibdi. Boshqa jonzotlarga, parranda-yu darrandalarga ham yashashga joy qolmabdi. Keyin Alloh ularga o'limni yuboribdi. O'lim ulardan birining jonini olishi bilan boshqalari ham undan o'rnak olib, jon beraveribdi. Yer yuzida bitta ham giyoh qolmabdi. Shunda jonivorlar ham ochlikdan halokatga yuz tutishibdi.

Bu hodisani ko'rgan Alloh sevgini ham, o'limni ham nabotot olamidan olib, jamodot olamiga — tog'-toshlarga, suvga beribdi. Sevgiga mubtalo bo'lgan tog'lar tobora yuksalib, kengayib

boshlabdi. Butun dunyoni tog‘lar o‘rab olibdi. Keyin shiddatli yomg‘irlar yog‘ib, sellar oqib, yer yuzini suv qoplabdi.

Yana o‘simliklar, hayvonlarning hayot kechirishi uchun joy qolmabdi. O‘lim kelishi bilan baland tog‘lar uvalanib, toshlar to‘zib, suvlar bug‘lanib ketibdi. Bu ham oqibatda o‘z ta’sirini ko‘rsatibdi.

Shu tariqa Alloh hamma narsaga avval sevgini, keyin o‘limni yuborib ko‘ribdi. Hech biri kutilgan natijani bermabdi. Oxiri har ikkisini Odam bolalariga yuboribdi. Biroq odamlar boshqacha yo‘l tutishibdi. Sevgi nozil qilinganda birov sevgini olibdi, boshqasi — yo‘q. O‘limni ham shunday taqsimlashibdi.

Ajal kelsa, bir uyda oh-voh, boshqasida xursandchilik ekan. “Ha, sevgini ham, o‘limni ham, odam ko‘tara olarkan” deya tafakkurga cho‘mibdi Parvardigor.

Behisht qochib chiqmish Arshning o‘yina,
Do‘zax qo‘rqib kirmish yerning qo‘ynina,
Daryo qochdi, Odam oldi bo‘ynina
To‘rt yuz yillar torta olmas bu dardni...

Maxtumquli bu rivoyatning faqatgina sevgiga tegishli qismini olib, o‘z she’rlariga uning mazmun-mohiyatini singdirib yuborgan. Ishqni bo‘yniga olganidan so‘ng, uning haybatiga toqat qilolmay titragan osmonni, ingragan qushlarni, o‘kirgan yirtqichlarni, bukchaygan tog‘larni, erigan toshlarni ko‘z oldingizga keltiring.

Maxtumquli ana shu she’rlari bilan o‘z dardiga malham qo‘ygandek bo‘lar, tasalli izlardi. Shu kunlarda u juda ko‘p ijod qilardi. Xuddi yer silkinishidan avval barcha qurt-qumursqalarning yer yuziga chiqmoqqa oshiqishiga o‘xshardi bu holat. Sababi mulla Davlatmammad har kechasi Ajal bilan yuzma-yuz bo‘lib chiqishini u yaxshi bilardi. Otasining o‘limi uning uchun zilzilaga barobar edi. Bu uning uchun eng katta badbaxtlik edi. Amakisi Salim Maxdum ham keyingi paytlarda otasining tepasidan jilmay qolgandi.

Garchi Davlatmammad tamomila oyoq-qo‘ldan, tildan qolmagan bo‘lsa ham, atrofdagi o‘lim unga soya tashlab turganini sezardilar. Turkman, umuman, barcha musulmon xalqlarida o‘lgan

odamni bo'ynida qarz bilan ko'mib kelish durust amal hisoblanmaydi. Qarz esa, faqat pul bilan o'lchanmasligi ham bor gap.

"Yo Alloh, o'zing gunohlarimni kechir!".

Qadimdan turkmanlar o'limni mardona qarshi oladilar. Ayniqsa, yoshi bir joyga borib qolgan qariyalar o'limlikka atab pul yig'adilar. Kafanlik, dafn xarajatlari, ma'raka-marosimlarda yaqinlarining qiynalib qolishlarini istamaydilar.

OQ PULNI SAQLARLAR QORA KUN UCHUN...

Chunki ular dunyoning o'tkinchi ekaniga, o'lim bir uydan ikkinchi uyga, muvaqqat boshpanadan doimiy makonga o'tish deb biladilar.

Esingizda bo'lsa Jaloliddin Rumiy hazratlari, o'limlari oldidan ko'z yosh to'kib o'tirgan yaqinlariga qarata:

— Nega yig'laysizlar? Men o'layotganim yo'q, DO'ST yoniga ketyapman, — degan ekanlar.

Ajal nayzasini shay qilib turar, domlalar uning boshida o'tirib "Yosin" tilovat qilish bilan band edilar.

O'z uyingda, yaqinlaring bag'rida oyoq uzatib jon berish ham aslida bir davlat. Shukr qilish kerak. O'sha paytlarda bunday ne'mat ko'pchilikka, ayniqsa, erkaklarga har doim nasib etavermasdi. Necha asrlardan beri turli bosqinlar, chopqinlar, jang-u jadallarda umri o'tayotgan turkmanlar ana shu "ne'mat"ga ham shukur qilardi. Axir jasading tog'-toshlarda, dala-dashtlarda qurt-u qushlarga yem bo'lib, ikki gaz kafanlik ham nasib qilmasligi mumkin edi-ku?

Mulla Davlatmammad ham ich-ichidan Yaratganga shukronalar o'qirdi. Boshqalar-ku bu ayriliqqa bir amallab ko'nikadi. Mulla Maxtumquli va Zubayda haqida ko'p o'ylardi. Ularning har ikkisi ko'ngli bo'sh, rahmdil. Otalariga boshqalardan ko'ra ko'proq, ayricha mehr qo'yishgandi.

Mulla Davlatmammad o'g'li Maxtumquli uchun nafaqat ota, birinchi ustoz, balki hamfikr, hammaslak do'st ham edi.

O'lim to'shagidagi otasining boshida turgan Maxtumqulining qalbidan qanday hislar kechganini tasavvur etish qiyin.

Alhol Maxtumquli ustiga yopirilib kelayotgan fikrlar qo'shiniga yengilmoqda edi. Atigi yigirma yetti yoshda bo'lgan yigitning ko'z o'ngidan otasi bilan bog'liq barcha xush va noxush damlari bir-bir o'tayotir. Shu qisqagina umri davomida u qanday balolarni ko'rmadi. Ne-ne yaqinlarining o'limiga shohid bo'lmadi.

Mana, nom-nishonsiz ketgan akalari! Maxtumqulini bir umrlik armonda qoldirib ketgan Mengli. Uning hind-u xoli hanuz ko'z o'ngidan ketgani yo'q.

Ahmadshoh Durroniy yodiga tushgan onda ich-ichidan oh chekdi. Agar shu shoh mardlik qilganida, xalqning boshiga shu kunlar tusharmidi? Endi undan umid uzildimi? Ahmadshoh endi bu tarafga qiyo ham boqmas-ov? Hozir uning ko'zi Hindiston taraflarda!

Go'klang zoti tag-tugi bilan qirilib ketsa ham Ahmadshohning nima ishi bor? Mulla Davlatmammad shu paytgacha biror shohga, tojdorga bosh egmadi, ixlos qo'ymadi, suyanmadi. Bir paytlar u juda to'g'ri aytgan ekan:

"Orzulama xonni, bekni, sultonni!.."

Unda kimga ishonish kerak? Kimga qo'l cho'zish lozim? Maxtumquli bu savollarga javob topolmasdi.

Maxtumquli o'sha paytlari bu mavzuda ko'plab she'rlar yozgandi. Ahmadshoh Durroniy bilan muzokara qilgan kezlari "ajab ayyom"lar haqida shirin xayollarga borib yurgani esidan chiqqani yo'q. Endi o'ziga o'zi savol beradi: "Qani, o'sha "ajab ayyom?" Biroq hali-hanuz umidini uzgani yo'q. Ayni paytda saltanati gurkirayotgan afg'on shohi turkman birodarlarini bu qadar tez unutmas? Bu tomonlarda ham qachondir quyosh chiqar, axir? Yana kim bilsin, Ahmadshohdan bir yorug'lik chiqadiganga o'xshamaydi.

Ilojsizlik uni tang ahvolga solgandi. Shunday paytlarda u allaqayoqlarga bosh olib ketgisi kelardi. Hamma narsaga qo'l siltab, beg'am, tashvishsiz yashagisi kelardi.

Nasib bo'lmas, ketsam uzoq yo'llara,
Taqdir qo'ymas, borar yo'lim, bog'lar hey!
Hayron Majnun bo'lib, chiqsam cho'llarga,
Borib maskan tutsam sizni, tog'lar hey!

Ana shunday paytlarda Maxtumquli jahongashta darvishlarga havas qilardi. Haqiqiy erkin, ozod deb o'shalarni aytsa bo'ladi.

Bu gal ham shoirning teran aqli va telba ko'ngli o'rtasida ayovsiz kurash borardi. Goh bir taraf, goh ikkinchi taraf ustun kelardi. Axiyri aql ko'ngildan kuchliroq chiqdi:

Kel, ko'nglim, men senga o'git berayin,
Yiroq qilma, ko'rar ko'zing, elingni!

Bu ustunlik doimiymidi yoki muvaqqat? Buni faqatgina vaqt ko'rsatardi.

Maxtumquli ayni shu kunlarda mushkullarining oson bo'lishini Allohdan so'rab, juda ko'p munojotli baytlar bitdi. Biroq ajalga omon yo'q. Tangri yozganini bandasi buzolmaydi.

1760-yilning 22-mart kuni Davlatmammad Ozodiy oltmish yoshida dunyodan o'tdi. Hammadan rozi-rizolik olib, bu bevafo dunyoga vido aytdi.

Navro'z juda ko'p sharq xalqlari qatori turkmanlarda ham yilboshi bayrami sanaladi. Azaldan bu bayramni turkmanlar orziqib kutishadi. Xuddi ana shu qutlug' bir kunda turkman eli o'zining eng buyuk farzandlaridan biri bilan vidolashdi. Yana bir buyuk farzand esa, otasining jonsiz vujudi ustida yum-yum ko'z yosh to'kib qolaverdi.

Uning holatini bir tasavvur qilib ko'ring! O'sha onlarda uning qalbidan ne-ne hislar kechdi ekan? Bu oilada u 27 yoshga qadar juda ko'p o'lim ko'rdi, ammo otasidan ayrilish uning uchun katta zarba bo'lgandi.

"Oltmishinda otam o'ldi, shunda ham ko'z ochmadim" degan gap xalq orasida bekor tarqalmagan. Motamdan, alam va qayg'udan erib oqqan Maxtumqulining yuragidan shu so'zlar sizib chiqdi:

"Ozodim qani?"

Falak, sokin edim, sen duchor bo'lding,
Ko'zlarim nuroni — Ozodim qani?
Yuragim sug'urib saklarga berding,
Shahrimning sultoni — Ozodim qani?

Shoir "Otamning" nomli she'rini sal keyinroq yozganini anglash mumkin. Bu she'r dastlabki hissiyotlar ta'siri ostidan chiqqach, yolg'iz qolgan kezlari, tafakkur va xayolot mahsuli o'laroq bitilgan:

Olg'ir davlatlarga ko'ngil qo'ymadi,
Bu jahonning ishratini suymadi,
Eski sholdan ortiq kiyim kiymadi,
Oxiratda bo'ldi qasdi otamning.

"Olg'ir davlatlarga ko'ngil qo'ymadi!" E'tibor qilyapsizmi? Maxtumquli shu satri orqali otasining Nodirshohga, keyin Eronga, Afg'onistonga, Rossiyaga xavotirli va ishonchsizlik bilan qaraganini ko'rsatmoqda. Bir paytlar Nodirshoh o'g'lini tahsil olishga jo'natganida mulla Davlatmammad "avval bu bolaning otasiga ta'lim berish kerak" degandi, bir paytlar Maxtumquli ham Afg'onistonga Ahmadshoh Durroniy bilan muzokara qilishga otlanganida, "orzulama, xonni, bekni, sultonni" deya uni yo'ldan qaytarishga uringandi; bir paytlar Muhammadsafo bilan Abdulla Bokuga yoxud Astraxanga ketmoqchi bo'lishganda ham ota ularga ro'yxushlik bermagandi.

Buni hayot deydilar. Mulla Davlatmammadning vafotini eshitib, uzoq-uzoq ellardan ham fotihaga kelganlar ko'p bo'ldi. Biroq bu o'limdan quvonganlar ham bo'ldi. Birovning o'limidan faqat ojiz kishilar quvonadilar.

Chunki mulla Davlatmammad el tanigan, obro'li odam edi. Ko'pchilikka o'z ta'sirini o'tkaza olardi. Hozircha qabilalar aytarli bir yoqadan bosh chiqarmagan bo'lsalar-da, ular orasida ruhiy yaqinlik, ma'naviy uyg'unglikni uyg'otishda mullaning roli katta bo'lgandi. Zolim xon va beklarga qarshi hamjihatlikda kurashilmagan bo'lsa-da, baribir, ularning barchasi mulla Davlatmammadni hurmat qilishar, unga quloq osishardi. Faqat mahalliy turkman xon va beklari emas, balki, Eron, ayniqsa, qizilboshlar asosiy e'tiborni mulla Davlatmammadga berishar, Maxtumquli ularning e'tiborini kam tortardi. Ular Maxtumqulining qalbida charx urgan to'fonlardan bexabar edilar.

Mana bu baytlarda ham Maxtumqulining boshqalar sezmagan botiniy dunyosi ko'zga tashlangandek bo'ladi:

Olam ichra odam qolmas, ot kezar,
Bu sirlardan jahon xalqi yot kezar,

Keyin:

Maxtumquli, pinhon sirring bor ichda,
Komil topsang, qil qullug'in sarishta,

degan so'zlarini qanday tushunish kerak? Bu she'rda Maxtumquli qalbidagi sirlarni bir ochmoqchi bo'lib, yana ortga chekinganga o'xshaydi. Maxtumquli o'z otasini haddan tashqari ulug'lar, boshqalarda ham padari buzrukvoriga nisbatan cheksiz ehtirom uyg'otgisi kelardi.

Bu Maxtumquliga nega kerak edi? Axir u otasining yo'lini davom ettirishni, turkman xalqini jipslik, birdamlikka chorlashni o'z oldiga maqsad qilarkan, unga yordam kerak edi. U otasining yaqinlaridan yiroqlashib ketmasligi lozim. Otasining obro'-e'tiborini yuksaltirish barobarida u o'zining ham obro'yini oshiradi. Biroq u odamlarni ortidan ergashtirish, ularning qalbiga yo'l topishdan avval o'ziga nisbatan ishonchini ham orttiish lozim.

O'sha onlarda u faqat qismat, bandalik, ajal va umrboqiylik haqida fikr yuritardi. Kunduzi xayolidan o'tgan gaplar kechalari tushiga kirib chiqishi ham odatiy holga aylangandi.

"Turgin", dedilar", "Yor bizim sari", "Bo'ldim giryona", "Devona keldi" kabi she'rlari ham yuqoridagi holatlar bilan bog'liq. Bu masalalarni keyinroq, Maxtumqulining tasavvufiy she'rlari haqidagi suhbatimizda davom ettiramiz.

Oqsoqollar, oxunlar, eshonlar mulla Davlatmammadni Oqto'qay degan joyda dafn etishni maslahat berishdi. Qabr ustiga ham biror bir yodgorlik o'rnatilmadi. Shu bois, hozirga qadar mulla Davlatmammadning qabri bizga noma'lum bo'lib kelayotir.

Mulla Davlatmammadning dafn marosimiga uzoq-yaqinlarda yashagan shoirlar kelgan bo'lishlari ehtimoldan xoli emas. O'z bilimi va she'riy iste'dodi bilan el e'tiborini qozongan Nurmuhammad Andalib, G'oyibiy, Shaydoiy, Ma'rufiy, Shobanda singari

shoirlar kelib, mulla Davlatmammadning uyida uning ruhiga bir kalima Qur'on o'qib ketishgan bo'lishlari mumkin.

Durdi shoir esa bu ma'rakalarning boshida turganiga shubha yo'q. Chunki Durdi shoir bu oila bilan ancha yillardan beri bordi-keldi qilardi. Uning Maxtumquli bilan qilgan she'riy munozaralari ham bor.

Marhumning ma'rakalari o'tganidan so'ng bu xonadonga keluvchilar soni ham siyraklashadi. Biroq ayrim turkman oqsoqollari marhumning qirqi o'tguncha o'z yaqinlarining uyiga kelib turishadi. Marhumning ruhiga Qur'on tilovat qilish, yaqinlariga tasalli berish, hamdard bo'lish xayrli odatlardan sanaladi.

Qirqi o'tib, keladiganlar kelib bo'lishgach, haqiqiy motam boshlanadi. Ayollar ko'z yosh to'kib faryod ko'tarishadi.

Maxtumqulining esa dardi ichida edi. U endi har tarafdan mardona bo'lishi lozimligini, agar sal bo'shlik qilsa, oilaning qolgan a'zolari har tarafga tarqab ketishi mumkinligini yaxshi bilardi.

Inson bolasi vafot etgach, har kuni tiriklardan bir g'isht bo'yi uzoqlasharkan. Maxtumquli ham kun o'tgani sayin bu fojiaga o'zini ko'niktirdi. Vaqt o'z oqimida davom etardi. U o'z ustaxonasiga kirib, zargarlik ishlari bilan mashg'ul bo'ldi.

Turkmanlarda kumush asosiy zargarlik xomashyosi sanalardi. O'tmishdagi sayohatchilarning guvohlik berishicha u paytlarda, turkman yurtida bu qimmatbaho ma'dan ko'p uchrardi.

Kuz kelgach, Maxtumquli bug'doy o'rimiga chiqdi. Bir paytlar xirmon ko'tarilayotganda otasi "hormanglar" degani chiqardi. Odamzod hamma narsaga ko'nikadi. Lekin u bir narsaga ko'nika olmasdi. Xalqi hamon muhtojlik, zulm-u bedodlik ichida yashardi. Otasining o'limidan so'ng u hamyurtlari dardini yanada teranroq his eta boshladi. Xuddi mulla Davlatmammadning ana shu sifati Maxtumquliga ko'chib o'tgandek edi.

Nodirshohning vayronkor yurishlaridan so'ng, xalq hamon o'zini o'nglab ololmagan, tarqoqlikda kun kechirardi. Butun-butun ovullar ochlikka mubtalo bo'lib, o'z vatanlari, ota-bolalarining yurtini tashlab chiqishga majbur edilar. Hamon har-har zamonda qizilboshlar turkman ovullariga hujum qilib, uy-joylarini yoqar, ekinzorlarini suvga bostirishar, mollarini talon-toroj qilar, jonla-

rini qul qilib olib ketishardi. Bir paytlar turkman sahrosining noz-ne'matlari, yong'oq va bodomi, shaftolisi, o'rik va olmasi, chak-chak asal tomadigan uzum va anjirini bir yegan odamning yana yegisi kelardi. Qator-qator tutzorlarning oxiri ko'rinmasdi. Turkman ipagidan tikilgan ko'ylakni kiygan har bir qiz-juvon o'zini baxtli sanardi. Yuzlab tuyalardan iborat karvonlar shu hududda to'xtab, Hindiston, Afg'oniston, Xo'tan taraflarga o'tib ketishardi. Chiroyli, kuchli turkman otlari ko'rgan ko'zni quvontirardi.

Maxtumquli esa, ana shunday betimsol tabiatga, tabiiy boyliklarga ega halqning tum-taraqay bo'lib ketayotganini ko'rib, yuragi qiyma-qiyma bo'lardi. O'zaro mehr-oqibatning kamayishi, ornomus, lafz, iffat singari xislatlarning yo'qolib borishi, bir to'p odamlarning qizilboshlar tarafiga o'tib, o'z elining talon-toroj bo'lishiga yordam berayotgani uni qattiq tashvishga solardi. Qisqasi, uning ko'z o'ngida buyuk Turkman ruhi so'nib borardi.

Islomiy qadriyatlar ham toptalayotganini o'z ko'zlari bilan ko'rgan Maxtumqulining qalbi pora-pora bo'lgandi. Qayd etish lozimki, Nodirshoh davrida xalqning imon va e'tiqodi, yolg'iz tayanchi va suyanchi bo'lgan islom dinining ham qadr-qimati pasayib ketdi. Ba'zilarning "Muhammad (s.a.v.) ham, Ali (r.a.) ham menga o'xshagan oddiy insonlar edi, ularning mendan afzalroq tomoni bo'lmagan" degan mantiqsiz va shakkok g'oyalar bilan chiqishi bir cho'mich qoramoy to'kib bir mesh asalni bulg'ash bilan barobar edi.

Ayrim din peshvolari, garchi ich-ichidan istig'for aytsa-da, tilyog'lamalik, xushomadgo'ylik bilan shohning soyasiga ko'rpacha to'shash, uni "Allohning yerdagi soyasi" deya ko'kka ko'tarishdan toyishmasdi. Holbuki, bunday laganbardor odamlarni hamma zamon va har bir makonda uchratish mumkin.

Diniy qadriyatlarning kamsitilishi esa, o'z-o'zidan axloqiy qarashlarning qadrsizlanishiga, jamiyatda turli zararli illatlarning avj olishiga zamin yaratdi.

Ko'mildi daryolar, yiqildi tog'lar,
Yetimlar ko'z yoshin to'ka boshladi,
Yotlardan tug'ilgan haromxo'r beklar,
Yurtni bir yonidan yiqa boshladi.

Ha, Maxtumquli mulla bilan mullaning o'rtasida katta tafovut ko'rardi, u o'z otasidek pokiza, imoni mustahkam, tavqodor mullalarnigina tan olardi. Bunday tanqidiy qarashlar otasining o'lganidan keyin yoza boshlagan bo'lsa kerak. Chunki u otasining hayotligida oldinga chiqib, o'zini ko'rsatishni istamagan, qolaversa, otasini ham odamlar mulla deb izzat qilishardi.

Maxtumquli o'sha davrdagi vaziyatni "Zamona yomon bo'ldi" nomli she'rida ochiq-oydin ko'rsatib bergan. Siz bu she'rni yana bir o'qib ko'ring.

Bu yillar Maxtumqulining o'z so'zining kuchiga ishona boshlagan, shu bilan birga boshiga dunyoning g'am-tashvishlari tushgan davr bo'ldi.

Dunyo g'ami bilan yashash Maxtumqulining kundalik hayot tarziga, suv va havo singari doimiy zaruratga aylandi. Bu g'am-hasratni u o'z uyida kim bilan bo'lisha olardi? Garchi ikki o'g'il tug'ib bergan ayoli har qancha uning ko'nglini olishga tirishsa-da, Maxtumquli hamon Menglining yodi, Menglining xayoli bilan yashardi.

Qani, o'sha Mengli? Qani, o'sha baxtli onlar? Hammasi o'tmishga aylangandi. Gohida umidsizlik girdobiga tushgan Maxtumquli do'sti Chovdur bilan gurunglashib, bolalarini erkalab taskin topardi.

Ochlik, talonchilik, mudhish xastaliklardan zada bo'lgan go'klang, yovmut qabilalari guras-guras bo'lib, ko'ch-ko'ronini tuyalarga yuklab, Qoraqalpoq, Xiva, Axal viloyatlariga ko'cha boshlashdi.

Ozarbayjondan, Astraxan (Hojitarxon) va Mang'ishloq turkmanlaridan biror xushxabar yo'q edi. Ularning ortida turgan Chor hukumatiga ham ishonch yo'q edi. Chunki Chor hukumatining dini, tili, urf-odatlari, tarixiy an'analari butunlay boshqacha edi. Qolaversa, Rossiya juda ulkan va qudratli davlat edi. Uning changaliga tushganlar qaytib chiqolmasligi ham aniq edi. Bunga boshqa sabablarni ham ko'rsatish mumkin. 1723-yilda Pyotr Birinchining qudratli qo'shini Bokuni ishg'ol qilgani, juda ko'plab qonli harakatlarni amalga oshirgani haqidagi noxush xabarlarning bir uchi Turkman sahrosiga ham yetib kelgandi.

Xullas, bir tomonda el-ulus, bir tomondan oila tashvishlari shoirni qattiq holdan toydirgandi.

"Odamning boshiga motam ikki xil ko'rinishda tusharkan. Biri odamni ogohlikka chorlasa, ikkinchisi tamom qiladi" degan naql ham xalq orasida bexuda tarqamagan. Bu galgisi qanday motam bo'ldi? Maxtumqulini nimadan ogoh bo'lishi va nega tamom bo'lishi kerak? Odamzod bu dunyoga azob chekish uchun keladimi? Bir qarashda Maxtumquli ham xuddi azob va aziyat ichida ellik-oltmish yil yashab qo'ygan mo'ysafidga o'xshardi. Aslida u endigina 27 ga kirgandi, xolos.

Ana shu aldamchi tuyg'ular ta'sirida uning nazarida ayoli Mengli, akalari Abdulla va Muhammadsafoni yo'qotib qo'yganidan beri oradan yuzlab yillar o'tganga o'xshardi. Qalbidagi ezg'inlik izmida u vaqtning o'tishini, fasllar almashishi, tabiatning turlanishini ham idrok etolmay qolgandi. Yog'ayotgan yomg'ir ham qishnikimi yo yozga tegishlimi, idrok etmasdi.

Ana shunday xud-bexud paytlarda Maxtumquli darrov o'zini qo'lga olishga, hislarini jilovlashga oshiqardi.

Ana shunday badbin o'ylarni o'zidan nari quvish uchun otasidan meros qolgan, Idris bobo madrasasida o'qib yurgan kezlari Niyozquli oxunning kitoblaridan ko'chirgan nusxalari va boshqa kitoblarni qayta-qayta o'qirdi. Arabiy imloda bitilgan bu kitoblarda olamning ne-ne sirlari mujassam edi. Keyinchalik bu kitoblarning mazmuni ham, ularning nomlari ham xalq ongidan o'chib ketdi.

ASLIDA ILM O'ZINGNI VA DUNYONI O'RGANMOQDAN IBORATDIR

Maxtumquli o'tgan umri davomida qilgan yaxshi-yomon ishlarini ham ko'p sarhisob qilar va gunohlari uchun istig'for aytardi. Uning qalbidan kechayotgan ruhiy kechinmalar, pokiza ilohiy tuyg'ular qofiyalarga joylashib, she'r va g'azallarga aylanardi. Maxtumquli she'rlarini bitta kitobga jamlarkan, Mengli olib qochilgan paytda yo'qolgan she'rlarini ham xotirasiga tayanib, tiklashga urindi. Yangi bir kitob yozgisi keldi. U qat'iy qaror qilgandi: hamma she'rlarini birvarakayiga jamlab, qayta ko'chirib

chiqadi. Shuningdek, ovuldoshlari, qo'shni ovuldagilar orasida uning she'rlariga shaydo bo'lib, yod olib, ko'chirib yurganlar ko'p edi. She'r muxlislari shoirning barcha she'rlarida o'z qalblaridan kechgan tuyg'ularga nisbatan uyg'unlik, qadrdonlik ko'zga tashlanardi. "Qiziq, hamma gaplashib yurgan tilda ham she'r yozsa bo'larkan-da", deya ko'pchilik hayratda qolardi. Shu tariqa o'quvchi va shoir orasida bir necha asrlardan beri mavjud bo'lib kelgan ko'rinmas to'siqni Maxtumquli tag-tugi bilan olib tashladi. Uning she'rlari nafaqat xalq tiliga, balki xalq diliga, tuyg'ulariga ham yaqin edi.

Maxtumquli xalq qanday fikrlasa, ana shunday fikrlarni she'rga solardi. U odamlarning qalbidagi og'riqlarni his etardi, ana shu hislarni kuylardi. U nainki turkman, balki butun turk dunyosining dardini tarannum etardi. Umumiy badbaxtlik va umumiy baxt haqida avvalgi shoirlarning asrlar osha yetib kelgan asarlaridan eng katta farq ham shunda ediki, Maxtumquli aniq bir vaqtda, ma'lum bir xalq boshidan kechirgan voqealarning ichichiga kirib bora olardi. Mana, kuni kecha rihlat qilgan otasining she'riy merosiga qayta ko'z tashlab, unda "turkman" degan so'zni topa olmadi. Holbuki, u ham turkman farzandi edi, turkmanning dardini kuylagandi.

Shu ikki omil Maxtumquli ijodiga beqiyos kuch berib, go'zal ash'orining tillardan tillarga, ellardan ellarga ko'chishiga zamin yaratdi.

Ana shu ikki omil Maxtumqulining turkiy xalqlar orasida birinchi bo'lib o'z xalqining milliy shoiri darajasiga ko'tarilish imkonini berdi. Shu bilan birga o'n sakkizinchi asr turk adabiyotida o'z hamyurtlarini birdamlikka, hamjihatlikka chorlagan mutafakkir sifatida tarixga kirdi. Maxtumquli ijodini bir daraxtga qiyoslasak, uning ildizi milliylik, vatanparvarlik g'oyalaridan kuch olgan.

O'quvchilar Maxtumqulining hayoti haqida so'z ketganda, bayonning juda ta'sirli chiqishi uchun uning taqdiri bilan bog'liq rost-yolg'on fojialarga atayin urg'u berilgan, degan fikrga bormasliklarini istardim. Biz uning hayot yo'li haqida gapirar ekanmiz, barcha ma'lumotlarni she'rlariga asoslangan holda keltirdik.

Bu haqda shoirning o‘zi ham aytib ketgan:

Gar tutsa holimdan xabar, quruq daraxtdan qon chiqar,
Inson sharorimdan asar topsa, tanidan jon chiqar.

Maxtumquli hamon otasining vafotidan o‘ziga kelolmay, kechalari tushida padari buzrukvori bilan muloqot qilib yurgan kezlari uning boshiga yana bir musibat tushdi. To‘g‘risi, bu xonadonga ajal tanda qo‘ygandek edi. Bu safar qattol o‘lim Maxtumqulining jondan aziz o‘g‘illaridan birini olib ketdi. Chopqillab o‘ynab yurgan yetti yoshli Mullabobakning nima sababdan vafot etgani bizga ma’lum bo‘lmasa-da, o‘sha paytlarda avj olgan yuqumli xastaliklar uning umriga zomin bo‘lgani ehtimolga ancha yaqin.

Hovlimning mevali bog‘i,
Uzildi yuragim yog‘i,
Suyanchim, yelkamning tog‘i,
Rozi bo‘lgil, Mullabobak!

Maxtumquli yana beixtiyor “ustimizga hijron o‘ti sepildi” degan misrasini esladi. Har gal shu misrani eslaganida, o‘zining taqdir hukmi oldida qanchalik ojiz va nochor ekanini anglab, o‘zini qo‘yarga joy topolmasdi.

Ana shunday g‘am-anduh ichida yurganida, bir kuni nogahon qizilbosh qo‘shini yana ovulga bostirib kirdi, yana hamma yoqni g‘orat qilishga, talashga tushishdi. Past-baland kulbalar o‘t ichida qoldi. Hatto beshikda yotgan bolalar ham yona boshladi, bosqinchilar og‘illardan chorvalarni haydab chiqishdi. Ovulni qonga botirishdi. Qarshilik ko‘rsatishga qurbi yetganlarni vahshiylarcha qilichdan o‘tkazishdi.

Xotin-xalaj, bolalarning nolasi-yu, qilichlar jarangi butun ovulni tutib ketdi. Qizilboshlardan besh-oltitasi Maxtumqulining hovlisiga ham bostirib kirishdi. Ayollar biqinib olishgandi. Maxtumqulining xotini ham yolg‘iz o‘g‘li Ibrohimni bag‘riga bosgancha o‘zini panaga olgandi.

Bosqinchilar uyni va ustaxonani ag‘dar-to‘ntar qilib chiqishdi. Qo‘lga ilingan narsalarni olib, kitob-daftarlarning ayrimlarini

o‘zlari bilan olib, qolganini uy bilan qo‘shib yoqib yuborishdi. Bu paytda Maxtumquli, Chovdur va qishloqning ancha-muncha erkaklari Temete degan joyga, g‘alla o‘rimiga ketgan edilar. Ular to uylariga qaytgancha, qizilboshlar o‘ljalarni olib, hamma yoqni yer bilan yakson qilib, tog‘ orqali ortga chekishgandi.

Oshiqlardan o‘tdi ishqning havasi,
Tortildi, yozildi do‘zax pardasi,
Tog‘dan oshib qizilboshlar to‘dasi,
Go‘zal elim vayron qildi, naylayin.

Yoki:

Maxtumquli, qo‘li bog‘liq, parishon,
Ajab dostonimdan qo‘ymadi nishon.

Ovul oqsoqollari bo‘lgan voqeani har taraflama tahlil qilisharkan, ovulda qizilboshlarga sotilgan josus bor, degan shubhaga borishdi. Axir ovulda qaysi paytda erkak zoti kamroq bo‘lishini bosqinchilar qayerdan biladi? Yana nega ular aynan Maxtumqulining uyiga borib, kitob va qo‘lyozmalarni yo‘q qilishdi? Demak, Maxtumquli ularning nishonida bo‘lgan.

Buni oqsoqollar, ovul kadxudolari, Maxtumqulining o‘zi ham ich-ichidan tasdiqlab turardi. Nahotki, ular, avvalo, Maxtumqulini yo‘q qilish uchun ovulga kirishgan? “Men tufayli ovuldoshlarim shuncha ozor chekishdimi?” Bu fikr Maxtumqulining yuragining bir chetini kemirib turardi.

Albatta, bunday bosqinlar javobsiz qolmasdi. Go‘klangning chapdast yigitlari bunday paytlarda darhol otga minib, qizilboshlar yurtiga bosqin uyushitirishar, qasos o‘tini so‘ndirib qaytishardi. Turkman o‘z orini boshqalarga oyoqosti qildirib qo‘ymaydi. Ammo o‘ch olganing bilan begunoh shahid ketganlar tirilmaydi. Ovul markazidagi uydan olib chiqib ketilgan, yondirilgan qo‘lyozmalar, bebaho kitoblarni ham ortga qaytarishning iloji yo‘q.

Otasi bu kitoblarni qanchalik e’zozlardi. Bu kitoblarda qancha-qancha durdonalar, sir-sinoatlar yashirin edi. Ehtimol, shu

paytgacha tadqiqotchilarimizni o‘ylantirib kelayotgan qanchadan qancha jumboqlarning yechimi o‘sha kitoblar bilan birga yonib ketgandir?

Bu voqealar ro‘y berganiga ikki yuz ellik yil bo‘lgan bo‘lsa-da bugungi o‘quvchilarni ham junbishga keltirishi turgan gap. Maxtumqulining o‘zi yurak qoni bilan bitilgan asarlari, otasidan meros qolgan bebaho kitoblarning yo‘q qilib yuborilganini qanday qabul qildi ekan? Bu ko‘rgilikka qanday bardosh berdi ekan?

Shundan so‘ng qishloq oqsoqollari, mulla Davlatmammadning do‘stlari Maxtumquliga Xiva tomonlarga ketishni maslahat berishadi. Xivaga juda ko‘p go‘klanglar ko‘chib borishgandi. Maxtumquli ularning orasida o‘zini ancha xavfsiz his etishi, shuningdek, Xiva madrasalarida o‘qib, ilmini, tajribasini oshirishi mumkin.

Garchi oilasini tashlab ketish uning uchun har qancha og‘ir bo‘lmasin, ilm-ma’rifatga bo‘lgan tashnalik Maxtumqulini Xiva tarafga boshladi. O‘zi bilan birga anchagina qog‘oz va qalam g‘amlab oldi. U endi hammasini boshidan boshlashga shay turgan yosh qalamkashga o‘xshardi.

Har gal yurtidan bosh olib chiqayotganida, uni Chovdur kuzatgani chiqardi. Bu gal ham shunday bo‘ldi. Bu gal ham butun o‘tgan-ketgan voqealar uning ko‘z o‘ngidan o‘ta boshladi. Ayniqsa, yolg‘iz jigarbandi, to‘qqiz yoshli o‘g‘li Ibrohim uning ko‘z oldidan ketmasdi.

Karvonga qo‘shilib, cho‘l-u biyobondan Xivaga ketib borarkan, hamon og‘ir xotiralar girdobidan qutulolmasdi.

U yo‘q qilingan qo‘lyozmalarni yana qayta tiklay olarmikin? She’r, fikr xuddi qushga o‘xshaydi. Unga o‘z vaqtida tuzoq qo‘yib, tuta olsang omading. Qo‘ldan chiqqan o‘ljani tutish esa, har qanday mohir ovchining qo‘lidan kelavermaydi. Buni Maxtumquli juda yaxshi bilardi.

Chunki Mengli olib qochilganda yo‘qolgan qo‘lyozmalaridagi qancha-qancha she’rlarini xotirasiga tayanib tiklashga urinsa-da, hammasini to‘liq tiklay olmagandi.

Garchi Xiva chetdan qaraganda, nisbatan tinch-osoyishtadek ko‘rinsa-da, u yerda ham o‘ziga yarasha ichki nizolar, g‘avg‘olar hukm surardi.

Tarixdan ma'lumki, Nodirshoh hukmronligi davrida Marv, Saraxs, Chorjo'y, Amudaryoning yuqori qismida anchadan beri yashab kelgan ko'p sonli o'troq turkmanlar shoh zulmidan qochib, Xiva xonligi hududiga ko'chib o'tishgan. Keyinchalik Turkman sahro, Dehiston, Durunga yaqin hududda yashagan turkmanlar ham o'sha tarafga siljiy boshlashgan.

Albatta, bu ko'chish o'z-o'zidan bo'lmadi. Bir qator muammolarni ham keltirib chiqardi. 1744–1745-yillarda turkmanlarning o'zbeklar bilan birga amalga oshirgan isyonini Nodirshohning vakili Aliquli shafqatsizlarcha bostirgandi. Ushbu isyon har ikki millat vakillarining o'rtasida birdamlik, hamjihatlik yetishmagani sababli kutilgan natijani bermadi. Qaytaga har ikki tomonning bir-biriga bo'lgan ishonch va e'timodini susaytirdi.

Tarixdan shu narsa ma'lumki, tirikchilik, hayot taqozosi bilan o'z yurtini tark etgan musofirlarni boshqa joyda har doim ham quchoq ochib kutib olishmaydi. Qolaversa, ko'chib kelgan turkmanlarning odamovi, qaysarligini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Chunki birovlarga bo'yin egmaslik, mag'rurlik turkman xalqining qon-qoniga singib ketgan xislatlardan sanaladi. Turkman ruhi asrlar davomida bu xalqning o'zligini saqlashida katta o'rin tutib kelgan. Ana shu buyuk kuch turkmanni yer yuzidan tamomila yo'q bo'lib ketishdan asrab qoldi.

Xiva hukmdorlari, mahalliy zodagonlar turkmanlarning o'ta chorasiz vaziyat sababli bu taraflarga bosh olib kelishganini juda yaxshi bilishardi. Shuningdek, ular 1744–1745-yillarda go'klang va yovmut qabilalarining bir qismi Nodirshoh qo'shinida xizmat qilgani holda, boshqa bir qismi afg'onlarga qo'shilib, Eronga qarshi urushganini ham unutmagan edilar.

"Turkmanga ishonib bo'lmaydi, kecha Eronga qarshi bosh ko'targan, bugun Xivaga qarshi isyon chiqarishi mumkin" degan qarashlar ham yo'q emasdi. Qolaversa, Xivaning shundoq yonginasida, Mang'ishloq turkmanlarining 1677-yilda Astraxanga ko'chib ketib, rus fuqaroligini o'z xohishlari ila qabul qilishgani, keyinchalik Ustyurt, Balgan turkmanlari ham ularga ergashishgani hammaga ma'lum edi. Garchi ular go'klang qabilasiga mansub bo'lishmasa-da, igdir, chovdur va abdol urug'lariga mansub edilar va ularning ham qonida turkman qoni oqardi.

Xivaliklarda "turkmanlar ruslar bilan yashirincha til biriktirib, ustimizga bosib kelishi ham mumkin" degan xavotir ham yo'q emasdi. Garchi turkmanning otidan, haybatidan qo'rqishsa-da, uning avvalgi kuch-qudrati, salohiyati qolmaganidan ko'pchilikning xabar bo'lmadi.

Mana, Maxtumquli Xivada ana shunday holatlar, fikrlar va qarashlar hukmronlik qilayotgan bir paytda safar qilayotir. Yuz yillardan beri Sharqning ilm-ma'rifat markazlaridan biri sifatida yashab kelgan Xivada har qanday davrlarda ham maktab va madrasalar faoliyatini to'xtatmasdi.

Maxtumqulini Xivaga chorlagan sabablardan yana biri otasi Davlatmammad Ozodiyning ham shu yerda o'qiganligi edi. Otasining izidan borish har bir farzand uchun faxr-u iftixor tuyg'ularini uyg'otadi.

Bizga ma'lum bo'lmagan sabablarga ko'ra, Maxtumquli hali Xivada tahsilni boshlamasdan turib, Buxoroga ketadi va shu shahardagi Ko'kaldosh madrasasida biroz muddat ta'lim oladi. Biroq bu yerdagi muhit unga ma'qul kelmagani sabab yana Xivaga qaytib keladi. Har qalay rivoyatlarda shunday keltiriladi.

Bu qanchalik haqiqatga to'g'ri kelishini anglash qiyin. Maxtumqulining bizgacha yetib kelgan she'rlarida Buxoroda kechgan davrlari haqida ma'lumot uchramaydi. Shunday qilib, Maxtumquli Xivadagi Sherg'ozixon madrasasiga joylashadi.

Sherg'ozixon 1717-yilda A.Bekovich-Cherkasskiy ekkspeditsiya a'zolarini qilichdan o'tkazgani tarixdan yaxshi ma'lum. Bu ekspeditsiya Xivaga nima maqsadda kelganini o'quvchi yaxshi bilsa kerak. 1713-yilda turkmanlardan bo'lgan Xo'janafas Astraxanga boradi. 1714-yilning boshlarida Pyotr Birinchi bilan uchrashadi. Pyotr Birinchining Hindistongacha bo'lgan hududni egallash istagi bor edi. Mazkur ekspeditsiya ham ana shu maqsadda tashkil etiladi. Sherg'ozixon ekspetsiyaning maqsadini anglab, uning barcha a'zolarini qilichdan o'tkazganida, Xo'janafas ham bu qirg'indan omon qolmaydi.

Xon o'z madrasasini 1713-yilda qurdiradi. Bu mamlakatdagi eng nufuzli ta'lim dargohlaridan biri maqomiga erishadi. Max-

tumquli nega aynan shu madrasada o'qishni ixtiyor etganligini anglash qiyin. U, albatta, xonning kechmishidan, rus ekspeditsiyasiga nisbatan ko'rgan choralaridan ham xabardor edi. U Xo'janafasning Pyotr Birinchi bilan munosabatlari va ekspeditsiya tarkibida qatl etilganini ham bilardi. Bu haqda u ko'p fikr yuritgani tabiiy.

Madrasa Maxtumqulining dunyoqarashi, tafakkuri kengayishida muhim o'rin tutdi. Bu yerda u bilimini oshirdi, yangi-yangi diniy va dunyoviy adabiyotlarni o'rgandi, ko'pgina ma'rifatli insonlar bilan tanishdi, hamfikr bo'ldi. Xususan, u madrasada arab tilini chuqur o'rgandi, bu tildagi kitoblarni bemalol o'qib, mag'zini chaqa oladigan darajaga erishdi.

Ayrim rivoyatlarga ko'ra, Maxtumquli bu yerda Hazrati Polvon ismli kishidan ta'lim olgan. U shoirning ijodiga va ilmiy kamolotiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Boshqa bir rivoyatda Maxtumquli bu yerda Nuriy Kozim ibn Bahr ismli suriyalik olim bilan tanishgani, u bilan uzoq safarlarga chiqqani aytiladi. Umuman, Maxtumqulining Xiva, Buxoro shaharlarida kechgan yillari bilan bog'liq bunday rivoyatlardan anchagina.

Umrim-ey, gul umrim-ey,
So'libdir fig'on bilan,
Otash ustina tushib,
Kuyibdir tan jon bilan.

Ha, inson o'z qalbiga quloq tutishi ham kerak. Albatta, bunday she'rlarni boshqa shoirlar ham yoza oladi. Bu yerda ohanjamoli so'zlar ham uchramaydi. Ammo nima uchundir, bu so'zlar sizni darrov rom etadi, unga chin qalbdan ishonasiz, unga hamdard bo'lasiz, u bilan birga quvonib, birga g'am chekasiz. Yurak qoni bilan bitilgan baytlar ana shunday qudrat kasb etadi.

Maxtumquli Xivaga kelib, bu yerdagi yurtdoshlari, shuningdek ma'rifatli, ziyoli insonlar orasida dovrug' qozondi. Sharqda

ko'ngilga yaqin insonlarni o'z uyiga chaqirib, mehmon qilish odati bor. Shu odatga ko'ra, Maxtumquli Xivadagi juda ko'p xonadonlarda mehmon bo'lib, tuz totdi. Ana shunday davralarda turkman elining bugungi ahvoli, istiqboli haqida ham so'z borgani aniq. Bu suhbatlarda Xiva bilan Turkman sahro aloqalari, Xiva xonligining Ahmadshoh Durroniy davlati va ruslar bilan munosabatlari ham qizg'in muhokama qilinardi. Bunday munozaralarda Maxtumquli turkmanlarning birdamligi, birlashib harakat qilishi lozimligi xususida so'z yuritardi. Ahmadshoh Durroniydan o'z xalqining umidi uzilmagani haqida ham to'xtalardi.

Keyin suhbatlar o'z-o'zidan adabiyot, ma'naviyatga borib taqalardi. Odatda Sharq xalqlarida oqsoqollarning pand-nasihatini tinglash, ulardan maslahat so'rash, fikr almashish keng tarqalgan. "Qari bilganni pari bilmas", degan naql ham bejiz aytilmagan.

Ana shunday suhbatlarda yoshlarning bilimi, fikrlash darajasi o'sadi. Xatolar va kamchiliklar bo'lsa, ana shunday gurunglarda to'g'irlanadi.

Turli majlislar, mushoiralarda yoshlar ustozlarning pand-nasihatlari, mushohadalarini diqqat bilan tinglashardi. Bunday majlislar ham, albatta, Maxtumqulida o'chmas taassurotlar qoldirardi.

Xivada mulla Davlatmammadni tanigan, bilgan odamlar ko'p edi. Otasining hurmatini qilib Maxtumqulini obro'li yig'ilishlarga chaqirishardi.

Xivadagi tahsil asnosida Maxtumquli tasavvuf oqimining yetakchi bilimdonlari bilan ham tanishdi. Musulmon sharqi tarixida ilm, fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan yerda, albatta, tasavvuf ham rivoj topganini ko'rish mumkin. Albatta, Maxtumquli tasavvuf ta'limoti, uning umrboqiy g'oyalari bilan avvaldan tanish edi. Sharq mumtoz adabiyotining biror taniqli vakili yo'qki, uning ijodida tasavvuf g'oyalari o'z aksini topmagan bo'lsin. Xususan, mulla Davlatmammad she'rlarida ham tasavvufiy qarashlar yaqqol sezilib turardi.

Shu bois Maxtumquli tasavvuf ta'limotiga har doim katta hurmat va qiziqish bilan qarardi. U Xiva madrasasida tasavvuf tarixi-

ni, Imom G'azzoliydlan boshlab, juda ko'p Sharq falsafasi vakillarining asarlarini chuqur o'rgandi.

Mansur Halloj, Nasimiy, Ahmad Yassaviy, Hoji Bektoshi Valiy, Abulfazl Saraxsiy, Abu Said Ma'naliy singari tasavvuf salaflarining ijodi bilan yaqindan tanishdi. Vaqti kelib bu allomalar asarlari, ularning fikr-mushohadalari ijodiga ham o'zining yaqqol ta'sirini ko'rsatishini u hali bilmasdi. Bu haqda chuqur o'ylamasdi ham.

Ayni damda uni ko'proq boshqa narsalar o'ylantirardi. Uni ko'proq Vatan sog'inchi, o'z millatdoshlarining bugungi fojeiy ahvoli tashvishga solardi. U bitta narsaga umid qilardi: hali turkmanlar yana birlashib, hamjihatlikni yo'lga qo'yib, azaliy buyukligiga, kuch-quvvatiga qayta erishadilar. Xalqi yana o'z obro'-e'tiborini, nufuzini qayta tiklashiga uning ishonchi komil. U o'z she'rlarida armon bilan kuylagan "ajab ayyomlar" kelishini sabrsizlik bilan kutadi. Ana shunday baxtli kunlarni o'z ko'zlari bilan ko'ra olishiga ham ishonardi. Ana shu tashvish, ana shu dard, ana shu intiqlik uni bir lahza bo'lsin tark etmagan, deyishga to'la asosimiz bor.

U Xiva atroflaridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy muhit bilan tanishib chiqqach, qoraqalpoqlar yashaydigan hududlarga sayohat qiladi. Qoraqalpoqlar ham azaldan o'zbeklar singari turkman eli bilan bir daryodan suv ichib, yaxshi-yomon kunlarni birgalikda boshdan kechirib kelishgan. Shu sabab Maxtumqulini qoraqalpoqlar o'z farzandlari singari suyub qarshi olishadi. Tez orada uning she'rlari bu elda ham shuhrat topa boshlaydi. Uning she'rlari shu qadar tez ommalashdiki, hatto qoraqalpoqlar uning turkman ekanini ham deyarli unutib qo'yishgan, uni xuddi o'z shoirlaridek qabul qila boshlashgan edi. Baxshilar uning she'rlarini kuyga solib, qoraqalpoq lahjasida o'z tinglovchilariga yetkazib berishardi.

Berdaq, Ajiniyoz singari qoraqalpoq shoirlari ijodida Maxtumqulining she'riyatiga xos bo'lgan jihatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bugun ham o'zbek, qoraqalpoq to'ylarini Maxtumquli she'rlari asosida kuylangan qo'shiqlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Shundan so'ng Maxtumquli Mang'ishloq, Astraxan, Stavropol turkmanlari yashaydigan yerlarga ham sayohatga borgan. Bu xalqlarning turmush tarzi, madaniyati bilan yaqindan tanishgan.

Ammo bu safarning uch asosiy sababini sanab o'tish o'rinlidir. U dengiz yo'li bilan kelgan turkmanlarni topib, ulardan akalari Abdulla va Muhammadsafoning daragini surishtirgan, Menglini so'roqlagan, shu bilan birga bu o'lkalardagi ruslarning turkmanlarga, turkmanlarning ruslarga bo'lgan munosabati bilan qiziqqan.

Maxtumquli ilk bor ruslarni yaqindan ko'rish, ular bilan tanishish imkoniga ega bo'lgandi. U bu buyuk xalq haqida qanday fikrda bo'lgani, qanday xulosaga kelgani bizga qorong'i. Umuman, uning ushbu sayohati haqida xalq orasida yurgan rivoyatlardan boshqa, qo'lga ilinarli ma'lumot yo'q hisobi.

Yana Maxtumqulining Astaraxan, Stavropol turkmanlari orasida bo'lganining asosiy dalili u yerlarda keng yoyilgan "Baxtimquli"dostonidir. Ular Maxtumqulini aynan shunday atashadi. "Baxtimquli" dostoni "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Layli va Majnun", "Tohir va Zuhra" dostonlariga o'xshamasa-da, o'ziga xos axloqiy-ma'naviy mazmundagi doston hisoblanadi. Doston Maxtumquli she'rlari asosida yaratilgan bo'lsa-da, uning ichida xalq tomonidan to'qilgan ayrim she'r va laparlar ham o'rin olgan.

Maxtumquli bu sayohatdan so'ng yana Xivaga qaytib, o'qishini davom ettiradi. Biroq u kamxarjlikdan biroz aziyat chekardi. Uzoqlarda qolib ketgan oilasini ham ko'p o'ylardi. Axir bu oilada katta yoshdagi bitta ham erkak qolmadi. Ularning ahvoli nima kechdi ekan? Ba'zan o'g'li Ibrohimni kechalari tushida ko'rib chiqardi. Yana akalari, Mengli haqidagi ezgin xayollarga berilardi.

Necha yillardan beri daragi chiqmagan Menglining holi nima kechdi ekan? Tirikmikin? Tirik bo'lsa, qanday azoblar chekib yurgan ekan? Balki baxtini topgandir? Baxtli hayot kechirayotgandir? Maxtumqulini eslab qo'yarmikin?

ISHQ — KO'RLIK VA VAFO

Maxtumqulining ayni shu damlarida muhabbat o'ta ilohiy va beqiyos ahamiyat kasb etganini aytib o'tmoqchimiz. Bu tuyg'u Maxtumqulining haqiqiy, to'g'ri fikrlar mantig'idan yuzaga kelgandi. U har qancha vaqt o'tmasin, Menglidan boshqasini seva olishini tasavvuriga ham sig'dirolmasdi.

Shu sababli "men qaytsam-da, ko'nglim qaytmas yor, sendan" degan bir haqiqat yuz ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan sabablar, ehtimolki, biz idrok etmagan va o'quvchilarimizning tasavvurida uyg'ongan sabablarga ko'ra, Maxtumquli umrbod Menglini qidirgan, uni kutgan, undan ko'ngil uzolmagandir? U Menglining sevgisiga, vafodorligiga ishonganidan keyin ana shunday ahvolga tushdi:

Qilgil ozod, Mengili xonim, men miskinni qilmay gumroh..

Maxtumquli Xivada o'tgan yillari ilmini chuqurlashtirish, ijodiy dunyoqarashini kengaytirishga alohida e'tibor qaratdi. U otasi mulla Davlatmammaddan, Niyozquli oxundan olgan bilimlarini yanada oshirdi. Sharqda qadimdan chuqur o'rganilib, tadqiq etib kelingan ilmi nujum, riyoziyot, jo'g'rofiya, fiqh, tarix, handasa kabi diniy va dunyoviy ilmlardan saboq oldi. Shu bilan birga tibbiyot, arab tili grammatikasi, she'riyat nazariyasini mavjud adabiyotlar orqali chuqur o'rgandi. Shu bilan birga bu zaminda yetishib chiqqan buyuk allomalar, mutafakkirlarning hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishdi.

O'zini anglamagan odam, o'zgani ham anglamaydi. Har bir kitobni o'qiyotganda, albatta, uning muallifi qalbiga kirib borish, u his qilgan narsalarni tuyishga intilish kerak. Shunda kitobda yozilmagan ko'p narsalardan ham voqif bo'lish mumkin. Kitobning ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan boshqa, yashirin jihatlari ham yuzaga chiqadi. Buni o'tmishda yashab o'tgan olim va shoirlar yaxshi tushunganlar.

Ne bo'lsa bilgaysan elat xayoli,
Dardlilar oldida men Luqmon bo'lsam.

Shunday boshlanadigan she'rda ham qirqqa yaqin shaxs va uning asarlari nomi hurmat bilan tilga olinadi.

1944-yilda Eronning Oqto'qay ovulida Maxtumqulining evara-jiyani yozuvchi Qilich Quliyevga "Muxtasar" nomli bir asarni sovg'a qilishadi. Bu asar hozir Turkmaniston Fanlar akade-

miyasining Qo'lyozmalar institutida saqlanadi. Bu kitobning qimmati shundaki, u Davlatmammad Ozodiyning o'z qo'li bilan ko'chirilgan va kitob hoshiyalarida Maxtumqulining dastxati bilan bitilgan qaydlar ham uchraydi.

"Muxtasar"dagi boshqa asarlardan ko'chirilgan iqtiboslar soniga, sahifalardagi qaydlarga qaraganda, Ozodiy va Maxtumqulining naqadar yuksak qomusiy bilimlarga ega bo'lganlarini anglash mumkin.

Sherg'ozixon madrasasida o'qigan yillari ilm va she'riyat bobida Maxtumquli tamomila boshqa olamga tushib qoldi. Bu olam uning kelajakdagi manzillariga eltuvchi yo'llarni yorituvchi shamchiroq bo'ldi.

Shoir musofirchilikda har qancha muhtojlik ko'rgan bo'lsa-da, halolligini, or-nomusini, g'ururini qo'ldan bermadi. Bu ham uning otasi va ustozlari bergan saboqlar natijasi edi. Bu haqda u o'zining "Yeldim, tut" nomli she'rida ham yozadi:

Och bo'lsang ham, borma elga, tilakka,
"Ko'kdaman de, boshim yetgan falakka!",
Cho'lda qolsang hech topolmay ko'lanka,
Eram bog'i ichra soya topdim, tut".

Maxtumqulining bu she'ri Navoiy, Fuzuly ijodidan ta'sirlanib yozilgani sezilsa-da, uning ijodida uning o'rni bo'lakcha. Ana shunday ruhiy lahzalarni ustalik bilan tutib, faqir yurakka quvvat baxsh etuvchi g'oyani ta'sirchan bayon etish faqat dohiylarga yarashadigan ishdir.

Bu optimizm, mag'rurlikning oshkora nishonasidir. Albatta nimani yozmoq muhim, ammo qanday yozmoq yanada ahamiyatliroqdir.

Xuddi "Yeldim, tut" singari she'rlar Maxtumquli ijodining bosqichma-bosqich o'sib borganidan darak beradi.

G'aribsan, yig'lama, sherdek bo'larsan.

Yoki:

Zolimlar xor bo'lar, qolar oyoqda.

Yoki:

G'am chekma. G'arib odam,
Beklar, shohlar qolmaslar,

singari satrlar ham ana shunday tadrijiy rivojlanish natijasidir.

Maxtumquli Xivada o'tgan uch yil davomida biror marta ona qishlog'iga borib kelganmi-yo'qmi, bu haqda ham aniq gap aytish qiyin. Bu haqda ma'lumot uchramaydi. Bu o'rinda Maxtumqulining fidoyiligi, oilaparvarligini hisobga olsak, biror karvonga qo'shilib, o'z yurtiga borib kelgan bo'lishini taxmin qilish mumkin.

Nihoyat, yoz kunlarining birida uni ovulidan chaqirtirib yuborishadi. Maxtumquli bu xabardan biror noxushlik hidini payqamagan bo'lsa kerak. Chunki uning "Sherg'ozixon" madrasasidan ketar paytida yozgan she'ridagi jo'shqinlik, ko'tarinkilik kayfiyatidan buni sezsa bo'ladi:

Jo'shqin yuragimda mavj urar, yotmas,
Qaynar, g'azablanar, hech loyga botmas,
Ilm-ta'lim olgan seni unutmas,
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal Sherg'ozi!

Maxtumquli bu madrasadan bir umr minnatdor bo'lib ketdi. "Senda ta'lim oldim, ochildi tilim", "Aqlim qisqa erdi, kosam qaynadi", "Ilm-ta'lim olgan seni unutmas", "Aslo unutmasman tillo eshiging" singari misralar shundan dalolat beradi.

She'rning sakkizinchi bandida padardan judo bo'lganini ham aytib o'tadi. Biroq misralar ohangidan ayriliq o'ti sovub, dard biroz eskirganini ham sezsa bo'ladi.

Shu banddagi "mashaqqat" degan so'zga alohida e'tibor qaratgim keladi. Bu o'rinda ham Mengli nazarda tutilmadimikin? Axir baxtsiz yakun topgan sevgi qissasini yana qanday nomlash mumkin? Maxtumquli Mengli bilan biroz muddat davron surgandi, mana, necha yildirki, uning firog'ida faryod urib, mashaqqat chekib yuribdi.

Albatta, bu dardini u ikkinchi ayoliga sezdirmaslikka, uning oldida Menglining nomini tilga olmaslikka urinib kelganini ham avval aytib o'tdik. Mana, bu misralar fikrimizni tasdiqlasa ajabmas:

Ko'ngil berdim bir bevafo mahbubg'a,
Qo'ldan chiqdi, yana jonga dard bo'ldi.

"Joni yongan Tangrisini qarg'ar" deganlaridek, Maxtumquli goho Menglini bevafolikda ayblasa-da, baribir, ko'ngli undan sovumadi.

Mana, bu misralar ham bejiz bitilmagan bo'lsa kerak:

Qo'rqaram yor bizni chiqarar yoddan,
O'zga yerda makon tutib, yurt tutib...

Shunday qilib, Maxtumquli uch yil tuz ichgan, ta'lim olgan go'zal Xivadan ko'ngil uzolmay ona qishlog'iga qaytayotir.

Xiva atrofida yashagan turkmanlar uning hamjihatlik, birdamlik haqidagi fikrlarini qo'llab-quvvatlasalar ham, nimadandir cho'chib turishlarini u sezgandi.

U o'z his-tuyg'ularini aql xurjunida olib qaytardi. Shu bilan birga tasavvuf haqidagi qarashlarini ham chuqurlashtirb qaytdi. U Xivadan qaytarkan, o'zini ancha ulg'aygandek, yigitlik fasli bilan xayrlashgandek sezdi. Baxtsiz va g'avg'oli kechgan yoshlik onlarini esladi...

Zamonaning yomonligi sababli el-yurtidan, oilasidan xavotiri ham orta boshlagandi. Chunki u turkman elining odatlarini yaxshi biladi. O'lim to'shagida yotgan bemordan "ahvoling qalay" deb so'ralsa, "shukur, yaxshiman" deb javob qaytaradi. O'lim haqidagi xabarni ham yotig'i bilan "falonchi sal og'irlashib qolibdi" deb yetkazishadi.

Shu bois ham Maxtumquli o'zining to'yga chaqirilmaganini seza boshlagandi. To Qoraqumdan, Dehiston kengliklaridan kechib, tog'li Gerkaz qishlog'iga yetgunicha ko'ngli ozurda bo'lib bordi.

Uning qish oylari sovuq va shiddatli kechadigan cho'ldan qanchalik mashaqqat bilan kesib o'tgani "Shifo ber" she'rida o'z aksini topgan:

Bu cho'lda rahm ayla g'arib holima,
Olamni yaratgan Subhon, shifo ber.

Maxtumquli o‘z ovuli, o‘z yaqinlarini qattiq sog‘ingandi. Oila a’zolari, qo‘shnilari, qarindoshlari davrasini sog‘ingandi. Ammo dilga yaqin insonlar suhbati uning ko‘ngliga sig‘masligi ma’lum bo‘ldi.

Uyda o‘n ikki yoshli o‘g‘li Ibrohim betob yotardi. O‘g‘lining bu ahvolga tushishiga kimningdir qo‘li bordek edi. “Zamondir” degan she’rida uning kimdandir qattiq ranjigani ko‘rinadi.

Ayting, nomussiz yigitga,
Bugun uning zamonidir,
Yig‘sin Qorun kabi molin,
Xazina bo‘sh davronidir.

Ushbu she’rni esa Xivadan qaytgan paytlarda yozgan:

Yolg‘iz farzand ro‘yin ko‘rib,
Kelibman Xivadan yo‘rtib,
Cho‘l ichinda bedov surib,
Keldim, haqning farmonidir.

Shu tariqa, yovuz ajal Maxtumqulining yakka-yu yolg‘iz jigarbandini bag‘ridan yulib ketadi:

Bir jayron oldirsa qo‘ldan ulog‘in,
Bola sasin tinglab, solar qulog‘in,
To‘ka-to‘ka ko‘z yoshining bulog‘in,
Ma’ray-ma’ray izlamasdan bo‘larmi?

singari marsiyalar dunyoga keladi.

Bu g‘am, bu hasrat uni butkul bukib qo‘yadi. Bir paytlar, mulla Davlatmammad kuchga to‘lgan paytlarda xuddi bozordek sershovqin, gavjum bo‘lgan, mehmonlarning qadami uzilmagan, erta-yu kech qozon qaynab, atrofida bolalar quvnab yurgan bu xonadon ham huvillab qoldi.

Ana shunday ahvolda yana shoirning o‘sha armonli misrasi xayolimizga keladi:

"Ustimizga hijron o'ti sepildi".

Hali o'ttizga qadam qo'ymay turib, Maxtumquli qancha-qancha yaqinlarini tuproqqa berdi, yana qanchasidan tiriklay ayrildi. Bu hayotga kelib u nima ko'rdi? O'zi bu olamda yashashdan biror ma'ni qoldimi?

Yana g'aribdek mung'ayib qolgan ko'ngil bu dori dunyodan uzildi, hammasiga qo'l siltadi. Nainki, bu uy, bu hovli yoki bu qishloq, balki butun olam unga tor qafas bo'lib tuyulardi. Qayerlargadir bosh olib ketgisi kelardi. Lekin qayoqqa boradi? Hozirga qadar ko'zi tushmagan yerga, odam oyog'i, qush qanoti yetmagan joylarga ketib qolgisi keldi.

U hozir hammadan, hatto o'zidan ham qochgisi kelardi.

Endi bir dam qarorim yo'q,
Bu manzilda turorim yo'q.

Yangi aza eski motamlarni uyg'otdi. Maxtumqulining bu dunyoga bog'lab turadigan zuryodi ham qolmagandi. Zuryodsizlik, ayniqsa, o'g'il farzand ko'rmaslik turkmanlarda har doim katta muammo, baxtsizlik sanalib kelgan. Bu o'chog'ingni kul bosishi, eshigingning yopilishi, izingni qor bosishi demakdir.

Demak, endi sening naslingni hech kim davom ettirolmaydi. Dunyodagi milliardlarcha odamlarnikidan tamoman farq qiladigan sening qoning sendan keyin boshqa tomirda oqmaydi. Demak, bu olamdan nom-nishonsiz ketasan. Ana shunday badbin o'ylar Maxtumqulini ilon bo'lib chaqardi. O'g'lining o'limi Maxtumqulini Menglidan keyingi ayoli bilan bog'lab turgan rishtaning ham uzilishiga sabab bo'ldi. Shundan so'ng bu ayolning hayoti qanday kechgani haqida aniq ma'lumotlar ham, rivoyatlar ham yo'q. Uning Maxtumquli bilan necha yil yashagani ham noma'lumligicha qolayotir.

Maxtumqulining boshiga tushgan bu musibat davrning boshqa fojialari bilan qorishib ketdi.

Ahmadshoh Durroniydan hamon bir madad yetib kelmasdi. Yana uning qoshiga, Afg'onistonga borish fikri tug'ilgandi. Bir tarafdan qizilboshlar bilan adovat, qirg'in hamon davom etardi. Go'klanglarni azaliy g'animlari ko'z ochirmay qo'ygandi.

Pichoq borib suyakka qadalgandi. Yo qizilboshni tog‘ kechib, bu taraflarga qadam bosmaydigan qilish yoki ular bilan so‘nggi tomchi qon qolguncha kurashib, qahramonona jon berish kerak! Uchinchi yo‘l qolmagandi.

Har ikki yo‘l ham kurashni, son-sanoqsiz qurbonlarni talab etadi. Hatto g‘alaba qozonilgan taqdirda ham qanchadan qancha mard yigitlarning boshi ketadi. Shu paytgacha savashlarda, janglarda, chopqinlarda toblangan, ko‘zi pishib, eti qotgan Chovdur oldinga chiqadi. U allaqachon el ichida Chovdurxon nomini olgandi.

Turkmanlar faqat davlat boshchisini emas, tadbirkorligi, dovyurakligi va dilovarligi bilan nom chiqargan odamlarning ham ismiga xon qo‘shib chaqirishadi.

Chovdur ham bu martabaga ega bo‘lish uchun qancha mashaqqatli yo‘llarni kechmadi. Nasiba tortib, Maxtumqulining do‘sti Chovdurxon nomini oldi. Uning bu darajaga erishishida Maxtumqulining ham xizmatlari bo‘lganini aytib o‘tish lozim. Sababi, Maxtumquli go‘klang qabilasining eng ko‘zga ko‘ringan oilalaridan birining vakili edi. Shu bilan birga u o‘z she’rlari bilan ham ancha-muncha nom chiqargandi. U do‘stiga bag‘ishlab ham bir qancha she’rlar yozgan.

Chovdurxon o‘z eli, qavmdoshlari uchun juda ko‘p qahramonliklar ko‘rsatgan. Quyidagi birgina misol ham buni isbotlab turibdi: Ahmadshohdan xabar olib kelishga Chovdurxonni yubormoqchi bo‘lishadi. Nima uchun Maxtumqulini bu guruhga qo‘shishmadi?

Albatta, Maxtumquli ham o‘z xalqi uchun jon olib, jon berishga tayyor. Ahmadshoh bilan muzokaralarni qo‘llab-quvvatlaganlarning ham biri aynan uning o‘zi edi.

Qadimiy turkman odatlariga ko‘ra, domla, din arboblari, olim kishilarning farzandlarini xatarli ishlarga, urushlarga yuborishmasdi. Maxtumquli Ahmadshohning yoniga borgan paytlar esa, ancha tinch, barqaror zamonlar edi. Hozir esa vaziyat keskin. Tog‘ etaklarida, Marv atroflarida qizilboshlar va qojorlar jang qilishga tayyor bo‘lib turishibdi. Qolaversa, boshqa turkman qabilalari o‘rtasida ham nizolar tingani yo‘q. Shularni nazarda tutib, Maxtumqulini ovulda olib qolishdi. Qolaversa, bu oilaning boshiga tushgan kulfatlarning shusiz ham hisobi yo‘q.

Afg‘oniston esa, bu paytda yil sayin yuksalib, chegaralari kengayib, kuch-quvvatga to‘lib borardi. Shoh xazinasi yangi bosib olingan hududlardan keltirilgan oltin-kumushlar hisobiga boyib bormoqda edi.

Ahmadshoh mansub bo‘lgan Abdol qabilasi endi uning sharafiga Durroniy deb yuritila boshlagandi. Bu so‘z durlarning duri degan ma’noni bildiradi. Ehtimol turli o‘lkalardan talab keltirilgan dur-javohirlar sabab unga shunday laqab berishgandir?

Ammo 1763-yilda uning og‘ir xastalikka chalinishi tobora yuksalayotgan salohiyatiga soya soldi. Aytishlaricha uning burun bo‘shlig‘ida saraton o‘smasi paydo bo‘lgan.

Chovdurxon shoh qabuliga uning 1769-yildagi Mashhal yurishidan avval bordimikin, keyinmi, xabarimiz yo‘q. Har qalay Maxtumqulining she’rlarini o‘rganish jarayonida Chovdurning shoh huzuriga borgani aniqlashadi. Mana, bu misralarga ham bir e’tibor bering-a:

Istar — qo‘ldan chiqar davlat humoyun,
Dolg‘alanib, to‘kar bo‘ldik yoshimiz,
Tilagim duch qilgil, go‘zal Allohim,
Erkin bo‘ldik, ketdi qizilboshimiz.
Maxtumquli aytar jonin borida,
Musulmonni qo‘yma kofir qo‘lida,
Yovmut, go‘klang kirsin birlik yo‘liga,
Ul Kamolxon afg‘on bo‘lsin boshimiz!

Maxtumquli bu she’rida ko‘plab turkman urug‘larini birlikka, hamjihatlikka chorlaydi. Turkmanda kuch ham, nomus ham, g‘ayrat ham bor. Faqat birikuv, og‘zibirlik yetishmaydi. Agar shu xislatlar ham bo‘lsa, uni hech kim yenga olmaydi. Bunga Maxtumquli chin dildan ishonardi.

Xo‘sh, bu she’rda nomi tilga olingan Kamolxon afg‘on kim bo‘ldi ekan? Ko‘pgina olimlar bu Ahmadshoh Durroniyning boshqacha oti deyishadi. Shuningdek, kamol so‘zi bu yerda nom emas, sifat tarzida ham ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Kamol so‘zi komillik, yetuklikni bildiradi. Bu har qalay ayrim olimlarimizning fikri.

Lekin bu o‘rinda e’tibor berish kerak bo‘lgan boshqa jihatlar ham bor. Butun el-yurt shoh deb ko‘kka ko‘targan insonni xon deb atash uning ko‘ngliga tegishi mumkin edi. Qolaversa, Sharqda asosan nasli mo‘g‘ullarga borib taqaladigan hukmdorlar xon deb atalgan.

Ahmadshohning esa, mo‘g‘ullarga aloqasi yo‘q edi. Shu bois unga xon deb atash shohga nisbatan mensimaslik yoki hurmatsizlik bo‘lishi mumkin edi. Keyin, bu she’rda Maxtumquli butun turkman urug‘larini birlashishga chaqiradi. Ma’lumki, Maxtumquli to otasi vafot etmaguncha, bunday keng qamrovli, xalqqa xitob bilan yuzlangan she’rlarni yozmagandi. Sababi, turkman odatlariga ko‘ra, katta turganda kichik gapirmaydi.

Ota tirik bo‘lsa, uning oldini kesib o‘tish odobsizlik sanalgan. Bizning fikrimizcha, Kamolxon afg‘on Ahmadshohning turkmanlarga bosh qilib yuborgan odami bo‘lishi kerak. U 1769-yilda turkmanlarni Mashhad yurishiga safarbar etish uchun yuborilgan.

Chunki 1753–1755-yillardagi singari turkmanlarni ikki enli xat bilan yo‘rig‘iga sololmasligini Ahmadshoh yaxshi bilardi. Chunki u bir marta turkmanlarni chuv tushirgandi. Kamolxon afg‘on Turkman sahroga kelib, tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib borgan, shoh qo‘shiniga da’vat etgan, odamlarni o‘z tarafiga og‘dirish maqsadida shoh nomidan sovg‘a-salom (boshqacha aytganda pora) ulashgan bo‘lishi mumkin.

Tabiiyki, Kamolxon afg‘onning bu harakatlari besamar ketmaydi. Ahmadshohga nisbatan so‘na boshlagan xalq ishonchi yana alanga oladi. Axir xalqni shundan bo‘lak chorasi ham yo‘q edi. Kamolxon afg‘on xalqqa, mahalliy bek va oqsoqollarga nimalar degani aniq bo‘lmasa-da, ularning qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirgani aniq.

Hatto ko‘pni ko‘rgan Maxtumquli ham, Chovdur ham yana Afg‘onistondan umidvor bo‘lishadi. Biroq endi ular oldingidek ko‘r-ko‘rona ishonch bilan urushga kirishmadilar. Avval Ahmadshoh bilan uchrashib, kengashib, keyin jangga kirishni mo‘ljallashdi.

Demakki, Chovdurxon ham ayni maqsad bilan yo‘lga chiqqandi.

O‘sha kezlarda Ahmadshoh o‘z davlatining shimoliy va g‘arbiy chegararalaridagi xavfsizlikni ta’minlash maqsadida Shohruxning ustiga yurish boshlaydi. Garchi Shohruhning ko‘zi o‘yilgan

bo‘lsa-da, ko‘zi ochiqlardan ko‘ra uzoqroqni ko‘ra olardi. Shu bois 1748-yildan beri hukmronlikni qo‘ldan bermay kelardi. Hukmronlikni ham aynan Ahmadshohning ko‘magida qo‘lga kiritgan edi. 1755-yildagi qo‘zg‘olon payti uni yenggan ham, yana qayta o‘z o‘rniga tayinlab ketgan ham Ahmadshoh edi.

1769-yilda yana sarkashlik qila boshlaganida, Ahmadshoh unga o‘z kuchini ko‘rsatib qo‘ygisi keldi. Mashhad tez taslim bo‘ldi. Shohrux esa yana avvalgi hiylakorligini qo‘llab, yana o‘z o‘rnida qoldi. Ahmadshoh Durorоniy ham eronliklar bilan ziddiyatga bora olmasdi. Ularning turkmanlarga qarshi siyosatiga zarba berish ham unga foyda keltirmasdi. Qolaversa, Ahmadshoh qo‘shinida ancha-muncha qizilboshlar xizmat qilishardi.

Katta o‘g‘lini Shoxruxning qiziga uylantirib, oradagi munosabatlarni yanada mustahkamlab olgan Ahmadshoh endi butun fikri-zikrini Hindiston tarafga qaratgandi. U Hindistonni talon-toroj qilishda qizilboshlarning ham kuchlaridan foydalandi.

Shu bilan birga Ahmadshoh bu yurishlarda Hirot turkmanlariga ko‘magiga tayangan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Turli manbalarda Ahmadshoh Hindistonga yetti martadan to‘qqiz martagacha qo‘shin tortib borgani haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Bunday janglarda qo‘shiningda turkman bo‘lmasa, g‘olib chiqishing qiyin.

Kamolxon afg‘onning turkmanlar orasiga kelishidan maqsad ham shu edi. Maxtumquli hozirga qadar topilgan ikki she’rida uning nomini tilga olgan. U ayni damlarda kimgadir ergashishmasa, turkman qabilalarini bosh qovushtirish qiyinligini anglagani uchun ham yuqoridagi misralarni bitadi. Zotan, u otasining “orzulama xonni, bekni, sultonni” degan so‘zlarini aslo unutmagan edi. U xalqiga ozgina yordami tegadigan har qanday ishga umid ko‘zi bilan qarardi. Shu bois, u Kamolxon afg‘on nomini xayrixohlik bilan tilga olgan bo‘lishi mumkin.

Chovdurxon esa jo‘nab ketadi. Ammo shu ketganicha undan xat-xabar bo‘lmaydi. Ma’lum bo‘lishicha, u ana shu safar asnosida noma’lum xastalikdan vafot etgan. Uning yo‘liga ko‘z tutib o‘tirgan qabiladoshlari tang ahvolda qolishdi, nima qilishni bilishmadi.

Ahmad podshohdan xabar olmoqqa,
Umid etdi yillar Chovdurxon uchun,
Sog'-salomat borib qaytib kelmoqqa,
O'ngmadi iqbollar Chovdurxon uchun.

Maxtumquli yelkadosh do'sti, sirdoshi, qadrdoni Chovdur haqida ikkita marsiya yozsa-da, ko'ngli taskin-tasalli topolmaydi. U do'stining o'limidan qattiq iztirobga tushgan, o'zini qanday yupatishni ham bilmasdi. U Chovdurdan ayrilish bilan dunyodagi so'nggi tayanchidan ham mahrum bo'lgandi.

Maxtumquli Chovdurxonni qanchalar o'ziga yaqin olgani, unga qanchalar bog'lanilb qolgani yana bir she'rida ham ko'zga tashlanadi.

Chovdurxon, qarog'im, ko'ngil tiragim,
Sen vafot etibsan zorlar ichinda,
Go'klangda polvonim, elga keragim,
Xalqni qo'yib ketding norlar ichinda.

Bu marsiyalar shoirning qonli ko'z-yoshlariga qorishib yozilgandi. Chovdurning o'limidan so'ng Maxtumqulining bu dunyoga e'timodi qolmagandi. Albatta, dunyoga shubha bilan qaray boshlagan shoir Ahmadshoh Durroniyga aslo ishonolmasdi. Shu tariqa bir paytlar yuragida qulf urgan "ajab ayyom"lar haqidagi orzulari ham xazonga yuz tuta boshladi. Xalqning qayga borishini bilmay, yo'lboshchisiz aro yo'lda qolgani ham buning isboti edi.

Maxtumquli turkmanning ayanchli taqdirini ovullarning to'zib-tarqab ketishini, turli kasalliklar, ocharchilik va boshqa illatlar sabablar odamlarning qirilib bitayotganini, ayniqsa, Ahmadshoh Durroniy Shohrux bilan quda bo'lganidan so'ng, turkmanlarga yanada qattiqroq bosim o'tkaza boshlaganini ko'rgan Maxtumquli tinch, xotirjam bo'la olarmidi?

Mahalliy xon va beklarning Eron tarafga qarab dum likillatishi, Vatan, millat, el-yurt qadrining tobora pasayib borishi Maxtumqulining xasta qalbini yanada g'amga botirardi. Ana shu dard-alamlar esa uning jo'shqin va g'amgin she'rlariga ko'chardi.

Gohida turkman xalqi, xususan, go‘klanglarning Ahmadshohga ixlos qilib, ko‘p narsa yo‘qotganini o‘ylab, eng yomoni bu xatoda o‘zining ham yetarlicha ulushi borligini o‘ylab, vijdoni battar qiynalardi. “Nega otamning aytganini qilmadim, nega elning gapiga quloq solmadim”, deya o‘z yog‘iga o‘zi qovrilardi.

Biz istadik turfa yoron,
Qismat bizni etdi hayron,
Kim Eron ketdi, kim Turon,
Kim Isfahon, Tabriz oshdi.

Shoirning el-yurt uchun chekkan hasrati umumxalq dardi bilan qo‘shilib ketdi.

Firog‘iy so‘zlar dardini,
Tulkilar otdi qurtini,
Talashdi turkman yurtini,
Ega bo‘lgan bir xon istar.

Ilojsizlik Maxtumqulini butkul anduh botqog‘iga botirgandi. O‘tmishini o‘ylagani sari yuragi eziladi, o‘ylamasdan ham yashab bo‘lmaydi.

Maxtumquli aytar, baxtim bevajdir,
Nasibim, taqdirim, iqbolim kechdir,
Niyatim Ka’badir, xayolim hajdir,
Ixlosim bor haj tavofin etmoqqa.

Uning butun umidi endi yolg‘iz Allohdan edi.

Yuqorida aytganimizek, Maxtumquli Sherg‘ozixon madrasasida o‘qib yurgan kezlari tasavvufga qattiq qiziqib qolgandi. Qalbida bu oqimga nisbatan kuchli ishtiyoq tug‘ilgandi. Ammo turmush tashvishlari uni anchagina chalg‘itib qo‘ygandi.

Mana, endi Maxtumquli dunyo g‘amlaridan qo‘l siltash uchun tasavvufga yuz burdi.

Tasavvuf nima?

Bu savolga uzil-kesil javob qaytarish juda qiyin. Hatto bu borada ancha mukammal asar sanalmish "Islomda tasavvuf o'choqlari" (Moskva, 1989-y) nomli kitob muallifi J.S. Trimingem ham tasavvuf so'ziga munosib ta'rif topib berolmagan.

Sababi bu oqim juda murakkab, uning mohiyatini bir-ikki og'iz so'z bilan ifoda etish qiyin. Ba'zilar tasavvuf so'zining o'zagini yunoncha "sofizm" (donishmandlik) bilan bog'lasa, boshqa bir guruh uning arab tilidagi "suf" (bo'z) so'zidan kelib chiqqan degan fikrni ilgari suradi.

Sharqda keng yoyilgan tasavvuf markazlarida yangi solik (a'zolar)ni qabul qilishning antiqa usullari bo'lgan: masalan, tirik ilonning boshini chaynash, cho'g' ustida yalangoyoq yurish, nafasni tutib turish... Albatta, bunday imtihondan qanday o'tilgani o'quvchini qiziqtiradi. Tasavvuf haqida shu paytga qadar juda ko'p asarlar bitilgan. Xususan, o'zbek o'quvchilari uchun bu xususda batafsil yozib o'tishning hojati bo'lmasa kerak.

Qolaversa, bu xususda mufassal yozilsa, suhbatimiz ancha cho'zilib ketishi mumkin.

Tasavvuf haqidagi she'rlarning aksariyatida oshiq — so'fiyning visolga — Allohga yaqinlashish, qovushish, butun kuch-qudratni ana shu buyuk maqsadga yetishish yo'lida safarbar etish, bosqichma-bosqich o'zni ham ruhan, ham jismonan tayyorlab borishdan iborat. Tasavvuf shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat singari bosqichlarni o'z ichiga olib, so'nggi bosqich so'fiyning to'g'ridan to'g'ri oliy maqsadga — Haqqa qovushishi bilan yakun topadi.

Maxtumqulining aynan tasavvufiy qarashlar asosida yozilgan she'rlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Uni Mengliga bag'ishlangan ishqiy she'rlari bilan chalkashtirib yubormaslik kerak.

Chunki, yuqorida aytganimizdek, tasavvufiy she'rlar bir qarashda oddiy insonga muhabbat taronasidek tuyulsa-da, uning zamirida Haqqa bo'lgan ilohiy ishq yotadi. Ko'pchilik esa, ana shu tafovutning farqiga bormasligi mumkin.

Mengliga atalgan she'rlarning barchasida real hayot manzaralari, inson ruhiy kechinmalari aniq ko'rsatilgan. Bu she'rlarda Menglining qiyofasi o'quvchining ko'z o'ngida aniq-ravshan namoyon bo'ladi. Uning tasavvufiy she'rlarida esa ijtimoiy masala-

lar, umuman, ko'zga tashlanmaydi. Boshqacha aytganda, ziyrak o'quvchi Maxtumqulining maishiy va tasavvufiy mazmundagi she'rlarini diqqat va e'tibor bilan o'qisa, bu holatni anglab oladi.

Tasavvuf haqidagi she'rlar xuddi bir o'q bilan ikki quyonni urishga o'xshaydi. Tasavvufdan bexabar odamlar bunday she'rlarni xuddi oddiy, ishqiy mazmundagi nazmiy asarlar sifatida qabul qilishadi.

Maxtumqulining tasavvufiy she'rlarida haqiqiy komil inson siymosi namoyon bo'ladi. Ana shunday betakror she'rlar bilan u o'tmishdagi buyuk tasavvuf shoirlari qatoridan joy oladi.

Shoirning "Oshiq bo'lmisham", "Qizmali bo'ldim", "Qolmas-o", "Ko'rdingmi?", "Qolmaqolni naylaram", "Ichmayin jonim", "Biryona bo'ldim endi", "Ko'zim tushdi" singari she'rlarni shular qatoriga kiritish mumkin.

Maxtumquli taxminan 1769-yildan boshlab tasavvufga butunlay berilib, tariqatga butun borlig'ini baxsh etsa-da, o'zini har jihatdan poklab, so'fiylar xirqasini kiysa-da, jon chekib Yaratganga munojot tarzidagi asarlarni bitsa-da, bu azoblar uning ko'nglidagidek natija bermadi. Bunda turli xil tushlar hisobga kirmaydi, tushda unga ilhom sharobini ichirganlar, uni buyuklar davrasiga olib kirgan yoronlar hisobga kirmaydi — uning birdan bir maqsadi Haq jamolini xoh tushda bo'lsin, xoh zikr chog'i hushdan ayrilgan paytda bo'lsin, ko'rishdan iborat edi.. Ammo bu niyati hech amalga oshmasdi.

Firog'iy, necha vaqt o'ldi, xabar topmasman ul yordan,
Yonarman otashi ishqda, bu ne tarhus tavallodur?

Xayriyatki, turkman xalqining peshonasiga Maxtumqulidek buyuk mutafakkir bitgan. U qanday holatga tushmasin, qalbini bezagan yuksak, samoviy istak o'z ijobatini bir lahza bo'lmasin topa olmadi. Bunda biror ishorat ham ko'rmadi. Uzoq vaqt kutgan, garchi taxayyulga cho'msa-da, dunyo tashvishlaridan to'la xalos bo'lolmagan Maxtumquli yana ijtimoiy hayotga sog'lom aql bilan qaytadi:

Kel, ko'ngil, boshingni chiqar tumandan,
Yakka qolding g'am uyida dard bilan.

Boshidagi tuman tarqalganidan keyin yana Maxtumquli turmush tashvishlariga sho‘ng‘iydi. Turkman xalqining taqdiri, hayoti yana uning qalbini larzaga sola boshlaydi. U tushkunlikka berilib, o‘zini tasavvufga baxsh etgan paytida xalqning ahvoli yanada og‘irlashgan edi.

Qani u avvalgi Turkman sahro? Karvon-karvon ipaklari bilan dunyoga yoyilgan shuhrati qayda qoldi? Qani, bir paytlardagi turksman g‘allasi? Ko‘zni oladigan alvon tusli turkman gilamlari uchun bir paytlar tojirlar hatto jonini berishga ham hozir edi. Qani, o‘sha dunyoga mashhur gilamlar?

Urush-janjal avj olgan bu makonni hatto karvonlar ham chetlab o‘tayotir. Savdo qilishga mol bo‘lmasa, ular ham nima qilsin? Yurt xaroba saroyga o‘xshardi. Hamma yoqda qashshoqlik, turfa kasalliklar o‘z to‘rini yoygan. O‘z tinchini o‘ylagan xonlar, beklar xalqdan yuz o‘girib, Eron hukmdorlari bilan xoinona til biriktirishgan.

Maxtumquli ana shunday og‘ir bir vaziyatda dunyodan yuz burib, so‘fiylikka berilsa, insofdan bo‘larmidi? Kezi kelganda aytish lozimki, Maxtumqulining tasavvufga berilgan davri qancha davom etgani, va bu holat qanday ko‘rinish kasb etganini bilmaymiz? U qalandarlik xirqasini kiyib o‘z uyidan bosh olib ketdimi, “huv Alloh” deya uzlatga chekindimi, — bu hali shoir hayotining atroflicha o‘rganilmagan jihatlariga kiradi.

Shu bois aniq gap aytish qiyin. Nima bo‘lgan taqdirda ham, bu yillar davomida tasavvuf tarixi, o‘z davrining yetuk mutasavviflari, ularning faoliyati, o‘n sakkizinchi asrdagi tasavvuf markazlari bilan yaqindan tanishgan bo‘lishi kerak.

Sen nechuk Maxtumquli, yomonliging unutmading,
Gohi-gohi zolim o‘lding, ko‘rganingdan qaytmading,
Gohi-gohi so‘fiy bo‘lding, hech haromdan totmading,
Bilmadim sen qaysi bo‘lding, belli bir ish tutmading,
Ne sipohiylik bilan bo‘lding, ne mullolik bilan.

Shu o‘rinda yana bir narsani esdan chiqarmaylik: 1769-yilda Ahmadshoh Durroniy Mashhadga yurish qilib, Shohrux bilan quda bo‘lib, yana Shohruxni o‘z o‘rniga o‘tqazib qaytganidan

keyin, barcha turkmanlar bilan birga Maxtumquli ham ilojsizlik, mavhumlik, tushkunlik girdobida qoladi. O'sha davrdan to Ahmadshoh Durroniy o'lganiga qadar, ya'ni 1773-yilgacha, Maxtumquli tasavvufga chandon berilgan deb hisoblashga asosimiz bor.

Shundan so'ng Maxtumquli tasavvuf bilan shug'ullanmay qoldi. Biz bu o'rinda uning tasavvuf oqimida suzgan yillari haqida juda qisqa ma'lumot berdik. Bu dengizdan bir tomchi xolos. Uning tasavvufiy she'rlari, tasavvufga baxshida yillar alohida tadqiqotlarning, butun-butun kitoblarning mavzusi bo'lishi mumkin. Bu turkman yoxud turkiy adabiyotning hali to'la o'rganilmagan sahifalaridan biri.

Hozirga qadar, asosan, tasavvufning adabiyotdagi in'ikosi haqida yozilgan bo'lsa, inson va jamiyat tamadduni rivojida tasavvufning ishtiroki, ko'pgina xalqlarning ruhiy takomillashuv jarayonida bu oqimning ahamiyati, qolaversa, etnografik nuqtayi nazardan tasavvufning bugungi hayotimizdagi o'rni haqida ko'plab asarlar yaratish kerak.

Tasavvuf, garchi, islom negizida rivojlangan bo'lsa-da, uning ildizlari islomiyatdan avvalgi davrlarga borib taqalishi ko'pchilikka ma'lum. Unda qadimgi Xitoy, hind, yunon falsafasining ham unsurlarini ko'rish mumkin. Bu zaminda bir paytlar zardo'shtiylik, buddaviylik, nasroniylik dinlari ham keng tarqalganini e'tiborga olsak, bu ta'limot qanchalik olis va rang-barang tamaddun ildizlaridan ozuqa olganini anglaymiz.

Manbalarga ko'ra, Xitoy va boshqa Sharq o'lkalariga keng yoyilgan Budda ta'limoti ham dastlab bizning zaminimizda quloch yoya boshlagan. Nasroniylik ibodatxonalari esa XI asrgacha faoliyat ko'rsatib kelgan. Demak, ushbu dinlar butun Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, turkman xalqining madaniyatida ham o'z izini qoldirgan. Bu juda katta tajriba maktabi demakdir. Bunday baxtga jahondagi kamdan kam xalqlar muyassar bo'lishgan.

Yana Maxtumquli davriga qaytaylik. 1773-yilda Ahmadshoh og'ir kasallikka chalinib, ellik yoshdan o'tganda vafot etdi. Maxtumquli esa qirqqa to'lgandi. Uning "ajab ayyom" haqida umidlarining eng so'nggi uchqunlari Ahmadshohning o'limi bilan kulga aylandi. Hayot muammolariga tayinli yechim topa olmagani, Ah-

madshohga, "ajab ayyom"ga ishongani uchun pushaymon bo'ladi, o'tmishdagi xatolarini qayta sarhisob qilib, afsus-nadomatga botadi:

Nodon manam, tushdim falak to'riga,
Qancha kutdim, ajab ayyom kelmadi.
Chidolmasman endi hijron zo'rina,
Qancha kutdim ajab ayyom kelmadi.

Bu pushaymonlarning ko'pi Ahmadshoh Durroniy bilan bog'liq. Esingizda bo'lsa, u sal avvalroq:

Biz istadik ulug' yoron,
Qismat bizni etdi hayron,

degandi. Endi esa hayotning past-balandlarini puxta o'rganib bo'lgach:

Xonga hamroh bo'lma, fe'ling ozmasa,
Shoh qizini olma, Xudo yozmasa.

Yoki:

G'arib tushsang, albat ochar aybini,
Do'st bo'lib yashasang buyuk xon bilan.

Yoki:

El ichida shohlar, xonlar,
Zaharli ilona do'ndi,

deya faryod chekardi. Demak, bu o'rinda Ahmadshoh Durroniyga ishora bor. Chunki u turkman elidan madad olib, qiyin vaziyatda qolganida unga yordam bermadi. Shundan so'ng Maxtumquli oliy tabaqa vakillaridan tamomila umidini uzdi. Ularning fe'li, tabiati haqida uzil-kesil xulosaga boradi.

Maxtumquli Afg'onistonga borganidan, Ahmadshohni maqtab she'rlar yozganidan qattiq pushaymon bo'ladi.

Siyosat osmonda suzib yurgan bir bulutga o'xshaydi. Bulutga hamroh bo'lgan odam oxiri afsusda qoladi.

Ketar bo'ldim yigitlikda ish bilan,
Har yona chopibman, yupun bosh bilan.

Yoki:

Avvali bilmas edim, bilganlara bosh egmadim,
Bu baloda kimsa yo'q men benavodan boshqa bir.

Bu satrlar orqali Maxtumquli balki "O'g'lim-Ozodim" aytishuvidagi voqealarni, otasining jon koyitib, "orzulama xonni, bekni, sultonni" degan o'gitini eslagandir? Siyosat maydoni o'zini boshqalardan ustun qo'yishga intiladigan insonlar bilan ham liq to'la ekanini Maxtumquli o'z tajribasida o'rganib chiqqandi.

"Boshqalardan ajralib turish" deganda Mavlono Jaloliddin Rumiy bilan bog'liq bir rivoyat yodimga tushdi:

Aytishlaricha, muridlari pul to'plab, Rumiy hazratlariga bir ulov olib bermoqchi bo'lishibdi. Ot qimmat bo'lgani uchun bitta eshak sotib olishibdi. Biroq hazrat Rumiy eshakka ham minmay piyoda yuraveribdi.

— Mavlono, eshakka minishni o'zingizga ep ko'rmadingiz, chog'i, — deb so'rashibdi shogirdlari.

— Buning uch sababi bor, — debdi Mavlono. — Birinchidan, Alloh yursin deb odamzodda ikkita oyoq berib qo'ygan. Nega o'z oyog'im bo'lgani holda boshqa bir jonzotga o'z yukimni ortaman? Ikkinchidan, eshakka minsam, boshqalardan balandroq ko'rinarkanman. Odamlardan yuqori ko'rinishga intilish kibr bo'ladi. Men kibrni yomon ko'raman. Uchinchidan, men eshak minib yursam, eshakning boshi mening boshimdan oldinroq yurishini ko'rdim. Bu esa menga ma'qul kelmadi".

Maxtumquli Ahmad Durroniydan, unga ishongan qancha-qancha odamlar bilan birga o'zi ham aldanganiga endi shubhasiz ishongan edi. Shu bois Ahmadshoh haqidagi iddaoli fikrlarini

chuqurlashtirishni istamaydi. Bir band bilan Maxtumquli-Ahmadshoh voqealari tamom bo'ladi va bu mavzuga boshqa qaytilmaydi:

Keldi qora balo, elni ovladi,
Dahan ochib, tili bilan yaladi,
Vahshat ila ko'rganini taladi,
Uzoq kutdim, ajab ayyom kelmadi.

Umuman, qirq yoshda Maxtumquli dunyoga yangidan boqishga, fikr-mulohazalarini qayta sarhisob qilishga kirishdi.

Umr kamondan otilgan o'q ekan. Bir zumda o'tib ketarkan. Biroq hali yana oldinda sirli manzillar kutardi uni. Bu g'avg'oli zamonda, kelajakda uni yana qanday kunlar kutayotir. Notinch, dolg'ali davr dengizida chayqalib suzayotgan taqdir kemasi uni qay yurtlarga, qay qirg'oqlarga olib ketarkin?

IKKINCHI BO‘LIM

Yolg‘onchiga aylanib, oltmish sari qo‘l kerding,
Foniyni boqiy bilib, rosa yelding-yugurding...

Otasiz-onasiz, qarindoshlarsiz, do‘stsiz, Menglisiz, zuryodsiz, qanotsiz qolgan Maxtumquli birdan to‘xtab, hayotga qat’i nazar soldi. Umrining yigirma yili Ahmadshoh Durroniyga umid bog‘lab o‘tdi. Turkmanlar Ahmadshohga yuz qaratsalar, uning atrofida jipslashsalar, hamjihatlikka erishadilar, er izidan borib, er bo‘ladilar, Afg‘on davlatidan ibrat olib, o‘z davlatlarini qura boshlashadi, Ahmadshoh qo‘shnichilik, qon-qardoshlikni yuz-xotir qilib yordam berar, deb o‘ylagan Maxtumqulining orzulari sarob bo‘lib chiqdi. Avvalo, turkmanlar hammasi bir bo‘lib, Afg‘onistonga moyillik bildirmadi, Ahmadshoh Durroniy ham o‘z so‘zida turmadi.

Shunday qilib, Maxtumquli vayronaga aylangan o‘chog‘ining boshida yakka-yu yolg‘iz qolaverdi. O‘choq tiklamoqchi bo‘lganlar qani? O‘t yoqadiganlar-chi? O‘t-o‘choqning atrofida o‘tirib kim gurung beradi? Bir mahallar uyim deb, yurtim deb ko‘kragiga mushtlab yurgan turkmanlar endi har tarafga tarqab ketaveradimi? Kuchlarni jamlab, quvvatini bu buyuk tog‘lar, bu keng sahrolarga sig‘dira olmagan turkmanlar Hindiston, Xo‘tan, Rum, Halab va Bag‘dod taraflarga yo‘l oldi. Xo‘tanda xon, Bag‘dodda bek, Rumda, Eronda, Hindistonda shoh bo‘la bilgan turkman endi o‘z eliga, o‘z yurtiga ega chiqolmasa, bu nima degan gap? Asl turkman qadim zamonlardan beri, asrlar mobaynida bo‘linib-tarqalib, har tarafga yoyilib, yot ellarga o‘z qudratini ko‘rsatib yursa — bu nimasi axir? Qadimgi Niso, buyuk sulton Sanjar gullatgan Marvi shohi jahonda, Dehistonda yashayversa bo‘lmasmidi? Darz ketgan joyni tuzat-da, yashayver! Ehtimol, turkmanning o‘zi xuddi shun-

day yaratilgandir? Bir makonda yashab, boshqa borar yeri bo'lmasa-da, otga mingashaverganini qanday tushunish mumkin?

Yo turkmanlar O'g'uzxonning "bir joyda turma" degan nasihatini o'zlariga bayroq qilib oldilarmi?

Buyuk Yunus Emro "keling, do'stlar, tanishaylik, ishni oson qilaylik, sevaylik, sevilaylik, dunyo hammadan qoladi" deb turganda, bu tarqoqlik kimga kerak bo'ldi ekan? "Ko'saga hamma bittadan tola bersa, soqolli bo'ladi" degan naqlni turkman og'alar unutdimikan?

Buyuk Jaloliddin Rumiy bir savolga shunday javob bergan ekan: "Men qay bir maskanga yuz bursam, qarshimda bir turkman nuroniysini ko'raman". Bu Yunus Emroga berilgan baho.

Ha, bu Vatan buyuk farzandlarni yetishtirib berdi. Ammo shu fursatda uning o'zi egasiz qoldi. Chor tarafda esa, yovlar ot o'ynatib yuribdi. Nima qilmoq kerak? Javob bera oladigan mard bormi? Yo'q, buning sababi bor!

Turkman o'zini taniganidan beri uning atrofidagilar bu elni parchalash, bo'lish siyosatini olib bordilar. Bu jangovar xalq parchalanmasa uni yengib bo'lmasligini, agar u birlashsa, juda katta kuchga ega bo'lishini bilishardi.Maxtumquli shularga ko'zi yetgani uchun ham quyidagi satrlarni bitgandi:

El to'g'ri bo'lmasa, shohlar taxtdan tushar-ketar...

O'z yurtidan shoh chiqmagaininig sababini Maxtumquli turkmanning ana shu erkinligidan, o'zboshimchaligidan deb bildi. Turkmanlar ajaldan qo'rqib, Azroilni sizlaydiganlardan emas.

Har bir turkman o'zicha shoh. Shunday ekan, u boshqa bir shohga qanday qilib bo'yin egsin? Turkmanlarning Ahmadshohga bir ovozdan bo'ysunmaganlarining sabablaridan biri mana shu!

G'aroyib hodisa: turkmanning qaysarligi, mag'rurligi uning birlashib, til biriktirib, qudrat kasb etishida ham imkon yaratmaydi, tarqalib, yo'q bo'lib ketishiga ham yo'l bermaydi.

Xo'sh, unda nima qilishi kerak? Agar ana shu xislatlar, g'urur va iftixor turkmanni yo'q bo'lib ketishdan asragan bo'lsa, demak, bu kuch xalqni baxtli qilishga ham qodir. Bunga Maxtumquli qattiq ishonardi. "Tangri yagona, ota-ona yagona, lafz ham bitta bo'ladi", degan naql ham xalq ichida bejiz yoyilmaganini u yaxshi bilardi.

FAXR-IFTIXOR LAFZI HALOL ODAMDAGINA BO‘LADI

Maxtumquli faqat bir yo‘l bilangina maqsadga yeta olishini bilardi: milliy g‘urur tuyg‘usi bora-bora qabilalarning, urug‘larning birlashishiga, yagona davlat qura olishiga sabab bo‘la oladi. Maxtumquli ancha yillar davomida butun dunyoning turli puchmoqlariga tarqab-to‘zg‘ib ketgan turkiyzabon xalqlarni, shu jumladan, turkmanlarni ham bitta maqsad yo‘lida birlashishlarini orzu qildi, shu maqsad uchun yonib-kuydi.

Taqdir to‘foni turkmanlarning bir bo‘lagini Sharqiy Turkistonga tashladi, ularning ko‘pchiligi uyg‘ur va salir turkmanlaridir. Hindistonda maskan tutganlar ham oz emas.

Hirotda, Rum diyorida ham katta miqdordagi turkmanlar yashaydi. Iroqda, Suriyada yashayotgan turkmanlar ham Markaziy Osiyoni o‘z vatanlari deb bilishadi. Astraxanga ko‘chib ketgan turkmanlar to hanuz o‘z vatandoshlari bilan borish-kelish qilishadi. Agar ana shu tarqoq el birlashganda edi, qizilboshlar ham tavbasiga tayangan bo‘lardi. Zo‘r kelganda ular ham aslida turkiy qavm ekanini eslab qolisharmidi?

Mana, Maxtumquli ham ana shunday o‘y-xayollarga berilib, o‘z oldidagi maqsadlarga erishish yo‘llarini izlamoqda. Xuddi shu sabab ham:

Alloh qanot bersa, Hindiston uchar,
Uzoq kutdim, ajab ayyom kelmadi,

degan satrlar yozildi.

Shoir bu o‘rinda nega Hindistonni esga oldi ekan? Axir u “Alloh qanot bersa, Rumiston uchar” deyishi ham mumkin edi-ku? Yo‘q, unaqa demaydi. U turmush shart-sharoiti, tarixiy voqelikdan kelib chiqib, uning natijasida yuzaga keladigan fikrlarga ergashadi. Hindiston tilga olinishining o‘ziga yarasha sabablari ko‘p. Hind-turkman munosabatlari (savdo-iqtisodiy, harbiy, madaniy va ma’naviy sohalardagi aloqalar, an’ana va urf-odatlardagi mushtarak jihatlar va hokazo) qadim zamonlardan beri davom

etib kelayotgani, Hindiston haqidagi turli ma'lumotlar, odamlarda bu elga bo'lgan qiziqish, turkmanlarning Hind zamini, uning boy tabiatiga bo'lgan ehtiromi — bularning barchasi birlashib, xalqning Hindiston haqidagi tasavvurlarini shakllantirgan. Biror yoqimli ovoz eshitishsa, hind ovoziga o'xshatishgan, chiroyli rang ko'rsa, hind qushlarini esga oladigan, biror fayzli makonga borib qolishsa, "Hindistondek obod makon ekan" deydigan bo'lishgan. Xalqning ruhiga o'rnashgan bu kabi tasavvurlar dostonlarga-da ko'chib o'ta boshlagan.

Maxtumquli ana shunday millatdoshlaridan dalil izlamoqchi, ular bilan suhbatlashmoqchi bo'ladi. Qolaversa, Hindiston — yuksak tamaddun, buyuk mutafakkirlar, olimlar, donishmandlar, munajjimlar beshigi. Balki ular turkman xalqining qachon, qanday holatda baxti ochilajagi, qanday yo'l tutilsa "ajab ayyom" kelishini bashorat qila olishar?

Muhammad Shoh Turkman Hindistonda hukmronlik qilgan paytlarda Nodirshoh zo'rlik bilan olib qaytgan Tovus taxti ham, "Ko'hi nur" olmosi ham aslida shu diyorning mulki edi. Shu bilan birga Maxtumqulining sayohatga oshufta qalbi Hindistonni borib ko'rish ishtiyoqida yonardi. To'g'rirog'i, u Hindiston bilan birga Butun dunyoni kezib chiqmoqchi edi:

Ko'ngil aytar, gasht aylab,
Olam — jahonni ko'rsam.

Yoki:

Ko'nglim istar, kezsam dunyo, olamni...

Hinduizm dinlari, marhumlarning jasadini yoqadigan millat haqida o'qigan-eshitgan bo'lsa ham, ularni ham o'z ko'zi bilan ko'rgisi kelardi. Uning qiziqqonligi, o'zi hayotning turli zarbalariga uchrasa-da, xuddi bolalik paytidagidek o'zgarmay qolgandi. Yuqorida aytib o'tilganlar, hanuzgacha biz anglab yetmagan sirlar, balki biz uchun noma'lumligicha qolib ketadigan sinoatlar uchun Maxtumquli "Alloh qanot bersa, Hindiston uchar" deb yozgandir?

Shuningdek, bu boradagi yana bir vaziyatni chamalab ko‘raylik: Hindistonning boshqa mamlakatlarga olib chiqadigan yo‘llari ham ko‘p, deylik. Maxtumquli o‘z xalqining yetarli darajada orqada, mahdudlik ichida qolib ketayotganiga ko‘zi yetgandi. Balki ana shu mahdud xalqni buzib chiqish istagi Maxtumqulining “Hind sori yuzlanishga” undagandir?

U paytlar uzoq safarga otlanish uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘rish kerak bo‘lmaganini bilamiz. Shoirlik an’analariga ko‘ra, yangi tanishgan shoirlarga o‘z kitoblarini esdalikka berish uchun she’riy qo‘lyozmalarini bir necha nusxa ko‘chirib ham qo‘ygandi.

U ayni damda ovozi chiqqan katta shoir edi. Ismi, she’rlari tildan tilga o‘tib yurardi.

Ismim tushdi eldan elga,
Naqsh etarlar dildan dilga.

Maxtumqulining xayolida Hindiston yanada jonlanib, yaqinlashib borardi. Yo‘lga chiqayotgan har bir odamda bo‘lgani kabi Maxtumquli ham uzoq safar oldidan ko‘nglidagi og‘riqli nuqtalarni yodga oladi. Hech qachon unuta olmagani, sevikli Menglisi shu kunlar uning tez-tez esiga tushib, ezgin xotiralar azoblay boshlagandi. Sababi, Menglining ham oq yuzida hind-u xoli bor edi-da!

Balki Hindistonda Menglini uchratib qolar? Agar u yerda rostdan ham Menglini uchratib qolsa, yuragi quvonchdan yorilib ketsa kerak.

Agar u hayot bo‘lsa, kimningdir oilasini gullatib o‘tirgandir? Unda Maxtumquli qanday qilib, bir insonning hasmi qoshiga bosh egib, yukunib boradi? Lekin uni ko‘rib qolsa, o‘zini tutib tura olarmikan?

To‘g‘risi, Menglini ko‘rib qolsa, qay ahvolga tushishi mumkinligini Maxtumquli tasavvur ham qilolmasdi. Ayriliqning bir yomon tomoni shu ekanki, vaqt o‘tgani sayin sevgilingning qiyofasi tumanga qorishib boraverarkan.

Lekin Mengliga bo‘lgan muhabbati, ishqi shu qadar kuchli ekanki, yoshi qirqqa yetib, undan ajralganiga yigirma yildan oshgan esa-da, bu kuchli otash alangasi kuchaysa kuchaydiki, pasaymadi. Mengli ismining o‘zi Maxtumquli uchun bir olam mo‘jiza edi.

Mengli — Navro‘z ayyomining erib ketishga tayyor turgan oppoq qoridek beg‘ubor. Mengli bu — dararlarni gumbirlatgan telba sel, Mengli bu — osmonga arg‘imchoq tashlagan kamalak. Mengli bu — jannatning eng totli mevasi. Mengli bu — olamning ibtidosi-yu intihosi. Maxtumqulining qalbidan Mengli ana shu taxlit joy olgandi. Uning “Hindistonda xayolim” deb nomlangan she’rida ham shunday satrlar bor:

Mengli jonga o‘t solar,
O‘ti jismimda qolar.

Maxtumqulining yolg‘izlik otashida yonayotgani aniq. O‘lganlar-ku o‘ldi-ketdi, ammo tiriklayin yo‘qolgan og‘a-inilaridan ham to hanuz darak yo‘q. Gohida akalarini eslab, yuragi erib oqadi:

Bu qardoshsiz foniyda,
Nechuk o‘tar ahvolim?

Maxtumqulining butun fikr-u zikri Hindiston tarafga oqqanida: *Ko‘ngil yo‘lga ravona, Hindistonda xayolim*, degan satrlar dunyoga keladi.

Maxtumquli endi Hindistonga otlanaman deb turganida, qizilboshlarning katta qo‘shini yana turkmanlar ustiga to‘kildi. Bu gal ularning asosiy nishoni Turkman sahroning markaziy shaharlaridan biri Gurgonga yo‘nalgan edi. Garchi, urush uncha uzoqqa cho‘zilmasa-da, har ikki tarafdan ancha qurbon berildi. Gurgon tevaragidagi turkmanlar til biriktirib qizilboshlarga qaqshatqich zarba berdilar. Ana shu jangda Eronning bo‘lajak shohlari Og‘amuhammadning akasi, Fathalining otasi Hasanquli o‘ldirildi.

Gurgon atrofidagi janglar 1774-yilda bo‘lib o‘tadi va turkmanlarning g‘alabasi bilan tugaydi. Bu g‘alabaning harbiy nuqtayi nazardan katta ahamiyati bo‘lmasa-da, siyosiy va ruhiy ta’siri katta bo‘ldi. Bu g‘alaba turkman xalqini birdamlikning kuchini anglashga, o‘z qudratiga ishonishga da’vat etdi. Shu g‘alaba turkman milliy g‘ururini yanada orttirdi. Albatta, bu voqea ham Maxtumqulining jo‘shqin ijodiga ta’sir qilmasdan qolmadi:

Qurganim aslida bilgil, bu zaminning mixidir,
Ul erur erkin mudom, turkman binosi shul erur.

Siz bu misralardagi g'urur, ishonch va ko'tarinkilikka bir e'tibor bering-a? Shunda Maxtumqulidan boshqa biror shoir bunday she'rni yoza olmasligiga amin bo'lasiz.

U ana shunday ko'tarinki kayfiyatda Hindistonga yo'l oldi. U safarda ketib borarkan, xalqining yashirin quvvatiga, ertami-kechmi, baribir, birlasha olishiga ishonch bilan borardi.

Yo'l-yo'lakay ko'plab aziz-avliyolarning qadamjolarini ziyorat qilib o'tdi. Xususan, o'z ustozlari, xalifasi Abu Said Ma'nolining, Abul-Fazl Saraxsiyning mozorlari yonidan o'tayotganida, har birining boshida Qur'on tilovat qildi.

Marvda to'xtagan karvon nafas rostlash uchun yukini tushirgan damda Maxtumquli Hoja Yusuf Hamadoniyning chakalakzor ichida arang ko'rinib turgan maqbarasini topib, duo o'qib qaytdi. G'ishtlari orasida ne-ne sinoatlarni saqlagancha, sukutga tolgan Marvi shohi jahonning qadimiy devorlari, eski binolarning xarobalari uning yuragida mahzun hislarni uyg'otdi. Hamma imoratlardan yuksalib turgan Sulton Sanjar maqbarasiga uzoq tikilib turdi. Shu turishida u Saljuqiy sultonlarning, bu shaharning bir paytlardagi buyuk shuhratini, dunyoga taralgan kechmishdagi dovrug'ini xotirlatdi.

Qani, ul shuhratlar, qani, ul nomlar?

Ana o'sha davron bu shaharga yana qaytib kelarmikin?

Bu muzofotlarga Islom dini boshqa joylarga qaraganda oldinroq kirib kelgandi. 651-yilda. Umar Hayyom, Ibn Sinolar bu shaharning ilmidan qonib-qonib ichishgandi. Buyuk Navoiy hazratlari bu kentda go'zal bir masjid qurdirgan edi. Bunday voqealarni sanab sanog'iga yetish qiyin. Sababi Marvi shohi jahon ipak yo'lidagi bir oltin halqa edi. Marvni ko'rmay ketgan sayyoh bir umr armonda o'tardi.

Ulug' Marvi shohi jahon,
Vayron bo'ldi, chekar fig'on...

Maxtumqulining "Marvi shohi jahon" deb nomlangan bir dostoni ham bor.

U davrlar Hindistonga boradigan yaqin yo'l Afg'onistondan, Xaybar dovonidan o'tardi. Ahmadshohning o'limidan so'ng, taxtga uning o'g'li Temurshoh o'tirib, mamlakatning umumiy ko'rinishi o'zgarmagan bo'lsa-da, bu yurtning shuhrati Ahmadshoh Durroniy paytidagidek emasdi.

Karvon Afg'on diyoridan ketib borar, Maxtumquli ham xotiralar yuki ostida xayolga cho'mgan edi. Ahmadshoh Durroniydan aldanib qolgani, unga atab qasidalar bitgani uchun ayni chog'da qattiq pushaymonlik mayini sipqormoqda edi. Bu pushaymonlik, bu armonlar umr bo'yi uni ta'qib etishi aniq.

Xonga hamroh bo'lma, fe'ling ozmasa,
Shoh qizini olma, xudo yozmasa...

Yoki:

Maxtumquli yaxshi ko'rardi ishin,
Qirqidan so'ng johil bo'lsa odamzod.

Bunday she'rlar ham ana shu tuyg'ular mahsuli edi.

Bu safar asnosida ko'rgan-kechirganlari haqida na Maxtumqulining o'zi, na-da unga tegishli manbalardan biror ma'lumot topish mumkin.

Har qalay uzoq safarga chiqqan karvon ahli ko'pdan ko'p voqealarni boshidan kechirgani aniq. Maxtumquli shu choqqacha ko'rmagan yerlarni ko'rganida, ayniqsa, Afg'onistonni, janubdagi qish bo'lmaydigan hududlardan o'tganida, tili, tashqi tuzilishi, qiyofasi boshqacha odamlarni ko'rganida ko'nglida hayajon uyg'onardi. U dunyoning yangicha, xilma-xil manzaralarini ko'rayotganidan shod edi. Bir yalanglikdan o'tib borisharkan, qora chodirlilar deb ataladigan qavmni ko'rdi. Ular qop-qora chodirlar tikib, uning ichida umrguzaronlik qilishar, ularning badani ham, kiyimlari ham qop-qora edi. Faqat qorong'ida ko'zining oqi, tirnog'i va tishlaridan ularni anglash mumkin edi.

Qora chodirlilarning bir oqsoqoli karvondagilarni choyga chaqirdi. Ammo karvonboshi uzr aytib yo'lida davom etdi. Negadir

qop-qora rangli odamlardan cho‘chidimi, yo boshqa yerda to‘xtab tin olishni ixtiyor etdimi, bu yerda dam olgisi kelmadi.

Sharq mamlakatlarida karvonlar o‘ta ehtiyotkorlik bilan yo‘l bosadilar. Agar karvon ahli biror narsadan salgina shubhaga tushsa ham, shu yerda to‘xtamay o‘tadilar. Karvonlarning qurollangan maxsus otlig‘ qo‘riqchilari ham bo‘lardi. Katta karvonlar har doim zaruriy ehtiyot choralari bilan harakatlangani qadimdan ma’lum. Yo‘l-cho‘lni, muomalani yaxshi biladigan karvonboshi qaroqchi-yo‘lto‘sarlardan xoli deb bilgan manzillardagina to‘xtab, hordiq chiqarishardi.

“KARVON KO‘RSA QAROQCHI QUVONAR” DEYDILAR

Karvondagilar shamol-bo‘rondan, vahshiy hayvonlardan himoyalanishning ham choralarini ko‘rib qo‘yardi. To‘g‘ri kelgan yerda nafas rostlaydigan karvonlar esa, ko‘p hollarda boshlariga mushtlab qolishardi.

Ehtiyotingni qilmasang, daladagi qashqirlar to‘dasiga ham duch kelish hech gap emas. Karvon ko‘rsa, ko‘z oldingda qum to‘zg‘itib, ko‘z ochirmaydigan, qo‘rqinchli sas chiqarib, shu to‘s-to‘polonda tuyalarni, otlarni kekirdagidan oladigan, qonini so‘radigan vahshiylar ham har qadamda uchrardi. Ularning nomini qizilcha bo‘ri deyishadi. Xullas, karvonning dushmanlari oz emas. Maxtumquli qo‘shilib ketayotgn karvon ham bu xatarlardan xoli emasdi.

Bir ovulda tunab, ertalab yo‘lga tushishganida, bir to‘da yarimyalang‘och odamlar karvonning yo‘lini to‘sdi. Ularning yuz-ko‘zlaridan talonchilik niyati yo‘qligi ko‘rinib turardi. Karvon ahli ularni chetlab o‘tmoqchi bo‘ldi, ammo bu ish bermadi.

— Yo‘q, yo‘q, bizdan osonlikcha qutulib ketolmaysizlar, — deyishdi ular. — Biz lo‘lilar (beluj tilida bu so‘zning “gazanda” degan ma’nosi ham bor) ochimizdan o‘layotganimiz yo‘q-ku? Qo‘shiq tinglaysizlarmi — bosh ustiga, hozir qo‘shiq aytib beramiz. Tovonimiz bilan yerni tepib raqs tushaylikmi — yana bosh ustiga! Istasangiz qip-qizil cho‘g‘ ustida sakrab tomosha

ko‘rsatamiz. Ayting, nima qilsak, ko‘nglingiz shod bo‘ladi? Aytinglar, siz boy, biz gadolarmiz, siz buyurasiz, biz bajaramiz. Sizlar sadaqa bermoqchi emassiz, biz esa olmasak o‘lamiz. Buyruq bering, qulluqqa biz shaymiz. Faqat sadaqa beringlar! Ayolimga bering, qizimga, o‘g‘limga, jiyanimga, tog‘amga... huv o‘rnidan turolmaydigan otamizga ham savob uchun bir nima tashlab keting. Bering, bering, beriiiing!

Aytishlaricha, lo‘lilarning taomiliga ko‘ra, ular mehnat qilib non topmaydilar. Tilanib, yalinib, aldab, ba’zan hatto o‘g‘irlab olishsa olishadiki, ammo belkurak, cho‘kich, ketmon olib ishlamaydilar.

Qadimda bir payg‘ambar ularga rahm qilib, ekib tirikchilik qilishi uchun bug‘doy beribdi.

— Shuni, albatta, ekinglar, har doningiz ming bo‘ladi. Tilanchilik balosidan qutulasiz.

Lo‘lilar minnatdorlik bilan bug‘doyni olib qolishibdi. Ammo shu kechaning o‘zida bug‘doyni qovurishibdi, ertasi kuni esa uni yerga ekkan kishi bo‘lishibdi. Tabiiyki, bunday bug‘doy unib chiqmaydi. Keyin esa, payg‘ambarga “ana, ko‘rdingizmi, xudoning irodasi shunaqa, biz yerga urug‘ sepsak ham unib chiqmaydi”, deya yana o‘z bilganlaricha yashab ketishgan ekan.

Karvon ana shunday voqealarni ko‘ra-ko‘ra, yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Xaybar dovonidan oshdi. Mana, ertaklarda, dostonlarda ta’riflangan Hindiston! Maxtumqulining yoshlikdagi orzusi. Sharqning o‘n sakkizinchi asrdagi uch ustunidan biri: Turkiston, Rumiston, Hindiston.

Maxtumqulining qadami yetganida Hindiston qay ahvolda edi? Bu paytda Hindistonga Boburiylar sulolasidan bo‘lgan Olamgir Ikkinchi hukmronlik qilardi. Hindlarning katta qismi Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi iskanjasi ostida edi. 1770-yildan boshlab Bengaliya ham inglizlarning qo‘l ostiga o‘tgandi. Ular Hindistonni fransuzlardan himoyalash bahonasida bu hududdagi hukmronligini yanada mustahkamlashga intilardi. O‘n oltinchi-o‘n yettinchi asrlarda Hindistonni gullatib-yashnatgan farovonlik, to‘kinchilik o‘rnini unda-munda ocharchilik, qashshoqlik egallay boshlagandi.

Hind xalqining kastalarga bo‘linishi ham uning taraqqiyotiga katta to‘siq bo‘lib keldi. Inglizlar bundan ustalik bilan foyda-

lanishdi. Mustamlakachilar mahalliy aholini shafqatsizlarcha eza boshlashdi. Ular Boburiylar davrida to'plangan, hind xalqiga tabiat tomonidan in'om etilgan, Ahmadshoh Durroniy tashib ulgurmagan boyliklarni endi inglizlar ochko'zlik bilan talay boshlashdi.

Bu talonchiliklar hind xalqining sabr kosasini to'ldirgan, pichoq borib suyakka qadalgan damlar edi.

Ana shunday voqealar, jarayonlarni Maxtumquli o'z ko'zlari bilan ko'rgan. Mustamlakachilarning yo'lini to'sishga, hatto insofga chaqirishga ham hindlaning haq-huquqi yo'q edi. Bu kabi kamsitishlar, qullik tizginiga bo'yin egmaganlar uchun ko'z ko'rib quloq eshitmagan jazolarni ko'rgan Maxtumqulining qay ahvolga tushganini tasavvur etish qiyin emas.

U umri davomida ko'p zo'ravonliklarni ko'rdi. Ammo bu kabi ommaviy shafqatsizliklarga ko'zi tushmagandi. Inglizlarning o'zga yurtga kelib, shu yerda egalik qilishga intilishini ko'rib, qoni qaynadi. Xalqning bunday xor-zor bo'lib yashayotganidan ko'ngli vayron bo'ldi. Hindiston safari asnosida qalbida jo'sh urgan ulug'vor umidlari chilparchin bo'lganidan o'kindi. O'sha lahzadlarda uning xayolidan shu satrlar o'tgan bo'lsa kerak:

Hindistonni oh-u zor xarob aylar...

Bu satrning dunyoga kelishi bejiz emas. Xalqning tabiatidagi yumshoqlik, halimlik, o'zganing qalbiga ozor yetkazishdan ko'ra, o'z ko'nglining og'rishiga yo'l berish, yomonlardan o'zni olib qochish, tirik jonzotga ozor bermaslik, chidamlilik, kechirimlilik Maxtumqulining e'tiborini tortdi.

Hindistonda yana bir jihat uning diqqatini jalb etdi. Bu yerda hind xalqi muqaddas deb bilgan sigirlarning shoxi teskari tomonga qarab o'sarkan. Maxtumquli bundan ham o'ziga xos ma'no chiqardi. Bu "men seni suzmoqchi emasman" degani emasmikin?

Maxtumquli Hindistonga borganida inglizlar hali Dehli va uning g'arbiy qismlariga yetib borishmagan, musulmonlar, xususan, turkiy xalqlar ham asosan shu yerlarda yashashardi. Ular ham mahalliy aholining urf-odatlari, an'analariga xiyla moslashib, hatto tillari ham yot ohangga moyil bo'lib borardi.

Buni ko'rgan Maxtumqulining yuragidagi umid shu'lalari so'na boshladi. Tanishib, gaplashib, ko'ngliga qo'l solib ko'rga-

nida, ularda turkiylik ruhi ancha o'zgargani, ona Vatan, ota makon ular uchun o'zgacha ma'no kasb eta boshlaganini angladi. Angladi-yu, yuragi qiymalandi. "Biz bulardan yordam umidi bilan kelsak, bularning o'zi ko'makka muhtoj ko'rinadi".

Vatanni tark etmoq, garchi bu tushuncha har xil sabablarga ko'ra baholansa-da, oxir-oqibatda o'zlikni yo'qotmoq ekanini Maxtumquli yana bir bor tushundi.

"Eshit, odam! O'z yurtingdan boshqa diyor senga vatan bo'lolmas!"

Har bir xalq Vatan tuyg'usini o'zicha anglaydi. Turkmanlarda turkmanchilik degan keng tushuncha, cho'ng ma'noni o'zida mujassam etgan so'z bor. Ana shu so'zning izohi bir nechta kitobga jo bo'ladi. Xalq o'zini anglay boshlagan damlardan boshlab, bu so'z ham boyib, rivojlanib, kengayib kelyapti. Bu so'zning tushuntirib bo'lmaydigan, izohlash qiyin bo'lgan jihatlari ham bor. Bunga xalqning o'zigagina xos kodi, paroli, siri deb, o'zaro tanishuv va tushunmoqning eng muhim quroli deb qaramoq joiz. Ehtimol, bu kod barcha insoniy tuyg'ulardan yuqoriroq turar, shu sababli uni to'la tushunib yetishning imkoni yo'qdir? Shu bois turkmanchilikni tushuntirmoq so'zni shamolga sovurmoq bilan barobar. Zotan, tushuntirib, so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan tushunchalar hamma xalqda uchraydi.

Mana, Maxtumquli ham ko'rgan-eshitganlari yuzasidan har qancha fikr yuritmasin, turkmanchilik nuqtayi nazaridan o'z tuyg'ulariga hamohang javob ololmadi. U yerdagi turkiylar, turkmanlar endilikda hindiylashib ketishgan edi. Ozchilik ko'pchilikka borib qo'shilgach, baribir, ko'pchilik ustun chiqqandi. Ulardagi turkmanchilik tuyg'usi tumanga qorishib ketgandi. Albatta, ular orasida ham turkman xalqi birligi uchun jon koyitadiganlar yo'q emasdi. Ammo shunday bo'lsa-da, bu yerdagi turkmanlar boshqa-boshqa mayl-xohishlar bilan yashashardi.

Uzoq-uzoq mushohadalar so'ngida Hindistondagi turkmanlarning Turkmanistonga, u yoqdagi turkmanlarning esa Hindistondagi millatdoshlariga yordam qila olmasligiga Maxtumqulining aqli yetib turardi.

"Turkmanning yana bir shoxi kesilibdi-da!" deya o'y surdi u armon bilan.

Maxtumquli Hindistonning ko‘p yerlarini, ayniqsa, musulmonlar, turkmanlar ko‘p yashaydigan hududlarni goh piyoda, goh ho‘kiz qo‘shilgan aravalarda, goh fil ustida kezib chiqdi.

“Naylayin man safil kezib, Hindistonim bor mening!”

U Hindistonning rang-barang tabiatini qiziqish bilan kuzatdi. Hayvonot va nabotot olamini hayrat ichida tamosho qildi. O‘z tanasini yerga sollanib turgan shox-butoqlari, barglari bilan yashirishga uringan dafna og‘ochlarini boldirlarini hayo bilan bekitayotgan Mengliga o‘xshatdi. Qora qoshlari o‘rtasiga yasama xol qo‘yib yurgan hind qizlari ham unga Menglini eslatdi.

Yuzlarida hindi xoli
Munosib bir jonon bormi?

U hamma joyda Menglini izladi. Qul bozorlarida ham zanjirband qilingan Menglini qidirardi. Qurigan yog‘ochlar ustiga xashak tashlab chayla qurib yashayotgan kambag‘allar orasidan ham Menglini axtardi. To‘p-to‘p bo‘lib kezib yurgan qashshoq-tilanchilar orasidan ham Mengli xuddi “Maxtumquli-ii!” deya chiqib keladigandek bo‘lib tuyulardi.

Eh, bechora Maxtumquli! “Oshiqda ong bo‘lmas”, deganlari shudir-da! Maxtumquli singari buyuk qalb sohibi o‘z ixtiyori bilan qullik zanjiriga, gadolik hayot tarziga moyil bo‘larmidi? Aks holda shu paytgacha boshqa birov bilan yashab ketavergan bo‘lardi. Yo‘q, Maxtumquli bundan ko‘ra o‘zini daryoga otishni afzal bilardi.

Ha, bu olamda yurak deb atalmish, gapga kirmas, qaysar bir balo ham bor-da!

Hindistonning ajoyib tabiati, hindlarning to hanuz inglizlar istibdodiga bosh egmay kelishi Maxtumquliga qattiq ta’sir qilgandi. Ayniqsa, bahor paytlarida bu hudud jannatdek yashnab ketadi. Xususan, Dekan vohasining tuprog‘i naq oltinga barobar. Rostdan ham oltin desa bo‘ladi. Agar cho‘p suqsa ko‘karadi. Maxtumquli ilgarilari o‘rmonlarda hali umrida duch kelmagan daraxtlarni ko‘rib, hayrati oshib borardi.

Bir daraxt bag'ridan xuddi sutga o'xshash suyuqliq oqib turarkan. Sal tortsang sinib ketadi. Yana bir daraxtning shoxida har bir odamning kallasidek keladigan mevalar bitarkan. Har birining og'irligi 5-6 kilo keladi. Uning o'rta qismida mag'iz o'rnida qaymoqqa o'xshagan yoqimli shira bor. Yana bir daraxtdan mushkanbar hidi ufurib turarkan. Ayniqsa, uning shoxlari olovga tashlansa, shunaqa xushbo'y hid taratadiki...

Yana bir daraxtning shoxlari tish yuvish uchun misvok qilinarkan. Turfa maymunlar esa, shoxdan shoxga sakrab, tinimsiz chiyillashadi. Albatta, o'zga yurtda hatto shamol ham boshqacha esayotgandek ko'rinadi. Bunday jannatmonand o'lkani kezib, she'r yozmay bo'larkanmi?

Hindiga baxsh etmish yerning yaxshisin.

Issiqdan, faqirlikdan arang avratini berkitib yurgan gadolarni ko'rib, shunday satrlarni bitdi:

Hindi kabi egni-boshing bo'lmasa,
Podishohlik libosini kiydim de.

U hindlarning fillarga bo'lgan hurmatini diqqat bilan kuzatdi.

Hindistonning shaharlarida, baland-baland imoratlarida, qal'alarida bo'lganida, shoirning bahri-dili ochilardi. U Dehlida Qutbiddin Eltutmish minorasini ko'rdi. Tuyadek xarsangtoshlardan tiklangan bu naqshinkor minora Buxorodagi, Xivadagi minoralarga o'xshasa-da, ularga nisbatan bir muncha mahobatli, savlatli edi. Bu minoraga qarab, Hindistonning beqiyos kuch-qudratini, g'ururini ko'rish mumkin. Minoraning shundoqqina ostida baland, yo'g'on ustun o'rnatilgan edi. Hindlarning aytishicha, bu ustun minoradan ham avvalroq tiklangan ekan. Uni qadim zamonlarda odam bolasi o'z qo'li bilan o'rnatgan bo'lishi aqlga sig'maydi. Ehtimol, bu boshqa bir yanada yirikroq inshootning ajralmas qismi bo'lgandir?

Maxtumquli necha asrlardan beri nuramay, qulamay kelayotgan bu ustunga bir muddat tikilib qoldi. Bu yerda uning qalbidan

kechgan tuyg'ular she'rga singgani aniq. Ammo bu she'rlar hali topilganicha yo'q.

Maxtumquli baland tepalikda ko'kka bo'y cho'zib turgan jome' masjidida bir necha marta namoz o'qidi. Bu masjid Hindistondagi musulmonlarning eng muqaddas qadamjolaridan edi. Masjidning baland minoralari, keng hovlisi, hovli sahnidagi hovuzni aytmaysizmi?

Bu makonda qancha mo'min-musulmonlar peshonasini yerga urib, Yaratganga tavallolar qilmadi ekan? Ularning ko'pchiligi esa faqir-u fuqarolar, kambag'allar bo'lgani aniq. Maxtumquli ularni sinchiklab kuzatardi. Yarim-yalang'och, quyoshda qoraygan, kuyib-yongan badanlar, ko'zlari yoshli, bag'ri sadpora yuraklar, xilma-xil yuz qiyofalari Maxtumqulining yuragida bir umr muhrlanib qoldi. U keyinchalik bu kechinmalarini "Sarguzasht ayla" she'rida ham aks ettirgandi.

Hindiston turli dinlar tutashgan zamin sifatida ham Maxtumqulining e'tiborini tortdi. Otashparastlik, hinduizm, nasroniylik, islom... Ayniqsa, hindlarning o'zlari yasagan qo'g'irchoqqa o'zlari topinishi Maxtumquliga juda g'alati tuyuldi. U tasavvufga berilgan yillari Allohning jamolini ko'rishga qanchalik ishtiyoqmand bo'lib yurgan kezlarini xotirladi. Butparastlardan har birining uyida o'z xudosi qo'r to'kib turibdi. E'tiqoddagi bunday tafovutlar Maxtumqulini befarq qoldirolmasdi. Zotan, qiziqqonlik uning qonida bor. U hindlarning o'liklarni olovda yoqishlarini ham o'z ko'zi bilan ko'rdi. Ularning aqidasiga ko'ra, agar jasadlar kuydirilmasa, marhumning ruhi ozor toparkan.

Yetmish ikki millat ko'mar o'ligin,
Sakparast millati loshin yondirar.

Qiziq, hindlarning o'lik yoqishlari rost. Ammo ular sakparastmikin? Itlarga sig'inish hindlarning hayotida uchramaydi-ku? Balki Maxtumquli "sakparast" so'zini ko'chma ma'noda ishlatgandir? Yoki asrlar davomida qo'lyozmalarning qayta-qayta ko'chirilishi, xattotlarning xatolari sabab "sakparast" degan so'z paydo bo'lib qoldimikan? Balki o'n sakkizinchi asrlarda turkmanlarda ma'jusiylarga nisbatan "sakparast" ifodasi qo'llangandir?

Qadimgi otashparastlar, xususan, forslarda ham o'likni ko'mish odati bo'lmagan. Ular jasadni baland minoralar ustiga chiqarib qo'yishgan. Qarg'a-quzg'unlar loshning to suyaklari qolguncha cho'qib bitirishgan. Agar qushlar jasadga tegishmasa, marhumning qanchalik badbaxt ekanligi ma'lum bo'lgan.

Bunday odat islomdan ilgari Turkmaniston hududida ham uchragani tarixiy manbalarda o'z aksini topgan. (S. Demidov ma'lumotlari).

Quyidagi she'rlarni o'qisangiz yana ko'p narsa oydinlashadi:

Lochinsiz cho'l yerda qolgan masluqman,
Meni ko'rgan loshlar yig'lar holimga.

U o'z yurtida marhumlar. yuvilib-poklanib, kafanga o'ralib dafn etilishini bilardi. Astraxanda nasroniylar jasadlarni yog'och tobutga solib ko'mishganini ko'rgandi. Bu yerda esa tamomila boshqacha manzara.

Shu onda Maxtumquli Nodirshohning dinlarni birlashtirish borasida bir paytlar ko'tarib chiqqan g'oyasini esladi. Aslida faqat dinlarmi? Aslida bir xalqning boshqa bir xalqqa qo'shilib, aralashib ketishi ham yaxshilikka olib kelmaydi. Maxtumquli har bir xalq o'z yo'lidan ketishi kerak, deb bilardi. Har bir millat o'z odat-an'analarini, tili, dini, qadriyatlarini erki va ozodligini ko'z qorachig'idek asrashi lozim. Bu millatning, xalqning barkamolligini, o'sishini ta'minlaydi.

Yetmish ikki millat bo'lak-bo'lakdir,
Bu bo'lakdan qo'shma o'zga bo'lakka.

Maxtumquli Boburiylarning poytaxti bo'lgan Agra shahrida ham bo'lib, olamga mashhur Toj Mahal maqbarasini ham uzoqdan tomosha qildi. Uning go'zalligi, betimsol ekaniga ich-ichidan ishonch hosil qildi.

Kun chiqishi bilan avval maqbaraning oppoq gumbazlari quyoshning zarrin nurlariga cho'miladi. Keyin falakka sanchilgan oppoq minoralar quyosh yog'dusiga belanadi. Uning poyida oqib

yotgan muazzam Jamnaning moviy sathida yana bir Toj Mahal sirli chayqaladi.

Hindiston uyg'onmoqda. Azon saslari eshitiladi. Ko'chalarda odamlarning shovqini eshitila boshlaydi. Do'konlar oldida xaridorlar kuymalanadi. Yo'l bo'yida shifobaxsh giyohlar solingan xaltachalarini tizzasi ustiga qo'yib o'tirgan tabiblar mijozlari yo'lini poylashadi.

Bir burchakda soqoli ko'ksiga tushgan mo'ysafid yoshroq yigitning chap qo'liga tikilgancha fol ko'radi. Sal nariroqda yana bir sallali hind nay chalib ilon o'ynatish bilan ovora. Boshqa bir burchakda yana birovi ko'zboylog'ichlik qilib odamlarni hayratga soladi.

Ko'chalarda qora terga botib, riksha surib yurganlarga ham har qadamda duch kelish mumkin. Yo'l chetidagi daraxt soyasida yana bir yo'lovchi ho'kizining ustiga minib, oyoqlarini uning shoxlari orasidan osiltirgancha, atrofga olazarak boqadi.

Ana, kattakon filga qo'shilgan huv anavi oq-yashil tusli bo'yalgan kajavada yoshgina juvon chayqalib boradi. Filbon esa "po'sht-po'sht"lab odamlar orasidan o'ziga yo'l ochadi.

Yarim yalang'och, aftoda yo'lovchilar, oyoqlarining boshmaldog'iga uzuk, to'pig'igacha xalxol, burniga buloqi taqqan qiz-juvonlar. Qulog'iga sirg'a, beliga qilich taqib olgan yigitlar... Har kim o'z tashvishi bilan ovora. Bu olomon, odamlar oqimi ichida Maxtumquli ham bor. U o'zining oppoq, bo'z yaktagi, boshida Mengli tikib bergan qalpog'i bilan hammadan ajralib turadi. Hammaga hayratlanib qaraydi. Yo'lovchilar esa unga e'tibor ham berishmaydi.

Agar unga diqqat bilan nazar solishganda edi, Toj Mahal atalmish mo'jizani o'z ko'zlari bilan ko'rgan Maxtumqulining qalbini ezib kelgan necha yillik dard biroz muddat chekinganini, anchadan beri egilib kelgan bo'yni tiklangani-yu ko'ngliga bir muncha osoyish inganini anglagan bo'lardi.

Hindistonda Maxtumquliga hamrohlik qilayotgan tanishi ham undagi bu o'zgarishlarni sezmadi. Olimlarning taxminicha, Maxtumquli o'sha hamrohi sabab sanskrit va urdu tillarini o'rgangan bo'lishi ham mumkin.

Uning hamrohi kim edi? Biz uni to hanuz bilmaymiz. Shoirning o'zi ham bu haqda og'iz ochmagan. Garchi yozib qoldirishni istagan taqdirda nimadir bunga monelik qilgandir? Shoirning shunday misralari bor:

Hamroh qildim bozugarni, yo'rtib kezib Hindistonni.

Maxtumquli o'z orzularini mumkin qadar to'laroq amalga oshirishi uchun Hindiston shahar-qishloqlarini ko'p kezdi. Ko'plab insonlar bilan hamsuhbat bo'ldi. Ayniqsa, hind munajjimlari bilan qilgan bahs-u munozaralari uning xotirasida o'chmas iz qoldirdi.

Boburiyzoda hukmdor Akbarshohning bosh vaziri Bayramxonning, asli turkiylarga mansub bo'lgan Mirzo G'olib avlodlarining suhbatida bo'ldi, o'sha davrdagi hind adabiy muhiti vakillari bilan uchrashdi. Ularning ijodi bilan tanishib, o'z ash'orlaridan bahramand etdi.

Biroq Maxtumqulining e'tiborini tamoman boshqa narsa band etgandi: bu yerdagi turkmanlarda turkmanchilik saqlanib qolganmikin? Ular mushtarak hayot kechirish haqida o'ylashadimi? Turkmanni baxtli qilish uchun, g'aflatdan uyg'otish uchun harakat qila oladimi? Yo'q. Maxtumquli bu borada salbiy xulosaga borgani qayta-qayta o'z isbotini topib turdi. Bu chin haqiqat edi. Haqiqatning yuziga esa tik qaramoq lozim. Mana, millatni millatga qo'shib yuborishning og'ir oqibati.

Yetmish ikki millat bo'lak-bo'lakdir,
Bir bo'lakni qo'shma o'zga bo'lakka.

Bu yurtdan qaytganidan keyin ham Hind yurtining qiyofasi uning tasavvurida shu'lalanib turdi. Maxtumqulining bu o'lka turkmanlaridan kutgan umidi o'zini oqlamasa-da, bu kabi puchga chiqqan orzular Hindiston taassurotlariga soya sololmadi. Keyinchalik u Hindistonga qaytadan safar qilishni ham diliga tugdi.

Nasib qo'ymas ketsam uzoq yerlara,

deydi u bir she'rida.

Taxmin qilib ko'ramiz: Maxtumquli ilk matbuot nashrlari haqida ham Hind mulkida tasavvur hosil qilgan bo'lsa ajabmas.

Chunki o‘sha zamonlarda nashr etila boshlagan “Bengal gazett” Sharqdagi dastlabki bosma axborot vositalaridan sanaladi.

Shoirning hozirga qadar bosilgan she’rlarida, o‘ttizga yaqin joyda Hindiston, hind so‘zlari tilga olinadi.

Maxtumquli Hindistondan chiqqach, Chin-Mochin, Turkiston, Xo‘tan taraflarga yuz burdi.

Turkistondur xayolim,
Ochgil, Tangrim sen yo‘lim.

Hindiston tabiati, bu yurtning ochiqko‘ngil odamlari, go‘zal inshootlari shoir qalbiga chuqur kirib borgani sayin, o‘zining jondan aziz yurti — egasiz, tarqoq turkman diyori shunchalik shu’lalanib, sog‘intira boshladi. Shunday lahzalarda ovulda qolgan kelinoyisi, singlisi Zubayda ko‘z oldiga kelardi. Hindistonda ham daragi chiqmagan, ammo har qadamda hindi xolli qizlarni ko‘rganida, yuragidagi olovga yog‘ sepilganday Menglixonni qanchalik sog‘inganini his qilardi. Nega ham sog‘inmasin? Mengli bilan yashagan yillarni tez-tez yodga olardi, eslagani sari bag‘ridagi yaralar yanada ko‘proq zirqirardi. Buning ustiga tug‘ishgan akalari Abdulla bilan Muhammadsafoning dog‘-u hasratini ayting.

Jigarbandlarining yo‘liga ko‘z tikib, armon bilan dunyodan o‘tgan padari buzrukvori-chi? Hali-hanuz qabrida tinch yota olmayotgandir? Uning barcha qavm-qarindoshlarini bir joyga to‘plasa, bitta katta karvon bo‘lardi. Endi bu karvondan sanoqli odamlargina qoldi. Har bir turkman o‘zidan o‘g‘il qolishini, uyining chirog‘i hamisha yoniq bo‘lishini istaydi. Ammo uning umid chirog‘i so‘nib borayotir.

Er yigitda o‘g‘il yo‘qdir,
O‘choq so‘nib, yurti ingrar.

Maxtumquli o‘z yurtini qanchalik sog‘inmasin, Hindistondan to‘g‘ri vataniga qaytmadi. Chin-Mochin, Turkiston taraflarga ke-

tishining ham sababi bor edi. Avvalambor, bu makonlarga yaqin keldimi, kirmasdan o'tsa, dilda armon bo'lib qolardi. Bu o'lkalar ham xuddi Hindiston singari tillarda doston edi. Qadimiy hunarmandchilik, ipakchilik bu zaminda azaldan taraqqiy etgani ham shoirning e'tiborini tortgandi. Qadimiy turkmanlarning bir qismi, xususan, salir elati shu tomonlarda istiqomat qilar, Maxtumquli bu yerda ham o'z millatdoshlarini ko'rmasdan o'tolmasdi. Turkman tarixining hali to'la o'rganilmagan sahifalaridan biri — Otaniyozxon hayot yo'lini o'rganish ham Maxtumqulini shu safarga undagan bo'lishi ehtimol. Kim bilsin, biz ko'zda tutmagan, biz bilmagan yana qanchadan qancha sabablar bo'lishi mumkin.

Tabiiyki, Maxtumqulining asosiy maqsadi — ko'hna dardlariga darmon topish emas, sarhadlarni birlashtirish emas, qalblarning tafakkurda, so'zda va amalda birlashuvi edi. Hindistonda o'z ko'zi bilan ko'rganlari uning din borasidagi qarashlariga ham katta ta'sir qildi. Dinlarning turli-tuman ko'rinishi uning tasavvurida bir evrilish paydo qilgandi. Baribir, ko'z bilan ko'rish boshqacha ekan:

Kitob ochib, ancha dinga duch bo'lib,
Islom qaysi, Qur'on qaysi, bilmadim.

Yoki:

Butparastlar butdan olsa murodin,
Haqdan so'rgan hojatini olmasmi?

Bu shoirning o'z-o'ziga bergan savollari edi.

Mana, Maxtumquli turfa o'y-xayollar bilan yangi bir mamlakatga — Chin mulkiga kirib bordi. Bu yurtning ham tabiat, manzaralari go'zal ekan-u, ammo bular Maxtumqulini Hindistonchalik o'ziga maftun etolmadi. Odamlarning kalta bo'ylari, qisiq ko'zlariga tez ko'nikib ketolmadi. Hindistonda fors, turkiy va urdu tillarida gapirishar, bu tillarni Maxtumquli yaxshi bilardi. Ammo xitoyliklarning tilini tushunish juda qiyin, yozuvlari yanada murakkab ekan. Har qalay uyg'urlar Maxtumqulining joniga oro kirishdi. Ular xitoycha gaplashishning hadisini olishgan ekan.

Maxtumquli butparastlarning rohiblari bilan hamsuhbat bo‘ldi. Ular ichidan munajjimlarini topib, o‘z xalqining toleyidan fol ochishni so‘radi. Ular bu xalq kelajagi hali ancha vaqt qorong‘iligicha qolishini aytishdi.

Maxtumquli ularga ishondi. Ishonmaslikning iloji ham yo‘q edi. U sochlari tap-taqir qilib qirilgan rohiblarning nimalarga qodirligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Ularning biri chordona qurib o‘tirgancha, allaqanday afsunlarni o‘qib, yerdan odam bo‘yi balandlikka ko‘tarilib, yana qaytib tushdi. Yana biri boshmaldog‘i bilan ko‘rsatkich barmoq suyaklari orasidan ingichka six o‘tkazdi, bir tomchi ham qon chiqmadi. Yana biri esa Maxtumquli bilan yonma-yon o‘tirgan holda, birdan yo‘qolib qoldi. Biroz o‘tib, yana o‘z joyida paydo bo‘ldi. U boshqalarga ko‘rinmaslik ilmini puxta egallab olgan rohib ekan.

Ma’lum bo‘lishicha, bu darajaga yetish uchun uzoq yillar tinimsiz mashq qilish, komillikka erishish, yolg‘izlikka ko‘nikish kerak bo‘larkan. Ha, odam tinimsiz mashq qilaversa, juda ko‘p narsalarga erisha oladi-da. Tasavvufda ham shunday holatlar uchraydi.

Maxtumquli yana bir yurtga kirib bordi. Bu yerda ko‘pxotinlilik emas, balki ko‘perlik an’anasi mavjud ekan. Masalan, oilada katta aka bir ayolga uylansa, uning ukalari ham ulg‘ayib shu ayolga uylanishi mumkin ekan. Yana qizlar o‘z oshiqlaridan halqa olib, bo‘yniga taqib yuradigan bir toifa bor ekan. Qizning bo‘ynidagi halqa qancha ko‘p bo‘lsa, unga uylanmoqchi bo‘lgan talabgorlar ham ko‘p bo‘larkan.

Ba’zi bir toifalarda esa uy egasi mehmonning izzati uchun bir oqshom ayolini uning yoniga kiritishi taomil sanalarkan.

Maxtumquli, shuningdek, bu taraflarda ham vafot etgan yaqinlarining jasadini bir tepalikka tashlab ketish odati borligini ko‘rdi. “O‘lgandan so‘ng odamzod uchun alohida qabristonning nima keragi bor, dunyo shundoq ham boshdan oyoq qabrlardan iborat-ku?” deyisharkan.

Shu lahzalarda Maxtumqulining xayolidan ushbu misralar o‘tgan bo‘lsa ajabmas:

Odam o‘g‘li qarimasa, o‘lmasa,
Qarich yer topilmas ekin ekmoqqa.

Ehtimol, shu atroflarda bir uyg'ur Maxtumquliga hamroh bo'lgan, yo'l ko'rsatgan, tarjimonlik qilgan bo'lsa kerak. Maxtumquli bu mamlakatda Hindistondagidek uzoq ushlanib qolmadi. U turkmanlarning salir qabilasi yashaydigan manzilga yo'l oldi. Salir bobo, Salir Qozon singari botir, dovyurak qahramonlarning naslidan bo'lgan salirlar (ayrim manbalarda solor, salar deb ham yuritiladi) turkman xalqining shakllanishiga katta hissa qo'shgan, dunyoning turli mintaqalariga bo'linib ketgan edi:

Chin-Mochinda taxtin qurgan,
Eron-u Afg'onni so'rgan,
Hindiston, Xo'tanga borgan
Otaniyoz xon ko'rinur.

Shundan so'ng Otaniyozxonning bu yerga kelib-ketganining yaxshi jihatlarini qidira boshladi. U oqsoqollar bilan, xonlar, beklar bilan bir dasturxondan non-tuz yeb, ularning ko'ngliga qo'l solib ko'rdi, gap orasida o'zining ham bu yerlarga nima sababdan kelganini qistirib o'tdi. Asosan, qadimiy turkmanchilik an'analariga bu yerda qanday amal qilinayotganini zimdan kuzatdi. U turkmanchilikni har doim turkmanning yuragi deb bilardi. Azaliy urf-odatlariga amal qilmay qo'ygan turkmanni esa, turkman deb hisoblamasdi.

Maxtumquli bu yerda ko'ngli orzu qilgan manzaralarga duch kelmadi. Yuragi zirqiradi. Turkman yana bir butog'idan mosuvo bo'lganini angladi. Bu yerdagi salirlar o'zlari yashagan o'lkani vatan deb bilar, boshqa yurtda ham turkmanlar borligini xayollariga keltirishmasdi.

Maxtumqulining xayolida esa yana o'sha fikrlar takroran charx urardi:

Yetmish ikki millat bo'lak-bo'lakdir,
Bir bo'lakni qo'shma o'zga bo'lakka.

Salirlarning Oqmon va Qoramon to'dalari sakkizinchi-o'n birinchi asrlarda, xitoylik salir professori Yunus beyning fikricha

esa, o‘n to‘rtinchi asrda noma’lum sabablarga ko‘ra, Markaziy Osiyodan ko‘chishadi. Har to‘daning karvonlari qay tarafga burilsa, o‘sha yoqqa yo‘l oladilar. Shu tariqa Oqmonlar Xitoy tomonga, Qoramonlar Balx va Marv taraflarga yo‘l oladilar. Fikrimcha, Jaloliddin Rumiyning ota-bobalari ham aynan Qoramon to‘piga mansub bo‘lishsa kerak. Ular Balxdan hozirgi Turkiya tuproqlariga borganlarida, salirlar zich yashaydigan Loranda va Ko‘nyo hududlarida maskan tutishgan. 1277-yilda ilk bor turk tilini rasmiy til deya e’lon qilgan ham Sulton Mehmet Qoramon o‘g‘li edi.

Maxtumquli har qancha qayg‘u-hasratga duch kelsa-da, tug‘ilgan makoni esiga tushib, yuragi ezilsa-da, o‘zini mahkam tutdi. Tuyg‘ularga erk bermadi.

Uning yana bir ulug‘ maqsadi Hoja Ahmad Yassaviyning qabrini ziyorat qilib, uning ruhi pokiga Qur’on tilovat qilish edi. Maxtumquli tasavvufiy turmush tarziga, darvishlar, so‘fiylar hayotiga hamisha qiziqib kelgandi. Yassaviy va Boqirg‘oniy Maxtumqulining nazarida eng ideal shaxslardan edilar. U hozir ham o‘zining tasavvufga berilgan damlarini esladi. Bu ikki shaxs bilan bog‘liq satrlar Maxtumqulining yuragidan sizib chiqardi.

Turkiston necha asrlardan beri tasavvuf markazlaridan bo‘lib kelayotir. Yassaviy esa bu maktabning eng buyuk ustuni edi. U ushbu zaminda Yassaviya tariqatiga asos soldi. Xalq orasida “Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad” iborasining keng tarqalishi ham bu ulug‘ bobomizning Sharqda yuksak mavqe kasb etganidan dalolat beradi.

Buyuk so‘fiylar, mutasavvuflar Ahmad Yassaviyning qavatida bo‘lishni o‘zlariga baxt deb bilishgan. Shu bois odamlar Yassi shahri tomon oqib kela boshlagan. Ular ichida Sulaymon Boqirg‘oniy ham bor edi.

Bordi qari Boqirg‘on,
Shul Turkiston sari,

degan edi shoir bir she’rida. Shoirning “Hayrondadur, hayronda” radifli she’rida ham bu ulug‘ zotning nomlari tilga olinadi.

Berdi unga Haq rahmat,
Nuri tajalliy, qudrat,
Hirqa kiygan Xoja Ahmad
Sayramdadur, Sayramda!

Maxtumquli yoshligidan Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini qayta-qayta o'qib kelardi. Yassiga kelarkan, o'sha damlarni, madrasadagi saboqdoshlarini, gavjum hujralarni esladi. Nihoyat, Yassiga ham yetib keldi.

U o'zining ma'naviy ustozining muhtasham maqbarasiga ko'zi tushishi bilan o'pkasi to'lib, yig'lab yubordi. Maqbaraga olib keluvchi o'ydim-chuqur yo'llarda otda, eshakda, tuyada, foytunda kelayotgan ziyoratchilar orasida piyodalar ham ko'pchilikni tashkil etardi. Oyoqyalang, yirtiq-yamoq kiyim kiygan, yetim uloq kabi bo'zlab kelayotgan odamlar, anchadan beri yuziga qaychi-yu mo'ychinak tegmagan, soch-soqollari o'sib ketgan, nola-yu afg'on chekib, ko'zlaridan shashqator yosh to'kib kelayotgan odamlarni ko'rdi.

Yo'l azobidan ezilgan, yorilib tilim-tilim bo'lgan bu oyoqlar shu paytgacha ne-ne manzil makonlarni oshib o'tmadi, qancha-qancha dengiz-u daryolarni kechmadi ekan? Bu tovonlar har qadamida, bu odamlar har nafasida buyuk pir Ahmad Yassaviy nomini zikr etib kelishardi.

Maxtumquli bu darvishsifat, qalandarsheva odamlarga ham achinish, ham allanechuk havas bilan boqdi. Ularga qo'shilib keta olmasligini o'ylab, ko'ngli o'ksidi. Chunki uning dardi bu darvish-qalandarlarnikiga qaraganda og'ir, uning yuragi Vatan dardi, yurtdoshlari qayg'usi ila limmo-lim edi. Bu qayg'u-alamlar uni bir umr tark etmasligi ham aniq edi.

Elu yurt g'amida oshiq bo'lganning,
Dunyo uchun yuragida g'am bo'lmas.

Maxtumquli o'z elidan ayro yasholmasligini yaxshi biladi. U yot ellarga, uzoq o'lkalarga aslida o'z eliga yanada yaqinroq bo'lish uchun kelmadimi?

Go'zal yurtim, sen deb dunyo kezarman.

Maxtumquliga umid va ishonch baxsh etgan, har qanday tushkunlikka tushsa-da, ketayotgan yo'lidan ortga qaytarmay, olg'a bosishi uchun g'ayrat-shijoat bag'ishlagan kuch uning o'z xalqiga bo'lgan mehri, mahramligi, o'z elining qudratiga, imkoniyatlariga nisbatan samimiy ishonchi edi.

U bu hayotdagi eng katta baxtni turkman xalqining iqbolida, porloq kelajagida deb bildi.

Mana, u hozir ham Xoja Ahmad Yassaviyning qabri ustida tiklangan muhtasham imoratni olisdan ko'rib, ko'nglida ming bir xil tuyg'u jo'sh urib borarkan, ulug' bobomizning el orasida erishgan obro'-e'tiboriga, so'fiylik va shoirlik iqtidoriga chin dildan havas qilardi.

Bir paytlar padari buzrukvori mulla Davlatmammad ham Ahmad Yassaviy dahosiga, uning valiylik rutbasiga bosh egganini esladi. Ularga nasib etgan yuksak martabaga o'zini ham erishtirishini Allohdan so'radi.

Uzoqdan ko'k gumbazi quyosh nurida yaraqlab, ilohiy shu'la sochayotgan maqbaraga qarab, yuragi qalqib ketgandek bo'ldi.

Mana, maqbaraning ichki qismiga ham qadam qo'ydi. Mana, o'sha dovrug'i tillarda doston bo'lgan qirq quloqli doshqozon. Hozirgi o'lchovda bu qozonga ikki tonna ovqat jo bo'larkan.

Buyuk alloma qabri ustidagi bu muazzam maqbarani Sohibqiron Amir Temur qurdirgan ekan. Ahmad Yassaviy haqidagi rivoyatlarning birida aytilishicha, u o'z qabriga o'z oyog'i bilan kirgan yagona shaxs hisoblanarkan.

Manbalarning guvohlik berishicha, ul zot payg'ambarimiz (s.a.v)dan uzoqroq yashashni istamay, oltmish uch yoshdan so'ng yer ostiga kirib ketganlar. Yer ostida qancha vaqt umr kechirgani aniq ma'lum emas. Ayrim rivoyatlarda 120, boshqalarida esa 128 yoshgacha yer ostida hayot kechirganlari aytiladi.

Balki bu shunchaki rivoyat bo'lishi ham mumkin. Ammo ul zotning hazrati payg'ambarimizga bo'lgan ixlosi qanchalar yuqori bo'lgani shubhasiz.

Yo'qsa, Yassaviy hazratlari bu dunyoyi dunda hech bir inson yetisha olmagan obro'-e'tiborga, martabaga yetishmasdilar, dunyo-

ning sultonu sarkardalari, shoh va akobirlari ul zotning oyoqlari ostiga oltin-kumushlarni keltirib to'kmasdilar. Mana, shunday hadsiz-hisobsiz boylikka, martaba-yu obro'-e'tiborga qaramasdan o'zi ham tiriklik chog'idayoq uzlatni ixtiyor etgan zot Yassaviy hazratlari edilar.

U ayni damda, xuddi yoshlikdagi do'stining qabri boshiga borgan chog'laridagidek, hazin hislar qurshovida qolgandi. Bir paytlar otasi ham Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini o'qib berar, uning hayot yo'li va karomatlari haqida hikoya qilardi.

Yo iqlim egasi Ahmad Yassaviy,
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Maxtumquli ayni damda ulug' ustozning oyog'i tekkan tuproqqa peshonasini bosayotgani uchun ham shukur qildi. Qalbidagi rabboniy his-tuyg'ular jo'shib, to'lqinlanib, ko'zlaridan qaynoq yoshlari daryo bo'lib oqdi.

Shoir entikdi, to'lqinlandi, yig'ladi. O'z holiga o'zi hayron qoldi. Yo rab, bu nima ekan-a? Inon-ixtiyor qo'ldan ketib, keksalik yaqinlashayotganidan darakmikin?

Maxtumquli keyinchalik ham bu lahzalarni ko'p esladi. Ul zotning hikmatlarini tez-tez esga olib turdi:

Chekkanimiz qayg'u-hasrat,
Bu ne hodis, bu ne ummat?
Turkistonda Xoja Ahmad,
Uning nomi yitib bormish.

Maxtumquli vaqti-vaqti bilan yon atrofiga bo'ylanib qarardi. Darveshlarning Yassaviyga bo'lgan sadoqati, ixlosi ularning ko'zlarida yaqqol aks etardi. Ular o'zini unutib, manglayini toshga urib, yerlarda sudrala-sudrala tizzalarini yara qilib Yaratganga yolvorishardi, bularning oh-u nolalari oldidagi Maxtmqulining Yassaviyga nisbatan ixlosi, muhabbati arzimasdek tuyulib ketdi.

Ana, ularning oh-u zori dunyoni tutib ketmoqda. Xuddi bu dunyoda Yassaviy va shu vafodor darvishlardan boshqa hech kim yo'qdek.

Allohuu Alloh! Allohuuuv Alloh!

Bu darvishlar turli ellardan, turli yurtlardan kelganiga shubha yo‘q. Demak, Yassaviy ko‘p millatlarga ta’sir eta olgan. U butun insoniyatni ezgulikka, imon-e’tiqodga, poklikka da’vat etgan. U faqat bir xalq uchungina ijod etgani yo‘q.

Aslida bunday ulug‘lar bani bashar manfaatini ko‘zda tutganlar. Xo‘sh, unda nega Maxtumquli o‘z ustozlari, salaflarining yo‘lidan bormay, faqat o‘z eli, turkman xalqi uchun buncha jon koyitmasa?

Bu savol Maxtumqulini uzoq muddat o‘ylantirib keldi. Ko‘p-dan ko‘p mulohazalardan, gumonlardan, ikkilanishlardan so‘ng aniq bir xulosaga keldi. O‘zga xalqlarga baxt-saodat, farovonlik tilash umidi ham — bu o‘z xalqingga baxt, to‘kinlik, obodon-chilk tilash degani ekan. Shoir odam “xalqim” deb nola cheksa, bu butun insoniyatning baxt-saodati yo‘lidagi iltijolari ekan. O‘zi turkman xalqi uchun jon chekib, turkmanni bir o‘choq boshida birlashtirmoq, pirovardida, turk dunyosini, butun olam ahlini ham-jihatlikka chorlamoq orzusi ekanini Maxtumquli allaqachon tu-shunib yetgandi.

Otasi Mulla Davlatmammad ham shu fikrda edi. Maxtumqulining ushbu misralari ham ana shu fikrning mantiqiy davomidir:

Turkiylar bog‘lasa bir yerga belni,
Quritar Qulzumni, daryoyi Nilni.

Xalq degan aniq tushunchaning umumxalq atalmish mavhum atamadan ko‘ra ishonchli va ta’sirli ekanini Maxtumquli yaxshi bilardi. Qolaversa, u tarqab borayotgan xalqiga “turkmanim” deya xitob etsa-da, bu hayqiriq xalqni birlashtirish, uning milliy g‘uru-rini yuksaltirishga ojizlik qilardi.

Umuminsoniy maqsadlarga milliy qarashlar ham qo‘shilib, uyg‘unlashuvi lozim. Uning yakdil xulosasi shu edi. U qirq yil-lik umri davomida yaratgan she’rlaridan lazzat oldi, ammo uning ko‘ngli o‘z eliga xizmat qilib, uning mushkulini oson etgisi, uni nurli manzillar tomon boshlagisi kelardi.

Biroq u hozirgacha qay bir eshikka bormasin, ularning ko‘p-chiligini yo yopiq, yo egasiz ko‘rdi. Shu bois, Maxtumquli chor

atrofdan bostirib kelayotgan g'am lashkaridan ba'zi hollarda qochishga joy topa olmasdi.

Ana shunday kezlarda Menglining qadri bilinardi. Qaniydi hozir u yonida bo'lganida? Mard yigitlar jangga kirib, yarador bo'lib chiqqanida, har biri o'z qalbining oshibasidan darmon topadi. U-chi, bu jang asoratlaridan qanday xalos bo'ladi?

Sening malhaming yo'q, ey Maxtumquli,
Sening darmoning ham dardingdan battar.

Mengli uning ko'ngil qasri malikasi edi. U ketgach, bu qalb vayronaga aylandi. Maxtumqulining ko'ngli huvillab qoldi. Bir paytlar Chovdur singari ortida suyangan tog'i bor edi. Endi do'stsiz qoldi. Har doim qavatida turadigan qarindosh-urug'lari bor edi. Xesh-u taborsiz qoldi.

U hozir shunchalar yolg'izki, hatto soyasi ham undan qochayotganga o'xshaydi.

Mana, senga yolg'izlik maqomi!
Bu olamda beg'am odam bormi?

Maxtumquli Yassi shahrida yurganida ko'plab darvishlar bilan, keksa qalandarlar bilan, shu atrofning oqil-u donolari bilan hamsuhbat bo'ldi.

Qozoq birodarlarimizning turmush tarzi bilan yaqindan tanishdi.

Qozoq echki so'yar, qo'y-sigir olmas,
Makoni bo'larmish qo'ylar ichinda.

Maxtumqulining ko'zlariga teran boqqan va boshiga tushgan tashvishlardan voqif odamlar uning oddiy jahongashta emasligini yaxshi his qilishardi. His qilgach esa u bilan yaqinroq tanishishga intilishardi.

Keyin o'sha suhbatlarda shoirning she'rlari yangrar, savodli kishilar bu she'rlarni ko'chirib olishardi. Ba'zi ijodkorlar o'z qoralamalarini Maxtumquliga qoldirib ketishardi.

Maxtumquli bu she'rlariga xuddi jangga kirgan askar kabi yoxud nam tuproqqa tashlangan urug' kabi qarar, ularning askar kabi g'alaba qozonishiga, yoki to'q urug'dek hosil berishiga ishonardi. Ko'nglidagi shu yashirin ishonch uning yagona yordamchisi, tuganmas ilhom chashmasi edi.

* * *

Maxtumquli o'z vatani tomon yo'lga tushganida, yana ovulidagi voqealarni, Menglini, do'stlarini, tirik qolgan qarindoshlarini birma-bir esga oldi. Yuragini sog'inch olovi o't bo'lib bosdi. Axir, ularni sira unutib bo'lmaydi.

Har yurt, har shaharga borib, qul bozorlarini ko'rganidan keyin so'rab-surishtirib, Menglini, akalarini ko'rgan-bilganlarni qidirib topish umidi uyg'onganida, yana yuragida umid chirog'i yondi.

U yo'l-yo'lakay Samarqand, Buxoro, Xivaning osmono'par minoralari, maqbaralari, ziyoratgohlari yonidan o'tarkan, marhumlar ruhiga duoyi fotiha qilib bordi. Ayniqsa, Buxoro va Xiva uning yoshlik damlarini yodga soldi. Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida kechgan yillarini to hanuz minnatdorlik bilan eslaydi.

Har dam unutmasman oltin eshigin,
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal "Sherg'ozi"!

Bu satrlarni siz ham esladingiz.

Buxoro va Xivada juda katta qul bozorlari bo'lgan. Maxtumquli bu bozorlarni yurak hovuchlab aylandi. Bordi-yu, qo'liga kishan solingan, kiyimlari to'zib ketgan, boshini quyi solib o'tirgan aftodahol Menglini ko'rib qolsa, ne ahvolga tusharkin?

Yo'q, bunday ko'rgilik Maxtumquliga nasib etmadi. Biroq bu bozorlarda el-yurtidan, erkidan ayro tushib, o'zga o'lkalarga joriya qilib keltirilgan, Mengliga o'xshash o'nlab baxtiqaro zaifalarni ko'rdi. Ularni ko'rib, yuragi tilka-pora bo'ldi. Inson taqdiri bu qadar fojialarga boy ekanini o'ylab, ich-ichidan g'azabi toshib ketdi. Qaniydi, qo'lidan kelsa-yu o'z hayoti boshqalar uchun shunchaki foyda manbaiga aylangan insonlarni bitta qo'ymasdan ozod qilib yuborsa. Afsus, bitta-ikkita qulni ozod etish bilan bu mash'um

savdo koshki tugab qolsa? Bu bozor yuz yildirki to'lmaydi, bo'shab ham qolmaydi.

Maxtumquli o'zini shu qullar o'rniga qo'yib ko'rdi. Xayoli uzoq-uzoqlarga qochdi. Hayhot, qullarning ustida qamchi o'ynatib, murtini yalab xaridor chorlayotgan qulfurushlar ham, shu bechoralardan birovini sotib olish uchun hamyon ochayotgan xojalar ham inson-ku axir? Harqalay, ular o'zlarini inson, insonlarning eng buyugi deb bilishadi. Ular insonning inson ustidan egalik qilmasdan yashay olishiga ishonishmaydi. Aslida oyoq-qo'liga band solingan bu sho'rliklarni ham ona dunyoga keltirgani ularning ham opa-sinillari, aka-ukalari, yaqinlari, qalbi, o'z ehtiyojlari borligi haqida o'ylab ham ko'rishmaydi.

Qachonlardir bular ham ozod edilar, o'z oilalari, uylari, ro'zg'orlari bor edi. Mana, endi o'z taqdirlarini o'zlari singari ojiz bandalarga topshirib, ularning qo'llariga mo'ltirab turishibdi.

Evoh, qullar yig'lasalar, xojalar kuladilar, qullar salgina jilmaysa, egalariga shubhaga tushib, ularni qiynoqqa solishadi.

Bandi ham, xojasi ham Alloh deydi. Qani bunda adolat? Nahotki, bu zolimlarning zulmi-yu, bechora qullar chekayotgan jabrlar ham Qodir Allohning irodasi bo'lsa?

Aslida bu xalqning qonini, naslini, hozirgi til bilan aytagnda millat genofondini toza, sof saqlash bilan bog'liq harakat edi. Qul-cho'rilar ham asosan Eron tomondan keltirilar, biroq xalq o'z qonini boshqa qonga qo'shishni ep bilmasdi. Ayniqsa, joriyalar masalasida juda ehtiyotkor bo'lishgan. Bosqinchilik hujumlari paytida olib kelganlarini ham iloji boricha boshqa ellarga tezroq sotib, qutulish payida bo'lishardi. Uyda yoshgina joriya xizmat qilib yursa, uydagi bo'y yetgan yigitlarning tarbiyasi buzulishi, xayoli bo'linishi, fikri aynishi mumkinligi nazarda tutilgan. Kim joriyaga qo'l tekkizdimi, unga uylanishi shart bo'lgan. "Qo'l cho'zdingmi, egalik qil", degan naql ham shu maqsadda aytilgan.

Bu jihatdan "qon" so'zi asllik, tarbiyalilik, xayrixohli tushunchalari bilan bog'liq bo'lgan. "Qoniga tortibdi", "Qon bilan kirgan jon bilan chiqar", "Qiz otasiga tortadi, o'g'il onasiga", "Qaynatsa qoni qo'shilmaydi" singari naql va iboralar ham bejiz aytilmagan.

Odamzodning nasl-nasabi masalasini-ku bir chetga qo'ya turaylik, turkman eli azaldan bedov otlar yetishtirishda ham bu masalaga jiddiy qarashgan. Qonning tozaligi eng uchqur va kuchli otlar uchun ham muhim edi.

Maxtumquli o'z elining udumlarini yaxshi bilar, ularda xalq dahosining teran tafakkuri yashirin ekanini ich-ichidan tan olardi.

Azaldan Sharq xalqlarida mard va nomard tushunchasi bor. Tarbiyali, insofli, xaromdan parhez qiladigan, halol ish tutadigan, ojizga rahm qiladigan, zolimning jazosini beradigan odamlarga nisbatan mard so'zi ishlatilgan. Nomard esa, uning aksi.

Mahtumquli o'z ajdodlarining g'oyalari, urf-odatlarida ham, qon sofligiga intilishni ko'radi. Mard odamdan nomard dunyoga kelmasligiga yurakdan inonadi. Bu nima, fatalizm emasmi? Ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini butunlay inkor etish emasmi? Otasi o'g'ri bo'lsa, o'g'li ham har qancha tarbiya berma, o'g'ri bo'lib yetisharkan-da?

Ibrat, namuna kuchli vosita. Berilgan maslahat har qancha aqlli bo'lmasin, aytadigan, ko'rsatadigan ibrating qo'lga ilingulik bo'lmasa, yomonlik yengadi. Mana, xalq aql-idroki ana shunday jihatlarni, shart-sharoitni hisobga olgan holda yuzaga keladi, yuksaladi. Hayotda bu borada juda ko'p misollarni keltirish mumkin. Gen masalasida to hanuz yechimini topmagan jumboqlarning ko'pligi ham shundan.

Xivadagi o'zbeklar, qoraqalpoqlar, turkmanlar Maxtumqulining uzoq qarindoshlari uni juda iliq qarshi olishdi. Uning she'rlari allaqachon bu taraflarda dovrug' solib bo'lgandi, bu satrlar minglab qalblarni zabt etib ulgurgandi. Xonandalar, baxshilar uning she'rlariga kuy bastalab, kuylab yurishardi.

Demak, shoirning:

Maxtumquli, so'zlarim sozga qo'shsa uz bo'lar,

degan misralari o'z ijobatini topibdi.

Xiva xonligidagi turkmanlar Maxtumquli she'rlaridagi o'tli da'vatlarni ta'sirlanib o'qishar, ammo amalda biror harakat sezil-

masdi. Bunda qabila boshchilarining qo'li borligini Maxtumquli yaxshi bilardi. Chunki qabilalar qanchalik tarqoq, og'ziola bo'lsa, ularning hokimiyati uzoqqa cho'ziladi.

Maxtumquli Turkman sahrodan, Atrek bo'ylaridan, Qariqal'adan, boshqa tomonlardan ko'chirib keltirilgan, qochib kelgan go'klanglarning turar joylarini borib ko'rdi. Agar yurt obod, zamona tinch bo'lganida, ular bu yerlarda emas, o'z yurtlarida, bir paytlar jannatning bir bo'lagi hisoblangan makonlarida yashagan bo'lishardi.

Maxtumquli bu yerda ko'p tanish-bilishlari bilan yuzlashdi. Ular bilan birga kechgan voqealar yodga olindi. Qadrdon ovulining bir chekkasiga ko'zi tushgandek bo'lib, ko'ngli ko'tarildi. U olis muddat dengizda suzib, nihoyat, olisdan yerni ko'rib qolgan dengizchidek, tinimsiz quduq qazib, suvga yetishgan dehqondek sezdi o'zini.

Yaqindagi Atrek, Gurgon taraflardan kelgan musofirlardan o'z yurti, tanigan-bilganlari haqida qayta-qayta so'radi. Xushxabarga tashna ko'ngil bu xabarlardan qanoat hosil qilarmidi? Ko'ngil-ku, o'z yo'liga, ko'zning nigoronligiga qanday chora topish mumkin? Axir sog'ingan ko'zlar tezroq o'z yurti, o'z eli, o'z yaqinlarini ko'rmasa, sabr-toqat ish berarmidi? Bu yerdagi odamlar ham yaxshi so'zga, yaqinlar suhbatiga intiq edilar. Yana atrof-javonibga dong taratgan, har bir so'zi she'rga do'nib, yuraklarga kirib borgan ulug' Maxtumquli bilan yuzma-yuz suhbatlashish ham baxt emasmi?

Maxtumquli she'r, so'z, hikmat qadrini qanchalik yuqori tutsa, bu yerliklarning ham ixlosi bundan kam emas ekan.

Mana, qorong'i tushishi bilan katta maydonda gulxan yoqilib, she'riyat, qo'shiq, ma'rifat shaydolari jamlanishdi. She'r-u qo'shiqlar ohanglari olislarga tarala boshladi.

Mana, Maxtumquli zavq-u shavqqa to'lib she'r o'qimoqda. Tinglovchilar she'rning go'zal ohangiga, uning zamiridagi purma'no hikmatlarga tobe edilar. Shunda ham tinglovchilarning chanqog'i qonmadi.

Sababi bu she'rlarda shu yerda o'tirganlarning ko'ngillaridagi og'riqlar aks etgandi. She'rlardagi so'zlarning har biri o'tirganlarning qalbiga kirib bormoqda edi.

Maxtumquli bu she'rlari orqali har kimning yuragidagi tuyg'ular shamoyilini chizib berolgan edi.

Shu lahzalarda dunyodagi barcha ayriliqlar, chekilgan jabr-u sitamlar, adolatsizliklar boshdan kechayotgan kabi insoniy muhabbat zavqi, o'zaro mehr-oqibat, hayotdagi quvonchli lahzalar ham bo'y ko'rsatayotgandek bo'ldi.

Atrofini o'rab olgan katta-kichik odamlar ko'z o'ngida, o'zlari singari oddiy bir inson, bilganlari — Maxtumquli tobora yuksalib borardi. U yuksalgani sari har bir some'ning qalbidan chuqurroq joy ola bordi.

Bunday ta'sirli she'rlar yod olinmasligi, qo'chirilmasligi mumkinmi? Bu she'rlarni tinglagan odamlar o'zlarining inson ekanini yana bir bor dildan his qildi. Shunday she'r yozgan insonni ko'rib turganidan quvondi. Baxtiyor sezdi. Bu ulug' bir iftixor edi. Inson bulib tug'ilishdan g'ururlanish tuyg'usi edi bu. Maxtumquliga ham shu kerak edi.

Insonning eng kuchli tarafi bu uning so'zidir. O'z so'zi shu qadar qudrat kasb etganini ko'rish — shoir uchun ulug' baxt, buyuk ehtirom. Shoirning cho'kkan ko'ngli shu yerda buyuklikka intildi.

Bandasiman, so'zga xaridor quling.

Maxtumquli Qoraqumdan o'tadigan karvon yetib kelguncha Xivada bo'ldi. Shu orada uning xayoliga yana bir yangi fikr keldi: agar turkmanlar hozir birlashmasalar ham, birlashish g'oyasini ularning ongiga quyaverish kerak, vaqti kelib bu ishlar o'z samarasini berar? Qolaversa, o'zidan misol: uning she'rlari ham bu g'oyalarning xalq ichida tez tarqalishiga xizmat qilishi mumkin ekan. Eh, qo'lingdagi qilichning dami o'tkir ekanini bilishing uchun ham fursat kerak ekan-da?

Maxtumquli "Bu niyatlarim amalga oshmasdan, hammasi teskarisi bo'lib chiqishi ham mumkinmi?" deya o'ziga o'zi savol berib ko'rdi. Unaqada turkman xalqi yer yuzidan tamoman yo'qolib ketadi-ku? Ammo Maxtumquli bu paytlarda turkman xalqining asrlar bo'yi chiniqib, toblanib kelayotgan oliy xislatlari — g'ayrat-shijoati, zehn-farosati, o'tmish davrlarda boshiga tushgan

tashvishlarni mardonavor yengib kelayotganini yodga olib, bu xalqning kelajagi ham shunga yarasha yorug‘ bo‘lishiga ishonardi. “Bunday xalq tarqalib ketishi mumkin, ammo qachondir qayta birikadi. Harqalay, hech qachon tarix sahnasidan yo‘qolib ketmaydi. Sababi, bu xalq necha marta yo‘q bo‘lib ketish xavfi tug‘ilganda ham, oxir-oqibat omon qolgan. Bu borada uning tarixiy tajribasi katta...”

Bunday fikrlar Maxtumqulining xavotirli ko‘ngliga ozmi-ko‘pmi taskin berdi. Uning dastlabki fikri turkmanlarni tezda birlashtirish edi. Ammo tarixiy haqiqat, xalqning muayyan bir davr oralig‘idagi hol-ahvoliga tushunib yetishi uchun bu boradagi fikriga tushov soldi. Birlashmoq degani ajrashib ketish singari tez va oson amalga oshadigan ish emas, balki bu g‘oya yillar, asrlar o‘tib o‘z samarasini berishi mumkin. Maxtumqulining endi-endi bunga aqli yeta boshladi. Lekin ko‘ngilni ko‘ndirish qiyin, u bu ezgu ishning tez orada amalga oshishini istaydi. Umr esa vafo qilmaydi, o‘z oqimida oqaveradi.

Aql va ko‘ngil ziddiyatiga Maxtumqulining umrida ilk bor duch kelishi emas. U bunga ko‘nikib ham ketgan. Bu shoirlikning asosiy shartlaridan birimikin? Ana shunday xayollarga berilib, uzundan uzoq karvon yo‘llari bo‘ylab ketib borarkan, Maxtumqulining fikri-o‘yi yana qadrdon ovuli tomon oqdi. U xuddi yigirma yashar yigit kabi toqatsizlanib, tezroq yurtiga yetish havosi bilan oshiqmoqda. Karvonning esa o‘z yo‘li, o‘z tezligi bor. U Qoraqumning ko‘z ilg‘amas kengliklari, baland-baland barxanlarini oshib o‘tib, qancha quduq va sardobalar yonida to‘xtab, oxiri bir vodiyga yetdi. Cho‘llarda parranda-yu darrandalardan hayiqib kelgan karvon endi qaroqchi-yo‘lto‘sarlardan ehtiyot bo‘lishi kerak.

Uzoqdan tog‘larning boshi qorayib ko‘rinardi. O‘pkasiga oqib kirgan tanish, qadrdon havo uning eski xotiralarini titkilashga tushdi. Bir tepalikdan oshib o‘tishganida, besh-olti tozi it shiddat bilan yelib borayotganini ko‘rishdi. Shu payt ularning yonidan bir turkman otini qichab, salom berib o‘tdi. Uning chap qo‘li jilovni mahkam tutgan, o‘ng qo‘lida o‘tkir ko‘zli ov qushi — lochinni mahkam tutib olgandi.

Maxtumquli bu ovchi yigitga havas bilan qarab qoldi. Mana, turkman sahrosining asl egasi. Yo‘rg‘alab borayotgan otingdan,

yigit! Iskandarnikidek mag‘rur boshingdan sening! Toza, samimiy, beg‘ubor yuragingdan! Ana shunday mard yigitlari bor el yer yuzidan yo‘qolib ketarmidi?

Bunday elning qal’asi mustahkam bo‘ladi. Turkmanning g‘animlari azaldan juda makkor bo‘lishgan. Ular istasalar, birlashib har lahzada turkmanni yakson qila olardilar. Ammo uning binosi mustahkam.

Ana, otini sapchitib, oq telpagi shokilalarini havoda hilpiratib borayotgan yigitga qarang: “Dushman bosdi” desang bas. Shu lahzada uning o‘zi olg‘ir lochinga aylanadi, oti o‘q bo‘lib oldinga otiladi. Yo g‘animni yer tishlatadi, yo o‘zi ham mardlarcha halok bo‘ladi. Uning boshqa bir niyati yo‘q. Sababi, Go‘ro‘g‘li uning og‘asi, Dada Qo‘rqut otasidir.

Ular o‘z avlodlariga oq telpak kiydirisharkan, boshing oq bulutdan past bo‘lmasin, deb duo qilishadi. Yo‘ling oq bo‘lsin, niyating haq bo‘lsin, lafzing pok bo‘lsin, deb niyat bildirishadi. Otinigni, qilichingni, erkin o‘ynat. O‘ktam va jasur bo‘l! Ammo rahm-shafqatni, ojizlarga muruvvatni ham aslo unutma, deb nasihat qilishadi.

Maxtumquliga qaytaylik. Yo‘l-yo‘lakay, tanish-bilishlar, qadrdon chehralar, yoqimli so‘zlar tobora ko‘proq uchray boshladi.

Bir dovonga chiqqanlarida huv uzoqdan ikkita baland minora ko‘rinib, dovondan pastlaganlarida, yana ko‘zdan yo‘qoldi. Ular Dehistonning minoralari. Qadimda mo‘g‘ullar to‘p-to‘pxonasi bilan yetib kelganida, Ali ibn Sukkari degan bir qudratli shayx shu minoralardan biriga chiqib, duo o‘qib, bosqinchilarning ko‘zlarini bog‘lagan, shu tariqa shahar ko‘zdan g‘oyib bo‘lib qolgan ekan. Maxtumquli ana shu rivoyatni, bu yerlar haqida o‘qigan-eshitganlarini birin-ketin esga oldi.

Dehiston. Tobora yerga singib, nurab borayotgan qal’a devorlari, masjidlar, madrasalar, zilol suvli ariq va anhorlar. Hududsiz qabristonlar.

Dehistonning Mashhadi Misriyon (misrliklar mozori) deb nomlanishi ham ko‘p narsadan xabar beradi.

Qadimgi oshiq-baxshilardan biri Himmat Kakajon shunday degandi: “Uchta Misr bor, ulardan biri Xiva atroflarida, ikkinchisi Mashhadi Misriyon, uchinchisi esa o‘sha, hamma bilgan Misr.

Mana, yana bir isbot: Andalibning "Nasimiy" dostonida "Qaysi Misrning azizisan, xonisan?" degan misraga duch kelamiz.

Dehistonni qurgan bunyodkorlar juda aqlli va dono bo'lgani sezilib turadi. Ular me'morchilik va arxitektura borasida ham chuqur bilim va tajribaga ega bo'lishgan. Ular yer usti binolari bilan birga yer osti inshootlarini ham alohida e'tiiborga olishgan. Qal'alar, minoralarning bel qismi yog'och qoplamalar bilan qoplangan. Bu ko'rinish esa faqat Sharq arxitekturasiga xos.

Tog' saridan guzar solsang,
Ul yerda yurt aylab qolsang,
Shul joyingdan nazar olsang,
Ulug' Dehiston ko'runur.

Bu satrlar Dehistonning o'tmishda qolgan shuhratini, bu zaminga buyuk insonlarning qadami tekkanini ko'rsatadi. Masalan, Abu Ali ibn Sino dunyo tashvishlaridan horib-charchagan paytlarida Dehistonga kelib, dam olgan, hordiq chiqargan.

Bu tomonda Shamoli Dehistoniy ismli shoir yashab o'tgani ham ayni haqiqat. Maxtumqulining:

Dehistonning bag'rida,
Bodi saboni ko'rsam,

degan satrlarida shu shoir Shamolini nazarda tutmaganmikin?

Bu kayfiyatni qanday tushunish mumkin? U odamlarni battar tushkunlikka tushirmaydimi? Bu o'zini o'limga tayyorlash emasmikin? Odamlar nima uchun "yutganing o'zingniki, chaynaganning gumon" degan naqlni ko'p qaytarishadi? Yo'q. Bu borada Markaziy osiyoliklarning o'z tushunchalari bor. Bu naqlni takrorlashdan maqsadlari ham o'zgacha. Odam bolasi o'limni esga olganida ko'ngli yumshaydi, qahr-g'azabdan tushadi, nafsiga hay beradi, yomonliklaridan voz kechadi. Yaxshi amallarni ko'proq qilishga oshiqadi. Ro'parangda turgan odamning ham ertami-kechmi o'lishi haqiqat ekanligi senda unga nisbatan qismatdoshlik tuyg'usini uyg'otadi.

Maxtumquli ana shunday an'analar ta'sirida tarbiya topgan inson.

Yo'lning ravishi endi uyga qarab yo'naldi. Tuyalarning tovoni tog' toshlarini bosib o'tayotir. Necha kunlardan beri yumshoq qum ustida tuyog'i o'ynagan otlar endi ehtiyotkorlik ila oyoq bosishardi. Kuz shamollari vaqti-vaqti bilan daralar oralab esar, salqinga o'rganmagan badanlar esa junjika boshlagandi.

Izg'irin bog'larda daydib, sarg'aygan yaproqlarni ayovsiz siltaydi. Bandidan uzilgan tillarang barglar bir muddat nochor charx urib, keyin tuproqqa bosh qo'yadi.

Atrofga qurigan tog' giyohlarining xushbo'y hidi taraladi. Bunday mahzun manzaralar qaysi shoir qalbni tinch qo'yishi mumkin? Maxtumqulining qalbini ham bunday ma'yus manzaralar ezib tashladi. Oldingi kuz oylarida uyiga sig'may, o'zini o'zi ovuntira olmay, tog'-u toshlarga chiqib, she'r bitib yurgandi. Hozir ham bir juft satr uning oromini o'g'irlagan, tezroq qog'ozga to'kilish uchun talashayotgandi. Ammo o'ychan kuz kayfiyati shoirning xayolini boshqa taraflarga tortqiladi. Kuzda tirik jon borki, o'z uyiga qaytadi, o'z oshiyonida jon saqlashga oshiqadi. Balki bu yil kuzda akalari Muhammadsafo bilan Abdulla ham ona ovullariga qaytishgan bo'lsa-chi? Shunday xayol bilan Maxtumquli soch-soqollari o'sgan, kiygan kiyimlari ilma-teshik bo'lib ketgan akalarini ko'z oldiga keltirdi. Ana, ular nuray boshlagan uy eshigi oldida ma'yus qiyofada jovdirab turishibdi.

"Bunday ma'sum qarashlar menga ham nasib qilarmikin? Mengli-chi, u ham qaytib kelmadimikin?

Ey-y sorbon! Meni tezroq o'z makonimga yetkaz! Anavi tog'-lardan uchib o'tishning imkoni yo'qmikan? Manavi daryolardan suzib o'tsak-chi? Faqat to'xtamay yo'l bosishimiz shart. Balki Falakning o'zi bizga kulib boqar? Yig'lagan odam umr bo'yi yig'lab o'tadimi? Kulgan odamning kulgusi abadiymi?"

Uning ovozini eshitgan bolalar karvon yo'liga yugurib chiqa boshlashdi. Mana, karvon qo'l yetgudek yaqinlikda kirib kelayotir. Balki shirinliklar olib kelayotgandir, balki ola-bula to'plari bordir. Ana, karvonning eng oldida to'nining etagini hilpiratib Maxtumquli kelmoqda. U qishloq boshidagi uydan chiqqan oqso-

qol bilan qo'shqo'llab so'rashdi. Uning ko'zlariga sinchiklab boqib, bir ma'no uqishga urindi.

"Agar yurak chin ixlosli yurak bo'lsa, ro'parasidagi odamning pinhon g'amlarini ham seza oladi!"

Bolalar kela solib Maxtumqulining oyoqlariga yopishishdi. Ularning ortida bir guruh erkak va to'da-to'da xotin-xalaj ko'zga tashlandi. Qiz-juvonlar qarindoshligi bo'lmagan erkaklarni kutib olishga chiqmaydi. Bu turkmanlar an'anasiga xilof. Ammo bu ovulda hech kim Maxtumqulini begona deb bilmasdi. Hamma uchun qadrdon, aka, uka, farzand, do'st maqomida edi.

Ovuldoshlari Maxtumqulining yolg'iz boshi bilan qaytganini ko'rib, yana ta'blari xira tortdi. Axir ko'pchilik Maxtumquli o'z yaqinlari, akalari va ayolini izlab ketganidan voqif edi-da!

U paytlar ovuldosh degani qarindosh, birodar, dildosh degan ma'nolardan olis emasdi. Qismatdoshlik, kulfat va xursandchilikni ham birga kechirish, kambag'al turmush tarzi butun ovul ahlini bir oilaga aylantirib qo'ygandi.

Maxtumquli ovuldoshlari bilan birma-bir so'rasharkan, har birining ko'zlarida ulkan dardni, qayg'uni ko'rdi. Ovuldagi turmush tarzi o'zgarmagani, vaziyat avvalgidek qolganini bir qarashdayoq sezdi.

Hali katta jazo oldinda turardi. U uyiga bir o'zi so'ppayib kiradimi? Yangasining ko'ziga qanday qaraydi? Kelinoyisi butun umidlari chilparchin bo'lib, yum-yum yig'lasa, qanday chidarkin? Zubayda singlisi kelib, ko'z-yosh to'kib, "akalarimni topib kelmadingizmi?" desa nima qilarkin?

Maxtumquli karvon ahlidan madad kutdi. Har qalay ularni uyida mehmon qilsa, uyidagilar begonalarning oldida ko'z yosh qilishdan tiyiladilar.

Mana o'sha, avvalgi hovli. Erkakning qo'li tegmaganidan so'ng har qanday uydan fayz ketadi. Bu hovli ham nurab, cho'kib, fayzsiz bo'lib qolgan. Eshigi ochiq uyning tashqi burchagida kelinoyisi sassiz yig'lagancha uni qarshi oldi.

Maxtumquli hali uzoq yo'l bosadigan karvon ahlini bir oqshom ota uyida mehmon qiladigan bo'ldi. Karvondagilar Maxtumqulining tashqari hovlisidan joy olishdi.

Maxtumquli ularni joylashtirib, uyga kelgan-ketganlar bilan salomlasharkan, yangasi bilan xoliroq gaplashishga oshiqmadi. Ayol yuzlarini berkitgancha o'z uyiga kirib ketganini ko'rib, yuragi battar ezildi.

Mayli, ayol biroz yig'lab, yuragining hovurini bosib olsin, Maxtumquli u bilan keyin gaplashadi.

Ko'p o'tmay, uning kelganini eshitgan singlisi Zubayda ham ovulning narigi burchagidan uchib keldi:

— Vah akajonim, keldingizmi? — deya uning bag'riga otildi. — Endi ovuldan uzoqqa ketmang, sizni kutaverib, ko'zlarimiz to'rt bo'ldi-ku? Sizam katta akalarim singari yo'qolib qolmadingizmi, deb kechalari bilan uxlolmay chiqardim. Shukur, esonomon qaytib keldingiz.

Bir tomonda yangasining armonli ko'z yoshlari, bir yoqda hamon Menglining hidini, Menglining yodini bag'rida saqlab kelayotgan uy Maxtumqulini ezgandan ezardi.

Birinchi oqshom-ku, karvondagilar bilan birga tunadi. Ertasi kuni karvon yo'lga chiqqach, Maxtumquli yana azobli yolg'izlik iskanjasida qolib ketdi.

Tanholik shoirning yuragini xuddi qotgan nonni kemirayotgan sichqondek ayovsiz g'ajirdi. Uning qulog'i ostida ham faqat yolg'izlik navosi jaranglardi.

Ovuldagi holat, ovuldoshlarining mahzun hayoti ham uning qayg'u-hasratlarini orttirdi. Go'klang xonlari o'z boshlarini omon saqlash uchun Eron tarafga boj to'lay boshlashibdi. Ularning fors hukmdorlariga yashirin sovg'a-salomlar jo'natib, yaltoqlanishi ham shoirning ko'nglini og'ritdi.

O'ziga ishongan, bir paytlar el ichida obro' qozonib, ortidan odamlarni ergashtira oladigan qancha insonlar tarqalib ketibdi. Kimdir Erondan oshgan, yana kimdir Rumistonga ketgan, boshqa birov Hirotga yuz burgan bo'lsa, kimlardir Mang'ishloq, Ozarbayjon tomonlarga yo'l olgan...

Qarshilikka uchramasligiga ishonch hosil qilgan eski dushman — qizilboshlar, qojorlar yana haddidan osha boshlagandi. Oldindan g'arib elning ahvoli yanada achinarli tus olgandi.

Bunday ahvolni o'z ko'zi bilan ko'rgan Maxtumqulining holatini tasavvur qilish qiyin emas:

Yor siynamda dog‘ ustina dard qo‘ydi,
Dard ustina murch to‘kibdir tuz bilan.

Shundan so‘ng Maxtumquli qanday qilib o‘zini qo‘lga ololsin? Endi avvalgidek aqli teranligini saqlashga uning qurbi yetarmikin? Yoki u ham yuzlarcha oqillarni, shoirlarni, sarkardalarni o‘ynatgan turmush nog‘orasiga muqom qilib ketaversinmi? Shuncha paytgacha qalbini yondirib kelgan niyatlariga qo‘l siltasinmi?

“Ey, ishi teskari ketgan Maxtumquli!, — deya u o‘zini o‘zi koyidi. Sen g‘urbatdagi turkmanlarni bu yerdagilar bilan birlashtirmoqchi bo‘lib, yo‘l izlagan eding, kelguningcha bular ham tarqab ketishibdi. Endi-chi, cho‘ponsiz suruvga aylanib qoldikmi?”

O‘zidan, elidan, hayotdan ham xafa bo‘lib ketdi. Bu g‘amlar birlashib, uning yuragini yorgudek bo‘lardi. Ana shunda shoirning avval-oxir yozgan she’rlari orasida eng qahrlisi tug‘ildi:

Odam o‘g‘lin solding tuganmas g‘ama,
Yosh-qari yo‘lingda sargardon hamma,
Bir moda eshakday kelibsan dama,
Qoshig‘i g‘am bilan to‘lgan dunyosan.

Evoh, odamgarchilik, oliyjanoblik tuyg‘ularining qadrsizlanishi, odamlarning tubanlashuvi, din peshvolarining nafsiga qul bo‘lib, qo‘l ochishlari, xon va beklarning xalqqa bevafolik qilib, g‘animlar bilan til topishuvi, o‘g‘ri-kazzoblarning, satang-behayolarning ko‘payib ketishi, xalqning xayolida “najot yo‘li qolmadi” degan tushunchaning kuchayishi Maxtumqulini chuqur iztirobga solardi.

Har qancha tayanch izlamasin, topoldmadi, ruhan yuksalishga intilgandi, bo‘lmadi. Sel suvi bir junbishga kelgach, to tingunicha kutishdan boshqa chorang yo‘q ekan.

Keyin g‘am ko‘lida hasrat kemasini surishingga to‘g‘ri keladi. Xo‘sh, u bu kemada qancha vaqt suzarkin?

Bu g‘am lashkari avvalgilariga o‘xshamaydi. Darding yangilanganida, eski dardlarning ham azobi ortayverarkan. Menglining firog‘i, otasi mulla Davlatmammadning vafoti, akalarining yo‘qolishi, bularning har biri alohida bir baxtsizlik.

U davrlarda Maxtumquli Ahmadshohdan umid qilgandi. Xalqidan umidvor bo'lgandi, bir kuni orzularimiz amalga oshar, degan ilinjda edi.

U kunlardagi umid, ishonch, ilinj — barchasi havoga sovurildi. Hammasi xalqning o'ziga bog'liq edi. Xalq ham barcha umidlariga qo'l siltab tarqay boshlabdi.

U xalqiga qanchalar ishongandi. Ammo bu ishonch chilparchin bo'ldi. U endi o'z xalqini koyib tergamoqqa majbur edi. Bolaligidan adolatsizlikka, johillikka, salbiy illatlarga nisbatan nafrat ruhida tarbiya topgandi. Afsuski, bu illatlar hozir ham butun atrofini o'rab olgan...

Men netayin ey do'stlar, umidsiz iqbolimga,

Yoki:

Maxtumquli miskinman, ko'nglim uyi noma'mur,
So'zga yaqin bandaman, xayrim kam-u sharrim zo'r.

Odamni botqoq sekin-asta komiga tortganidek, Maxtumquli ham tobora g'am loyiga botib borardi.

Ko'mildi daryolar, yiqildi tog'lar,
Yetimlar ko'z yoshin to'ka boshladi,
Haromidan bo'lgan haromi beklar,
Yurtning bir yonini yiqa boshladi.

Bu kunlar, bu oylar, balki yillar Maxtumquli umrinig eng og'ir damlari edi. Uning qalbiga cho'kkan g'am, bir, besh, o'n she'r bilan ariydigan emasdi. Aslini olganda, bunday g'amni she'r bilan yengib bo'larmikin? Har nechuk she'rning yuragidan to'kilishi biroz bo'lsa-da, unga tasalli beradi. Shunday paytlarda uning vujudini egallagan qahr ham biroz chekinardi. Ammo ko'p o'tmay, g'am-alam yana o'z izmiga olardi:

Yaxshi yigit qadrin o'z eli bilmas,
Boshiga ish tushsa, yoniga kelmas,
Ul mard yigit zorlar, dardi yanchilmas,
Dod aylar, "yo elim" demoq bilan u.

Maxtumquli o'zining bu qadar yolg'iz va baxtsizligidan ba'zan o'zi ham hayron qolardi. Shoirligi, ijodini, vatanparvarligini bir chetga qo'yib, uni oddiy inson sifatida tasavvur qilganimizda ham, uning qanchalar sabrli, irodali, matonatli ekanini sezamiz.

Demak, Maxtumquli o'zining dard-alamlari bilan ham benazir, ulug' inson darajasiga erishgan.

U ana shu xususiyatlari bilan o'z ovuldoshlari, ahli turkmanning e'tiborini tortmoq bo'ladi. Ammo har qancha urinsada, uning bu umidlari samara bermaydi. Unga bir kimsa yelka tutmaydi:

Maxtumquli chetga olgil o'zingni,
Aniq bil, o'yarlar ikki ko'zingni,
Tinglagan yo'q zoye etgan so'zingni,
Endi sendan xabar olar bo'lmadi.

Shoir endi o'z elidan ginaxonligini yashirib o'tirmaydi. O'rni kelganda shuni aytib o'tish kerakki, o'z davrining ilg'or fikrli odamlari ulug' mutafakkirlarning ko'pchiligi ahli zamondan, el-yurtdan o'pka-gina qilib o'tganlar. Maxtumquli ham ulardan biri edi:

O'zini yungsoqol etar,
Buzilgan elga bosh bo'lgan,

Yoki:

Og'zi bir bo'lmagan uyga bosh bo'lmang,

Yoki:

Og'zi ola qavmlarga bosh bo'lmang,

degan satrlar ham shular jumlasidan.

Ammo har qancha kuchli bo'lmasin, qalb otashi uni Vatandan, el-yurtdan uzoqlashishga undasa-da, shoirning bu olamga sig'may turgan yuragi ham uni yana bir yoqlarga bosh olib ketishiga to'sqinlik qilardi.

Qochganim ko'plikdir, istagim xilvat.

Shoirning aql-tafakkuri — yuksakdan turib porlagan, o'tmish va kelajakning sarhadlariga boqib, ezgulikni namoyon qila olgan idroki uni el-yurtdan chekinishdan saqlardi. Shunday bo'lib keldi va umrining oxirigacha shunday bo'lib qoldi.

Maxtumquli shunday og'ir g'amlarga botgan paytlarda ham, qalbining bir chetida ezgulikdan umid uzmay turaverdi. Har xil tuyg'ularga berilib, goh u tomon, goh bu tomonga o'tib yurmadi. Ana shunday dilgir kunlarda:

Nasihatim, eling bilan qasd bo'lma, deb nasihat qilmoqqa ham o'zida kuch topa oldi.

Maxtumqulining bu nolasi o'zini eldan yuqori qo'yish, el ko'zidan yiroqlashish maqsadida emas, aksincha, el bilan yanada jipslashmoq, o'z kelajagini eldan ayri his qilmaslik maqsadida aytilgan hikmatdan tarkib topgan edi. Bu xuddi o'ziga nisbatan ochlik e'lon qilgan odam ochlikni o'lish emas, balki maqsadga yetish uchun vosita sifatida qo'llashi kabi edi.

O'z xalqining fe'lini yaxshi bilgan shoir shu yo'l bilan uni turtib, ogohlantirib qo'ymoqchi bo'ladi. Bu satrlar xalq vujudiga doridek singmasa-da, vaqti kelib ongiga ta'sir o'tkazishiga ishonadi. Ammo shoir bu bilan cheklanib qolmaydi. Jo'shqin tuyg'ular unda turli-tuman fikrlar uyg'otadi.

U har qancha yuksak inson bo'lsa-da, o'z elidan ayrilib ketishni istamaydi. U yuksalsa, xalqi bilan birga yuksaladi. Binobarin, shoirning Yaratganga yuzlanib, nola chekishida ham xalqini yuksaklikda ko'rish, pok ko'rish, mard, sarbaland ko'rish orzusi bor.

Ey, Yaratgan arzim bordim O'zingga,
Mardni nomard, nomardlarni mard qilding,
Dunyoning qismatin tutding qo'lingga,
Har tulkidan qoplon qilding, qurt qilding,

yoki:

Odam o'g'li yig'lar, yurakda ohi,
Tinglamas qardoshi, qodir Xudoyi,

yoki:

Haq taolo, bu ne, nechuk ahvoldir,
Toza deb ichganim qumli chiqibdir.

Bevosita Haqqa yuzlanib aytilayotgan shikoyatlarning asl mohiyatida qanday fikrlar borligini sezyapsizmi? Shoir bundan-da o'tkir va keskinroq misralar bitgan bo'lishi ehtimolga yaqin. Ammo ular bizgacha yetib kelmagan.

Maxtumquli diniy, ruhiy, siyosiy, maishiy ideallarini ilgari surish asnosida "dunyo, aqlim yetmas, bunday esarsan" degan fikrlarni ham aytadi. Bu so'zlarni u nafaqat dunyo, balki hayot yo'llarida uchragan kimsalar misolida ham ayta olardi.

Shoir dunyoning asl maqsad-mohiyatiga teran nazar tashlamoqchi bo'ladi. O'zidan avval yashab o'tgan insonlarning dunyo haqidagi fikrlarini jamlashtirib, o'z mushohada elagidan o'tkazsa-da, bu fikrlar isbotini o'z hayoti misolida ko'rgan bo'lsa-da, baribir, qoniqmadi. Shoir bu masalani yanada teranroq tahlil etgisi kelardi. Shu paytgacha javobi topilmagan savollarni u o'z yo'lida devor qilib tikladi. Har gal boshi ana shu devorga takror-takror urildi.

Ana shu devor ostida Maxtumquli mashhur satrini bitib qo'ygandi:

Dunyo, aqlim yetmas, buncha esarsan.

Savolni to'g'ri berish ilmning yarmi, deydilar. Bu ko'z ilg'amas, idrok yetmas olam ichra go'zal suratda va siyratda yaratilgan sho'rlik odamzodning chang misolichalik qadri yo'qligi, dunyoning qo'lidagi qadrsiz o'yinchoq ekanligi Maxtumqulining qalbini qonga to'ldirib kelardi. Bu dard-alamlar yig'ilib, bir kuni portladi. Dunyo esa, bunday "portlash"larni ko'p ko'rgan. Dunyo beparvo: "Portlasang portlayver, o'zingga jabr qilasan" deganday bepisand kuzatib turaveradi. Axir uning oldida Maxtumquli kim? U singari buyuklarning o'ntasi, yuztasi o'tib ketsa ham bu dunyo pinagini buzarmidi?

Maxtumquli dunyoning mohiyatini tugal anglab yetmagan bo'lsa-da, uning uchun odamzodning hech qancha qadri yo'qli-

gini allaqachon anglab yetgandi. Maxtumquli g'am ko'lining tubigacha tushib bordi-yu, inson taqdiriga nisbatan jonkuyarligini bir lahza bo'lsin unutmadi. G'amgin she'rlar, dunyoning ishlaridan norozilik aks etgan misralar, oxirzamon haqidagi satrlar bu davr oralig'ida juda ko'plab yaratildi. U she'rlarining aksariyatida odamzod yer-u ko'k va undagi narsalarga mutlaq hukmfarmo emasligini chuqur taassuf bilan yodga oladi.

Ey yoronlar, bilib bo'lmas,
Ne ish kelar boshimizga?

Yoki:

O'rta yerda dona to'kib,
To'r quribdir toshimizga.

Yoki:

Shirin jon ayrilsa tandan,
Qum to'kilar loshimizga.

Ana shu paytlarda g'am-hasrat haddan oshib, uning uchun hech narsaning qimmati qolmaganda, Maxtumquli o'zi yozgan she'rlarni yirtib olovga ham otmoqchi bo'lar, ammo qandaydir ilohiy kuch uni bu yo'ldan qaytarardi.

Bunday paytlarda hali she'r ekan-ku, insonning o'z joniga qasd qilish hollari ham ko'p uchraydi. Ammo bu holatlar haqida Maxtumqulining qo'limizdagi she'rlarida ozgina ishora ham sezilmaydi. Bu shunchaki bir taxmin, xolos.

Maxtumquli bu safar uzoq g'am chekdi. Ehtimol, bu yillar uning umridagi eng g'amboda damlardir?

Oxiri uning boshidagi tumanlar tarqab, fikr-xayollarida yana hayotga nisbatan umid uyg'ondi. Bu ilinjning boisi yana o'sha najot farishtasi sanalmish Mengli, akalari, vafot etgan jigarbandlari xotirasi, parishon xalqining fojeiy qismati edi.

Ha, ajablanmang, g'am-g'amdan asraydi. Ponani pona bilan chiqaradilar.

Maxtumquli hamma narsaga "bor-e" deb qo'l siltab ketolmasdi. Ana shu xislati uni yana hayotga qaytardi. Uning qalbida avvalgidek kechirimlilik tuyg'usi uyg'ondi. Bu dunyoda berilgan umr ziyosidan vujudiga yorug'lik, quvvat indi.

Bu uyg'onish davri taxminan uning ellik yoshlardagi vaqtiga to'g'ri keladi. Ellik yosh bilan bog'liq she'rlarida u umrning naqadar tez o'tib ketayotganidan afsus chekadi. Yana Menglini izlab topish qayg'usiga tushadi. Uzoq sinovlardan, turmush zarbalaridan keyin ham uning Mengli haqidagi pok hislari sovumaganini ko'rish mumkin.

Mana, uning ellik yoshda yozgan she'rlaridan biri:

Keksa tog'lar boshin egib o'tirsa,
Sabo kelib, orzum yora yetirsa,
Ortga qaytib, yor javobin keltirsa,
Havas bilan ismin yozsam dostonga.

Yoki:

Majnun manam Menglixonning o'tida.

Xuddi shu she'r Maxtumqulining Mengli bilan turmush qurganidan darak beradi. Bu fikrga shubha bilan qarovchilar she'rning umumiy mazmuniga, har bir satriga, har bir so'ziga diqqat bilan qarasalar kifoya.

Maxtumqulining Mengliga bo'lgan sevgisi mashhur muhabbat dostonlari qahramonlarining ishqidan ham yuksakroq, g'amginroq, umrboqiyroq.

Ana shu sevgi shoirni buyuklik va mangulik cho'qqisiga olib chiqmadimi?

Shu muhabbat uning ikkinchi umrini ta'minlamadimi? Uning lol tiliga lafz berib, orzu-istaklariga qanot baxsh etmadimi? Uning idrok chashmasini qaytadan ochmadimi?

Balki o'sha paytlarda Eron tarafdan kelganlarning birovi Menglining daragini topib keltirgandir? Ehtimol, uni qidirib topish uchun yana biror vasilayi sabab yuzaga kelgandir? Nima bo'lganda ham Maxtumquli yana Mengli xayoliga tushgani rost.

Tehron atroflarida garov tariqasida tutib turilgan uch yuz uylik turkman oilalari ham bu ishda Maxtumquliga yordam bergan bo'lishi mumkin. Kezi kelganda aytish kerakki, bu uch yuz uyli turkmanlar boshqa qavmdoshlarining Eronga hujumining oldini olish maqsadida garovda ushlab turilgandi.

Bu kunlarda Menglining xayoli erta-yu kech Maxtumquliga tinchlik bermay qolgandi. U bilan birga yashagan yillar oylarga, kunlarga bo'linib, hayotining eng totli lahzalari qayta-qayta ko'z o'ngida jonlanaverardi.

Maxtumquli ham inson edi, u ham qachonlardir Mengliga sal qattiqroq gapirgan, oz bo'lsa-da dilini og'ritgan paytlarini eslab, dili vayron bo'ladi. Vaqtida uning qadriga yetmagani uchun o'zini ayblaydi.

Falak elga rasvo qildi, ayiribdir zorimdan,
Nima qilsam, xabar topgum men ul Mengli yorimdan.

Maxtumquli qalbida mavj urgan yaxshi-yomon hislar borki, barchasini tortinmay, yashirmay qalamga oladi. Masalan, u Menglining dardlaridan chekinib, bir muncha o'zini tutib olgan paytlarida ham yorini unutgisi kelib, shod va beg'am yashagisi kelganini, ammo bunga qurbi yetmaganini tan oladi:

Guzorimni bandi qilsam, har kunda qirq ichadir,
Adu kavsar zulolim ichibdir guzorimdan.

Yana bir misol:

Mengli xonim, ayyomingdan, qo'rqib bog'a bilmas bo'ldim,
Ko'z bila qaro qoshingdan, ham yuzimga silmas bo'ldim,
Jallodlar men bandi qulni zanjir bilan band qilsalar,
Agar sen ham qo'llamasang, nochor ojiz jon naylasin?

Maxtumquli bu safar na jalloddan, na zanjirdan hayiqdi. Bir fikr hamisha uning xayolidan ketmasdi: "ketsang qaytib o'tirma, bu el-yurtingga qo'l siltab, bosh olib uzoqlarga ket!".

Qismat bo'lmas, ketsam uzoq yo'llarga,
Nasib qo'ymas ketar yo'lim bog'lar hey.
Hayron Majnun bo'lib, chiqsam cho'llarga,
Borib maskan tutay sizni, tog'lar hey!

Gohida Maxtumqulining aql-idroki unga qarshi chiqadi. Bu ichki kurash satrlarda o'zini ko'rsatib qo'yadi:

Kel, ko'ngil, men senga o'git berayin,
Yiroq qilma, ko'rar ko'zing, elingni.

Yoki:

Eshit odam, tug'gan yurtdan
Boshqa mehribon yurt bo'lmas.

E'tiborli tomoni shundaki, u ana shunday yo'llar bilan el-yurtga bo'lgan ehtiromini saqladi, saqladigina emas, yuksaltirdi, bu hissiyotga alohida e'tibor berdi. Maxtumquli ijodining boshqalardan farqli tomoni ham shunda — el-yurt, tug'ilib o'sgan makon, ona Vatan mavzusini yozma adabiyotda muvaffaqiyat bilan yorita olganida edi.

Bu borada shoirning o'zi ham, uning lirik qahramoni ham bir yo'nalishda — chinakam vatanparvarlik yo'lidan boradi. Binobarin, Maxtumqulini eldan ayro holda ko'rish yo tasavvur qilishning o'zi Maxtumqulini tan olmaslikdir.

Aslida milliy shoir maqomiga ijodkorlar ana shu alomat sababli sazovor bo'ladilar. Boshi tumandan tozalanib borgani sari, o'tgan yillarning qanchalik g'amgin ekanini bilgani sari Maxtumquli yillarning zalvorini chuqurroq his etardi.

Baxtim siyohidan ko'mir rang olar, degandi shoir bir she'rida.

Shu bilan birga u yoshlikdagi orzusi Rumiston, Ka'bani ko'rish ishtiyoqida yonardi.

Yuqorida Hindistonni,
Orqada Turkistonni,

Avliyolar ummoni,
Ul Rumistonni ko'rsam.

Yoki:

Maxtumquli xush bo'lsa,
Oqsa diydam, yosh bo'lsa,
Imonim yo'ldosh bo'lsa,
Borsam, Ka'bani ko'rsam.

L.Saldadzening "Hasrat yuksaklikda qolish uchun beriladi" degan fikri to'g'ri chiqdi. Maxtumquli buyuk g'amdan boshini tik tutib chiqdi. Biroq u g'amdan to'la ozod bo'lolmasdi, qolgan umrida ham qayg'u-hasrat unga hamroh bo'lib qolaverdi. Mana, shu g'am-hasratdan qutilish chorasizligi uning dardlariga bir chora bo'ldi.

Shu kunlarda go'klang xonlarining biri Maxtumqulining ovuliga katta aziyat yetkazadi. Molini surib, haydab ketish deysizmi, o'tovigacha talon-toroj qilishmi, soliq yo o'lponmi, xullas, bularning barchasi ovul ahlining suyak-suyagidan o'tib ketgandi.

Xon navkarlari orasida qizilboshlarning vakillari ham bor edi. O'rni kelganda aytish lozimki, turkmanlarning bir qismi dushmanning qo'li baland kelganda, u bilan til biriktirib, u tomonning xon va beklariga sovg'a-salom, hadyalarni jo'natishdan charchamasdilar. Ular qaysi qabilaga qachon, qay tarafdan zarba berish mumkinligini ham dushmanga yashirincha yetkazib turishardi. O'z xalqi g'alaba qozona boshlaganda esa, bunday munofiqlar bir dumalab vatanparvar bo'lib olishardi.

Ha, afsuski, har qanday zamonda dushman boltaning sopini o'zidan chiqarishga urinib kelgan. Turkman tarixi ham bunday xiyonat va xoinlardan xoli emas. Maxtumquli bunday kimsalarni anchadan beri kuzatib yurardi. U ikkiyuzlamachi, qallob kimsalardan nafratlanar, biroq she'rlarida, suhbatlarida ularning sotqinligini fosh qilishdan o'zini tiyardi. Bora-bora uning ham sabr-toqati tugadi. G'azabi to'lib-toshdi.

Xon va uning navkarlariga bir o'yin ko'rsatishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Ovuldoshlari ham Maxtumqulining ortidan erga-

shishdi. Shoir yigitlarni boshlab borib, bir daraning ikki tarafida tosh to'plab qo'yishni, ovuldagilar hammasi shu daradan chiqib ketishi, ulardan so'ng dushmanga navbat yetganida tepadan turib, uning boshiga tosh yog'dirishni buyuradi.

Nihoyat, bosqinchilar kelayotganidan xabar berishadi. Ovuldoshlar ko'ch-ko'ronini, ot-eshaklarga yuklab, mol-holini haydab, dara tomonga borishadi. Dushman ularning izidan tushadi. Shu payt kuchli jala quyib, ko'pchilikning ko'ch-ko'ronini oqizib ketadi. Bu selda Maxtumqulining ham yettita kitobi oqib ketadi. Ulardan biri "To'tiqush tili dostoni" edi.

Shoir keyinchalik ancha vaqt bu kitoblarini qo'ldan bergani uchun afsus-nadomatda yurdi. Xullas, ovul ahli bir amallab daradan o'tib olgach, navbat dushmanga yetadi. Shu payt "Yo Alloh" degan hayqiriq butun darani tutib ketadi. Yov ustiga tog' tepasidan sandiqdek keladigan xarsanglar yumalay boshlaydi.

Shundan so'ng anchagacha bu ovulga hech kim boj yo soliq so'rab kelmagan ekan. Bu, albatta, xalq tilida yurgan bir rivoyat. Ammo shoirning ushbu misralari bu rivoyatda jon borligini ko'rsatadi:

Maxtumquli, ayama jon,
Bel bog'lab, kiy g'azabdan to'n,
Haddan oshdi bu zolim xon,
Oxir to'rga tushar bo'ldi.

Bu g'alaba kichkina bo'lsa-da, juda ko'p qalblarga tirgak bo'ldi. Maxtumqulining ham qalbi bundan taskin topdi. Uning biroz bo'lsa-da, xotiri jam bo'ldi.

Ana o'sha kezlarda Maxtumquli azaliy orzusi — har bir musulmon uchun farz bo'lgan Ka'ba ziyorati haqida o'ylay boshlaydi.. Bu olis safar Ozarbayjon, Rumiston orqali o'tardi. Shu tariqa qardosh o'lkalarni ham ziyorat qiladi. Ziyoratni ado etgach, Vatanga Eron orqali qaytadi. Bordi-yu, vaqti-soati yetib, Eronda ko'z yumsa-da, harqalay bo'ynidgi farzdan qutilib, omonatini topshiradi.

Niyatim Ka'badir, xayolim hajdir,
Ixlosim bor, haj tavofin etmoqqa.

U ovuldoshlari, atrofdagi ovullarning oqsoqollari bilan maslahatlashdi. Ular el dardiga darmon topishni maslahat beradilar. Buning uchun Ozarboyjon, Rumiston hududidagi qon-qardoshlardan xabar olish zarurligini uqtirishadi. U davrlarda yordam so'rab, yana kimga borish mumkin?

Maxtumquli yana safarga chiqishini, yana uzoq vaqt g'urbat ellarda bo'lishini eshitgan bechora Zubaydaning qay ahvolga tushgani, akasining yoniga kelib qanchalar yalinib yolvorganini tasvirlab bo'larmikan?

Ammo hech qanday kuch Maxtumqulini qat'iy qaroridan qaytara olmasdi. Axir el-yurt undan imdod kutib turganida, u befaqr qo'l siltashi mumkinmidi?

Bu uning yetti yoshidan boshlab qoniga singgan hayot haqiqati, otasi mulla Davlatmammadning o'gitlari ta'siri edi.

Shu tariqa yana ovul Maxtumqulini safarga yo'lladi. Zubayda ham, boshqalar ham ko'z-yoshlarini oqizgancha qolaverishdi.

Maxtumqulining bu safari haqida uning she'rlarida juda oz ma'lumot uchraydi. Shu bois Maxtumquli hayotini o'rgangan tadqiqotchilarning bir qismi Maxtumqulini Rumistonga bormagan degan fikrni ilgari surishadi. Biroq ikkita narsani yoddan chiqarmaslik kerak:

1. Maxtumqulining Rumiston haqidagi she'rlari ertami-kechmi, albatta, topiladi.

2. Turkman xalqining o'sha paytdagi ahvoli Rumistonga, ya'ni Usmoniylar mamlakatiga yuz burishni taqozo etardi.

Shoir dastavval Ozarbayjonga qadam qo'ydi. Bu xalqning turmush tarzi bilan yaqindan tanishdi. Bu yurtning go'zal tabiati, oqko'ngil odamlari unga manzur bo'ldi.

Safar etib borsak, Nusha yurtiga,
Ko'ngil istagandek yaylovlari bor,

deb boshlanadigan she'ri uning Ozarboyjonda, xususan, Nushah (hozirgi Shaki bo'lishi kerak)da bo'lganini tasdiqlaydi. Maxtumquli bu she'rida xalqning turmush tarzi, odat-an'analari, tabiat manzaralarini juda ko'tarinkilik bilan tavsirlaydi.

Maxtumquli borgan paytlari Ozarboyjon kichik-kichik xonliklarga bo'linib ketgan edi. Gruziyaning Rossiya bilan yaqinlashuvi (1883-yildagi shartnoma)dan so'ng Ozarboyjon xonliklarida ham Rossiyaga intilish kuchaygandi. Sabab, orqadan Usmoniylar imperiyasi yoxud fors davlati ta'siri ostiga tushib qolish xavfi ham kuchli edi.

Mashhur shoir va davlat arbobi Mulla Panoh Voqif bu intilishni o'z she'rlarida atroflicha yoritgan. Maxtumquli Voqifni ko'rgan yoxud uning she'rlari bilan tanishgan bo'lishi mumkin. Lekin Voqifning ijodiga, dunyoqarashiga Maxtumquli qanday qaraganini aytish qiyin. Bokudagi Shirvonshohlar saroyi, Qiz qal'asi (Marvda ham Qiz qal'asi bor), Qorabog'dagi muhtasham maqbaralar, Guliston ko'shki singari osori atiqalar Maxtumqulining e'tiboridan chetda qolmagandir.

Buyuk karvon yo'llari yoqasidagi Ganja shahriga qo'nib, Nizomiy maqbarasini ziyorat etish ham shoirga nasib qilgan, deya taxmin qila olamiz. Ozarboyjon xalqi, bu elning an'analari, turmush tarzi Maxtumqulida muayyan taassurot qoldirgan, deb ayta olamiz

Maxtumquli Bokuda hind savdogarlari bilan uchrashadi. Hindiston haqidagi xotiralari yanada jonlandi, yangilandi, yanada boyidi.

Bojxona tarixiga oid hujjatlarga qaraganda, o'sha davrlarda hind tojirlari Eron orqali kelib, Bokudan Astraxanga o'tib, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirganlar.

Maxtumqulining asosiy niyatlaridan biri akalarining daragini so'roqlash edi. Ularning Kaspiy orqali Ozarboyjonga kelgan bo'lishi ehtimoli haqda avval ham to'xtalgan edik. Ular dom-daraksiz ketganidan buyon oradan qancha yillar o'tdi. To'g'risi, Muhammadsafo bilan Abdullaning yuz tuzilishi ham Maxtumqulining xotirasida tobora xiralashib bormoqda edi. Vaqt o'z ishini qilgandi. Ammo Maxtumquli hamon akalarining mehrli, o'ktam ovozlarini sog'inadi, ularni bag'riga bosgisi, suhbatlashgisi keladi.

Oldinda Rumiston turibdi. O'zining boy tarixi bilan, aziz-avliyolari, betakror imoratlari bilan tarixdan shuhratli o'rin olgan qadimiy Vizantiya tuprog'i, keyinchalik turkiylar ta'sirida rivojlanib, kengayib, kuchayib borgan, Rumiston nomini olgan yurt turibdi. Maxtumquli bu yurt haqida qanchadlan qancha kitoblar o'qimadi.

Rum diyori tasavvuf markazlaridan biri sifatida ham Maxtumqulining tasavvurida nur sochib turardi.

Xo'sh, shoirning bizgacha yetib kelgan asarlarida Rumiston haqida nimalar deyilgan?

Yuqorida Hindistonni,
Orqada Turkistonni,
Avliyolar ummoni
Ul Rumistonni ko'rsam.

Yoki:

Ularga berdim salomni,
So'rdilar sog'liq kalomni,
Shayxi Said, Mavlo, Jomi,
Ul yetti sulton ichinda.

Yoki:

Haqdan rahmat sepilar,
Imoratlar yopilar,
Ketsang Ka'ba topilar,
Ul Rumistonga sari.

So'nggi banddagi bir so'zga e'tibor bering: "yopilar" so'zi faqat usmonli turkchasida qurilar degan ma'noni beradi. "Yeldim, tut" she'rida ham:

Cho'lda qolsam hech topmayin ko'lanka,
Eram bog'i ichra soya buldim, tut.

Bu baytdagi "buldim" so'zi ham turkcha bo'lib, "topdim" degan ma'noni beradi.

"Oya do'ndi" degan she'rida ham qaysar so'zi uchraydi. Turkiyada Qaysari, Qaysarli degan joy nomlari uchraydi. Bu so'z asli yunoncha bo'lib, ma'muriy binolar, savdo shaxobchalari, usta-xonalar, omborxonalar, turar joylar, ichki hovliga chiqadigan usti yopiq joylarni anglatadi.

Qaysariyalarni boy odamlar qurdirishgan. (Qarang: J.A. Semyonova "O'rta asr Suriya tarixidan" 1990-y. M.) Turk klassiklari, millati bo'yicha turkman shoirlari Yunus Emro, Qorachao'g'lon va boshqa shoirlar ijodi bilan yaqindan tanishish, tasavvuf o'choqlarini o'rganish, Mavlono Jaloliddin Rumiy mozorini ziyorat qilish istagi Maxtumqulining qalbida bor edi.

Jaloliddin Rumiy, Jomiy, Alvoniy,
Ularning joyida men ham kon bo'lsam.

Bu satrlardagi "kon" so'ziga diqqat qiling. Kon, xazina, ma'dan degan ma'noda kelyapti. Nega bu ma'noda? U "ko'p" degan ma'noni bildirmayapti. Rumiyning, uning otasi Bahouddinning, ularning atrofida yotganlarning qabrlari ustida, maqbara ostonasida kumushdan qoplamalar qilingan. Atroflarida quyma kumushdan panjaralar o'rnatilgan. Eni bir quloch. Balandiligi bir metrdan ko'proq, uzunligi ham besh-olti metrcha chiqadi. Bularning hammasiga qancha kumush sarflanganini tasavvur qilavering. Bu ham Mavlono Jaloliddin Rumiyga bildirilgan beqiyos hurmat namunasi edi.

Maxtumquli ana shu kumushni ko'z oldiga keltirib, "kon" — ma'dan so'zini qo'llagandir? Ya'ni bu bayt bilan "men ular singari buyuk bo'la olmayman, faqat ularning qabri atrofini o'rab turgan panjara bo'lsam ham mayli demoqchi emasmikin?

Mana, qadimiy Ikonium (Ko'niyo) shahri. Ularning karvoni bir madrasaning yonidan o'tib borarkan, yo'lboshchi "Mavlon mana shu madrasada saboq berganlar" deb qoladi. Karvon to'xtagach Maxtumquli bu madrasaga qaytib, uning eshigini, har bir g'ishtini ko'zlariga surtib tavof qildi.

Keyin tosh to'shalgan yo'laklardan azon sadolari ostida yurib borarkan, nihoyat yashil gumbazli baland imorat qarshisiga yetib keldi.

Bu yerda turkiy xalqlarning eng buyuk farzandlaridan biri Mavlono Jaloliddin Rumiy yotibdi.

Rumiy "Kofirlikdan-da, musulmonchilikdan-da tashqarida bir dala bor, u yerda na kofirlar uchun joy bor, na musulmonlar uchun", "Umidsizlikda ham umid ko'p", "Sen nimani kutayotgan

bo‘lsang, o‘shasan”, “Adolat hamma narsani o‘z o‘rniga qo‘ymoq demakdir” degan so‘zlarni ayta olgan buyuk faylasufdir.

Mavlono Jaloliddin Rumiy “Dushman yuzli bo‘lsam-da, dushman emasman, forsiy so‘zlasam-da, aslim turkdir” degandi. Uning mozori yonida oltmish besh muridining xoki qo‘yilgan bo‘lib, ular Rumiy va uning otasiga bo‘lgan buyuk hurmat yuzasidan shu yerda dafn etishlarini vasiyat qilganlar.

Mavlononing sandig‘i ham kumush, bir odam arang ko‘taradigan “Qur’on” kitoblarining har bir harfi ham kumush suvi bilan yozilgan.

Uning sozi pardalari ham kumushdan, nayning qoshi ham kumush. Qayerlardandir Mavlononing kumushdek tiniq ovozi yangragandek bo‘ladi:

Yo asling kabi ko‘rin, yo ko‘ringaning kabi bul!

Bu shiorni qadimiy turkmanlardan bo‘lmish Boyazid Bistomiy ham aytib ketgan (Juma Otaevning ma’lumotlaridan).

Maxtumquli Mavlono Rumiyning qabri boshida o‘tirib, ul zotning ruhi pokiga atab tilovat qildi. Shu tariqa uning bitta tilagi amalga oshdi.

Yashil qubbali maqbaraning yonidagi hujralardan chiqayotgan darvishlar zikr tushishlariga nazar tashladi. Ular bir qo‘llarining kaftini tepaga ko‘tarib, ikkinchisini yerga qaratib, chir aylangancha raqsu samo qilishar, Yaratganga tavallolar qilishardi.

— Allohim, bizga rahmat nazaringni sol, bizga nima bersang, biz xaloyiqqa berurmiz.

— Allohu, Allohuu, Allohuuuuu!

Bir paytlar bu hujralarda Mavlono Rumiy o‘z ustozlari va sodiq do‘stlari bo‘lmish Shams Tabriziy bilan tunni tongga ulab suhbatlar qilishgan, raqsu samolarga tushishgandi. Shams Tabriziyning Mavlonoga bergan saboqlari salmog‘ini biror tarozi bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

Rumiy Shams Tabriziyni “mening quyoshim” deb atagandi.

Maxtumquli Ko‘nyodan Adana tarafga yo‘l oladi. Nihoyat, yo‘l tog‘lar bag‘riga borib tutashadi. Bulutlar u tog‘dan bu tog‘

boshiga ko‘chib qo‘nardi. Biroz o‘tib, quyosh botadi. Chap tomonda, bulutlar orasida nimadir yaraqlab ketdli. Yulduz emas harqalay. Chunki kech tushgani yo‘q.

Ko‘p o‘tmay bulutlar surilib, boyagi yog‘du yana ko‘rindi. Daf’atan, ko‘kda, tog‘ tepasida qal’a, uning bag‘rida esa gulxan shu’lasi ko‘rindi.

Ha, bu balandlikda erk, halovat bor edi. Ammo unga erishish uchun qanchalar mashaqqat chekishga to‘g‘ri kelarkin? Maxtumqulining nazdida balandlikda yashash juda katta jasoratni talab etardi. Ruhiy balandlik, ma’naviy yuksaklikda yashash undan ham qiyin.

Buyuk ipak yo‘li yoqasidagi yam-yashil adirlar orasida joylashgan qasabalarda yashovchi turkmanlar bilan uchrashuvlar ham Maxtumqulini xushnud etdi. Ayniqsa, bir necha joyda Dodurg‘a nomli qishloqlarga duch keldi. U Usmoniylar saltanatiga o‘z nomini bergan Usmonning ham aslida turkman ekanini esladi. Zotan, Rumistonda Turkmanistonga nisbatan ko‘proq turkman istiqomat qilardi.

Ammo ulug‘ va qudratli Usmoniylar qo‘li ostida kambag‘allikda yashayotgan millatdoshlariga yordam qo‘lini cho‘za olarmikin?

Maxtumquli Rumiston — Turkiya hududiga Sulton Abdulhamid Birinchi davrida borgan. Saltanat sarhadlarini kengaytirish, qudratli rus podshohlarining shimol shamollari singari sovuq va qahrli qarashlari, harbiy harakatlariga qarshi turish zarurati hamma ishdan ko‘ra dolzarb ahamiyat kasb etgandi.

Albatta, Maxtumquli bu yerdagi turkmanlarning ham maqsad-muddaolari bilan qiziqdi. Turk-turkmanlar bu yerda ildiz otishgani, shuningdek, rus-turk munosabatlarining murakkablashib borayotgani shoirning nazaridan chetda qolmadi.

U birinchi rus-turk urushi paytida u tomonlarga borgan bo‘lishi ham mumkin. 1783-yilda Qrim uchun kurash boshlanadi. Shu yil Gruziyaning bir qismi Rossiyaga qo‘shiladi. Armanlar ham o‘z vakillarini Rossiyaga yuborishadi. 1787–1791-yillardagi rus-turk urushini eslaylik. 1806–1812-yillardagi urush paytida esa, Maxtumquli o‘z Vatanida edi.

Umuman, Usmoniylar saltanati o‘z tarixida eng ko‘p Rossiya bilan urushga kirgan bo‘lsa ajabmas.

Maxtumquli turkmanlar zich yashaydigan hududlarda bo'ladi. Markaziy Osiyodagi joy nomlari bu yerda ham tez-tez uchrashiga amin bo'ldi.

Masalan, buyuk Qorachao'g'lon yashagan joy -Qo'zan tog'ining, Nur (Nurota) tog'ining etaklaridan Sayhun (Sirdaryo) va Jayhun (Amudaryo) daryolari oqib o'tarkan. Nur tog'ining Yekepinar bulog'iga tutash qismi esa qadimiy Niso ortidagi Kopetdog' manzaralarini yodga solardi.

Buyuk Qorachao'g'lon ruhiga Qur'on tilovat qilarkan, uning qismati ham o'zinikiga o'xshab ketishini payqab, hayratda qoldi. Qorachao'g'lon Qizilatrek, Qazanjiq atroflarida dunyoga kelgan, u ham Mengli ismli bir qizni sevib qolgan, unga uylana olmagach, jahongashtalikni ixtiyor etgan va hozirgi Turkiya hududlariga borib qolgandi.

Qo'zan tog'idan naslimiz,
Oriy turkmandir aslimiz.

Qorachao'g'lon to'qson olti yil umr ko'rib, uylanmasdan dunyodan o'tgan.

Umrim yot ellarda kechar,
Kaftdekkina yerim ham yo'q,
O'tirib dardimni aytgali
Bir munosib yorim ham yo'q.

Maxtumquli o'zining vatanparvarlik, ishqiy-lirik she'rlarida Qorachao'g'lonning an'analarini izchil davom ettiradi.

Shoir Usmoniylar saltanatiga borgan paytida, Hoji Bektoshi Valiy maqbarasini ziyorat qilganiga shubha yo'q. Hoji Bektosh hazratlari Bektoshiya tariqatining asoschisi sanaladi. Ul zot o'z nozik falsafiy qarashlariga ham ega. Uning "qo'lingga, tilingga, belingga ehtiyot bo'l" degan nasihatini eslang.

Uning "aql oyga, ma'rifat quyoshga, ilm yulduzga o'xshaydi" degan hikmati Maxtumqulining "yulduzdan yo'l yasab, oyga yetishdim" degan sirli satrining ochqichi emasmikin?

Turkman mumtoz adabiyotida faqat Maxtumquligina o‘z she’rlarida Hoji Bektoshi Valiyni yodga oladi.

Maxtumquli Rumistonda buyuk Yunus Emro ijodi bilan ham yaqindan tanishdi. Yunus Emroning:

Keling do‘stlar, tanishaylik,
Ishni oson qilaylik,
Sevaylik, sevilaylik,
Dunyo hech kimga qolmas.

Yoki:

Biz dunyodan ketar bo‘ldik,
Qolganlarga salom bo‘lsin,

degan misralaridan Maxtumquli bexabar bo‘lgan deb o‘ylaysizmi? “Yusuf deya-deya” nomli she’ri ham Maxtumqulining Yunus Emro she’riyatidan yaxshi xabardor ekanligini, uning she’rlaridan bahramand ekanini ko‘rsatadi.

Yunus Emroning shuhratiga ishonch hosil qilish uchun uning Jaloliddin Rumiy bilan munosabatlarini esga olish yetarlidir.

Maxtumquli o‘n to‘rtinchi asrning oxirlari- o‘n beshinchi asr boshlarida yashagan Qayg‘usiz Abdol asarlari bilan tanishgan bo‘lishi ehtimolga yaqin. Uning ham kelib chiqishi turkmanlarga borib taqalardi. U shathiya deb nomlangan adabiy usulda barakali ijod qilgan.

Bizlarni do‘zaxga loyiq ko‘rganning,
Joyi jannat, tuprog‘i gulzor o‘lsun,

deb yozadi u o‘zining “Baxtiyor o‘lsun” nomli she’rida. Yana bir she’rida esa:

Qildan bir ko‘prik quraylik,
Gulim kelsin, kechsin deya.
Biz bir chekkada turaylik.
Botir bo‘lsang, sen o‘t, tangrim!

kabi she'rlari shuhrat qozonadi. Maxtumquli ana shunday she'rlari uchun shakkoklikda ayblanib, sulton farmoniga ko'ra osib o'ldirilgan Pirsulton Abdoliyning ijodini ham o'rgangan bo'lishi kerak. Uning "Do'zaxda olov yo'q, har kim o'z o'tinini o'zi olib boradi" degan hikmati shuhrat qozongan.

Aslida Maxtumquli qanday kitoblar mutolaa qilganini bir o'ylab ko'raylik. Albatta, turk dunyosi mutafakkirlari asarlari bilan birga turkman shoirlari asarlariga ham alohida e'tibor qaratgan.

Turkman deganda u dunyodagi barcha turkmanlarni nazarda tutgani, turklar va turkmanlar tarixini mukammal darajada o'rgangani shubhasiz. Ko'pgina shoirlar fors tilida ijod qilishgan bo'lsalarda, ular o'z millati, ona tilini unutmagan. Buni yaxshi anglagan Maxtumquli ana shunday ustozlar ila faxrlanardi. Biroq Maxtumquli o'qigan-o'rgangan kitoblarning ko'pchiligi biz uchun sir bo'lib qoldi.

Maxtumquli Usmoniylar saltanatiga bir martagina bordimikin? Uning "Davlatalining" nomli she'rining yarmi "Davlati oliy", ya'ni Usmoniylar davlati haqida emasmikin? Maxtumquli o'z hayoti davomida betakror zafarlar qozongan Buyuk Alp Arslon haqida, o'n to'qqiz yoshida "Yo men Istanbulni olaman, yo Istanbul meni" degan Fotih Sulton Mehmet haqidagi tarixiy haqiqatlarni bildimikin?

Maxtumquli, yuz ming savolli Maxtumquli! Uning bizgacha yetib kelgan asarlarida nima uchun O'g'uzxon yoki Qo'rqut otaning nomlari uchramaydi. Balki bunday she'rlar bor bo'lsa-da, bizgacha yetib kelmadimikin? Bu savollarning javobini yaqin yillarda topsak kerak.

Maxtumquli Rumistondan Makka tarafga yo'l oldi. Yo'l-yo'lakay apelsin, mandarin, banan singari mevali daraxtlar ko'proq uchrar, bozorlarda xurmo, yog'li jiyda singari mevalarga tez-tez duch kela boshladi.

U, nihoyat, arab o'lkasiga kirib kelgandi. Har qadamda oppoq kiyim kiygan, qoramtir tusli odamlar unga ro'para kelardi.

Maxtumquli arab tilining fasohatiga har doim tan berib kelardi. Bu tildan yaxshigina xabardor ham edi. Arab uylarining yuzi Ka'ba tarafga qarab qurilganidan manzilni aniq mo'ljalga olish qiyinmasdi.

Tuyalar munkib-munkib, muqaddas manzil tomon ilgarilaydi. Shom shafag'i oldida ko'kka bo'y cho'zgan minoralar yanada ilohiy manzara kasb etadi. Nihoyat, kun botgach, karvon shaharning bir chekkasidagi karvonsaroyga qo'ndi.

Mana, islom olamining eng muqaddas o'chog'i bo'lmish Makkayi Mukarrama. Bu kunga qadar bu muborak shahar haqida qancha-qanchadan hamd-u sanolar o'qilmadi, ne-ne kitoblar yozilmadi? Bu tuproqqa necha milliard insonning qadami tegdi ekan? Bu zamindan qancha-qancha qalblar poklanib ketmadi ekan?

Maxtumquli ham so'nggi paytlarda Makka, Madina, Muhammad payg'ambar bilan bog'liq ko'pgina she'rlar yozgan edi:

Yetti osmon-u yerni,
Makon etgan bir Allohdur,
Ikki jahonning sarvari
Ul Muhammad Mustafodur.

Maxtumquli hojilik maqomiga erishgan odamlardan Makka va Madina haqida juda ko'p eshitgandi. Bu nurli shaharlar uning tasavvuri bilan aynan bir xil chiqqanidan o'zi ham hayratlandi. Xuddi bu zaminga avval ham kelgandek sezdi o'zini.

U Makkada, Madinada, Safo va Marvo tepaliklari oralig'ida hajning barcha ruknlarini ado etdi. Bu muqaddas yerda, Allohga eng yaqin makonda u ikki tilak tiladi: "Yo Alloh, yurtimga tinchlik, omonlik, farovonlik ber, yo'qotganlarimning o'rnini to'ldir!"

Maxtumquli bir necha kundan so'ng Turkistonga qaytadigan karvonga qo'shilib, o'z yurtiga yo'l oldi.

Shukur, alhamdulilloh,
Jonona ko'zim tushdi.
Mayxonada may ichdim,
Mastona ko'zim tushdi.

Yoki:

Ummatining mushfiqi, Maxtumqulining manzari
Ul Muhammad Ahmadi Muxtorni ko'rdim shundadir.

Haj ziyorati islomning besh asosiy ustunidan biridir. Maxtumquli bu farzni ham ado etib qaytdi. Shu bois u oxirgi she'rlarining birida shunday deb yozadi:

Oshiq Firoq aytar arzin,
Ro'za bilan namoz farzin,
Bu jahonda ushbu qarzin,
Jon chiqmayin berib ketdi.

Maxtumquli hojilik unvonini olib qaytarkan, Halabga ham qo'nib o'tmadimikin? Bu yerda buyuk Nasimiyning qabrini ziyorat qilmadimikin?

Nasimiy shoirlar naslining shamchirog'idir. U Maxtumquli uchun mardlikning, poklikning timsoli edi. Maxtumquli o'z she'rlarida uni hurmat bilan tilga oladi. Ammo nima sababdandir u tarafga bormadi. Ko'pgina sabablar bilan birga, boshsiz, egasiz, ilojsiz qolgan eliga tezroq yetishish istagi ham bunga sabab bo'lsa kerak.

Endi nazarida Maxtumquli g'urbatda uzoq vaqt qolib ketsa, ona yurti yakkalanib qoladigandek tuyulardi. Arab dunyosiga tushib qolgan turkmanlar ham o'z elidan ancha uzoqlashib ketgani, g'urbatdagi boshqa turkmanlar singari o'z yurtidan bir muncha begonalashib qolganini sezdi.

Mana, o'zga yurtni bosib olishning natijasi. Bir mahallar o'z g'alabasidan mast bo'lib, o'sha yerda qolib ketganlar, mana endi, xalqdan ajralib, o'zligini yo'qotar darajaga borib o'tiribdi. Har bir xalq faqat o'z yurtida, o'z makonida baxtli bo'la oladi.

Maxtumquli, kezganda,
Halab, Kaysar tuzganda,
Go'zal yorning izinda
Umrimiz zoya do'ndi,

degan satrlarga tayanib, qat'iy xulosaga borganlar ham bo'ldi. Ammo Maxtumqulining ijodini chuqur o'rganganlar uning she'rlarida Halabga borganini tasdiqlovchi ruhni topa olishmaydi.

Shunday bo'lsa-da, umidsizlikka tushish kerak emas. Yangi she'rlar topilsa, yangi tadqiqotlar olib borilsa, ko'p narsaga oydinlik kiritilishi mumkin.

Katta karvon Eronga kirib borganida, Maxtumquli o'sha yerda qoldi. U Eronda qanday qiyofada kezganini aytish qiyin. Ehtimol, qalandar-darvish yo savdogar qiyofasida yurgan bo'lsa ajabmas. Nima bo'lganda ham u Maxtumquli bo'lib bemalol aylanib yurolmasdi.

Agar u Eronda bemalol o'z qiyofasi, o'z ismi bilan yurganida qo'lga tushishi tayin edi. Hayot Maxtumquliga ehtiyotkorlik, ogohlikdan yaxshigina saboq bergandi. Shoirning ana shunday xatarli ishga bel bog'lagani uning Mengliga bo'lgan muhabbati qanchalik yuqori bo'lganini ham yana bir karra tasdiqlaydi.

Maxtumquli Mengli uchun jonini o'rtaga qo'ydi,
Kezibsan foniy olamda, ko'zlaram Mengli xon bormi?

Maxtumqulining Eronga kelganiga yana bir sabab — akalarining izini so'roqlash edi. U og'alari uchun ham tavakkal deya bu yurtga qadam bosdi. Maxtumqulining Eron safaridan uchinchi maqsadi Erondagi ichki siyosiy vaziyat, xususan, hukumatning turkmanlar borasidagi qarashlarini sinchiklab o'rganish edi.

Albatta, bu safar qanchalik qiyinchiliklarda o'tganini har bir sog'lom fikrli odam anglay oladi. Maxtumquli ham buni yaxshi bilardi. Maxtumquli "tavakkalchining ishini Xudo o'nglabdi" degan naqlga amal qildi.

Bu safarda u, avvalo, Yaratganning o'zidan, keyin esa xoki Eronzaminda yotgan Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Umar Hayyomlar ruhidan madad tiladi.

Uning Eronda qancha vaqt bo'lgani, qayerlarni kezgani, nima ishlar qilgani aniq emas. Mengli, Abdulla va Muhammadsafodan ham biror xabar topdimi-yo'qmi, buni ham bilmaymiz. Faqat bu yerda Maxtumquli qo'lga olinib, qamoqqa tashlangani aniq.

Garchi u "Men Eronda bandi bo'ldim" degan gapni aytmasa-da, uning ko'pgina she'rlari ana shunday xulosa chiqarishimizga asos bo'ladi.

Bu haqda ko'pgina rivoyatlar ham bizgacha yetib kelgan. Tutqunda turib yozilgan she'rlarning aksariyatida Eronda yashab turib yozganini taxmin qilish mumkin.

Vatanimda xon edim,
Xonlarga farmon edim,
Dardlarga darmon edim,
Miskinga do'kon edim.
Jonsizga men jon edim.
Naylay, endi bechoraman.

Ko'zsizlarning ko'zi edim,
Soqovlarning so'zi edim,
El-yurtimning yuzi edim,
Sevar yorning nozi edim,
Xotamtoyning o'zi edim,
Naylay endi ovoraman.

Eram ichra rayhon edim,
Vatanda zarafshon edim,
Mard yigitga kamon edim,
Tog' boshinda tuman edim,
Firog'iy der, omon edim..
Endi eski vayronaman.

Bu she'r Maxtumqulining o'ziga xos tarjimayi holi, ichki hissiyotlarining qalbga sig'may, tashqariga otilib chiqqan oqimi. Ba'zilar "bu she'rda Maxtumquli shunchaki o'zining rangsiz hayoti, kamtarinligi, xokisorligini ko'rsatmoqchi bo'lgan" degan fikrni bildirishadi.

Yo'q, unday emas. Zindonda o'tirgan shoir o'z fikrlariga nafosat berish uchun, isyonkor tuyg'ularga taskin berish uchun, butun vujudida jo'sh urayotgan ilhom amri bilan shu she'rni yozgan.

Begona elda o'ziga o'zi taskin-tasalli bermasa, kim beradi? Qolaversa, u o'zining Maxtumquli ekani, shoirligini yashirishi kerak edi. Diqqat qilgan bo'lsangiz, yuqoridagi she'rda u o'zining shoir ekanini aytmay, shunga yashirin ishora qilib o'tadi.

Maxtumqulining tutqunlik davri ancha payt davom etganga o'xshaydi. Sababi, uning "Yetirmas hijron" she'ridan tez orada ozodlikka chiqishidan umid qilmagani ko'rinadi.

Sahar turib, Vatan seni chog'larman,
Gulshanli zog'chaman deya yig'larman.

Xushlashib bu miskin jonim dog'larman,
Maqsad murodimga yetirmas hijron.
Firog'iy, Vatan deb qon to'kar ko'zim,
Boqiy qarab turmish hijrona ko'zim,
Birodarsiz g'amda qoldim bir o'zim.
Boridan tindirmish bu zolim hijron.

Ko'rinib turibdiki, bu she'r ham avvalgisi kabi juda qisqa bitilgan. Maxtumqulining tutqunlikda yozgan she'rlari nisbatan qisqaligi bilan ajralib turadi. Uch, besh, nari borsa yetti bandli she'lar shoir ijodida juda kam uchraydi. "Sahar turib, Vatan seni chog'larman", "Firog'iy, Vatan deb qon to'kar ko'zim" singari she'rlarida Vatan sog'inchi yaqqol sezilib turibdi.

Buni, ayniqsa, Vatandan olisda yurganlar, xususan, tutqunlikda kun kechirganlar yaxshi bilishadi.

Birodarsiz g'amda qoldim bir o'zim,
Borimdan do'ndirmish bu zolim hijron.

Bu satrlar ko'p narsadan xabar beradi. "Borimdan" deganda u, albatta Menglini nazarda tutadi.

Eron zindonlari turkmanlar uchun eng qo'rqinchli jazo maskani sifatida shuhrat taratgan edi. Eroniylar qadimdan o'troqlashgan xalq bo'lgani uchun bu mamlakat zindonlari ham mukammal jazo muassasasi sifatida takomillashib ulgurgandi. Bu haqda u avvaldan eshitib kelgan bo'lsa-da, endi bu "mukammallik"ni ko'zi bilan ko'rib turardi. Shoirning ruhi, beg'ubor qalbi qanday qiynoqlarga chidadi ekan? Uni qamchilagan qul qanchalar ulug' insonga qo'l ko'targanini oz bo'lsa-da anglab yetdimikin? Zindon eshigida mudroq yo uyg'oq turgan posbonlar kimni qo'riqlab turganlarini o'ylab ko'rdilarmikin? Maxtumquli bu tutqunlikdan qanday ozod bo'ldi ekan? Bu haqda rivoyatlar ham bor, ammo asl haqiqat ma'lum emas.

Nima bo'lganda ham o'tkir aql-idroki, zehn-u farosati uning ozodlikka chiqishiga yo'l ko'rsatgan bo'lishi kerak.

Dushmanning rahm-shafqat ko'rsatganiga ishonish qiyin. Bu voqealar o'z davrining ochilmas sirlaridin biri bo'lib kelayotir.

Bandilikda o'tgan yillar Maxtumqulining vatanparvarlik tuyg'ularini, o'z xalqiga bo'lgan ixlosini, mehrini yanada orttirdi, xalqi uchun qanchalar kerakligini chuqur anglab yetishida turtki berdi. Shu bois, u butun ijodiga qaytadan nazar tashlab chiqdi. Ammo qilgan ishlaridan, yozgan she'rlaridan ko'ngli to'lmadi. Jo'shib qaynayotgan ilhomini xalqqa yanada foydali, yanada jo'shqin asarlar bitishga yo'naltirish, ruhan ko'tarinkilik baxsh etuvchi she'rlarni ko'proq yozish lozimligini angladi.

Maxtumqulining ko'ziga ijod yo'lidan boshqa yo'l ko'rinmasdi. Xalqning g'ururini yuksaltirish, uni jipslashtirish, hamjihatligini kuchaytirish yo'lida she'rlar yozish kerak, degan xulosaga keldi. Shu kungacha qilgan ishlarini oz deb bilish uning kelgusidagi ishlari keng qamrov olishi uchun yangi kuch-quvvat bag'ishladi.

Maxtumqulining kurashlari uzoqqa mo'ljallangan edi. U anchadan beri she'rlari xalq ongida ildiz otib, o'zgarishlar qilayotganini, tarqoqlik, beqarorliklar izga tushayotganini, ijodining ta'siri tufayli har bir turkman ma'lum ma'noda o'zgarayotganini sezardi. Har bir satrini, har bir bandini bir askar deb tasavvur qilgan shoir endilikda ming-ming askarning ezgulik g'alabasi uchun kurashayotganini his etardi.

Maxtumqulining she'rlari baayni chinorga o'xshardi. Ildizi tanasidan ulug'roq bo'lmasa, yashamaydi. Bu chinorlar toshni yorib ildiz otishi kerak.

Albatta, Erondan qaytganidan so'ng, uning baxtsizligi, g'ussalari ortsa ortdiki, kamaymadi. Eng yomoni, Menglixonni, og'alarini topish umidining so'nib borayotgani edi. U yo'qotganlarini qay manzil-u makondan izlasin? Ularni qidirish mumkin bo'lgan hamma joyni izlab keldi-ku?

Kelinoyisi Oqqizning ham qalbida miltirab turgan umid uchqunlari so'nib bitmagan. U hamon eri Abdullaning chirog'ini o'chirmay kelayotir. Tiq etsa, eshikka qaraydi, sho'rlik.

O'tgan asrlarda, yer odam qoni bilan sug'orilgan damlarda turkman ayollarining ana shunday vafodor bo'lgani katta qahramonlik edi. Bu fidoyilik oldida bosh egmaslikning iloji yo'q. Haqiqiy insongina ularning bu vafodorligi qanday qurbonliklar talab etganini yaxshi biladi. Axir bu ayollar ham boshqalar singari er-

kak mehrini qo'msamaydimi, ularning ham farzand ko'rgisi, jigarporasiga ko'krak tutgisi, bag'riga bosib allalagisi kelmaydimi? Axir inson ehtiyojlarini sanab adog'iga yetib bo'lmaydi-ku?

Biroq bu ayollar ana shunday ehtiyoj va istaklarining bariga qo'l siltab, sevgan yorlari yo'liga umid ko'zini tikib o'tiraverishgan. Turkman yigitlarining mardligi ham aslida ayol sadoqatidan, vafosidan kuch olgan emasmikin? Ular o'lar chog'da ham, uyi-o'chog'i darz ketmasligiga, ayoli boshqa birovning to'shagiga kirmasligiga ishongan holda jon berishgan. Bu ishonch esa ayollarni har xil balolardan asramoqqa, erlarining obro'si, sha'nini ko'z qorachig'idek asrashga burchli qilgan. Erlar esa o'z ayollarining vafosini qadrlashgan, boshga ko'tarishgan.

Albatta, turli davrlarda ayol zotiga nisbatan zo'ravonliklar ham uchrab turgan, biroq ayolga nisbatan hurmat, muhabbat ustunligicha qolib ketgan.

Maxtumquli o'z xalqining tabiatini puxta o'rganib bo'lgach:

Dunyo so'zi o'xshar tuzsiz taomga,
Tuz ichinda qiz-kelin ham bo'lmasa,

degan satrlarni bitdi. U bu misralarda ana shu vafodor, sadoqatli turkman ayolini madh etgandi.

Turkman ayollarining bu vafodorligi shariat qonunlari orqali ham mustahkamlangan, lekin ayolning qalbida vafo, mehr, muhabbat, iffat yo'q ekan, biror qonun bu xislatlarni bera olmaydi.

Bu turkmanchilikning — turkman eli shu paytga qadar yo'qotmasdan kelgan qadriyatlarning bir ko'rinishi.

Ta'bir joiz bo'lsa, turkman tuprog'ida ertami-kechmi eng baland obida qurilishi kerak bo'lsa, bu, albatta, turkman ayoliga qo'yilishi kerak. Tarixning talabi shu.

Maxtumquli umrining qolgan qismini nimaga sarflashi haqida ko'p o'ylardi. Asosiy maqsadi — turkmanlarni birlashtirish, qudratli davlat barpo etish istagi amalga oshmagan bo'lsa-da, bu orzu ertami-kechmi ijobatini topishiga ishonchi komil edi. Chunki u xalqining buyuk bunyodkorlik xislatiga qattiq ishonardi. Bu kurashda uning o'rni qanday bo'ladi? U qanday xizmat qilsa, xalqiga ko'proq nafi tegadi?

Demak, har qanday vaziyatda ham ishonch va umidni yo'qotmasligi kerak. Maxtumqulining uzoq mulohazalar so'ngidagi xulosalari shundan darak beradi. Axir nimalarga qodir ekaningni bilishi ham valiylik darajalaridan biri emasmi?

Darhaqiqat, Maxtumqulining zamonidan beri qancha hukmdor, qancha shoir yashab o'tmadi. Ammo ularning ko'pchiligi hatto tiriklik chog'idayoq unutilib ketdi-ku?

She'riyat, tinglovchi-yu o'quvchini o'z tarafiga og'dirib borayotgan, ota-bobolari qonidan qonga singib kelayotgan ijod mahsuli. Shoirlikning hatto shohlikdan ham yuqori turishiga Maxtumquli ancha erta tushunib yetgandi. Maxtumquli zamonidan beri qancha xon, qancha sulton kelib ketmadi. Shoir Maxtumquli esa asrlar o'tgani sari xalqqa yaqinlashib boraveradi.

Eh, hozir Chovdurxon bo'lganida edi! Chovdurxon Maxtumquli uchun umrbod armon bo'lib qoldi. Chovdurxondan keyin biror sarkarda Maxtumqulining qalbiga yo'l topa bilmadi.

Nihoyat, Maxtumquli endi jahongashtalikni yig'ishtirdi, endi butun imkoniyatini ijodga safarbar etdi. Ana shunda u o'z fikr-tuyg'ulari ustidan kuldi:

Odam o'g'li, o'zing bilmay,
Qadam-qadam otajaksan,
Egangning amrini qilmay,
O'z ko'nglingni yoqajaksan.
Dunyoni qizg'in tutmagil,
Ishing ko'r, bekor yotmagil,
Maxtumquli, unutmagil,
Ketajaksan, ketajaksan.

Maxtumquli o'z umri mobaynida ko'p shoirlar bilan hamsuhbat bo'lgan. Bordi-keldi qilgan. Bizgacha yetib kelgan asarlari orasida Maxtumqulining Durdi shoir, Ma'rufiy, Zunubiy, O'rozmengli singari shoirlar bilan aytishuvlari bor. Aytishuvlar bazmlarga jon kiritish, munozara, fotiha berishdan avval sinovdan o'tkazish maqsadida uyushtirib turilgan. Fotiha oluvchi shoir yigirma ming bayt she'rni yod bilishi shart qilib qo'yilgan. Shu

shart bajarilgach, fotiha berilgan. Oq fotiha olishni bugungi kunda Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lish bilan tenglashtirishadi. Ammo bular boshqa-boshqa narsalardir.

Maxtumqulining Shaydoiy, Andalib, Shobanda singari shoirlar bilan ham yaqin aloqada bo'lgani ehtimolga yaqin. O'n to'qqizinchi asrda yashab ijod qilgan turkman shoiri Qurbondurdi Zaliliy Maxtumqulining jiyani edi. "Firog'iy" she'ridagi:

Mamatjuma do'stim, mullo Zalilim,

degan satrlar ham Zaliliyga bag'ishlangan.

Maxtumqulining yuqorida tilga olinganlardan boshqa shoirlar bilan aloqalari haqida ma'lumotlar yetib kelmagan.

Biroq o'sha turkman shoirlarining aksariyati, shuningdek, qardosh xalqlar shoirlari ham Maxtumqulining xalqchil, ravon, dilga yaqin misralariga taqlidan asarlar bita boshlashdi.

Maxtumquli tiriklik paytidayoq o'z maktabini yarata oldi.

Buni shoirning o'zi angladimikin? Axir u juda ziyrak edi-ku? Anglagan bo'lsa-da, sir boy bermagandir. U har doim kamtarlikni yo'qotmay kelgan:

Eshitganlar ayb aylamang so'zimga,
Ellar kabi so'zim uz ham bo'lmasa.

Bu Maxtumqulining so'zlari. Bu yillarda Maxtumquli qanday turmush kechirdi ekan? Odatiy turkman turmush tarziga yana ko'nikib ketdi. Tirikchilik o'tib turishi uchun duradgorlik, zargarlik bilan shug'ullandi.

Turkmanda bir an'ana bor: hurmatli-obro'li kishilarni xor qilib qo'yishmaydi. Ekin-tikin ishlariga qarashishadi, uzoq safarlardan qaytganlarida, albatta, unga atab sovg'alar opkelishadi, she'rlarini ko'chirib olgach, haqini to'lab berishadi, to'y-ma'rakalarda bosh-oyoq sarpo bilan jo'natishadi. Bunday udumlar juda ko'p.

Faqat shundan keyingi kunlar nisbatan g'amgin o'tardi. Ba'zan ezgin xotiralar ta'siriga berilib, Maxtumquli o'zini o'nglolmay qolardi. Oldinda esa xuddi qahraton qish misoli keksalik tish qayrab turibdi. Biroq. Qishning ortidan, baribir, bahor keladi. Keksalik-chi?

Har qishning so'ngi bahor,
Umr so'ngida gap bor!

Aslida baquvvat, gavdali odam uchun oltmish yosh nima degan gap? U ba'zida vujudiga xuddi avvalgidek qayerlardandir sirli bir quvvat oqib kirayotganini sezardi. Ammo vaqt o'z so'zini aytadi. Bir paytlar kiyib yurgan to'nlari endi o'ziga sal keng, uzun kelib qolgandek. O'zida sezilar-sezilmas o'zgarishlarni Maxtumquli she'rlariga ham singdirishga harakat qilardi.

Menglini, tiriklay yo'qolgan akalarini kutaverishdan ham charchagandi. Ammo ularni unuta olmarmidi? Quyidagi misralardan uning o'zini qanchalik yolg'iz his qilganini anglash mumkin.

Mengli xonim, ishq savdosin unutdim,
Rahm etar bo'lmadi, baxtim qarodur.

Yoki:

Bir qardoshsiz dunyoda nechuk kechar ahvolim?

Mana, bu satrlar esa, oltmish yoshida chekkan hasratiga ishora:

Oltmishga azm etdi qartaygan yoshim,
Rahm etar bo'lmadi, baxtim qarodur.

Maxtumquli yurt ichi va tashqarisidagi siyosiy vaziyatni sinchiklab kuzatardi. Albatta, u paytda turkmanlarda gazeta yoki OAV bo'lmagan, yangiliklar og'zaki tarzda tildan tilga ko'chgan. Rus-turk munosabalarining keskinlashuvi, Ismoil qal'asining zabt etilgani, ruslarning eronliklar bilan kelisholmay qolgani shoirga ayon edi.

Ichki ahvol qanday edi? Bu o'sha ichki dushman — ichki nizolar edi. Hech bir qabila ikkinchisiga shafqat qilmasdi — suv uchun, yer uchun janjallar, qasos, urug'-aymoqchilik mojarolari hamon davom etardi. Shunday bir paytda odamlar birdamlik haqidagi she'rlarni yurakka yaqin olib o'qishar, o'zaro muhokama qilishar, ma'nosini chaqishga urinishardi. Ammo so'z boshqa, amal boshqa. Ustiga ustak oldinda yana nimalar kutayotganini Maxtumquli bilmaydi.

Nodirshohning o'limidan keyin Eron mamlakati inqirozga yuz tutdi, bir necha xonlikka bo'lingandi. Ular bir qilich, bir bayroq ostida birlashgach, yangi o'yinlar maydonga keldi.

Bu haqda tarixchi Annanapasov shunday yozadi: "Eron feodal xonlik va bekliklari — qojorlar boshchiligidagi shimoliy hamda zendlar yetakchiligidagi janubiy guruhlar o'rtasidagi kurashlar qojorlar g'alabasi bilan yakunlandi. Og'amuhammadshoh Qojor zendlar sulolasining asir tushgan so'nggi shohi Lutfalixonning ko'zini o'z qo'li bilan o'yib oldi. U zendlarni qo'llab-quvvatlagan Kirmon xalqidan ham ayovsiz o'ch oldi. Yosh-yosh qiz-juvonlarni o'z navkarlariga taqsimlab berdi. Erkak kishilarning esa ko'zlarini o'yishni buyurdi. Askarlar 20 ming kishini ko'zlaridan judo etishgan".

Og'amuhammadshoh faqat Eronda emas, Janubiy Ozarbayjonda, Kavkazda, Xurosonda ham misli̇sz jabr-zulm o'tkazdi.

Tarixda Axtaxon nomi bilan shuhrat qozongan Og'amuhammadshoh barcha shafqatsizliklarni turkmanlarning bir tarmog'i bo'lgan qojorlar qo'li bilan amalga oshirgan.

Axtaxonning ko'nglini olish uchun ko'pgina turkman xon va beklari qanchalik tilyog'lamaliklar qilib, dumlarini likillatishini ko'rgan Maxtumqulining ko'ngli vayron edi.

Beg'ayrat xon qo'linda
Elat xorlikka tushdi.

U yana bir haqiqatni anglab yetdi: Shohlarning qay birini olib qaramang, aksariyati turkman eli va turkman zamini bilan aloqador bo'lib chiqadi. Bu nima? Taqdirning bir kinoyasimi?

Bunga Maxtumquli qanday javob bergani ma'lum emas. Qadimdan shu kunlargacha yashab o'tgan turkman hukmdorlarini sanab chiqish uchun alohida kitob yozish mumkin. Buning uchun maxsus ilmiy izlanishlar talab etiladi.

Masalan, Nodirshoh turkmanning afshar urug'idan edi, hind hukmdori Muhammadshoh esa turkmanning bahorli toifasidan, Abulg'ozi Bahodirxon ham turkmanlar ichida katta bo'lgan, Muhammadhasanxon turkmanning qojor toifasidan, uning o'g'li

Og'amuhammadshoh Erondagi Qojorlar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Eronda 1925-yilgacha hukmronlik qilgani ma'lum.

Fathali xon laqabi bilan tanilgan Boboxon Og'amuhammadshohning o'g'li edi.

Bularni o'z fikrimni tasdiqlatish yoki mashhur shaxslarni atayin turkmanlashtirish maqsadida aytayotganim yo'q. Birgina Saljuqlar harakati Osiyo qit'asini o'zgartirib yuborgani va Yevropaning kelajagiga ta'sir qilganini taniqli ingliz olimi J.Saunders ham yozib qoldirgan. Bunday fikrli olimlar oz emas.

Umuman, hozirgi vaqtda turkmanlarning to'liq yozilmagan tarixi, sho'ro davrida siyosatga moslashtirish niyatida chala yozilgan tarix kitoblarida noaniq o'rinlar juda ko'p. Bu xalqning tarixi ustida hali juda uzoq izlanishlar olib borilishi kerak.

"O'z tarixini bilmasdan, unda aniq ishtirok etmasdan turib, tamaddunlarning hech biri taraqqiy eta olmaydi" (L.N. Gumilyov. "Qadimgi turklar". 1964-y. 340-bet)

Maxtumqulining va undan sal yoshi kattaroq bo'lgan Andalibning, Shaydoiyning o'z davriga qadar bo'lgan turkman tarixini yaxshi bilganlari ularning asarlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tog'dan baland, yantoqdan past,
Bo'ldi turkmanning ahvoli.

Bu Shaydoiyning satrlari. Mana, Maxtumquli nima deydi:

Kalla qo'yib quvdik xonning galasin,
Eshitdik oh-u zor, miskin nolasin.

Yoki:

Chin-Mochinda taxtin qurgan,
Eronu Afg'onni so'rgan,
Hindiston, Xo'tanga borgan
Otaniyoz xon ko'rinar.

Yuqoridagi satrlar nima sababdan aytilgani haqida bir o'ylab ko'ring-a? Bu kabi satrlar Maxtumquli ijodida yuzlab topiladi.

Binobarin, uzoq tariximizda hali o'rganilishi kerak bo'lgan sahifalar qanchalik ko'p ekanini o'ylab ko'ravering.

Maxtumquliga qaytaylik. Uning hayotligidagi hukmronlik qilgan eng so'nggi shoh Fathalishoh edi. U taxtga o'tirganida Maxtumquli oltmishdan oshib qolgandi. O'tgan yillarning izi, hayotiy va ijodiy tajribalari uni mo'ysafidga aylantirib qo'ygandi. Bu yillar uning uchun eng sermahsul davr bo'ldi.

Maxtumquli ma'lum muddat biz bugungi kunda "modern" deb ataydigan yo'nalishda ham ijod qilgani ayni haqiqat. Ha, Maxtumquli jahon she'riyatida yangi sanalgan oqimda ikki asr avval suzib o'tgandi.

"Mengzar hukmli" she'rini yana bir qayta o'qib ko'ring-a! U qo'llagan she'riy tashbehlar, san'atlar haqida alohida kitob yozish ham mumkin.

Maxtumquli avval o'qigan kitoblariga, o'z ustozlarining ilmiy qarashlariga yangidan tiniq nazar tashlashga vaqt topa oldi. Maxtumqulining ilmiy qarashlari ham alohida o'rganildi.

Ch.Quliyev Maxtumqulining "Jahon paydo" nomli she'ri asosida fikr yuritib, shunday xulosaga keladi:

"1771-yilda ingliz faylasuf-materialisti, taniqli kimyogar, jamiyatshunos Jozef Pristli o'simliklar o'zlaridan hayot uchun zarur bo'lgan, fan uchun noma'lum bir gazni ishlab chiqarishini tajriba yo'li bilan aniqladi. Faqat uch yil o'tganidan so'ng bu gazning nomi kislorod ekani ma'lum bo'ldi. O'z davrining buyuk olimi bu fikrlari bilan Maxtumqulining o'simliklarning "jahon ichra jon" yaratishga qodir "dam"i haqidagi tushunchalarini tasdiqlab, shunday xulosaga keladi: shoirning o'simliklar tabiatidagi munosib o'rnini tan olgani davrning yuqori bahosiga munosibdir. Bu xulosaga shoir qay usul bilan yetib borgani ma'lum emas. Bu Maxtumquli dahosining buyuk ilhomi tufayli dunyoga kelgan juda ulkan ilmiy kashfiyotdir!".

Bu buyuk shoir ijodidagi yagona ilmiy kashfiyot emas, albatta.

Shoirning:

Bu ne qudrat ishdir suvdan o't chiqar?

Yoki:

Uch hissasi dalli daryo,
Bir hissa yerda ming g'avg'o,
Kim bilarki, ko'hna dunyo,
Yo rab necha yoshindadir?

Yoki:

Yulduzdan yo'l yasab oya satashdim.

Hali inson ongi yetib borolmagan, shoirning o'tkir aql-zakovati tufayli dunyoga ingan mo'jizaviy misralar uning ijodida yuzdan oshadi. Hali ulardan qanchasi bizga yetib kelmagan. "Qaydaligi bilinmas,", "Uchi avloddan", "Chiqib o'tirmish" kabi she'rlaridagi sirlarni kashf etish uchun bizning zamondoshlarimiz hali ancha bosh qotirishlariga to'g'ri keladi.

Maxtumquli ijodi tom ma'noda sirlar xazinasidir. Bu sharqona an'analarning o'ziga xosligi demakdir. Sharq adabiyoti o'z sirlari bilan ham jozibali, sehrlidir.

Mumtoz adabiyotimiz bilimdonlaridan biri Himmat Kakajon ana shunday sirlardan birini "Uchi avloddan" she'ri misolida quyidagicha sharhlaydi: "Arab alifbosida 28 ta harf bor. Biroq, qadimgi turkman adabiyotida lom va alif qo'shilmasidan yuzaga kelgan "lo" birikmasi ham bitta harf hisoblanadi. Adabiyotda arab harflari xuddi niqob ortidagi ayol singari juda ko'p sirlarni o'zida jamlagan. Shu bois, she'r "ne o'n besh ayoldir..." deb boshlanadi.

Arab alifbosida harflar o'zidan oldingi aniqlik artikli bilan qo'shilish-qo'shilmasligiga qarab ikki guruhga — shamsiy va qamariy harflarga bo'linadi. Bundan tashqari harflar nuqtalar bor-yo'qligiga ko'ra yana ikki guruhga bo'linadi. Shu bois mumtoz adabiyotda bunday harflar guruhi "homilali va homilasiz ayollar", "xolli va xolsiz ayollar"ga bo'linadi.

Shoirning birinchi satriga qarang:

Ne o'n besh ayoldir, ortmas farzandi?

Bu o'n besh ayol 15 ta nuqtasiz harf demak. Bular: alif, he, dol, ro, sin, sod, to, ayn, kof, lom, mim, vov, ho, lom-alif, yo.

Ya'ni, bu harflarning tepasida bitta ham nuqta yo'q. Agar nuqta qo'yilsa, ularning ma'nosi o'zgarib ketadi. Nuqtasi bo'lmagani bois bu hafrlarning "farzandi ortmaydi".

Uchi egiz, o'n to'rt erur payvandi.

Uch egiz deganda alif, ayn va hamza nazarda tutiladi. Chunki bu harflar bir nechta tovushni (a, i, u, o, e, o') ifodalashi mumkin.

"O'n to'rt erur payvandi" deganda esa arab alifbosidagi shamsiy harflar nazarda tutiladi. Arab tilida so'z oldidan kelgan-al artiklini o'zgartira olgan harflar shamsiy harflar deyiladi. Masalan, tafsir so'ziga al- qo'shilsa, u at- tafsirga aylanadi. (Masalan: an-nur, as-salom, az-Zamaxshariy, ar-Roziy)

Ul ne jimo aylar, ne chiqar yoddan?

Jimo' arabchada qovushish, birlashish demakdir. Ya'ni, yuqoridagi harflarning birlashish qoidalari yod olingach, ular odamning esidan chiqmaydi, deyilmoqchi.

"Ul ne maxluq, ko'k yuzida qo'narlar?"

Bulut ko'kda uchib-qo'nib yuradi. "Gohi inib, yer yuziga qo'narlar". Osmonda uchib-qo'nib yurgan bulutlar goh tuman, goh qor, goh yomg'ir, goh qirov ko'rinishida yerga tushadi.

"Ul ne odamzoddir, bir ot minarlar".

Dengizchilarning bir nechtasi eshkak eshib, yelkanli kemalarni boshqarayotganini ko'z oldingizga keltirdingizmi? Shoir ana shu holatni nazarda tutgandi.

Mudom sayr qilar, ul to'rt tengi-to'sh,
Bo'lar ondan jumla olam yuzi xush.

To'rt fasl bir-birining ortidan kelib, aylanib yursa, olamdagi barcha jonli va jonsiz mavjudotlarning hayoti davom etadi.

Ul to'rtdan biri bor, mudom sabzapo'sh,
Kallasi muzdandir, ayog'i o'tdan.

To'rt tengdosh — bahor, yoz, kuz, qish. Ular orasida sabzapo'sh, ya'ni, yam-yashil yuradigani — bahor. Bahor esa muz, ya'ni, qishdan boshlanib, o'tda, yoz oylariga ulanib tugaydi.

Yoxud shoirning kitob haqidagi chistoniga e'tibor bering.

U kimdir, yalang'och, g'arib o'tirmish,
Ovozsiz olamga so'zin yetirmish.
Og'zin ochib o'zin g'amga botirmish,
So'rsang xabar berar senga har zotdan.

Buyuk shoir arab tili va yozuvini yetarlicha bilganlar uchun ayollar (harflar)ning sirlarini birin-sirin, andisha va istihola bilan ochib berayotganga o'xshaydi.

U ushbu she'ri orqali xalqni bilim olishga, savodxonlikka undaydi, shoirona satrlari bilan o'z o'quvchisini sehrlab oladi. Harflarni sirli ayollarga o'xshatib, "oqil erning fahmi yetar bu so'zga" deya, o'qish, o'rganish, bilish, ixlos etish qiyin emasligini ta'kidlaydi".

Siz uning "Yashil zumrad" she'rini ham yana bir karra o'qib chiqing-a?

Shuningdek, shoir hamma bilganlari she'rga sig'masligi, bunga she'riyatning imkoni yetmasligini, asosiysi, she'rlarini ilmiylashtirish fikridan yiroqligini aytib o'tadi.

"Maxtumquli fosh aylasang siringni.." she'rida ana shu holat nazarda tutilgan bo'lsa ne ajab?

Shu bois ham Maxtumulini "Sirlar xazinasi" deb atashar?

Maxtumqulining olimligi shoirligidan ham ustunroq deydiganlar topiladi. Adabiyotshunoslar esa uning ijodini eng avval shoir sifatida o'rganishadi. Qolaversa, ilm va she'riyat bir-biridan u qadar yiroq tushunchalar emas. Ana shunday mulohazalar Maxtumqulining selda oqib ketgan, qizilboshlar yoqib tashlagan kitoblari orasida ilmiy asarlari ham bo'lsa kerak, degan mulohazani o'rtaga chiqaradi.

Maxtumqulining ilmiy qarashlari, ishlari haqida bu sahifalarda mufassal yozishning imkoni yo‘q. Maxtumquli ilm-fanga har qancha mehr qo‘ygan, ilmiy ish bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, uni shuhrat osmoniga olib chiqqan kuch, eng avvalo, she’riyat edi.

Maxtumquli har jihatdan komillikka yetishgan inson edi. O‘z davrida zamondoshlari uni eng oqil, dono, bilimli inson sifatida hurmat qilishar, hatto eng obro‘li ulamolar ham u bor majlisda sukut saqlashni avlo ko‘rishardi. Bu o‘z xalqining shoiriga ko‘rsatgan ehtiromidan darak edi.

Xalq Maxtumqulini har qancha yuksakka ko‘tarsa, u o‘zini shu qadar xoksor tutdi, kamtarligini yo‘qotmadi.

Ko‘nglim, past tutgil o‘zingni,
Foniy dunyo o‘tar-ketar.

Yoki:

Yo‘l ustida o‘lsam, yo‘lga otsalar,
Roziman ustimdan bosib o‘tsalar,
Maxtumquli deya otim tutsalar,
Ko‘rgan ko‘z jo‘rt otar eshitar quloqqa.

Yoki:

Avval Maxtumquli, o‘zing tuzatgil,
O‘zingni sen o‘zgalarga ko‘z etgil,
Oz yegil, oz yotgil, so‘zing oz etgil,
Ma’nisiz suhbatni cho‘zmoq ne darkor?

Yoki:

Bilmagan, so‘rganlara ayting bu miskin otimiz,
Asli go‘rkez, yurti Atrek, oti Maxtumqulidir.

Yoki:

Maxtumquli, benavo, bechora andalibi,
Bir parcha g‘am davroni, bo‘lmish aning nasibi,
Yig‘ilsa, qilmas chora, unga dahring tabibi,

Har majlisda, suhbatda, shod aylang biz g'aribi,
Ey yoronlar, yod eting, xayri duoda bizni!

Shoir ijodidan bunday misollarni istagancha keltirish mumkin. Ko'rib turganingizdek, Maxtumquli o'z jilovini o'zi tortib, o'z qamchisi bilan o'zini savalab yurganlardan edi. Bu xislat unga otasidan o'tgan bo'lsa-da, bu so'fiylarning, tariqat ahlining eng muhim xususiyatlaridan sanalardi.

Bu ham ozodlikning bir ko'rinishi edi. Agar shayton oralab, bu shart buzilgan taqdirda, shartni buzgan odam bir umr afsus chekib o'tgan. Buni Maxtumqulining hayoti misolida ham ko'rish mumkin. Esingizda bo'lsa, u o'z tilaklari ijobat bo'lmagani uchun, miskinu bechoralarga, g'aribu g'urabolarga yordam berolmagani uchun Yaratganga iltijo qilgandi.

Na darvishman, na mulla, na so'fiy ahli dastor.

Yoki:

Shar ishim behaddir, gunohim ko'pdir,
Sen o'zing kechirgil yo Zuljalolim.

Yoki:

Qo'rquv, *umid o'rtasinda hayronman,*
Tong-la mahshar, yo rab ne bo'lar holim?

Yoki:

Firog'iy der, yo'q dunyoga havasim,
Yakka dinda bo'lib qoldi ixlosim.

Yoki:

Haq so'zina inonmasdim men doim,
Hijrondan tutubdur karvonsaroyim,

G'aflat bilan o'tib har kunim, oyim,
Umrim ham behuda o'tib boradir.

Yoki:

Yerim yo'q, ayrilib borarg'a sendan.

Yoki:

Dunyo qayg'usi birla, bo'ldi qaro baxtim qon,
Oxiratni unutdim, yeldim-yugurdim har yon.

Yoki:

Sen nechuk Maxtumquli yomonliging unutmading,
Gohi-gohi zolim o'lding, ko'rganingdan aytmading,
Goh-gohi so'fi bo'lding, hech haromdan qaytmading,
Bilmadim sen qaysi bo'lding, belli bir ish tutmading,
Ne sipohiylik bilan bo'lding, na mullolik bilan?

Bu satrlar uning har doim o'ziga tanqidiy ko'z bilan qarab kelgani, o'z ayblarini yashirib o'tirmaganiga misol bo'la oladi. Bu fikrlar shoirning umr bo'yi hayotning mohiyatini izlab yashaganini yana bir karra tasdiqlaydi.

Kitob ochib, ancha dinga duch bo'lib,
Islom qaysi, Qur'on qaysi bilmadim,

satrlariga yana bir nazar tashlang.

Maxtumquli dinga qaytadan yuz tutgan bo'lsa-da, dinni teskari tushuntiradigan, o'z manfaati yo'lida har qanday pastkashlikdan qaytmaydigan din peshvolarini tanqid qilishdan chekinmaydi. Sababi, u Allohdan boshqa biror zotni Odamdan, Odamzoddan baland qo'ymadi. Ana shu mayl va istak insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan baytlarni dunyoga keltirdi:

Qur'onni yondirib, butga qil sajda,
Mardumga ozor ish etguvchi bo'lma.

Avvalo, inson bo'l, yaxshilik qil, yomonlikdan qayt, ana undan keyin diningni, imoningni mustahkam qil. Dunyo dinlarining asl mohiyati ham ana shunda. Biroq bu haqiqatni Maxtumquli o'zgacha, o'ziga xos tarzda ifodalagan.

Shu alfozda Maxtumquli yetmish yoshning ostonasiga ham borib qoldi. Qarilik uning har qadamida, har nafasida o'zini bildira boshladi. Qaddi bukilib, tishlari siyraklashdi. O'zidan o'tganini o'zi bilib yurgan shoir bu shafqatsiz haqiqatni qanday qabul etdi ekan? Ammo na iloj! Tabiat qonuni bu!

Albatta, dard yomoni qarilik! Ammo keksalik Maxtumqulida boshqalardan boshqacharoq kechmoqda. Chunki u shoir, uning hislari boshqalarnikidan farqli. Umrining har qadamida judolikka uchrab, axiri yolg'iz qolgan shoir uchun keksalik ikki karra mashaqqat edi.

"Qarigan chog'ida yosh qiladigan" farzandi ham yo'q. Uyqusiz kechalari suhbatlashib yotadigan yostiqdoshi ham yo'q. Shukur, o'lganingdan keyin ortingdan yig'lab qoladiganlar bor. Bularning bari turkman uchun juda muhim narsalar.

Umrining bu davrida shoirning ahvoli ruhiyasi uning she'rlarida ham yaqqol aks etadi. Uning birgina "Baxtim qarodur" nomli she'rini o'qiganingizda shoirning qanchalik baxtsiz ekanini yana bir karra anglab yetasiz.

Hamrohim yo'q, borib sirrim ocharga,
Dardimni aytarga, o'tim o'charga.

Yoki:

Tog'imda band oldi sellar,
Ketdi hushim, egri bellar,
Maxtumquli aytar ellar,
Izimda zuryod qolmadi.

Bunday satrlar bu davrda ko'plab bitildi.

Biroq nima bo'lganda ham Mengli uning tasavvurida, ko'z o'ngida oydan oydin, kundan yorqin bo'lib qolaverdi.

Mengli qizning uzugiga
Toshlar qo'ysam kumush bilan.

Biroq Maxtumquli shaxsiy baxtsizligini el-yurt kulfatidan, hozirgi tilda aytsak, ijtimoiy baxtsizlikdan ustun qo'ymadi. Holbuki, bu ikki baxtsizlik ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq edi.

Biroq Maxtumquli el-yurt fojiasini o'z kulfatidan yuqori qo'ydi. U el dardi bilan yig'ladi.

Avval aytganimizdek, Maxtumquli o'z hayotida ko'rgan so'nggi hukmdor — Eron shohi Fathalishoh otasi Og'amuhammadshoh o'ldirilganidan keyin taxtga o'tirgach juda ko'p qarshiliklarni yengib o'tishiga to'g'ri keldi. Faqat 1801-yilda u yirik davlatni o'z qilichi ostiga birlashtirdi. Shundan so'ng yangi xunrezliklar boshlandi.

Tarixchilarning shahodat berishicha, Fathalishoh turkmanlarga nihoyatda qahrli qaragan. 1774-yilda amakisi Husaynqulini turkmanlar o'ldirgani uchun ulardan qonli o'ch olishga qaror qiladi. To'g'rirog'i, bu bahona edi, xolos. Chunki turkmanlar Fathalishoh uchun katta xatar manbai edi. Shu bois ularning popugini pasaytirish uchun ana shu bahonani o'ylab topadi.

O'zingnikini yengish oson, negaki uning zaif va kuchli tomonlarini yaxshi bilasan. Qolaversa, o'sha paytlarda turkmanlar orasida tarqoqlik, moddiy qiyinchiliklar avjiga mingan edi. Buni hiylagar Fathalishoh nazardan qochirishi mumkin emasdi. Shuningdek, bu paytda turkmanlar ruslar bilan savdo-iqtisodiy, harbiy sohalardagi o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'ygani uni tashvishga solgandi. Biroq rus podshosi va harbiylar ularga umid bilan ko'z tikib borgan turkmanlarga qanday munosabatda bo'lgani haqida keyinroq to'xtalamiz.

1796-yilda Rossiyaning Eronga qarshi kuch to'play boshlagani turkmanlarning qalbida o'cha boshlagan umid shamchirog'ini qayta yoqdi. Rus sarkardalari huzuriga bir qancha turkman oqsoqollari elchi bo'lib borishdi va Og'amuhammadga qarshi kurashda yordam berishlarini aytishdi. Albatta, rus diplomatlari ertami-kechmi turkmanlar ulardan yordam so'rab borishlari, shundan boshqa chorasi ham yo'qligini bilishardi. Turkmanlarning nochorlik yuzasidan ana

shunday yo'l tutishi ruslar uchun ayni muddao edi. Ruslar Eron va Usmoniylarning ham bir yoqadan bosh chiqarishidan qo'rqishar, ikki davlat o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ham ruslarning foydasiga xizmat qilardi. Turkmanlar Eronni tezroq qo'lga olish uchun juda qulay imkoniyat yarata olardilar. Qolaversa, turkmanlarning o'ta jasur va bahodir jangchi ekanligi azaldan ravshan.

Fathalishoh yoki Boboxon turkmanlarning birlashayotgani, ruslar bilan ittifoq tuzayotganini anglab, o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Qanday bo'lmasin, bu ittifoqqa yo'l qo'ymasligi kerak.

1801–1802-yillarda Fathalishoh ozmuncha turkmanni qilichdan o'tkazmadimi? Xalq uning bu xunrezliklarini unutgani yo'q. Bu zulmlar turkmanlarni qo'rqitish o'rniga ularning g'azabini yuz chandon oshirdi.

Uning jabr-u sitamlariga guvoh bo'lgan Maxtumquli jim qarab tura olarmidi? 67-68 yoshlardagi mo'ysafid uchun bu qonli voqealar xuddi ilon chaqqandek ta'sir qildi. U zolim shohga qarshi qanday qurolni ko'tarib chiqsa? Uning yagona quroli esa SO'Z edi. Shoir hech narsani o'ylamasdan Fathali xonni tanqid ostiga oldi. Bular Maxtumquli ijodidagi eng haqiqatgo'y, jasoratli, o'tkir misralar edi. Bu jo'shqin so'zlar ortida shoirning otashin qalbi ham yaqqol ko'rinib turardi. Shoir bir she'rida shohga tik boqib, undan adolat talab qiladi, begunoh to'kilgan qonlar hisobini so'raydi va hukmdorni gunohkorlarga nisbatan qattiqqo'l, begunohlarga esa shafqatli bo'lishga undaydi. She'rni o'qish asnosida shoir bu misralarni o'z o'limini bo'yniga olib yozganini sezish qiyin emas. Qolaversa, Maxtumquli Og'amuhammadni ham, Fathalini ham yaqindan tanigan-bilgan bo'lsa kerak. Zotan, har ikkala shoh asli tukrkman qavmidan va ular uzoq muddat turkmanlar ichida yashagan.

To'g'ri, ularni aslida turkmanlar odam qilgandi. Shohning ismi Fathali. She'rda esa "Fattoh" ismi tilga olinadi. Fattoh ismli shoh o'tmaganini tarixchilar juda yaxshi bilishadi. Mening taxminlarimga ko'ra, Maxtumquli Fathalishohga nisbatan nafratini sezdirish uchun ham uning ismini atayin buzib aytgan bo'lishi mumkin. Balkim, xalq orasida Fathalishohning Fattoh degan laqabi ham bo'lgandir. Harqalay fath va Fattoh so'zlarining o'zagi bir.

Yana bir gap: bu she'r shoirning arab alifbosidagi qo'lyozmalaridan emas, tildan tilga o'tib, og'zaki tarzda yetib kelgani ham

biroz shubha uyg'otadi. Bu she'r Maxtumquliga tegishli emas, u Fathalishohga yetib bormagan, degan qarashlar ham yo'q emas.

Bu singari she'rlar ko'plab ilmiy va adabiy davralarda vaqti-vaqti bilan muhokamaga sabab bo'lib kelmoqda. Bu tabiiy hol. Zero, haqiqat bahslarda tug'iladi, deydilar.

Eron, Turon endi qo'ling ostinda,
Surgil endi bu davronni, sen Fattoh,
Kulli turkman o'ynar cho'lning ustinda,
To'kma, bilgil, nohaq qonni sen Fattoh.
Bu kun shohsan, erta gado bo'larsan,
Eldan, kundan, dindan judo bo'larsan,
Bir kun joning chiqib, fido bo'larsan,
Qozonmishsan ko'p gunohni sen, Fattoh.

Yoki:

Firog'iy, dard aytib, dardda yongusi,
Qon yutib, bu zolim Fattoh qongusi,
O'zim tirik, ko'rgan o'lik songusi,
Yo'qsa, o'ldir, bu dostonni ol, Fattoh.

Taqdir Maxtumqulining asarlari boshiga ne kunlarni solmadi? Ehtimol, shu sabab bu she'r og'zaki tarzda bizgacha yetib kelgandir? Aniqki, o'sha davrlarda Maxtumquli bu xususda, bu ruhda juda ko'p yozgan. Zotan, buyuk shoirlar o'z davrining ruhini tez ilg'ay oladi.

Og'zaki she'rlar tildan tilga, eldan elga o'tib tarqala boshladi. Maxtumqulining avvalgi she'rlarini o'qiganlar keyingilarini kuyga solgan baxshilarning og'zidan eshitganlar bu asarlarga qalblarining to'ridan o'rin berishgan.

Ko'ngil uyiga mehmon kelib tursa yaxshi, mehmonning qadami uzilsa, yo'l egasining ko'zlari nigoron bo'ladi. Ezilgan, xo'rlangan, toptalgan, iligi so'rilgan yurtning ilojsizlikdan, ichki nizolardan to'ygan xalqning sabr kosasi limmo-lim edi. U o'z g'amini o'zi yeyishga majbur edi. Bunda esa Maxtumqulining

asarlari o'ziga xos o'rin tutdi. Bu asarlar xalqning yolg'iz ovunchi va umidiga aylangandi. Demak, ozmi-ko'pmi ko'zda tutilayotgan g'alaba Maxtumquli bilan bog'liq edi.

Kimdakim XIX asr turkman tarixini diqqat bilan o'rgansa, o'sha davrdagi yuksalishlarda Maxtumqulining chaqirish va da'vatlari qanchalik katta ahamiyat kasb etganini anglab yetadi.

Hatto 1881-yilda, asrning eng qonli urushlaridan birida turkmanlar jismonan yengilgan bo'lsalar-da, ruhan mag'rurlikni qo'ldan bermaganlari shoirning isyonkor da'vatlari millat ongida qanchadar tomir otganini ko'rsatadi. Albatta, Go'ktepa jangi — bu alohida suhbat. Hali bu voqealargacha yana oradan ko'p yillar o'tishi kerak.

Asrning boshlariga qaytaylik. 1801–1802-yillarda Fathalishoh tarafidan amalga oshirilgan turkmanlar qirg'ini yuzasidan graf Zubov Bokuda Ozodxon boshchiligidagi turkman vakillari bilan muzokaralar o'tkazdi. Shundan so'ng rus imperatorining turli darajadagi fuqarolari: savdogarlar, dengizchilar, harbiylar, ruhoniylar... turkman xalqining kelgusidagi taqdiri, xalqning ichki hayotini puxta o'rgana boshlashadi. Ana shu muzokaralar paytida turkmanlarni Eronga qarshi gijgijlashadi. Ko'p o'tmay 1804–1813-yillar mobaynida davom etgan Rus-Eron urushi boshlanadi. Ruslarning bu harakati turkman oqsoqollarida qondoshlari bo'lgan qojorlarning mag'lubiyatiga nisbatan umid uyg'onadi. Turkman sahro, Astrobod, Mozandaron turkmanlari bu borada ittifoq tuza boshlashadi. Bunda esa ruslarning xizmati katta bo'lgandi. Ular "agar turkmanlar Eronga qarshi yurish qilsa, biz qurol-yarog' yuboramiz, kerak bo'lsa, askar ham yuboramiz" deya ochiq-oydin aytadi. Bu va'dalar xalqqa juda katta ta'sir qilgan. Ozarbayjon ruslar qalamravi ostiga olinishi ham turkmanlarda yangicha mayllarni paydo qiladi. 1803-yilda Mang'ishloqdagi turkmanlarning bir qismi rus hukumatidan boshpana so'rashadi.

Xalqning bu taxlit harakatlari Maxtumqulida istiqbolga bo'lgan umidni kuchaytiradi. U xalqining yashirin kuch-quvvatiga, cheksiz irodasiga aslo shubha qilmasdi. U esini tanibdiki, beva-bechoralarni himoyalab, muhtojlarga yordam ko'rsatib keldi. Ko'ngliga singib ketgan bu muqaddas tuyg'ular asarlariga ham ko'cha boshladi. Afg'onistonlik taniqli olim va shoir Abdullo Bax-

toniy Xidmatgorning haqli tarzda ta'kidlaganidek, Maxtumuli hech bir she'rini el-xalqqa qarshi bo'lgan odamlarga bag'ishlanadi. Shu bois u umrbod ijod ko'zgusini pokiza saqlab keldi.

Esingizda bo'lsa Maxtumqulining otasi Davlatmammad Ozodiy "Va'zi Ozod" asarida:

Gar faqirlar bo'lmasaydi dunyada,
Bas, halok bo'lg'aydi boylar, ey dada,

deb yozgandi. Ana shu ruhni Maxtumquli ham o'z asarlariga singdirib bordi. U qirq yoshga kirganida boshida ming g'avg'o barq urardi:

G'aribda son yo'qdir, ma'raka ko'rmas,
Haq so'ylasa iqbolina mol bermas,
Ot minib chopsa-da, mangizlga-manzil bormas,
Ko'p ko'zladim, ajab ayyom kelmadi.

Satrlarida o'zining ichki tug'yonlarini, e'tirozlarini, orzu va armonlarini bayon etdi:

G'ariblar ot minsa, eshakka mengzar,
Davlatlilar eshak minsa ot bo'lar?

Yoki:

Kambag'allar goho inson sanalmas,
G'aribsan, kezarsan, quruq nom bilan.

Yoki:

G'ariblik bir darddir odam o'ldirmas,
O'ldirmasa, tiriklikda kuldirmas.

Yoki:

Sulaymonsan, chumolini eshitgil,
So'zini tinglagil, javobin aytgil,

Hokim bo'lsang, kundek elga nur tutgil,
Suvdek serob, shamol kabi tezkor bo'l.

Bu she'rlar Maxtumqulining ilhom chashmasidan sizib chiqqan.

Yetim-yesirlarni qo'llab-quvvatlash, ojizlarga marhamat ko'rsatish qadimiy an'analardan. Maxtumquli ham shu yo'ldan yurdi, shu yo'lni kengaytirib, uzaytirdi. Natijada ana shunday go'zal asarlar dunyoga keldi. U o'z she'rlari bilan o'ksik ko'ngillarga malham qo'ydi, ularga taskin va umid baxsh etdi.

G'am chekma, g'arib odam,
Beklar, shohlar qolmaslar.

Yoki:

Maxtumquli, g'ariblarning ko'z yoshi,
Tog'larni yondirib, eritar toshi.

Yoki:

Zolimlar xor bo'lar, qolar oyoqdan,
G'arib sen yig'lama, sherdek bo'larsan.

Ko'rib turganingizdek, taskin berish boshqa-yu umid uyg'otish boshqa. Bu umidni Maxtumquli singari buyuk shaxs uyg'otsa, uning odamlarga qanchalik ta'sir qilishini tasavvur qiling. Yana XVIII-XIX asrlarda. Bu umid barcha turkmanlar, xususan, Markaziy osiyolik turkiylarga nur sepilgandek ta'sir qilgani shubhasiz. Bu qudratli satrlarni eshitganlar Maxtumqulining ijodiga haqiqiy ma'noda muxlis bo'lib qolardilar.

Aytilgan fikrning ma'nosi yangi bo'lsa-da, uni yana boshqacha tarzda bayon etishda gap ko'p. Maxtumquli bu ishni uddalay olgani uchun, asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan fikrlarni o'ziga xos ifodalab bergani uchun ham buyukdir. Maxtumquli o'zidan avval yashab o'tganlar haqida dilga yaqin, shirin bir tilda, xalqchil

uslubda yozgani uchun muxlislar ko'nglidan munosib joy oldi. Uch asrdirki u ana shu buyuk maqomni saqlab kelayotir.

Xalqning ahvoli har qancha yomonlashsa-da, Maxtumquli unga bo'lgan muhabbati, ixlosini kamaytirmadi. Bu fursatda bo'lsa, turkmanning Eronga qarshi birlashuvi kuchaygan, o'zaro nizolar, gina-kuduratlar chetga irg'itilib, birdamlik, hamjihatlik g'oyasi barchani o'ziga tortardi. Ruslarning turkmanlarga ko'maklashishi haqida xushxabar turkmanlar orasida qanchalik tez yoyilgan bo'lsa, eronliklarni shu qadar tashvishga solib qo'ygandi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, yirik dushman bilan yuzma-yuz qolgan eronliklar ingliz va fransuzlarga murojaat qilgan bo'lishi ehtimol.

Shunday fursatda tarixchilar yozganidek, ko'klanglar 1813-yilning yoz oylarida eronliklarga qarshi otlandilar. Ularning yon tarafidagi yana bir turkman qabilasi yovmutlar ham bu qo'zg'olonga qo'shiladi.

Said Muhammad Yusuf sulton degan bir darvesh oldinga chiqadi. U hoji bo'lgani sababli turkmanlar unga alohida ixlos ko'rsatib, uni o'zlariga boshchi qilib saylashgandi. U ko'pni ko'rgan, tajribali inson edi. U Rossiyada, Xitoyda, Hindistonda, arab o'lkalarida ham bo'lgan, eng so'nggi manzili esa Turkman sahro edi. Umuman, bu murakkab, turfa tabiatli inson haqida juda ko'p gapirish mumkin. U haqda bir ingliz romanida ham ma'lumotlar uchraydi. Shunday bo'lsa-da, hojining tarixi, hayot yo'li to'la o'rganilmagan yoxud unga bir taraflama baho berib kelingan.

Qo'zg'olon kuchaygani sari ruslarning madad berish haqidagi va'dalari ijrosi ham kechikmoqda edi. Biroq bu qo'zg'olonda tashqi kuchlarsiz ham turkmanlarning qo'li baland keldi. Dastlabki g'alabalar qo'lga kirdi. Maxtumqulining mashhur "Turkmanning" radifli g'azali ham shu davrlarda dunyoga kelgan.

"Turkmanning" she'ri shoirning barcha umidlarini o'zida aks ettiradi.

Ul mardning o'g'lidir, marddir padari,
Go'ro'g'li og'asi, sarxushdir sari,
Tog'da, tuzda quvsa, sayyodlar tiri,
Ola bilmas, yo'lbars o'g'li turkmanni.

Turkman xalqiga bir necha asrlik dastur darajasiga yetgan bu asarning o'sha paytdagi ta'sirini-ku qo'ya turaylik, bugungi ahamiyati haqida ham uzoq suhbatlar qurish mumkin. Bu she'rni o'qiganing sayin uning yangi-yangi ma'no va mazmunlarini anglab boraverasiz.

Bu she'r qo'zg'olonchilarning qalbiga malham, bilagiga kuch berdi. Ularni jangga shiddat bilan chiqib, hojining ham ana shunday g'ayrat bilan qo'zg'olonga boshchilik qilishiga ko'zi yetgan rus generallari eski o'yinlarini boshlashdi. Kavkaz qo'shinlari bosh qo'mondoni N.F. Rtishevning, general Rotgoffning o'z qo'l ostidagilarga bergan buyruqlari, ko'rsatmalari turkmanlarga quruq va'da berishdan boshqa narsa emasligini ko'rsatadi.

Ular hojini qo'zg'olonchilarning rahbari sifatida tan olishadi. Rotgoff unga 1813-yilning 13-avgustida maktub yuboradi. Maktubda "...Men sizga, albatta, harbiy tomondan yordam beraman" degan so'zlar bor edi. Bechora hoji esa bu yolg'onga laqqa uchib, Aleksandr Birinchi va Rotgoff nomiga maktub yo'llaydi. Maktubni Rossiyaga Qiyotxon, Suyunxon va Xo'jaqilich uchovi olib ketishadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Aleksandr Birinchining turkmanlar bilan shartnoma tuzish niyati ham bo'lgan.

Rus generallari turli va'dalar bilan turkmanlarni qo'lga olgan, ularning ko'magida o'z kuchlarini kengaytirib, eron-rus muzokaralarini pishitib olishgan. Bu qopqonni esa turkmanlar, tabiiyki, payqashmagan, chunki ular diplomatiyada ham to'g'rilik, rostgo'ylik yo'lidan borishgandi.

Turkman vakillari Kaspiy sohillariga yetgan paytda ham eron-turkman to'qnashuvlari davom etardi. Maxtumquli esa ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida jo'shqin she'rlar yozardi. Keksayib, sondan chiqib qolgan shoirdan bundan boshqa yana nimani ham kutib bo'lardi?

U bu she'rni yozganidan so'ng, o'zining ancha yengillashib, bo'shashib qolganini payqadi. Keksaliknng eng sof tuyg'ulari, eng so'nggi kuch-quvvati ana shu she'rdan joy oldi. Bu she'r necha yillardan beri ochilib-yopilib turgan ilhom daftarining eng so'nggi sahifasi edi:

Qo'rqa-qo'rqa ayanch ahvolga tushdik,
Taqdir har ne bo'lsa, ko'rilsin endi.
Fikr qozonida qaynadik-pishdik,
Tegma, ul jo'sh urib, qorilsin endi.

Yoki:

Firog'iy yuz tutar turkman elina
Dushman qo'l urmasin qizil gulina,
Do'stlar, bizni oxiratning selina,
G'arq etguchi raqib qirilsin endi.

Qo'zg'olonchilar orasida boshiga cho'girmasini qoshlarigacha kiyib olgan, oq soqoli keng ko'ksini yopib turgan, ko'zlaridan hamon qat'iyat uchqunlari chaqnab turgan Maxtumqulini ko'z o'ngingizga keltiring.

Uning egnida bir mahallar otasi kiygan oppoq yaktak. Ovozida ham o'sha o'ktamlik jaranglaydi...

Qolmanglar, turkmanlar, elga til bo'lib!

Bu satrlarda jamlangan chuqur ma'no va mazmunni kim inkor eta oladi? Bu satr ikki yuz yil avval yozilgani uchun eskirib qolgan, deb kim aytadi? Bu satr bugungi kunda ham hech bir turkman uchun o'z ahamiyatini, qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q.

Qo'zg'olonchilarning vatanparvarlik ruhi turli toifalarni, xususan, go'klanglarni, yovmutlarni bir-biriga yaqinlashtirdi. Ular kuch hamjihatlikda ekanini tushuna boshlagandilar. Ularning g'alabalari tarix sahifalarida quyidagicha muhrlanib qolgan: "Shu jangda Hojining o'zi shaxsan ko'p qahramonliklar ko'rsatdi. Birinchi bo'lib, o'zi otini qamchilab jang maydoniga chiqdi, qo'liga nayza olib, dushman ustiga otildi. Gurgonning chekka hududlariga borguncha otining jilovini tortmadi. Uning ortidan yo'lga tushgan turkman bahodirlari ham juda ko'p qahramonliklar ko'rsatishdi. Ular hujumga o'tib, shahzodaning qo'shinlarini tor-mor etishdi. Uning aksariyat navkarlari qo'rqqanlaridan o'zlarini daryoga otib, halok bo'lishdi". Jang nihoyasida Hoji Said Muhammad Yusuf ko'ksidan o'q yeb shahid bo'ldi.

Fathalishohning o'g'li, Astrobod hokimi Muhammadquli Mirzo boshchiligidagi qo'shin ikki marta turkmanlardan qaqshatqich zarbaga uchrab yengiladi. Buni N.F. Rtishev ham tasdiqlagan. *(M. Annanepesow. Magtymguly we onuň zamanasy.Ashx. 1990-yil.)*

Bu to'qnashuvlarda turkmanlar ingliz, fransuz qurollari bilan urishmagani aniq. Ammo ingliz va fransuz askarlariga qarshi urishgani ehtimoldan xoli emas.

ASLIDA QUROL EMAS, YURAK JANG QILADI

Dengiz ortiga muzokara uchun ketganlardan ham to hanuz xabar yo'q edi. Va'dani quyuq qilgan rus generallaridan ham yordam kelmadi. Hojining vafoti qo'zg'olonchilarning ham ruhini tushirib yubordi. Ko'p o'tmay muzokaraga ketganlar ham tarvuzi qo'ltig'idan tushib qaytib kelishdi. Chunki rus generallari ularning iltimosini qondirish o'rniga, "Endi Eron bilan kurashni bas qilinglar, sizlar rasman Eronga bo'ysunasizlar" qabilidagi ko'rsatma bilan qaytib kelishgandi.

1813-yilning oktabr oyida imzolangan Guliston shartnomasi eron-rus urushiga nuqta qo'ydi. Muzokaralarda Eron vakili sifatida ishtirok etgan Mirzo Abdulhasan xon ruslardan turkmanlarga har qanday vaziyatda ham yordam bermaslik va'dasini oldi. Aslida Guliston shartnomasining asosiy shartlaridan biri ham shu edi. Bu xoinona va makkorona bitim turkman xalqi uchun juda fojiali ahamiyat kasb etardi. Shu tariqa rus davlati bilan aloqalar uzoq muddatga kesildi. Xalqning Rus hukumatiga bo'lgan ishonchi yo'qoldi. Qolaversa, 1732-yilda ham xuddi shunday hodisa yuz bergan, o'sha paytdagi Eron-rus shartnomasiga ko'ra turkmanlarning qadimiy Gurgon viloyati Eronga qo'shib berilgandi. Bu o'zgarishlar Maxtumqulining ahvoli ruhiyasiga ta'sir qilmasligi mumkin emasdi.

Ruslarning eronliklar bilan bitim tuzishi haqidagi xabar qo'zg'olonchilarni tamomila esankiratib qo'ydi. Yana oraga shayton oraladi. Kecha Eronga qarshi yelkama-yelka turib jang qilgan turkmanlar orasida nizo chiqdi. Bugun bu jangchilar bir-biriga

qarshi qilich sug‘urdi. Qahr-g‘azab ularni insoniylik tuyg‘usidan chiqardi. Hatto ular bir-birining begunoh oilasiga, yosh bolalariga ham qilich ko‘tarishgacha borib yetdi.

Aslida bunday voqealar turkman tarixida birinchi marta bo‘layotgani yo‘q. Biroq Eronga qarshi qo‘zg‘olon payti turli qabilalarning bir yoqadan bosh chiqarganini ko‘rgan Maxtumquli o‘zini naqadar baxtiyor his qilgandi. Ko‘p o‘tmay, yana bunday birodarkushlikning boshlanishi uni dahshatga soldi. Axir bundan ortiq yana qanday sharmandalik bo‘lishi mumkin?

U ichki qirg‘inbarot to‘qnashuvlar bo‘layotgan Abasar chashmasiga arang yetib oldi. Atrofda guldek yigitlarning kallalari dumalab yotganini ko‘rib, shoirning qalbi parokanda bo‘ldi.

— To‘xtang! Nimalar qilyapsiz? Esingizni yeganmisiz? To‘xtang!!!

Maxtumquliga hech kim quloq osmadi. Uning xitobi bilan hech kim qilichini qiniga solmadi. “Qariya, boshingdan ajrashni istamasang, bu yerdan yo‘qol!”, deya baqirdi jangchilardan biri. Uning hayqirig‘i qilich va qalqon sadolariga qorishib ketdi.

“Yo‘qol! Yo‘qol!”.

Qoni qizigan turkmanni hech bir kuch to‘xtata olmasligini Maxtumquli unutdi. Qondoshlarini to‘xtatish uchun qilgan barcha harakatlari havoga uchdi. U Allohga tavallo qilmoq uchun qo‘llarini ko‘kka ko‘targan chog‘ida bexosdan orqaga qalqib ketdi.

Qonli chashma bo‘yida buyuk shoir Maxtumqulining yillar davomida ne-ne musibatlarga chidab kelgan jabrdiyda yuragi urishdan to‘xtadi. To‘g‘rirog‘i, turkmanlar o‘z buyuk turkmaning yuragini yorishdi.

O‘n birinchi asrda Ibn Sino “hali dunyo faylasuflarni tushunishi uchun vaqt bor” degandi. XIX asrda ham o‘sha vaqt yetib kelmadi. Maxtumquli zamonining zulmat qa’ridan o‘z nomusini, qadr-qimmatini pokligicha olib chiqa oldi. Uning umr yo‘li bemavrid bog‘lanmadi. Yo‘qsa, o‘tgan sakson yil ichida ajal unga ozmuncha hamla qilmadimi? Dushmanlar bir necha bor uning joniga qasd qilishdi.

Shoir ancha yillar avval, hali qirqqa ham kirmagan paytlari *“Umr surib, kun ko‘rmoqqa, sakson yil fursat istaram”* degan

xohishi nihoyat amalga oshdi. Maxtumquli bu olamni bir zuryodsiz tark etdi.

Uyning to'rida yotgan marhumning bir yonida singlisi Zubayda, ikkinchi tomonida uning o'g'li, yosh shoir Zaliliy o'tiribdi. Balki o'sha damda olislarda bu fojiani qalban his etib, Mengli ham ko'z yosh to'kkandir.

Maxtumqulining jasadini ham Oqto'qayda, Mulla Davlatmammadning yoniga dafn etishdi. Butun umr hayot va o'lim haqida o'ylagan, ular haqida go'zal she'rlar bitgan shoir yer ostiga kirdi-ketdi.

Parq-u to'shakka umr bo'yi bexavotir yastanmagan vujud qora yer bag'ridan qo'nim topdi.. Maxtumqulining vafotidan so'ng, uning boy va betakror ijodi turkmanlarning milliy o'zlikni anglash jarayonida, bosqinchilarga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib kurashda juda katta o'rin tutgani haqiqat. Maxtumqulining tiriklik chog'ida yuzaga kelgan ijod maktabi uning o'limidan so'ng, o'n to'qqizinchi asr ikkinchi yarmida yanada ravnaq topdi. Shoir va uning tengdoshlari — Shaydoiy, Andalib izidan Zaliliy, Ma'rufiy, Saydiy, Mullanafas, Kamina, Muhtojiy singari shoirlar yetishib chiqdi.

Umuman, Maxtumqulining turkman hayotiga, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.

MAXTUMQULINING ENG KATTA XIZMATI SHUNDAKI, U O'ZINING TERAN MILLIY RUHDAGI ASARLARI BILAN, O'ZINING POKIZA, SOF SIYMOSI BILAN TURKMAN XALQINI TARQALIB, BO'LINIB KETISHDAN ASRAB QOLDI.

Bu havoyi gap emas, bu fikrimizni isbotlash uchun juda ko'p dalillar keltirishimiz mumkin. O'z navbatida xalq ham Maxtumqulini sevib, uni ardoqlab, dil to'rida asrab keldi. Maxtumquli turkman xalqi uchun payg'ambarimizdan (s.a.v) keyingi o'rinda turadigan aziz inson desak adashmaymiz. Uni ko'pincha hazrati Maxtumquli deb nomlashlari ham shundan.

"Maxtumquli hayotlik chog'ida ham hozirgidek obro'-e'tibor topa oldimikin?" degan savol ko'pchilikni qiziqtiradi. Hozirgidek

e'tibor qozongan bo'lishi mumkin emas. Buning birinchi sababi: Maxtumquli haddan tashqari to'g'ri so'z, pokiza inson edi. Halol va to'g'ri insonlarning esa, do'sti kam bo'ladi.

To'g'ri so'z tug'ganingga yoqmaydi, deyishgan. Maxtumquli bo'lsa, hech ikkilanmasdan, tanqidning o'tkir paykonini, eng avvalo, hukmdorlarga otdi (*Shohlarda qolmadi hukmi adolat*), xon va beklarga otdi (*Beg'ayrat xon qo'lidan, tushdi elat shu holga*), qozilarga otdi (*Payg'ambar o'rnida o'tirgan qozi, pora uchun qo'lin ocha boshladi*), eshon-mullalarga otdi (*Eshonlarni har eshikdan toparlar*), takabburlikda, o'zini yo'qotgan qo'ygan kimsalarga otdi.

Ana shunday to'g'ri so'zligi, achchiq tili Maxtumqulini har qadamda dushmanlarga duchor qildi. Uning oyog'i ostida choh qazadiganlar ko'p bo'ldi. Bu tabiiy edi. Oddiy, faqir odamlarning aksariyati esa uni o'ziga yaqin bilardi.

Maxtumquli o'z dushmanlarini tez farqlay olardi. U qayerda bo'lmasin nohaqlikka qarshi isyon etardi. Ammo asosiy kurashni esa o'ziga, nafsiga qarshi olib bordi.

BU HAYOT ASLIDA O'Z-O'ZING BILAN KURASHIB YASHAMOQ DEMAK

U yolg'izlikka juda erta o'rgandi, yolg'izlikning inson kamolotidagi o'rnini ham tez anglab yetdi.

Maxtumqulidan "Baxt nima?" deb so'rashganida, u hamisha "sog'lom tug'ilib, sog'lom o'lish" deb javob qaytarardi. Ana shu so'zlariga alohida e'tibor qarating.

E'tibor qilsangiz, ko'pchilikning buyukligini uning o'limidan keyin e'tirof etishgan. Chunki inson tirik ekan, u har qancha buyuk bo'lsa-da, atrofidagi ayrim odamlar undan o'zlarini kattaroq olishga, yutuqlarini inkor etishga tirishib kelishadi.

"Mushkul budir: so'zlashganda teng bo'lar".

BUYUKLAR HAMISHA BUYUK QARSHILIKLARGA UCHRAB KELISHGAN

Maxtumqulining hayotida murakkab vaziyatlar, yechimi yo'q-dek tuyulgan muammolar oz bo'lmadi. Uning shirin joniga qasd qilganlar ham bo'ldi. Quyidagi satrlar ham buni isbotlaydi:

Maxtumquli, ortga olgil o'zingni,
Aniq bil, o'yarlar ikki ko'zingni,
Tinglovchi yo'q, zoye qilma so'zingni,
Endi sendan xabar olar bo'lmadi.

Yoki:

Bir Haqdan o'zgasi yog'iydur, yog'iy.

* * *

Shoir dunyodan o'tganidan so'ng oradan ko'p vaqt o'tmay, 1833-yilda shimoliy Xurosonga polyak yozuvchisi va olimi A.L.Xodsko-Boreyko Maxtumqulining she'rlariga qiziqish bildirgan ilk yevropalik bo'ldi. U xalq ichida yurib, Maxtumqulining hayoti, uning tildan tilga ko'chib yurgan she'rlari bilan tanishdi. Shoirning el ichidagi shuhrati Xodskoni befarq qoldirmadi.

U Maxtumqulining uch she'rini so'zma-so'z tarjima qilib, 1842-yilda Londonda chop etilgan "Ommaviy fors she'riyatidan parchalar" nomli kitobiga kiritdi. Xodskoning buyuk polyak bastakori Shopen, mashhur yozuvchi va milliy ozodlik harakatining faol vakillaridan biri bo'lgan Adam Mskevich bilan yaqin aloqada bo'lganini nazarda tutsak, Shopen va Mskevich ham Maxtumquli ijodidan xabardor bo'lgan deya faraz qilishimiz mumkin bo'ladi.

I.Berezin, F.Bakulin singari olimlar ham o'z ilmiy ishlarida Maxtumquli ijodiga murojaat qiladi. Venger olimi Hyerman Vamberi 1863-yilda Markaziy Osiyoda bo'lib, keyinchalik Maxtumqulining 31 she'rini nashr qildiradi. U shoirning hayoti va ijodiga ilmiy jihatdan yondashganlarning birinchisidir. Vamberi o'sha paytdayoq Maxtumqulining milliy shoir ekaniga ishonch hosil qilgandi.

"Maxtumqulining kitobi turkmanlar ichida Qur'ondan keyingi ikkinchi kitob maqomiga erishadi" deya bashorat qilgandi u o'z sayohatnomasida.

Sayohatchining ushbu asari qo'lyozmasi ayni paytda Vengriyada saqlanadi. Maxtumquli devonlari xattotlar tomonidan ko'chirilishi barobarida XX asrning boshlarida turli shaharlarda toshbosma usulida ham ko'paytirila boshlaydi. 1913-yilda shoirning qarindoshlaridan biri bo'lgan Annaqurbon Oxun Maxtumquli mozori boshida shoir o'limining yuz yilligi munosabati bilan elga osh bergan.

O'sha davrlardan boshlab rus sharqshunoslari ham Maxtumquli ijodiga qiziqa boshlaydilar. Zaki Validi To'g'on, A.Samoylovich, Ye.Bertels, V.Bartold singari buyuk olimlar Maxtumqulini dunyoga tanitishda katta hissa qo'shdilar. Olimlarning ta'kidlashicha, turkman adabiyotshunosligida Maxtumquli ijodiga 1915-yildan boshlab yuz tutilgan. "Zakaspiyskaya tuzemnaya gazeta" 1915-yilning 3-aprelida turkman adabiyotshunos olimi Mulla Xojalining "Maxtumquli" maqolasini chop etadi.

1926-yilda B.Kerboboyev va B.Berdiyev Maxtumqulining salmoqli bir jildlik to'plamini chop etishadi. Shundan so'ng, "proletkult" (proletarnaya kultura)chilarning "yangi adabiyot" haqidagi soxta tushunchalari o'nglab bo'lmaydigan ziyonlarni keltirib chiqaradi. Shu davrda turkmanlarni boshqa o'lkalarga majburan ko'chirish yana kuchayadi. Shu tariqa juda ko'p ziyoli, ma'rifatli, dunyo ko'rgan odamlar ham o'z yurtidan ayro tushadi. Ular bilan birga juda ko'p qo'lyozmalar, qadimiy kitoblar ham mamlakatdan olib chiqib ketiladi. Dinga qarshi kurash boshlanishi ham turkman madaniyatiga aks ta'sir ko'rsatdi. O'tgan asrning o'ttizinchi yillarida uyidan arab yozuvidagi kitoblar chiqqan odamlarni ham ushlab qamadilar. Shu bois ko'p odamlar uyidagi eskicha kitoblarni ko'mib, suvga oqiza boshlashdi. Bu haqda A.Ashirov shunday yozgandi: "Haqiqatan, istalgan qishloqqa borib, oqsoqollar bilan suhbatlashsangiz, ular o'ttizinchi yillarda minglab kitoblar shu tariqa ko'milib, yoqilib ketganini aytishadi. Bundan o'n yilcha ilgari Kerki tomonlardan bir oqsoqol menga xat yubordi. Unda yozilishicha, oqsoqol 30-yillarda Qarriqal'a tumanida ishlagan ekan. Bir gal Jejirs qishlog'i (hozirgi Qizilarvot tumaniga qaraydi)ga borganida Maxtumquli-

ning nevara-jiyanlari masjiddan Maxtumqulining kutubxonasiga tegishli kitoblarni opchiqib, yoqmoqchi bo‘lib turishganining ustidan chiqib qolibdi. O‘shanda u odamlarni bu ishdan qaytargan. Biroq oradan uch-to‘rt kun o‘tib, o‘sha qishloqqa borib kitoblarning taqdiri bilan qiziqadi. Afsuski, uy egalari o‘sha kitoblarni yoqib yuborishgan ekan.

Qanchalar ayanchli fakt. Men o‘zim shu qishloqdan bo‘lsamda, bu ma’lumotdan bexabar ekanman. Lekin hamqishloqlarimdan Maxtumqulining bir qancha kitoblari tog‘dagi g‘orlarga tashlab kelingani haqida eshitgandim. Bu kitoblarning qolgan-qutganlari oltmishinchi yillargacha saqlanib qolganini aytishadi. 1980-yillarning boshida Qarriqal’a tumanining xalq ta’limi bo‘limi mudiri So‘fi Orazov bizga o‘ttizinchi yillarning o‘rtalarida chegaradan olib o‘tilgan ikki qop qo‘lyozma tog‘ kovaklariga bekitilgani, o‘sha odamlarning biri hozir tirik ekanini aytib qoldi”.

O‘sha madaniy talonchilik davrida Maxtumquli mayda burjuaziyaning vakili sifatida ayblangan. Qurbon Quliyev degan bir odam Maxtumqulini ayamay qoralab chiqadi. Hatto bu xususda alohida bir kitob ham yozadi.

1940-yildan keyin esa Maxtumquli shaxsiga tosh otish kamaydi. Keyinchalik uning she’rlari rus va boshqa tillarga tarjima qilina boshladi. Taniqli rus shoiri A.Tarkovskiyning, Shengelining Maxtumquli asarlaridan rus tiliga qilingan tarjimalari hozirgi paytga qadar eng yaxshi tarjimalar sirasiga kiradi.

Maxtumquli asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda Yusuf Azmun va mashhur ingliz shoiri Brayan Oldisning hissasi katta bo‘ldi. Maxtumqulini yaqindan tanigach Brayan Oldis “Inglizlarning Shekspiriga faqat birgina shoirni yonma-yon qo‘yish mumkin. Bu — Maxtumquli” degandi.

Mashhur Qabardin-bolqor shoiri Qaysin Quliyev “Biz Maxtumqulini nainki turkman she’riyati, balki dunyo she’riyatining Elbrusi deb bilamiz” degandi. Professor I.S. Braginskiy “Maxtumquli o‘z ona tilini badiiy adabiyot tili darajasiga olib chiqqan buyuk shoiridir” deya baho bergandi.

Dunyoning eng buyuk adiblaridan biri bo‘lgan Chingiz Aytmatov esa “Turkistonda o‘n sakkizinchi asr Maxtumquli she’riyati

asri bo'ldi" deb aytgan. Ukrainalik yozuvchi Pavlo Tuchina esa "Maxtumquli haqiqatga xizmat qilish uchun qat'iy bel bog'lagan vafodor shoirdir" deb bitgandi.

Olim A. Gajiyev "Sharqning deyarli biror shoiri ijodida davr obrazi Maxtumqulidagi singari yetakchi o'rin egallamagan" deb yozadi. Olim A.Orazov "Maxtumquli ijodi turkman xalqining tavsifnomasidir" deydi. Buyuk rus shoiri va tarjimoni A.Tarkovskiy "Lermontov she'rlaridagi isyonkorlik, Derjavin asarlaridagi shiddat, Tutchev she'rlaridagi teranlik, Pushkin poeziyasining keng qamrovligini boshqa tillarda ifoda etib bo'ladimi? Bu unsurlarning barchasini ma'lum darajada Maxtumquli she'rlarida uchratish mumkin" ekanini aytadi. Maxtumquli she'rlarini rus tiliga so'zma-so'z tarjima qilgan va maqolalar yozgan ulug' olim Z. Muhammedova "Maxtumquli... dunyoga kamdan kam keladigan idrok va iste'dod sohiblaridan biridir" degandi. N.Ashirov bo'lsa, "Turkman adabiyotini dunyo sahnasiga chiqargan shoir Maxtumqulidir" degandi.

Umuman, Maxtumquli she'rlarining tarjimasi haqida gap ketganda, bu asarlarni ham ko'pgina buyuk shoirlar singari tarjima qilish juda mashaqqatli ekanini ta'kidlash o'rinli. Shunday bo'lsada, uning ma'naviy merosidan jahon xalqlarini bahramand etish ishlari davom etayotir.

Maxtumqulining kanonik portretini mashhur rassom Oyxon Hojiyev 1947-yilda yaratgan. Uning keyingi ijodiy ishlarining asosiy qismi ham Maxtumquliga bag'ishlangan. Maxtumquli haqida ko'plab kinofilmlar, adabiy asarlar, sahna ishlari, haykallar, gilam-portretlar yaratilgan bo'lsa ham, xalq o'z sevimli shoirining komil siymosini tashnalik bilan kutayotir.

Dunyo madaniyati hanuz Maxtumquli shaxsiyatini, ijodini to'la anglab yetgani yo'q. Balki biz o'zimiz Maxtumqulini dunyo madaniyatiga to'la tanitib ulgurmayotgandirmiz? Haq so'zdan yasalgan gavharning (A.Otajonov) ertami-kechmi dunyo ma'naviyati shodasidan o'rin olishiga shubha yo'q.

Har davrning, har bir jamiyatning Maxtumquliga yaqinlashgan yoki undan biroz chetlashgan davri bo'ladi. **Bizning ma'naviy kamolotimiz darajasini ham xalqimizning Maxtumquliga qay darajada yaqinligi bilan o'lchamoq to'g'ri bo'lardi.**

Shu o'rinda yana bir haqiqatni ham tan olish o'rinli: **Maxtumquli asarlari eng ko'p nashr qilingan mamlakat — O'zbekistondir.**

"...Agar pushkinshunoslar bo'lmaganida edi, Pushkin bizning eng sevimli shoirimizga aylanmasdi", degan edi D.Lixachyov. Maxtumqulining o'z qo'li bilan yozgan qo'lyozmalari ham aniqlanmaganini bilamiz. Hozirda mavjud bo'lgan ko'chirma qo'lyozmalarni ilmiy jihatdan o'rganishda, nashr qilishda, bu asarlar haqida ilmiy-ommabop asarlar yozish borasida muayyan ishlar qilingan bo'lsa-da, hali oldinda juda ko'p ishlar turibdi.

Maxtumquli eng sirli shoirlardan biri. Uning falsafasini to'liq yoki o'quvchini qanoatlantira oladigan darajada ochib berish hali hech kimga nasib etmagan. Shu kunlargacha turk dunyosida yetarlicha shuhrat qozonmagan Hoji Bektoshi Valiy nomining Maxtumquli ijodida uchrashining o'zi shoirning keng dunyoqarashidan darak. Bir sirni ochish uchun boshqa sirlarni ham hal etib o'tish kerak bo'ladi. Masalan, shoirning: *"Yulduzdan yo'l yasab, oya satashdim"* degan mashhur satrini eslaylik. Aslida yulduz balandda, oy esa bizga yaqinroq yerda turadi. Shuning uchun yulduz oydan kichikroq ko'rinadi. Biznigcha, tasavvuf sirlaridan bexabar odam bu satrning tagiga yetolmaydi. Tasavvufda, xususan, Hoji Bektoshi Valiy ta'limotida ilm yulduzga o'xshatiladi. Ul zotning bir hikmatlari bor: "Aql oyga, ma'rifat kunga, ilm esa, yulduzga o'xshaydi". Shoir "ilmdan yo'l yasab, komil aqlga ega bo'ldim" demoqchi emasmikin? Yana bir she'riga e'tiboringizni qarataman:

Ikki ming uch yuz og'och ahli islomdir,
Iroq, Ozarbayjon, Misrdir, Shomdir.
Xuroson, Fors, Bazirko'hda tamomdir,
Yo'l bo'lguncha qolma-qoldir bu dunyo.

Yoki:

Maxtumquli, kel, qo'y, bu baland yo'lni,
Aytsang ham, hech kimsa ishonmas hali.

Ana shunday sirli satrlarni o‘qib, hayratda qolamiz. Savollar qurshovida qolamiz. Javoblar ham hayallamaydi. Ammo ularning hech biridan ko‘nglimiz taskin topmaydi. Ha, Maxtumquli ana shunday shoir.

* * *

Maxtumqulini o‘rganish masalasida ko‘pgina to‘siqlarga, qiyinchiliklarga duchor bo‘lsa-da, shu kungacha tanlagan yo‘lidan qaytmay, katta ishlar qilgan bir olim haqida aytib o‘tmasdan ilojim yo‘q. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent Ashirpur Meredovdir. Bu mashhur olimning 1988-yilda dastlab Safar Ahalli bilan hamkorlikda yozilgan, 512 sahifali “Turkman mumtoz adabiyoti lug‘ati” chop etildi. A. Meredov Maxtumquli asarlari izohli lug‘atini ham tayyorlashga kirishdi. Juda katta qiyinchiliklarga qaramay, bu sharafli va savobli ishni muvaffaqiyatli uddaladi. Bu uch jildli qimmatli qo‘lyozma uzoq yillar chang bosib yotdi. Oxiri uni Maxtumquli jamiyatining hisobidan Qozog‘istonda nashr ettirish borasida gaplashdik. Ammo bu ish ham samarasiz tugadi.

Keyin esa, eronlik turkman, xalqaro Maxtumquli mukofotining sohibi, muhtaram Murotdurdi Qozidan iltimos qildik. Rozi bo‘ldi. Kitob kam nusxada bosilsa-da, xarajati katta bo‘ldi. A.Meredov bu xarajatlarni qoplash uchun qadimiy bir gilami va shaxsiy kutubxonasini sotdi. Ko‘p kitoblarining pulini “keyin beraman” deya qorasini ko‘rsatmay ketganlar ham bo‘ldi. Keyinchalik hurmatli olimimizning bir ko‘zi ko‘rmay qoldi. Ikkinchi ko‘zi ham o‘tmaslashib qolgan, umumiy salomatligi ham joyida emasdi.

Sakson yoshga yaqinlashgan, yakka-yu yolg‘iz yashaydigan olim “Maxtumquli asarlarining izohli lug‘ati”ning birinchi jildini qo‘liga olgan paytda qanchalar quvonchga to‘lganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.

Birozdan so‘ng olimning o‘ttiz yil davomida Maxtumqulining barcha qo‘lyozmalarini qiyosiy o‘rganish asosida yozgan tadqiqoti ham uzoq yillardan so‘ng Eronda chop etildi. Unga qanchalar mehnat sarflanganini aytmaysizmi? Ammo Maxtumquli ijodining buyuk jonkuyari bu kitobni ko‘ra olmadi. A.Meredov 2009-yil avgustida dunyodan o‘tdi.

U 1924-yilda Eronda dunyoga kelgandi. Juda ko'p qarama-qarshi fikrlarga qaramasdan, bu buyuk olimning Maxtumquli hayoti va ijodini o'rganish borasidagi fidokorona mehnatlarini kelajak avlodlar ham qadriga yetar, degan umidim bor.

JOYING JANNATDA BO'LSIN, MAXTUMQULINING HAQIQIY DO'STI!

Maxtumqulini ilk bor o'qigan o'quvchi darhol uning sirli olamiga sho'ng'ib ketadi, go'zal she'rlarni takror va takror o'qiyveradi. Har bir satrdan yangidan yangi ma'nolar topaveradi.

Qolaversa, umrning har mavsumida Maxtumquli o'quvchiga boshqacha ta'sir etadi. Qirqdan oshib qolgan bir kitobxon: "Vo-oh, men Maxtumqulini qirqqa kirib qaytadan o'qib chiqdim, umuman, boshqacha ma'nolar topdim" deganida yonida o'tirgan bir oqsoqol "sen uni sakson yoshingda ham bir o'qib ko'r, keyin bilasan" degan ekan.

Shoir yuragi uning asarlarida urib turadi, bu asarlarning samimiyati, jozibasi, pokligi ham shunda. Shu bois, u o'quvchini tezda o'ziga rom etadi.

U tinch paytida ham, g'amli kunlarida ham, qirg'inlarda ham, o'z yurtida ham, g'urbatda ham yozishdan to'xtamadi. Yoza olmagan taqdirda miyasida pishitib yurdi. Ustozi Jaloliddin Rumiyning "Dengizga yaqin yuradigan odam suzishdan xabardor bo'lishi kerak" degan naqlini har doim yodida tutdi. **Xususan, Maxtumquli asarlaridagi chuqur falsafa, ayniqsa, Qur'oni karim oyatlari ta'siri yaqqol ko'zga tashlanib turadi.**

Maxtumqulini har gal o'qiganingizda yangi-yangi dunyolarni kashf etasiz. Xuddi yo'lda ketayotib marjon topib olgan, orqaga qaytishda yana shunday boylikka duch kelgan odamdek his qilasiz o'zingizni.

Muhtaram o'quvchim, ochig'ini aytsam, bu kitobni yozish uchun Maxtumquli asarlarini necha yil, necha qaytalab o'qiga-

nimni sanab sanog'iga yetolmayman. Ammo ming marta o'qisam ham bu xazinaning tubiga yeta olmasligimni yaxshi bilaman. Professor Ye.Bertels Maxtumquli asarlarini dunyoni aks ettirib turadigan afsonaviy Jamshid jomiga o'xshatadi. Maxtumqulining jomi o'sha sofligi, o'sha oydinligini hamon yo'qotmay kelayotir. Bir haqiqatni aslo unutmang: **Maxtumquli bo'lmasa, Turkmanning Turkmanligi kemtik bo'lib qolur edi.**

YO'L BOSHIDAGI SUHBAT

Mana, hurmatli o'quvchim, "Maxtumqulinoma"ni ham o'qib chiqdingiz. Sabringizga baraka bersin! Birgina kitobda Maxtumquli haqidagi hamma gapni aytish u yoqda tursin, ular haqida qisqacha tasavvur hosil qilish ham qiyin masala. Kitobni tamomlab, uni yana bir karra o'qib chiqqanimdan so'ng, Maxtumquli haqida bilganlarimning uchdan birini ham qog'ozga tushirolmaganimni angladim. Bu kitobda faqat Maxtumqulining hayoti bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratdim. Uning cho'ng falsafasi, ilmiy qarashlari, adabiy-badiiy mahorati, xotin-qizlarning o'sha davrdagi hayoti va Maxtumquli ijodi, ko'ngil sofligi, Maxtumquli ijodiga otasi Davlatmammad Ozodiy va buyuk ustozi Jaloliddin Rumiy ijodining ta'siri va shu kabi yuzlab masalalar haqida qalin-qalin kitoblar bitish mumkin.

Maxtumqulining jahon adabiyotida tutgan o'rni haqida hali juda ko'p ilmiy ishlar olib borish talab etiladi.

Men o'quvchilarga ana shularni eslatar ekanman, ularga bir savol bilan yuzlanmoqchiman: Maxtumqulining buyukligi nimada? Bu savolga yuz ming tusli javob berish mumkin. Shu javoblarning jamlanmasi ham katta bir kitob bo'ladi.

Dunyoda yangilik yo'q, yangicha aytish bor, xolos.

Maxtumquli yangicha aytishni ham, tushuntirishni ham uddalay oldi. U o'tli asarlarini insonni uyqudan uyg'otish, dunyoga teran va hushyor ko'z bilan qaratish maqsadida yozdi. "Dunyoni tutish uchun, quvib borarkansiz, ortingizga ham qarab qo'ying,

sizni ham quvib kelayotganlar bo'lishi mumkin" degan fikrni o'quvchiga eslatib qo'yish uchun yozdi.

Daholar hayotini anglash, anglatish qiyin. Ularning umr yo'lini qog'ozga tushirish ham oson ish emas. Maxtumqulining boy xazinasidan har kim qurbi yetgancha ulush oladi. Qolaversa, shoirning tarjimayi holini rivoyat va afsonalar ichidan saralashning ham o'zi bo'lmaydi.

Qolaversa, biografik asar yozish borasida tajribam yetishmasligi ham pand berdi. "Maxtumqulini hech kim menchalik bilmaydi" deya ishni qiyinlashtirganlar ham bo'ldi. Birinchi kulcha kulsiz bo'lmaydi, deganlar. Albatta, xatolar, chalkashliklar bo'lishi mumkin. Bu xatolarni tuzatishda Sizning ko'magingiz kerak bo'ladi. Ko'saga har kim bir qildan bersa, soqolli bo'larmish.

Albatta, birovdan ayb qidirish oson. Faqatgina, har bir satrni yozishdan avval bir qancha odamlar bilan maslahatlashilgani, qanchalar kitob titilganini e'tiborga olsangiz xursand bo'lardim.

Men Maxtumqulining va asarlarining madaniyati, umumiy saviyasini unutmagan holda qalam tebratdim. O'zim ham shunga munosib bo'lishga tirishdim. Umumiy madaniyat degan tushunchaning qamrovi keng. O'quvchining o'zi anglar, tushunib yetar, deb tashlab o'tgan fikrlarimga ham o'zingiz yetib borarsiz? Bu kitobga "tugallanmagan kitob" deb nom bersa ham bo'lar?

I.A. Novikov ma'lumotlar haddan tashqari ko'p bo'lgani uchun "Pushkin Mixaylovskiyda" asarini o'ttiz yil davomida yozib, takomillashtirib borgan.

Balki hali ko'p mualliflar o'z "Maxtumqulinoma"larini yozib, bu karvonga tirkab qo'yishar?

Aslida bu men yozadigan kitob emasdi. Turkman tarixini yaxshi tushunib, anglab yetgan odamlar ham Maxtumqulining umr qissasini yozishga oshiqmadilar. Shu tariqa, kitoblardagi so'zboshilar, turli maqolalar, dissertatsiyalardagi Maxtumqulining hayot yo'li haqidagi qisqa ma'lumotlarni hisobga olmasa, tarixiy haqiqat, she'rlardagi mantiq orqali o'rganilgan, taqqoslanib yozilgan keng va asosli tarjimayi hol yo'qligi shu asarni bitishga majbur etdi.

Butun umrini Maxtumquliga bag'ishlagan olim yoki yozuvchining ham yo'qligi achchiq haqiqat. Har qalay bu asar bilan

Maxtumqulining kelajakdagi o‘quvchilariga yordam bera olishimga ishonchim komil.

Har bir daho singari Maxtumquli ham bu olamga sig‘may yashadi. Zulmatga, fikriy qoloqlik, axloqiy tubanlikka qarshi kurashdi. Nafrat, g‘azab, nafs singari dunyoni yemiruvchi kuchga qarshi KOMIL INSON yaratishga harakat qildi.

KELAJAKDAGI O‘QUVCHI BILAN MAXTUMQULI HAQIDA SUHBATLASHMOQ ORZUSI HAM BU KITOBNI YOZISHGA UNDADI

Shoirning o‘z hayotiga oid she’rlarini sinchiklab o‘rgandim. O‘sha davr ruhiyati bilan yaqindan tanishdim. Shoirni farishta emas, har birimiz singari oddiy odam sifatida gavdalantirishga harakat qildim. Sababi shoirning o‘zi ham “odamzod yaxshidir g‘ilmon, paridan” degandi. Maxtumqulini dunyo bilan ishi yo‘q, taqvoga berilib, uydan chiqmasdan o‘tirgan zohid qilib ko‘rsat, deganlar ham bo‘ldi. *“Ul yigitlar go‘rda yaxshi, boshi g‘avg‘oli bo‘lmasa!”*.

Maxtumqulini har kim o‘zicha tushunadi. Har kimning ko‘nglida o‘z Maxtumqulisi bor. Men o‘z Maxtumqulimni yozdim. Bosh haqiqat o‘rnida uning she’rlaridan foydalandim. Yo‘qsa, turli ma’lumotlarga tayanib, bundan-da qalinroq umr kitobini yozishim mumkin edi. Agar biror satrini noto‘g‘ri anglagan yo anglatgan bo‘lsam, xatoyimni asoslab, tuzatishga urinsangiz, minnatdor bo‘lardim.

Bu kitobni Maxtumqulini tushuntirmoq uchun emas, uni o‘zim tushunishim uchun yozdim. Maxtumquli haqida to‘g‘ri savol qo‘ya olgan bo‘lsam ham xursand bo‘lardim.

Ma’lumotlarni qaysi manbadan, qaysi olim yoki yozuvchining asarlaridan olinganini alohida ko‘rsatib o‘tirmaganimni ham aybga buyurmang. Shundoq ham “Maxtumqulinoma” ko‘plab ziyolilarimiz, olimlarimiz asarlari asosida yozilgan. Mening qilgan ishim bu boradagi fikrlarni bir shodaga tizishdan iborat bo‘ldi, xolos.

Maxtumqulining turlicha sharhlangan va umuman, sharhlab bo‘lmaydigan satrlari ko‘p. Ko‘p narsalarni bilsa-da, aytgisi kelsa-da, ochiq aytmay, satrlari orasiga berkitib ketgani ham ayon. Ana shunday sirlari bilan ham u o‘quvchini o‘ziga jalb etadi.

“So‘zim anglamaslar” deya kuyunma,
Jahon kengdir, sendan bilimdonlar bor.

Yoki:

Maxtumquli sirim cho'xdur,
Ochadigan odam yo'qdur.

Yoki:

Maxtumquli, pinhon sirim bor ichda.

Yoki:

Maxtumquli, kel qo'y, bu baland yo'lni,
Aytsang ham, hech kimsa ishonmas hali.

Maxtumquli she'rlarining sirini ochish balki Sizga nasib etar, aziz o'quvchim?

Bu kitobni sabr-toqat bilan o'qib chiqqaningiz uchun minnatdorman.

Xayr, salomat bo'ling!

1983–1991-yillar

MUNDARIJA

Berdi Kerboboyev 4
Qarshi quda. (*Masharip Safarov, Muzaffar Ahmad tarjimasi)*..... 5

Qayum Tangriquliyev 57
Yortiquloq. (*Mixli Safarov tarjimasi)*..... 58

Oraz Yag'mur 74
Maxtumqulinoma.
Muzaffar Ahmad, Rustam Jabborov tarjimasi 75



BERDI KERBOBOYEV

QAYUM TANGRIQULIYEV

ORAZ YAG'MUR

96-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 19,0. Nashriyot-hisob tabog'i 17,92
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 162-1/22 Buyurtma raqami № 22-379

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

B 55 Berdi Kerboboyev. Qayum Tangriquliyev. Oraz Yag‘mur [Matn]: nasr / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Bahodir Karim. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 304 b.
ISBN 978-9943-8721-3-4

UO‘K 821.512.164-3
KBK 84(5Tur)

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

BERDI KERBOBOYEV
QAYUM
TANGRIQULIYEV
ORAZ YAG'MUR